

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI



**O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI
BILAN HAMKORLIGIDA XAVFSIZLIK VA BARQARORLIKNI
TA’MINLASHNING DOLZARB MASALALARI**

respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI



Toshkent – 2023

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligida xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashning dolzarb masalalari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami – T.: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023 – 234 b.

Mas‘ul muharrir: **G‘.R.Mirzayev** – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida boshlig‘i o‘rinbosari, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Mazkur to‘plamda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligida xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashning dolzarb masalalari, uning nazariy-metodologik asoslari, hamkorlikdagi harbiy va jamoat xavfsizligini ta‘minlash kabi mintaqaviy masalalarda O‘zbekistonning o‘rni tadqiq etish kabi masalalar yechimiga doir yangicha tadqiqotlar va qarashlar o‘z aksini topgan. Unga O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘nggi davrda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligini o‘rganishning ahamiyati, o‘rganishga oid yangicha yondashuvlarga doir taklif va tavsiyalar qamrab olingan maqolalar kiritilgan.

Maqolalardagi ma‘lumotlar va dalillarning asosligiga mualliflar javobgardirlar.

Tahrir hay‘ati raisi: **A.A.Tolipov** – O‘zR JXU “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida boshlig‘i, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

A‘zolar **N.S.Rasulova** – O‘zR JXU “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Y.A.Xudoyqulov – O‘zR JXU “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

A.U.Haydarov – O‘zR JXU “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi.

Taqrizchilar: **X.D.Xaknazarov** – O‘zR JXU “Maxsus fakultet” boshlig‘i, tarix fanlari doktori, dotsent.

A.A.Sattorov – O‘zR JXU “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida dotsenti, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Ilmiy to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Kengashi yig‘ilishining 2023-yil “__” maydagi №__ - raqamli bayonidagi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum hurmatli ilmiy konferensiya ishtirokchilari!

Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlarining o'zaro hamkorligi, qardoshligi va do'stlik rishtalari uzoq tarixiy ildizga egadir.

Ushbu xalqlarning madaniyati, dini, turmush-tarzi, urf-odatlari bir-biriga nihoyatda yaqin. Tarixiy va madaniy-ma'naviy hamkorlikning qadim-qadimdan meros bo'lib kelishi, Yangi O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarni ahil-inoq, do'stona ruhda, o'zaro manfaatli tarzda rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda sodir bo'layotgan dunyo siyosiy manzarasini o'zgarishi Markaziy Osiyo mintaqasining jahon hamjamiyatida o'rni va roli oshishiga olib keldi. ***Mamlakatimizning milliy manfaatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Markaziy Osiyo mintaqasi O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.***

Jahonda kechayotgan globallashuv sharoitida ko'p qutbli tartibning qaror topishi va insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida yuzaga kelgan iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi xalqaro hamda mintaqalararo ziddiyatlarning keskinlashuvini bartaraf etishda davlatlararo hamkorlikni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Universitetimiz olimlari tomonidan hamda mamlakatimizning atoqli olimlari bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan **“O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning dolzarb masalalari”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyamizda Siz aziz tadqiqotchi-olimlar bilan bir qator savollarga javob topamiz degan, umiddamiz.

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatining to'laqonli a'zosi sifatida tashqi siyosiy masalalarga, jahon hamjamiyati mamlakatlari bilan ikki va ko'p tomonlama aloqalarni olib borilishiga katta ahamiyat berib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining **“Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan barcha sohalarda o'zaro do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni mazmun va sifat jihatdan yangi bosqichga olish chiqish zaruriyat”**

ekanligi mintaqa davlatlari hamkorligini izchil mustahkamlab borishni talab etayotganligidan dalolat beradi.

Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, **“Dunyoda Yangi O‘zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi. ... Azal-azaldan o‘zaro qardosh va birodar bo‘lgan mamlakatlarni ko‘pgina mintaqaviy va global masalalar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bo‘yicha yaqin hamkorlikda harakat qilishni boshladi.**

Jahon siyosatshunosligida “Markaziy Osiyo ruhi” degan ibora paydo bo‘ldi”.

Shuni alohida qayd etish joizki, mazkur ilmiy anjumanning o‘tkazilishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi muqaddimasida belgilab qo‘yilganidek, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib siyosat yuritayotganligining amaliy ifodasidir.

Ushbu konferensiya ishida bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy-amaliy ma’ruzalar muhokama qilinishi ko‘zda tutilgan: Jumladan,

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligida xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorligini sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish, Mintaqa mamlakatlari bilan oliy darajadagi muloqot va ikki tomonlama hamkorlikning barcha formatdagi mexanizmlari asosida yig‘ilishlarni tashkil etish va ularda faol ishtirok etish, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash kabi masalalar muhokama qilinishi maqsadga muvofiq.

O‘ylaymanki, shu asosda mamlakatimiz yetakchi olimlari ishtirokida muammolarini chuqur tahlil qilish asosida ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

So‘zimni yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev so‘zlari bilan davom ettirar ekanman, “mamlakatimizning milliy manfaatlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo mintaqasi O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Biz o‘zimizning yaqin qo‘shnilarimiz Turkmaniston, Qozog‘iston, Tojikiston

va Qirg'iziston bilan ochiq, do'stona va pragmatik siyosat olib borishga sodiq qolamiz". Binobarin ushbu masalani o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari va aziz mehmonlar! Bugungi respublika konferensiya qatnashchilariga o'zlarining qimmatli vaqtlarini ayamadan ishtirok etayotganliklari uchun yana bir bor, o'zimning chuqur minnatdorligimni bildirishga ruxsat bergaysiz.

Darhaqiqat, jahon miqyosida turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar tobora keskin tus olgan bugungi tahlikali zamonda hayotning o'zi talab qilayotgan mezonlar asosida doimo ogoh va hushyor bo'lib yashash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirishda **“O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning dolzarb masalalari”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

So'zimning yakunida shuni ta'kidlamoqchimanki, biz ilmiy-tadqiqot va ta'lim-tarbiya sohasida har doim hamkorlikni rivojlantirishga va mustahkamlashga tayyormiz, bugungi tadbirning o'tkazilishi ham so'zimni isboti deb hisoblayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig'i,
polkovnik, yuridik fanlar doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist.

YALPI MAJLIS MA'RUZALARI

MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA SHHT ROLI

**Jo'rayev S.A.,
siyosiy fanlar doktori, professor
(Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti)**

O'zbekiston tashqi siyosatida xalqaro miqyosdagi ko'p tomonlama munosabatlar muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Chunki, Zamonaviy xalqaro munosabatlar va xalqaro siyosatda ko'p tomonlama aloqalardan manfaatdorlik ortib bormoqda. O'zbekistonda 2017 - 2021 yillarda amalga oshirilgan harakatlar strategiyasining beshinchi bobidagi asosiy vazifa sifatida xalqaro tashkilotlar doirasida O'zbekistonning ko'p tomonlama diplomatiyasini ustuvor vazifalarni amalga oshirish tashqi siyosatda, ayniqsa Shanxay xamkorlik tashkiloti doirasida yangi o'zgarishlarga, ijobiy natijalarga erishildi.

2017 - 2021 yillarda O'zbekiston SHHT sammitlarida jami 50 ga yaqin muhim va dolzarb tashabbusni ilgari surdi. Davlatimizning Shanxay hamkorlik tashkilotda raisligining asosiy ustuvor yo'nalishlari, mantiqan o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirilgani kuzatildi. 2021 - 2022 yillarda O'zbekiston SHHTga raisligi davomida tashabbuskorlik va ochiqlikni, do'stona va tinchlikparvar tashqi siyosatni, «Shanxay ruhi»ni, yaqqol namoyon etdi va «Samarqand ruhi» bilan to'ldirdi. Bunday ustuvorliklarni amalga oshirilishi SHHT tashkilotini istiqbolli zamonaviy modelini yaratilishiga va yangi bosqichga chiqishiga shart sharoitlar yaratdi. Davlatimiz rahbari tashabusi bilan SHHT amaliyoti uchun 14 ta yangi hujjatlar loyihalari tashkilotning salohiyatini mustahkamlab, va obro' e'tiborini, jozibadorligini oshirib bormoqda.

Bugungi kunda dunyoda tahlikaviy vaziyat toboro chuqurlashib, raqobat, xavf xatarlar, tahdidlar kuchayib borayapti va tizimli xarakter kasb etmoqda, bularning oqibatlarini oldindan aniqlash qiyinlashib bormoqda. Bunday sharoitda davlatlararo o'zaro ishonch va anglashuv

mexanizmlarining yetarli emasligi sezilmoqda. O‘z navbatida mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashning samaradorligini oshirish masalalari xalqaro siyosatning kun tartibiga aylanib bormoqda. Albatta bunda 2021 yildan keyin Shanxay Hamkorlik Tashkilotini eng yosh keng qamrovli davlatlararo mintaqaviy tashkilot sifatida xavfsizlikni ta‘minlashdagi roli, o‘rni va ahamiyati oshib bormoqda. Bular quyidagilarda ko‘rinmoqda.

Birinchi, SHHTning paydo bo‘lishi, XX asr oxirida xalqaro munosabatlar va tartibotlarning yangi tizimi shakllanishi jarayonlariga Markaziy Osiyo davlatlari yangi ishtirokchilar suveren davlatlar sifatida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishlari bilan strategik vazifalarni hal etish zarur edi. Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik bilan bog‘liq muammolarni va uning oqibatlarini yechishga qaratilgan edi. Bugungi kunda tashkilot o‘zining 31 yillik faoliyatida mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashda salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda va o‘zining yangi zamonga xos yangi bosqichiga kirib bormoqda.

Ikkinchi, SHHT mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlashdagi salmoqli hissasi birinchi galda terrorizm, ekstremizm va separatizm tahdidlariga qarshi kurash sohasida ijobiy natijalarga erishdi. Aynan, SHHT doirasida dunyoda birinchi marta “terrorizm” tushunchasini aniqlab bergan ko‘p tomonlama hujjat – SHHTning terrorizm, ekstremizm va separatizm bilan kurashish to‘g‘risidagi Konvensiyasi 2001 yil 15 iyunda ishlab chiqilgan edi. Qarorgohi Toshkentda joylashgan SHHT Mintaqaviy aksilterror tizimi bu yo‘nalishda izchil ish olib bormoqda. Jumladan, muntazam ravishda SHHT aksilterror mashqlari, terroristik, ekstremistik va separatistik maqsadlarda Internet tarmog‘idan foydalanishni aniqlash va bartaraf etish hamda narkotiklarga qarshi “O‘rgimchak to‘ri” xalqaro operatsiyasi o‘tkazilmoqda. Xavfsizlik kengashlari kotiblari, mudofaa, ichki ishlar vazirlari va a‘zo davlatlarning giyohvandlikka qarshi kurash idoralari rahbarlari yo‘nalishida xavfsizlikning keng qamrovli masalalariga aloqador ko‘p qirrali muntazam muloqot mexanizmi qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xalqaro axborot xavfsizligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Bu sohada ishchi guruh faoliyat ko‘rsatmoqda, O‘zbekiston

tomonining faol ishtirokida xalqaro axborot xavfsizligi bo'yicha hamkorlik dasturi tayyorlangan va qabul qilingan.

Uchinchidan, SHHT hududida xavfsizlikka nisbatan zamonaviy tahdid va xavf-xatarlarga birgalikda qarshi turishga qaratilgan hamkorlikdagi amaliy faoliyat yuzasidan atroflicha fikr almashish, muloqat olib borish mexanizmi yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Samarqand sammitiga tayyorgarlik davomida mintaqaviy xavfsizlik bilan bog'liq keng ko'lamli masalalar yuzasidan fikr almashildi, muayyan sohalar bo'yicha hamkorlikning joriy holati va istiqboliga oid qator jihatlar ko'rib chiqildi. Shuningdek, a'zo davlatlarning say-harakatlarini birlashtirish zarurligi to'g'risida yuqori darajadagi o'zaro kelishuvga erishildi. Xalqaro maydonda o'sib borayotgan beqarorlik va notinchlikni hisobga olgan holda, ichki ishlar va jamoat xavfsizligi vazirliklari yo'nalishi bo'yicha SHHT doirasida hamkorlikni yanada faollashtirish masalasi ham kun tartibidan o'rin oldi. Terrorizm, ekstremizm va separatizm, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi kabi jinoyatlarga qarshi kurashish sohasida hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, SHHT makonida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni saqlash ustuvor va dolzarb hisoblanishi qayd etildi. Mintaqaviy xavfsizlikka tahdid va xavf-xatarlarning o'zgarayotgani, axborot texnologiyalarining salbiy roli ortib borayotgani, xususan, soxta yangiliklar va turli buzg'unchi mafkuralarning tarqalishi, kuchayib borishi sharoitida, «uch yovuz» kuchlarga qarshi turish, davlatlarning suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish, do'stona va o'zaro qo'llab-quvvatlash borasidagi birgalikdagi say-harakatlarni yanada mustahkamlash muhimligi zamonaviy xalqaro siyosatning kun tartibi bo'lishi obyektiv zarruriyatdir.

To'rtinchidan, O'zbekiston tomonining fikricha, biron-bir mintaqada terrorchilik faoliyatining yo'q ekanligini kafolatlangan xavfsizlik belgisi sifatida qabul qilish mumkin emas, terrorizm nodavlat subyektlar tomonidan yaratiladigan doimiy tahdidir. Xalqaro terrorizm yetakchilari mintaqaviy xavfsizlikka tahdid soluvchi muammolarni keltirib chiqaradigan jangari-terrorchilardan "uyqudagi uyalar"ni shakllantirmoqda, "yolg'iz bo'rilar" – xudkushlarni tayyorlashmoqda. Shu bois Afg'onistondagi vaziyatni hal qilish bo'yicha jahon hamjamiyati

tomonidan ilgari surilgan nuqtai nazarlardan tashqari, qo‘shni davlatlarning vakolatli organlarini jalb etgan holda davlat chegaralari boshqarilishining samarali tizimini shakllantirish imkoniyatini ko‘rib chiqish taklif etilmoqda. Bu chegaralarni himoya qilish standartlari, qurol-yarog‘lar, o‘q-dorilar, giyohvandlik va boshqa qo‘poruvchilik vositalarini olib kirish va olib chiqish, noqonuniy migratsiyani bartaraf etish, belgilangan standartlarga erishishda tomonlarga ko‘mak ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi.

Beshinchidan, keyingi vaqtlarda dunyoda yuz berayotgan so‘nggi voqealar tufayli xalqaro hamjamiyatning Afg‘onistonga bo‘lgan e‘tibori biroz pasaydi. SHHTning biron-bir davlati Afg‘oniston hududidan qo‘shni davlatlar xavfsizligiga kelib chiqadigan tahdiddan manfaatdor emas. Bugungi voqelik tashkilotdagi yanada aniq harakatlarni amalga oshirishni va Afg‘onistonni mintaqaviy tashabbuslarga, shu jumladan, infratuzilma loyihalariga jalb qilishni talab qiladi. Shu bois, SHHT doirasida Afg‘onistonning urushdan keyingi rivojlanish strategiyasiga doir jipislashgan yondoshuvlarni ishlab chiqish, tabiiyki, O‘zbekistonnin tashkilotga raisligidagi asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘ldi qolmoqda. Bu borada, yaqinda Toshkentda yuqori martabali delegatsiyalar, jumladan, SHHT davlatlari ishtirokida bo‘lib o‘tgan Afg‘oniston bo‘yicha xalqaro konferensiya anjumanning minbaridan ushbu mamlakatni chuqur inqirozdan olib chiqish bo‘yicha aniq takliflar bildirilgan tarixdagi birinchi forum bo‘ldi.

Shunday qilib, so‘ngi yillarda Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi ko‘p tomonlama diplomatiyasi hamda xalqaro xavfsizlik va mintaqaviy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal etish yuzasidan tashabusslarni ilgari surdi. O‘zbekistonning xalqaro maydonda nufuzli xalqaro tashkilot doirasidagi ko‘p tomonlama diplomatiyasi hamda xalqaro xavfsizlik va mintaqaviy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal etish yuzasidan tashabusslarni ilgari surdi. Bu davr o‘zaro aloqalar mamlakatimizning tashqi siyosatida o‘zaro manfaatli hamkorlikning hamda tashabbuskor diplomatiyasining yangi bosqichini boshlab berdi.

ИСТОРИЧЕСКАЯ НАУКА В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ПРОБЛЕМЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Абдуллаев Р.М.

доктор исторических наук

(Международного института Центральной Азии)

После обретения независимости историческая наука в государствах Центральной Азии значительно преобразилась. Сформировалась новая генерация историков, представители которой за этот период подготовили, на основе современных концептуальных подходов, сотни монографических исследований, посвященных актуальным и узловым сюжетам прошлого народов региона.

В исследовательский процесс всё чаще стали включать современные методы научного анализа. За счёт вовлечения в научный оборот новых исторических документов и археологических артефактов, заметно обогатилась источниковая база исследований [1].

В странах Центральной Азии были приняты десятки законов и законодательных актов, направленных на изучение, сохранение и популяризацию богатейшего материального и нематериального историко-культурного наследия местных народов. Перед научно-исследовательскими структурами государств нашего региона сегодня ставится также задача разработки новых редакций концепции развития исторической науки [2].

После достаточно долгого перерыва, возобновились научные связи между исследователями стран Центральной Азии, что способствует необходимому обмену опытом и полезной информацией.

Осуществляется большой объём культурных и научно-исследовательских мероприятий, посвящённых развитию национального самосознания и духовных ценностей.

В странах Центральной Азии наметились очевидные признаки формирования национальной идентичности, которая в значительной

мере опирается на историческую память и историко-культурное наследие, составляющие базовое ядро этой идентичности.

Однако в нашем регионе, особенно на начальном этапе независимого развития, были заметны определенные тенденции, связанные с существенной идеализацией национальной истории. В этот период было очень важно не дать «взрасти зёрнам» социальных и межнациональных противоречий [3, 31-33 с].

Свою лепту в решение этих задач могли внести и представители исторической науки стран Центральной Азии. Перед исторической наукой стояла сложная задача – не попасть под влияние эйфории от недавно обретенной свободы; не поддаваться излишним эмоциональным порывам, оставаясь приверженцами принципам научной объективности; сохранять чувство меры и необходимый здравый смысл, в вопросах интерпретации некоторых сложных исторических событий и явлений.

Надо сказать, что не всегда центральноазиатским исследователям, в процессе своих научных изысканий и в ходе публичных выступлений, удавалось придерживаться этих положений и принципов.

В наши дни ситуация в этом смысле постепенно меняется. Однако, всё ещё, в отдельных случаях продолжает сохраняться тенденция, вызванная желанием, в угоду тем или иным национальным амбициям, мифологизировать определенные сюжеты истории (особенно древней и средневековой) народов Центральной Азии. Теории о культурно-историческом превосходстве одних народов над другими, могут, конечно, быть очень привлекательными, но, в тоже время, как показывает мировой опыт, они также могут усилить недоверие между этими народами и привести к серьезным межэтническим и межгосударственным конфликтам. Ложная интерпретация ключевых исторических событий, явлений и процессов, представляет собой очевидную угрозу региональной стабильности и национальной безопасности государств Центральной Азии [4, 5 с.].

В современных условиях, когда, помимо формирования национальной идентичности, актуализируется также проблема становления региональной идентичности идеи, направленные, по своей сути, на разобщение народов, могут носить лишь разрушительный характер, подпитывая и провоцируя конфликтный потенциал [5, 104 с.]. Все это приводит к усилению тенденции взаимного отчуждения и препятствует взаимопониманию между нашими странами и народами. Надо помнить, что плоды исторических изысканий часто используются в текущей политико-идеологической полемике, ангажируются различными политическими силами. И в этом смысле особая ответственность ложится не только на представителей политического класса, но и, разумеется, исследователей – историков, культурологов, этнологов, политологов и др.

Между тем анализ некоторых научных (или околонучных) публикаций даёт нам возможность утверждать, что определённая часть исследователей, весьма своеобразно интерпретируя те или иные события и явления прошлого, продолжает заниматься, прежде всего, конструированием различных исторических мифов.

Не предоставляя серьёзных аргументов и доказательств в пользу их «теорий», эти авторы часто пытаются исказить суть имевших место исторических процессов. К такого рода авторам примыкает и группа журналистов и публицистов, которые «работают» в жанре т.н. «фолк-истории», увеличивая, тем самым, количество непрофессиональных и псевдоисторических публикаций.

Всё ещё довольно много издаётся публикаций, для которых характерно чёрно-белое видение исторических событий. Работы, содержащие иной, альтернативный взгляд, не укладывающийся в общепринятые оценочные схемы, продолжают оставаться не частым явлением в современной историографии Центральной Азии.

Невзирая на то, что в последнее время стали заявлять о себе исследователи, которые достаточно хорошо знакомы с зарубежными работами по истории региона, всё же, основная часть историков и

гуманитариев наших стран имеют фрагментарные и неполные сведения об этих публикациях [6, 15-16 с.].

Известно, что междисциплинарность - одна из важнейших черт современной науки, в том числе исторической. В наши дни, во многих странах мира в исторических исследованиях используются методы и понятия из различных смежных дисциплин. Однако эта тенденция пока не очень характерна для исторических школ нашего региона.

Сегодня, как уже отмечалось, национальные элиты центральноазиатских стран пытаются возродить самобытное историко-культурное наследие своих народов и сфокусировать их внимание на событиях и примерах из прошлого, которые вызывают чувство гордости и восхищения за деяния своих предков.

Очевидно, что для динамичного, позитивного развития общества необходима определенная оптимистическая духовная среда. Поэтому представляется естественным, что в последнее время политическое руководство и общественность стран Центральной Азии всё чаще апеллирует к наиболее ярким и значимым страницам общей истории народов нашего региона, которые могли бы не разобщать, а объединять людей и укреплять межнациональное согласие.

В истории Центральной Азии есть много выдающихся и по-настоящему, достойных страниц, явлений и событий, которыми по праву могут гордиться не только современные народы этого региона, но и представители многих других стран и континентов.

Известно, что первые протогорода появились в Центральной Азии ещё около четырёх тысяч лет назад. Со II-го века до н. э. до XVI века по этой территории проходили важные трассы Великого шёлкового пути, происходила международная торговля и культурный обмен между цивилизациями Европы и Востока. Более 2400 лет назад здесь возникла древнейшая хорезмийская письменность. Центральная Азия была родиной мировой религии-зороастризма. Этническая и религиозная толерантность была неотъемлемой чертой народов Центральной Азии на протяжении тысячелетий. Здесь расцвели и

приходили в упадок мощные государства. Некоторые из них становились мировыми, глобальными державами для своего времени. В средние века этот регион стал одним из центров мусульманской культуры и философии. Здесь жили и создавали свои великие творения такие выдающиеся ученые и мыслители как: Мухаммад ал-Хоразми, Ахмад ал-Фаргани, Имам Исмаил ал-Бухари, Абу Иса ат-Термизи, Абу Наср ал-Фароби, Абу Райхон Беруни, Абу Али ибн Сина, Абулькасим Фирдоуси, Рудаки, Мирзо Улугбек, Абдурахман Джами, Алишер Навои, Захириддин Мухаммад Бабур, Махтумкули Фраги и многие другие, внесшие неоценимый вклад в развитие мировой науки и культуры.

Без всякой идеализации исторических заслуг этих великих людей мы можем констатировать, что их научное, философское и литературное наследие сегодня признается, изучается и популяризируется во всем мире.

Уже в новое время, на рубеже XIX-XX веков, ещё одно очень яркое и значимое явление в истории местных народов, связано с деятельностью известных просветителей, реформаторов и прогрессистов-джадидов.

Центральноазиатские просветители и прогрессисты–джадиды (Ахмад Дониш, Абай Кунанбаев, Абдулла Авлоний, Махмудходжа Бехбудий, Абдурауф Фитрат, Мунаввар Кори, Алихан Букейханов, Ахмед Байтурсынов, Обиджон Махмуд, Исхакхан Ибрат, Убайдулла Ходжаев и др.), в сложных исторических условиях, выступили с идеями социального прогресса, освоения современного типа цивилизации, иной модели поведения и, наконец –достижения национального суверенитета. Их деятельность была направлена на модернизацию традиционного общества и вывод его из состояния застоя и изоляции.

Они были также сторонниками такой системы правления, которая могла бы обеспечить им гражданские свободы и политические права, действующие в демократических государствах.

Не покушаясь на фундаментальные основы Ислама, они пытались преобразовать традиционное общество и адаптировать его к реалиям современного времени.

Сегодня, независимые государства Центральной Азии декларируют светский и демократический путь развития. В связи с этим, обращение к таким историческим прецедентам, представляется особенно актуальным.

Этот исторический опыт свидетельствует, что прогрессивно мыслящая часть интеллектуальной элиты нации способна, даже в очень непростых условиях, объединить людей различных мировоззренческих ориентаций, социальных, этнических и конфессиональных групп, во имя идей прогресса и достойной жизни.

История знает не мало таких примеров, когда те или иные народы под воздействием чуждой, агрессивной, инокультурной силы исчезали с исторической арены.

Однако этого не случилось с народами Центральной Азии, которые сумели противопоставить этому давлению мощный цивилизационный ресурс, помноженный на неистребимое желание интегрироваться в мировое сообщество в качестве современных и равноправных наций [7, 32-33 с.].

В наши дни многие также сознают, что в условиях резкого обострения геополитических противоречий, появления новых угроз, вызовов национальной, региональной и глобальной безопасности, актуализируется необходимость более тесного взаимодействия между государствами Центральной Азии, которых объективно объединяет ряд факторов: географическое расположение, общая история, культура, духовно-цивилизационная близость и многое другое. Сегодня важно ощущать себя не только частью своей страны, но и общего региона Центральной Азии [8, 46 с.].

Учитывая данный контекст, необходимо констатировать, что перед исторической наукой наших стран еще стоит целый комплекс проблем, для решения которых, как представляется, необходимо:

во-первых, преодолевать фрагментарность и тенденциозность исторического знания. Противодействовать попыткам

псевдонаучного анализа исторических процессов и событий со стороны некоторых политически ангажированных общественных деятелей, ученых, публицистов и журналистов;

во-вторых, последовательно придерживаться концептуальных положений, сутью которых является сознательный отказ от традиционного видения истории как истории только национального государства.

в-третьих, принять меры по преодолению существующей разобщённости и слабой координации в профессиональной деятельности представителей смежных профессий (историков, социологов, культурологов, политологов, экономистов и др.), занимающихся изучением различных аспектов национальной истории;

в-четвертых, активизировать зарубежные научные связи. Развивать взаимодействие по реализации совместных международных научно-исследовательских проектов (грантов), с проведением конференций, круглых столов и т.д. по вопросам национальной и региональной истории.

В частности, по таким актуальным темам как: периодизация истории Центральной Азии; этническая история и проблемы этногенеза народов региона; исторические персоналии и их роль в мировой и региональной истории; вклад ученых и мыслителей Центральной Азии в мировую науку и культуру; национальные движения и проблемы модернизации традиционного общества; распад СССР и образование независимых государств; актуальные вопросы изучения новейшей истории Центральной Азии и др.

Список использованной литературы:

1. См.: <https://moluch.ru/archive/91/19122/>; <https://www.dissertal.com/content/istoricheskii-analiz-kommunitivnykh-funksii-dukhovnoi-kultury-kyrgyzov>; <https://Lenta.ru/news/2010/09/15/president>
2. <https://daz/azia/ru/kontsepsiya-stanovleniya-istoicheskogo>
3. Абдуллаев Р. Историческая память и современное центральноазиатское общество // Материалы II Форума гуманитарных наук «Великая степь». Астана, 2017. С. 31-33.

4. Козырев Т. Независимый Казахстан: борьба за прошлое (актуальные проблемы современной казахстанской историографии). Астана, 2013. С. 5.
5. Абдуллаев Ш. Трансформация международной системы и геополитическая идентичность Узбекистана // Международные отношения. Т., 2017, №4. С.104.
6. См.: Алимова Д., Хан В. Гравитационная сила истории. Размышления об исторической науке и дискуссия вокруг проблемы. Т., 2017. С.15-16.
7. Абдуллаев Р. Историческая память и современное центральноазиатское общество // Материалы II Форума гуманитарных наук «Великая степь». Астана, 2017. С. 32-33.
См.: Толипов Ф. Большая стратегия Узбекистана в условиях геополитической и идеологической трансформации Центральной Азии. Т., 2005. С.46.

**GLOBAL TARTIBOTLAR TRANSFORMATSIYASI
SHAROITIDA TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING
MARKAZIY OSIYOGA TA’SIRI: MAVHIMLIK VA ISTIQBOL**

*Sirojov O.O.,
Siyosiy fanlar doktori, professor
Toshkent kimyo texnologiyalar instituti*

Mintaqamiz o‘zining geografik joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va moddiy resurslari bilan tashqi kuchlarni doimo o‘ziga jalb qilib keladi. Shu sababli dunyoning yetakchi kuchlari doimo bu o‘lkani zabt etishga, ta’sir ko‘rsatishga intilib kelishadi. Bugungi kunda ham bu tendensiya o‘zining dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Ayni paytda Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning manfaatlari kesishmoqda, beqarorlik va

qarama-qarshilik o‘choqlariga tutash bo‘lgan ushbu mintaqa yaqin va uzoq xorijda ro‘y berayotgan barcha salbiy jarayonlar ta‘sirini his etmoqda [1].

Ana shunday sharoitda mintaqa barqarorligiva taraqqiyoti uchun kuchlar muvozanatini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda hozirgacha mintaqa davlatlari ko‘p vektorli siyosat yuritib o‘zaro muvozanatli bo‘lgan turli institusional tashkilotlarga a‘zo sifatida siyosat yuritib keldilar. Ana shunday tashkilotlardan biri Turkiy Davlatlar Tashkiloti hisoblanadi. Bu tashkilotning shakllanish tarixi mintaqa davlatlarining mustaqillikni qo‘lga kiritgan davrning dastlabki yillariga borib taqaladi. YA‘ni 1993 yil 12 iyul kuni Olmaota shahrida Xalqaro turkiy madaniyat tashkilotini tuzish haqidagi Bitim imzolandi. 2010 yil 15 sentabrdagi tashkilotning navbatdagi Sammitida ushbu tashkilot doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi xalqaro tashkilot maqomiga erishadi. 2019 yil 15 oktabrda Ozarbayjonning Boku shahridagi navbatdagi Sammitda O‘zbekiston tashkilotga yangi a‘zo sifatida ishtirok etdi. 2021 yil 12 noyabrdagi navbatdagi Sammitda Turkiy kengash nomi Turkiy Davlatlar Tashkiloti deb o‘zgartirildi [2].

Bugungi kunda Ozarbayjon, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston bilan bir qatorda 2018 yildan Vengriya, 2021 yildan esa Turkmaniston ham tashkilot faoliyatida kuzatuvchi-a‘zo sifatida faol ishtirok etib kelmoqda.

Tashkilotning istiqboli haqida to‘xtalsak. Bu borada ekspertlar turlicha yondashadilar. Jumladan, G.Yo‘ldosheva tahlilicha “bu tarzda birlashish, Kavkaz va Markaziy Osiyoda yangi rivojlanayotgan transport hamda energetika yo‘laklari tarmog‘i bo‘ylab ishonchli xavfsizlik va hamkorlik kamarlarini ta‘minlash, Afg‘oniston hududidan (terrorizm, noqonuniy migratsiya, transmilliy jinoyatlar va boshqa) tahdidlarga qarshi turish omili, Tashkilotga a‘zo mamlakatlarning boshqa xalqaro kuchlar bosimiga qarshi turishida ko‘mak beradi. XXI asrning murakkab global sharoitida madaniy o‘ziga xos jihatlarni saqlab qolish va yanada rivojlanish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir” [3]. Tadqiqotchi to‘g‘ri ta‘kidlaganidek tashkilot mintaqa uchun avvalo Xitoy va Rossiya ta‘siridan himolanish imkoniyatini beradi shu bilan birga bunda Turkiya ta‘siri kuchli ekanligi ham aniq. Ammo buning uchun tashkilot “qadamlari dadil” bo‘lishi ham muhim.

Yuqorida biz qayd etganimizdek tashkilot u yoki bu ko‘rinishda 10 yildan ortiq vaqt mobaynida faoliyat yuritadi. Bugungacha tashkilot doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlik natijalari ikki tomonlama hamkorlik natijalaridan zalvorli bo‘lolmadi. Zero bu mezon har qanday tashkilot faoliyatining asosiy mezonini hisoblanadi. Siyosatshunos A.Umarov to‘g‘ri ta’kidlaganidek hozircha Turkiy davlatlar hamkorligi kengashi va hozirgi Turkiy Davlatlar Tashkiloti faoliyatida hali aniq natijalarni ko‘rinmayapti. O‘tgan yillar davomida mazkur tuzilma hamkorlikni chuqurlashtirish asosi bo‘lmish institusional mexanizmlarni yaratish bilan ko‘proq shug‘ullandi. Bu hamkorlikni qandaydir tarzda muvofiqlashtirish va rivojlantirish uchun ichki mexanizmlarni tartibga solish, ba’zi institusional elementlarni yaratishga ko‘proq e’tibor qaratildi[3]. Tashkilot faqatgina fikr almashish uchun yoki tomonlarning turli masalaga yondashuvlarini maslahatlashishi uchun platforma bo‘lib qolishi tashkilot istiqbolini mavhumlashtiradi. Tashkilot mintaqada kuchlar muvozanatini ta’minlaydigan darajaga chiqishi uchun endi sifat bosqichiga erishish muhim. Yana bir muammo bu takilotga Tojikistonni a’zo sifati kirishi masalasi hisoblanadi. Tojikiston tashkilotga a’zo bo‘lmas ekan u mintaqaning manfaatlarini to‘liq aks etirolmaydi yoki kuchlar muvozanatini ta’minlolmaydi. Qolaversa mintaqaga ta’sir ko‘rsatuvchi yetakchi kuch Xitoy yangi formatdagi siyosiy institut doirasidagi tashabbusi orqali Rossiya uchun ham Turkiya uchun ham o‘ziga xos “chaqiruv” bildirdi.

Keyingi yillarda Xitoy mintaqa davlatlari bilan hamkorlikni yangi bosqichga ya’ni institutsional miqyosda yondashuvga e’tibor qaratmoqda. Jumladan, 2020 yildan boshlab Xitoy va mintaqa davlatlari tashki ishlar vazirlarining uchrashuvlari tashkil etiladi. Hozirgacha bunday uchrashuv 4 marta o‘tkazildi.

Shu yili 16 may kuni Xitoy masmediya tashabbusi bilan “Xitoy+MO OAVlari” mavzusida anjuman tashkil etildi. “Biznes Kazakstan” kechayu kunduz ishlaydigan multimedia axborot-tahliliy portali va Xitoyning CCTV+ davlat media korporatsiyasi hamkorlik memorandumini imzoladi. Bunday kelishuv Pekinning Markaziy Osiyo ommaviy axborot vositalaridan Xitoyning ijobiy imidjini va “jamoaviy G‘arb”ning salbiy tomonlarini targ‘ib qilish, shuningdek, Xitoy tashqi siyosatining boshqa

ustuvor yoʻnalishlarini mintaqa auditoriyasiga targʻib qilish boʻyicha umumiy siyosatining bir qismi hisoblanadi.

Bundan koʻzlangan asosiy maqsad mintaqada hukmronlikka ega Rossiya informatsion taʼsiriga adekvat javob berish hisoblanadi. Aslida bu borada Turkiy Davlatlar Tashkiloti imkoniyatlari kattaroq. Sababi bunda til baryeri mavjud emas. Informatsion makonning poydevori boʻlgan madaniy qadriyatlar jihatdan ham tashkilot katta imkoniyatlarga ega. Ammo bu imkoniyatlarni reallikka aylantirish muhim. Aniq amaliy qadamlar tashlash zarur.

Shu yili 18-19 may kunlari ilk bor Xitoy+MO davlat rahbarlarining Sammiti tashkil etildi. Sammitda erishilgan kelishuvlar Turkiy davlatlar doirasida kelishuvlardan ancha salmoqli hisoblanadi.

2022 yil 7 dekabr kuni Karnegi jamgʻarmasi veb-saytida Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nominal tekin yordam orqali taʼsiri haqida batafsil tadqiqot eʼlon qilindi. [4]

Tadqiqotda aytilishicha, Xitoy Markaziy Osiyoda oʻz taʼsirini kengaytirib, mahalliy tuzilmalar orqali harakat qilmoqda va joylarda voqelikka moslashib, mahalliy anʼanalar, meyorlar va amaliyotlarni moslashtirib, oʻzlashtirmoqda. Turkiy Davlatlar Tashkilotida bunday moslashtirishga ehtiyoj mavjud emas. Sababi ular tabiiy moslashgan. Ana shu “tabiiy moslashganlik” tashkilot maqomini oshirishga xizmat qilishi maqsadga muvofiq. Xitoy Markaziy Osiyo siyosiy elitasi bilan keng hamkorlik qiladi. U siyosiy elitaga oʻz istiqbollari va farovonligini yaxshilashga monelik qilmagan holda (ular bilan turli yoʻllar bilan kelishish), boshqaruvning yomon usullari taʼsirini yumshatishga va ularni xalq oldida nufuzini koʻtarishga yordam bermoqda. Xitoy va Markaziy Osiyo siyosiy madaniyatlarida oʻxshashlik bor. Xitoy shaxslararo aloqalarni rivojlantirishga katta eʼtibor beradi. “Xitoy hukumati tomonidan oʻtkazilayotgan loyiha va treninglarda Markaziy Osiyodan koʻproq mansabdor shaxslar, harbiy xizmatchilar, muhandislar ishtirok etadilar. Xitoyning ushbu strategiyasi shaxslararo munosabatlarga va ularni sovgʻalar, neʼmatlar va ziyofatlar orqali rivojlantirishga katta ahamiyat beradigan Markaziy Osiyo elitalarining yondashuvlariga mos keladi. Shu maʼnoda Xitoy oʻz taʼsirini kuchaytirish uchun bu umumiyliklardan

foydalanishni o‘rgandi”, — deyiladi hisobotda. [4] Aslida bu jabhada ham tashkilot imkoniyatlari Xitoy imkoniyatlaridan ustun ammo undan foydalanish masalasida Xitoy ilg‘orroq.

Yoki O‘zbekiston hukumati tomonidan Xitoyning yana bir ijtimoiy loyihasi kambag‘allikni qisqartirish tajribasidan keng foydalanish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Bundan bir necha yil oldin Turkiyaning o‘rta maxsus ta’lim tizimi borasidagi hamkorligi (Turk litseylarning faoliyati) ancha samarali bo‘lib O‘zbekistonda iqtidorli yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan edi. Oldin yo‘l qo‘yilgan xatolardan saboq olib ana shu tajribani davom ettirish muhim. Bu Xitoyni kambag‘allikni qisqartirish tajribasidanda zalvorliroq hisoblanadi. Zero kambag‘allikni qisqartirishning eng samarali yo‘li ilm-ma’rifat hisoblanadi.

Keyingi yildagi yana bir tendensiya bu Xitoy va mintaqa o‘rtasidagi harbiy sohadagi hamkorlikning kuchayib borayotganligi hisoblanadi. Mintaqa davlatlari jumladan, Qozog‘iston uchuvchisiz qurilmalar, Tojikiston broneavtomobillar, O‘zbekiston va Turkmaniston zenit-raketa komplekslari xarid qilgan [5]. Turkiyaning Ozarbayjon-Armaniston mojarosidagi pozitsiyasi va amaliy sayi-harakatlari bu borada ham uning katta imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Albatta tashkilotning istiqboli uning tashabbuskori bo‘lgan Turkiya bilan chambarchas bog‘liq ekan navbatdagi prezident saylovida R.Erdog‘onni g‘alabasi tashkilot istiqobilini ham belgilaydi. Chunki R.Erdog‘on siyosatida ushbu tashkilot ustivorlik kasb etadi. Shundagina Turkiya yanada zalvorliroq tashabbuslar, jumladan harbiy sohada hamkorlikni kengaytirishni ilgari surishi mumkin. Qolaversa tashkilot doirasida ana shu sohaga jiddiyroq e’tibor berish zarur. Zero tartibotlar transformatsiyasi davrida harbiy kuch-qudrat mintaqaviy munosabatlarda yana ustirovlik kasb etmoqda.

Xulosa qiladigan bo‘lsak tashkilotning Xitoy va Rossiyani mintaqa bilan hamkorlikka doir “qadam”lariga adekvat “qadam”lar tashlashi muhim ahamiyat kasb etadi va uning imtiqbolini belgilaydi. Turkiy davlatlar Tashkiloti siyosiy instituti kesimida Xitoy va Markaziy Osiyo munosabatlari muvozanatini ta’minlash imkoniyati mavjud. Buning uchun

deklarativ yondashuvlardan amaliy sayi-harakatlarga o'tish, ustivorlik kasb etgan harbiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1..O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand shahrida o'tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqi. <http://www.prezident.uz/uz/lists/view/1227>.

2. Otaxonov F. Turkiy davlatlar tashkiloti kecha va bugun. Xalq so'zi 2022 yil 9 noyabr.

3. Turkiy davlatlar tashkiloti: Yangi tuzilmaning turk dunyosiga ta'siri. <https://www.uzanalytics.com/xalqaromunosabat/9834/>

4. Hisobot Garvard universitetining Devis nomidagi Rossiya va Yevroosiyo tadqiqotlari markazining Markaziy Osiyo tadqiqotlari dasturi direktori, Eurasianet.org Vasiylik kengashi a'zosi Nargis Kassenova tomonidan yozilgan.

5. <https://carnegieendowment.org/2022/12/07/how-china-s-foreign-aid-fosters-social-bonds-with-central-asian-ruling-elites-pub-88579>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN SAVDO-IQTISODIY HAMKORLIGINING BUGUNGI HOLATIGA DOIR

Mirzayev G'. R.,

*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent, kapitan
(O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti)*

O'zbekiston dunyo okeanlaridan juda uzoqda joylashgan va dengiz savdosining barcha afzalliklaridan foydalanishda cheklangan davlat

bo‘lganligi bois, atrofdagi mamlakatlarning savdo salohiyatidan maksimal darajada foydalanishni taqozo etadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston rahbariyati barqaror dinamik iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash vazifalarini hal qilishda tashqi savdo siyosatini faol jalb etishga intilmoqda. Bu yo‘nalishda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar¹ eksportini rag‘batlantirish, xomashyo tovarlari eksportidan qochish choralari faol amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda esa bu borada O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdosida sifat jihatidan tarkibiy o‘zgarishlar yuz berdi.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdosi hajmi 2016 yildan boshlab ijobiy tomonga o‘zgarishi mintaqaviy hamkorlikni faollashganidan dalolat beradi. 2021 yilga kelib 2016 yilga nisbatan 2,6 baravar oshib, 2016 yildagi 2,5 mlrd dollardan 2021 yilda 6,3 mlrd dollargacha o‘sganligi fikrimiz tasdig‘idir. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksporti 2 baravar – 1,3 mlrd dollardan 2,7 mlrd dollargacha, import esa 3,2 baravar – 1,2 mlrd dollardan 3,7 mlrd dollargacha oshdi.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdosi hajmi jahondagi boshqa mamlakatlar bilan tashqi savdosi umumiy hajmidan jadalroq o‘sgan bo‘lib, ko‘rib chiqilayotgan davrda 1,7 baravar, eksport 1,4 baravar, import esa 2 baravarga ortdi. O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining umumiy hajmida Markaziy Osiyo davlatlarining ulushi 10,2 foizdan 15,1 foizga, eksportda 10,8 foizdan 16 foizga, importda 9,6 foizdan 14,5 foizga o‘ydi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyoning har bir mamlakati bilan alohida savdo hajmi bo‘yicha 2021 yil – rekord yili bo‘ldi.

Qozog‘iston bilan 2 baravar – 3,9 mlrd dollargacha, Qirg‘iziston bilan 5,7 baravar – 952 mln dollargacha, Tojikiston bilan 3 baravar – 605 mln dollargacha, Turkmaniston bilan 4 baravar – 882 mln dollargacha yetdi².

O‘zbekiston tashqi savdosida Markaziy Osiyo mamlakatlarning roli ortib, tashqi savdo umumiy hajmida 15 foizga yetdi.

¹ Иқтисодий шарҳ, 2022 йил 6-сон. – Б. 36.

² Иқтисодий шарҳ, 2022 йил 6-сон. – Б. 35.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo tarkibidagi tovarlar bo‘yicha o‘zgarishlarga ham alohida e‘tibor qaratildi. Savdo tarkibidagi o‘zgarishlar comtrade.un.org portalida 2017-2021 yillardagi ma’lumotlar asosida tahlil qilinganda quyidagicha o‘zgarishlarning guvohi bo‘lamiz:

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksporti tarkibi sezilarli o‘zgarganligini ko‘rish mumkin. 2017 yilda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga tovar eksportining qariyb 75 foizi 3 ta tovar guruhi – oziq-ovqat (30,8%), mineral mahsulotlar (29,8%, asosan yoqilg‘i-energetika mahsulotlari) va kimyo mahsulotlariga (13,9%) to‘g‘ri kelgan bo‘lsa³, 2021 yilda esa ular eksportning yarmidan kamini – 40 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, eksportda to‘qimachilik va tikuvchilik mahsulotlari – 22 foiz hamda mashina, asbob-uskunalar, elektrotexnika mahsulotlari – 21,4 foiz bilan birinchi o‘ringa chiqdi. Tovar eksportida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi, asosan, meva va yong‘oqlar eksporti hajmining 2017 yil darajasidan qariyb 25 foizga va 2019 yilga nisbatan 2 baravardan ziyod kamayishi hisobiga 20 foizgacha qisqardi. Mineral mahsulotlar ulushi eksportda, asosan, tabiiy gaz eksportining kamayishi hisobiga 6,4 foizgacha kamaydi. 2021 yilda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksporti hajmida kimyo mahsulotlarining ulushi o‘zgarishsiz – 13,7 foiz darajasida qoldi. Ushbu guruhda o‘g‘itlar asosiy eksport tovarlari hisoblanib, ularning eksportdagi ulushi 5,9 foizni tashkil etdi va polimerlar ulushi 2018 yildagi 5,6 foizdan 2021 yilda 4,9 foizgacha bir oz pasaydi. 2017-2021 yillarda kimyo mahsulotlari eksporti 1,7 baravarga oshganini alohida qayd etish joiz. Xususan, o‘g‘itlar eksporti 1,8 baravar, polimerlar – 1,6 baravar, rezina mahsulotlari – 23 baravar⁴, farmasevtika mahsulotlari yetkazib berish – 6,2 baravar ortdi. 2021 yilda Markaziy Osiyo mamlakatlariga to‘qimachilik va kiyim-kechak mahsulotlari eksporti 4,4 baravar oshib, 490 mln dollarni tashkil etdi. O‘zbekiston eksportining o‘shishiga, asosan, kiyim-kechak eksportining 5 baravar – 2017 yildagi 50 mln dollardan 2021 yilda 250 mln dollargacha ko‘payishi hisobiga erishildi. Shuningdek, ko‘rib chiqilayotgan davrda

³ Иқтисодий шарх. 2022 йил 6-сон. – Б. 37.

⁴ Иқтисодий шарх. 2022 йил 6-сон. – Б. 37.

Markaziy Osiyo mamlakatlariga ipak mahsulotlari eksporti 111 ming dollardan 22 mln dollargacha o'rganini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Bundan tashqari, trikotaj matolar eksporti 16 baravar, maishiy to'qimachilik mahsulotlari yetkazib berish esa 9 baravar ortdi⁵.

Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'zbek poyabzallarining asosiy bozori hisoblanadi. 2017-2021 yillarda poyabzal mahsulotlari eksporti 3,5 baravar, ya'ni 10 mln dollardan 35 mln dollarga oshgan.

Tadqiq etilayotgan yillarda O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari bozoriga avtotransport mahsulotlari eksportini jadal tarzda oshirdi. Xususan, avtomobillar eksporti hajmi 8,7 baravarga ortib, 30 mln dollardan 264 mln dollarga, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga umumiy eksport hajmidagi ulushi esa 2018 yildagi 1,2 foizdan 2021 yilda 15 foizga o'sdi⁶.

Darhaqiqat, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar ayriboshlashda eksporti tahlili ko'rsatkichlari ijobiy tomonga o'zgarishlari mamlakatning mintaqaviy tashqi savdosini diversifikatsiya qilganining ijobiy natijalari sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tahlilni, Xalqaro standart savdo klassifikatsiyasi (XSSK 2008) bo'yicha tovarlarni guruhlash pozitsiyasidan eksport tarkibidagi o'zgarishlarni ko'rib chiqsak, yuqoridagi tendensiyalarni quyidagilarda ham o'z ifodasini topganligini ko'rish mumkin:

– yoqilg'i-energetika mahsulotlari ulushining 2018 yildagi 36 foizdan 2021 yildagi 3,4 foizgacha qisqarishi;

– sanoat mahsulotlari ulushining 2018 yildagi 10 foizdan 2021 yilda 24,4 foizgacha oshishi;

– mashina va uskunalarning ulushining 2018 yildagi 4,3 foizdan 2021 yildagi 21,3 foizgacha oshishi;

– tayyor mahsulot ulushining 2017 yildagi 6 foizdan 2020-2021 yillarda 16 foizgacha oshishi;

– eksportda xomashyo mahsulotlari ulushining 1-6 foiz, kimyo mahsulotlari ulushining 10-13 foiz oralig'ida o'zgarishi kuzatiladi.

⁵ Иқтисодий шарҳ, 2022 йил 6-сон. – Б. 38.

⁶ Иқтисодий шарҳ, 2022 йил 6-сон. – Б. 38.

Shunday qilib, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlariga eksportini sezilarli darajada diversifikatsiya qilib, asosan, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksporti hajmini ko‘paytirdi⁷.

2016-2021 yillarda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdosi jadvali (mln doll.)⁸

| Mamlakat | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2021 y. 2016 y.ga, %da | Ulush, foizda | |
|---------------------|---------|--------|--------|--------|--------|--------|------------------------|---------------|------|
| | | | | | | | | 2016 | 2021 |
| MO | 2472,4 | 2725,2 | 4015,8 | 5190,2 | 4944,2 | 6349,6 | 2,6 b. | | |
| Eksport | 1 310,8 | 491,8 | 919,0 | 534,5 | 200,1 | 655,4 | 2 b. | | |
| Import | 1 161,6 | 233,4 | 096,8 | 655,7 | 744,1 | 694,2 | 3,2 ga | 100 | 100 |
| Qozog‘iston | 1 898,9 | 055,7 | 919,6 | 335,0 | 005,7 | 910,5 | 2 b. | 76,8 | 61,6 |
| Eksport | 945,0 | 057,6 | 352,2 | 393,0 | 908,4 | 172,1 | 1,2 b. | 72,1 | 44,1 |
| Import | 953,9 | 998,2 | 567,4 | 942,0 | 097,3 | 738,4 | 2,9 b. | 82,1 | 74,1 |
| Qirg‘iziston | 167,4 | 253,7 | 402,9 | 820,3 | 907,2 | 952,6 | 5,7 b. | 6,8 | 15,0 |
| Eksport | 121,5 | 178,3 | 269,7 | 669,6 | 760,5 | 791,1 | 6,5 b. | 9,3 | 29,8 |
| Import | 46,0 | 75,4 | 133,1 | 150,7 | 146,7 | 161,5 | 3,5 b. | 4,0 | 4,4 |

⁷ Иқтисодий шарх. 2022 йил 6-сон. – Б. 38.

⁸ Иқтисодий шарх. 2022 йил 6-сон. – Б.36.

| | | | | | | | | | |
|---------------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|--------|------|------|
| Tojikiston | 197,0 | 237,9 | 390,5 | 480,5 | 493,1 | 604,5 | 3 b. | 8,0 | 9,5 |
| Ekspart | 164,8 | 186,1 | 237,5 | 327,6 | 405,1 | 500,9 | 3 b. | 12,6 | 18,9 |
| Import | 32,2 | 51,8 | 153,0 | 152,9 | 88,0 | 103,6 | 3,2 b. | 2,8 | 2,8 |
| Turkmaniston | 209,1 | 177,9 | 302,8 | 554,4 | 538,2 | 881,9 | 4,2 b. | 8,5 | 13,9 |
| Ekspart | 79,5 | 69,9 | 59,5 | 144,3 | 126,1 | 191,3 | 2,4 b. | 6,1 | 7,2 |
| Import | 129,5 | 108,0 | 243,3 | 410,1 | 412,1 | 690,6 | 5,3 b. | 11,2 | 18,7 |

O‘z navbatida, Markaziy Osiyo mamlakatlaridan O‘zbekistonga an’anaviy tarzda, asosan, oziq-ovqat mahsulotlari, mineral mahsulotlar (asosan yoqilg‘i-energetika), metallurgiya mahsulotlari import qilinadi.

Importdagi asosiy tarkibiy o‘zgarishlar asosan mineral mahsulotlar importining ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning ulushi 2017 yildagi 31,5 foizdan 2021 yilda 41 foizgacha oshgan. Shu bilan birga, metallurgiya mahsulotlari importining ulushi 29 foizdan 17 foizgacha kamaydi. Markaziy Osiyodan oziq-ovqat mahsulotlari importida so‘nggi yillarda iqtisodiyotda iste‘molning tarkibiy o‘zgarishlari va O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda Markaziy Osiyo mamlakatlari rolining kuchayishi bilan bog‘liq ayrim tendensiyalarni qayd etish lozim.

Xususan, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda aholini nisbatan arzon narxlarda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash dolzarb masala bo‘lib kelayotgani hech kimga sir emas. Shu bilan birga, ularning ko‘pchiligi, masalan, go‘sht, un, o‘simlik yog‘i va boshqalar zarur hajmdagi yem-xashak bazasi, ekin maydonlari yoki xomashyo yetishmasligi sababli respublikada yetarli hajmda ishlab chiqarilmaydi. Aholi iste‘moli ortib borayotgan bir sharoitda, O‘zbekiston 2017-2021 yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlaridan chorva mollari importini 2017 yildagi 40 ming dollardan 2019 yilda 94 mln dollarga, 2021 yilda 85 mln dollarga, go‘sht importini 269 ming dollardan 23 mln dollarga sezilarli darajada oshirdi. G‘alla va un importi 3,5 baravar oshib, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlaridan import qilinadigan umumiy hajmining 14-20 foizini tashkil etadi. Kungaboqar yog‘i importi 11 baravar o‘sdi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston tomonidan import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining uchdan bir qismi Markaziy Osiyo mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri keladi⁹.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonning importida oziq-ovqat mahsulotlarining ko‘pligi, nafaqat O‘zbekistonda balki, Markaziy Osiyoda o‘z navbatida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashni ham talab etadi. Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi (OOXI) ma’lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyoda oziq-ovqat xavfsizligining eng yuqori darajasi Qozog‘istonda kuzatilgan bo‘lib, bu mamlakat 33-o‘rinni (OOXI – 6,87) egalladi, undan keyin esa O‘zbekiston 87-o‘rinda (OOXI – 5,96) qayd etilgan. Qirg‘iziston 105-o‘rinni (OOXI – 5,78), Tojikiston – 119-o‘rinni (OOXI – 5,49) egalladi, Turkmaniston esa ushbu indeksga kiritilmagan¹⁰.

Markaziy Osiyoda oziq-ovqat xavfsizligi g‘allaning yetarli miqdorda yetkazib berilishiga nihoyatda bog‘liq, chunki Markaziy Osiyo davlatlari dunyoning boshqa mamlakatlariga qaraganda aholi jon boshiga bug‘doy va unni ko‘proq iste‘mol qiladi. Mintaqada aholi jon boshiga bug‘doy va un iste‘moli bir kishi uchun 178 kilogrammni tashkil etgan bo‘lsa, dunyoning boshqa mamlakatlarida bu ko‘rsatkich kishi boshiga 78 kilogrammga teng. Rossiya va Ukraina tomonidan bug‘doy savdosidagi risklar Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun xavf tug‘dirmaydi, chunki faqat Qozog‘iston Rossiyadan qariyb 1 mln tonna mahsulot import qiladi, dunyoning turli mamlakatlariga esa 6-8 mln tonna eksport qiladi. “Markaziy Osiyo uchun FAO oziq-ovqat balansi – 2019” asosida, mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligi asosiy oziq-ovqat mahsulotlari guruhlariga bo‘yicha (mahalliy ishlab chiqarish darajasiga muvofiq tarzda ularning mavjudligi va importga bog‘liqligiga ko‘ra) tahlil qilindi.

Ayrim mahsulotlar bir vaqtning o‘zida eksport va import qilinadi, shu sababli Markaziy Osiyoda importning umumiy iste‘mol hajmidagi ulushi chalg‘itishi mumkin. Shu tariqa, sof eksport asosiy oziq-ovqat tovarlari bo‘yicha tahlil qilinadi. Masalan, bug‘doy importi Markaziy Osiyoda umumiy iste‘molning 29 foizini tashkil qiladi, biroq eksporti umumiy ishlab chiqarishning 40 foiziga teng (sof bug‘doy eksporti 2978 ming

⁹ Иқтисодий шарҳ, 2022 йил 6-сон. – Б. 38.

¹⁰ Иқтисодий шарҳ, 2022 йил 12-сон. – Б.59.

tonnani tashkil etdi). Xuddi shunday, arpa (1502 ming tonna sof eksport), moyli ekinlar urug‘i (784 ming tonna), sabzavot (386 ming tonna) va mevalar (255 ming tonna) oziq-ovqat ta‘minoti bo‘yicha xavfsiz darajada ekanligi aniqlangan¹¹.

Biroq, bir qator mahsulotlar bo‘yicha Markaziy Osiyoga netto-importchi mintaqa sifatida qaraladi. Shu bois ham guruch (-54 ming tonna sof eksport), makkajo‘xori (-52 ming tonna), kungaboqar yog‘i (-483 ming tonna), go‘sht (-340 ming tonna), sut (-218 ming tonna) kabi tovarlar, shuningdek, baliq va dengiz mahsulotlari (-45,3 ming tonna) bo‘yicha oziq-ovqat xavfsizligi darajasi pastdir. Ekspertlarning baholashicha, Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga sarflagan ulushi 40-60 foizni tashkil etadi, bu esa odamlarni har qanday narxlar o‘zgarishiga o‘ta ta‘sirchan qilib qo‘yadi. O‘zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari savdosida 2021 yilda oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy tovar aylanmasi umumiy savdo hajmining 11 foizini tashkil etdi. O‘zbekistonni oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari aylanmasining eng katta ulushi Qozog‘iston (28 foiz), undan keyin Rossiya (24 foiz) hissasiga to‘g‘ri keldi, Qirg‘iziston (3 foiz), Tojikiston (2 foiz) va Turkmaniston (0,4 foiz) esa arzimas ulushga ega bo‘ldi. 2021 yilda O‘zbekistonga 1070 mln dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish bo‘yicha Qozog‘iston birinchi o‘rinni egalladi (oziq-ovqat importining 35 foizi), Rossiya esa 752 mln dollarlik mahsulot hajmi (25 foiz) bilan ikkinchi o‘rinda qayd etildi. Xususan, Qozog‘iston va Rossiyadan bug‘doy, un, arpa, makkajo‘xori, o‘simlik yog‘i, kartoshka va qoramol go‘shti kabi asosiy oziq-ovqat mahsulotlari import qilindi. 2021 yilda O‘zbekiston, asosan, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini Rossiyadan (22 foiz) eksport, Qozog‘istondan (35 foiz) esa import qilgan.

Darvoqe‘, O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratish joiz. Chunki, O‘zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari netto-importchisi hisoblanadi va so‘nggi yillarda mamlakatga yetkazib berilgan oziq-ovqat importi 2,3 baravarga, ya‘ni 1,27 mlrd dollardan (2017 yilda) 2,92 mlrd dollarga (2021 yilda) o‘sdi¹². Shuningdek, 2017 yildan

¹¹ Иқтисодий шарҳ. 2022 йил 12-сон. – Б.59.

¹² Иқтисодий шарҳ. 2022 йил 12-сон. – Б.60-61.

buyon oziq-ovqat savdosining salbiy saldosi qariyb 4 baravarga o'sib, 398 mln dollardan 1548 mln dollarga yetdi. Bu borada O'zbekiston ichki talabni qondirish va oziq-ovqat narxlarining keskin oshishiga yo'l qo'ymaslik uchun zarur hajmdagi oziq-ovqat mahsulotlarini barqaror yetkazib berish uchun sharoitlar yaratish bo'yicha Rossiya Federatsiyasi va Markaziy Osiyo davlatlari bilan sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishdan manfaatdor.

O'zbekistonda umumiy ichki talabni qondirish uchun g'alla importiga yuqori darajada bog'liqlik kuzatilmoqda. Kartoshka bo'yicha vaziyat ham xuddi shunday (mamlakatda kartoshkaga bo'lgan yillik ehtiyoj 3,4 mln tonnani tashkil etadi, shundan 20-25 foizi import hisobiga qoplanadi). O'simlik yog'iga yillik ehtiyoj 515 ming tonnani tashkil qilib, ushbu hajmning 46 foizi import qilinadi. Umuman olganda, ichki bozorni 25 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash importga bog'liq bo'lib qolmoqda¹³.

Ko'rib chiqilayotgan davrda yoqilg'i-energetika mahsulotlari importining ulushi 20 foizdan 27 foizga oshdi. O'zbekiston tomonidan yoqilg'i-energetika tovarlari importining umumiy hajmida Markaziy Osiyo mamlakatlarining ulushi 2017 yildagi 32 foizdan 2021 yilda 64 foizga oshgan.

Metallurgiyada, asosan, O'zbekistonga qora metallar import qilinadi, biroq ularning Markaziy Osiyo mamlakatlaridan umumiy import hajmidagi ulushi tadqiq etilayotgan davrda 23 foizdan 14 foizga kamayganligining guvohi bo'lamiz. O'zbekistondan asosan yarim tayyor mahsulotlar va maxsus yassi prokat, temir va qotishmagan po'latdan simlar import qilinadi. Bundan tashqari, keyingi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatidan sement importi hajmi 5,8 baravar, mis rudalari va konsentratlari esa 17,6 baravar oshdi¹⁴.

2017-2021 yillarda O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdosi sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Ko'rib chiqilayotgan davrda Toshkentning o'zaro manfaatli hamkorlikka yo'naltirilgan ochiq siyosati doirasida qo'shni mamlakatlar bilan tovar ayirboshlash hajmi

¹³ Иқтисодий шарҳ № 12 (12) 2022. – Б.61.

¹⁴Иқтисодий шарҳ. 2022 йил 6-сон. – Б. 38.

sezilarli darajada oshdi, ularning O‘zbekistondagi umumiy savdo hajmidagi ulushi ortdi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston iqtisodiyotidagi faol islohotlar davri, sanoatning rivojlanishi, keng ko‘lamli qurilishlar savdoda tarkibiy o‘zgarishlarga olib keldi. O‘zbekiston Markaziy Osiyo bozoriga yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar eksportini oshirdi va o‘z navbatida keng turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg‘i-energetika mahsulotlari, sanoat tovarlari importini ko‘paytirdi.

O‘zbekiston tashqi savdosida Markaziy Osiyo mamlakatlari rolining kuchayishi mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotlarini, mavjud tabiiy-iqlim sharoitini, resurslarini bir-birini to‘ldirishini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Kuzatilganidek, barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotining dinamik o‘shida sinergetik va multiplikativ samaraga erishish uchun mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kuchaytirish zaruriyati va birgalikda kooperatsiyalar tashkil etish uchun salmoqli salohiyat va imkoniyatlar mavjudligiga alohida e‘tibor qaratish joiz.

Mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanishida 2018 yilda tuzilgan Chegara hududlari rahbarlari kengashi va uning doirasida olib borilayotgan investitsiya, turizm va savdo sohasida hamkorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni alohida ta‘kidlash lozim. Oxirgi yillarda ikki mamlakatning **chegaradosh hududlari o‘rtasida aloqalarni mustahkamlashga** alohida e‘tibor qaratilayotganligini e‘tirof etish lozim. 2018 yilda tuzilgan Hokimlar va chegaraoldi viloyatlar ma‘muriyatlari rahbarlari kengashi faoliyati muhim o‘rin tutmoqda. Qayd etib o‘tish lozimki, ushbu format doirasida hududlar rahbarlari 3 marotaba (2018 y., 2019 y. va 2020 y.) uchrashuvlar o‘tkazishgan bo‘lib, ikkitomonlama munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishda alohida hissa qo‘shishmoqda. Shu bois, hududlar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada jadallashtirish maqsadida Toshkent va Bishkek shaharlari, Andijon va O‘sh, Namangan va Jalol-Obod, Farg‘ona va Botken viloyatlari o‘rtasida o‘zaro savdo-iqtisodiy hamda madaniy gumanitar sohalarda hamkorlik qilish bo‘yicha shartnomalar imzolangan¹⁵.

¹⁵ <http://www.isrs.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/uzbekiston-va-kirgiziston-urtasida-diplomatik-alokalarining-urnatilganligiga-28-jil-tuldi> (Мурожаат этилган сана:16.03.2021.).

2021 yilda Qirg‘iziston Prezidenti S.Japarov tashrifi davomida ushbu yo‘nalish kun tartibining eng dolzarb masalasi sifatida ko‘rib, bir qator kelishuvlar amalga oshirildi. Jumladan, Andijon va O‘sh, Namangan va Jalolobod, Farg‘ona va Botken, Norin viloyatlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha **“Yo‘l xaritalari”** imzolandi.

Hududlararo munosabatlarni rivojlantirishning dolzarb va afzalligini Andijon viloyati misolida ko‘rish mumkin. Jumladan, 2020 y. birgina Andijon viloyatining Qirg‘iziston bilan tashqi savdosi hajmi **270** mln. doll. yetdi (2019 yilga nisbatan **1,2** barobar ko‘p).

Bundan tashqari, **sanoat kooperatsiyasi sohasida** hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida **Amaliy chora-tadbirlar rejasini** imzolandi. Qayd etilishicha, ushbu **Reja 50**ta loyihani o‘z ichiga olgan bo‘lib unda O‘zbekistonda ishlab chiqiladigan yengil avtomobillarni, qishloq xo‘jaligi texnikalarni, tirkamalarni, shuningdek, maishiy texnikalarni Qirg‘iziston hududida yig‘ish hamda chegaroldi hududlarda to‘qimachilik sohasida va qurilish materiallari ishlab chiqish bo‘yicha qo‘shma korxonalar tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga chegaroldi tumanlarda meva va sabzavotlarni qayta ishlash zavodi, issiqxonalar, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash uchun qo‘shma savdo-logistika markazlari qurilishi rejalashtirilgan. Ushbu loyihalarni amalga oshirishdan maqsad – qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni Yevroosiyo ittifoqiga a‘zo davlatlarga eksport qilishdir¹⁶.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida investitsion hamkorlikni rivojlantirishga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. E‘tiborli jihati, 2021 yil 11-12 mart kunlari Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti S.Jeparov tashrifi doirasida ko‘rilgan va kelishuvga erishilgan masalalarning aksariyati ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsion hamkorlikni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida ilk bora ustav fondi 200 mln. doll. bo‘lgan O‘zbekiston – Qirg‘iziston investitsiya jamg‘armasi tashkil qilish belgilandi. Ushbu Fondni tuzilishidan asosiy maqsad – ikki mamlakat

¹⁶ https://uza.uz/uz/posts/ozbek-qirgiz-munosabatlari-yangi-bosqichga-kotarilmoqda_248478 (Мурожаат этилган сана: 16.03.2021.).

hududida ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi istiqbolli loyihalarni moliyalashtirib, yangi yo‘nalishlarda hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir¹⁷.

Shubhasiz, amalga oshirilayotgan bu kabi chora-tadbirlar, aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash, yangi ish-o‘rinlarini ochilishiga, iqtisodiyotni rivojlantirish va chegara hududlarida xavfsizlikni barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston va Turkmanistonning chegara hududlari o‘rtasida kuchli o‘zaro munosabatlar o‘rnatilgan. Turkmanistonning Lebap va Dashoguz tumanlari bilan Buxoro va Xorazm viloyatlari o‘rtasida transchegaraviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Ikki mamlakatning chegara viloyat hokimiyatlari vakolatxonalarining vakillik darajasidagi delegatsiyalarning o‘zaro tashriflari natijasida bugungi kunda ular turli sohalarda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish ustida ish olib bormoqda. Xususan, bizning agronomlar o‘zlarining turkman hamkasblari bilan birgalikda O‘zbekistonda nozik tola paxtasi ishlab chiqarish usullarini va amaliyotlarini takomillashtirish ustida ish olib borishmoqda, intensiv bog‘ yaratishdagi, meva va sabzavotlarni qayta ishlash sohasidagi tajriba va bilimlarni almashadilar¹⁸.

2021 yil fevral holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda qirg‘iz kapitali ishtirokida **187** ta korxonalar faoliyat yuritmoqda, ulardan **98** tasi qo‘shma korxonalar, **89** tasi chet el kapitali asosida ish yuritadi. Taqqoslash o‘rnida aytish mumkinki, 2016 yilda bu kabi korxonalar soni jami **49** tani tashkil etgan¹⁹.

Tadqiqotchi B.Rajabov fikricha, O‘zbekiston Qirg‘iziston iqtisodiyotida qiziqish uyg‘otishi mumkin bo‘lgan yetarli darajadagi oziq-ovqat va sanoat tarmoqlariga ega bo‘lib kelajakda farmasevtika, qishloq-xo‘jaligi transport va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bo‘yicha ikkitarafli foydali loyihalarni amalga oshirish mumkin. 2021 yilning 1 yanvar kundan boshlab O‘zbekiston tomonidan Qirg‘izistonga 73 turdagi

¹⁷ https://uza.uz/uz/posts/ozbek-qirgiz-munosabatlari-yangi-bosqichga-kotarilmoqda_248478 (Мурожаат этилган сана:16.03.2021.).

¹⁸ <http://www.isrs.uz/uz/maqolalar/ozbekiston-va-turkmaniston-asrlar-davomida-sinalgan-hamkorlik> (Мурожаат этилган сана:08.09.2020.).

¹⁹ <http://www.isrs.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/uzbekiston-va-kirgiziston-urtasida-diplomatik-alokalarining-urnatilganligiga-28-jil-tuldi> (Мурожаат этилган сана:16.03.2021.).

tovarlarga import aksiz solig'i bekor qilinishi o'zaro savdo-sotiq munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligining yangi bosqichida ham davom etgan o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorligi natijalarida ijobiy tendensiyalar kuzatiladi.

2016 yildan boshlab so'nggi yillarda O'zbekistonning mintaqa mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi va tovar ayriboshlash tarkibiy tuzilishida ham ijobiy o'zgarishlar va o'sish sur'ati kuzatilganligini alohida ta'kidlash joiz.

Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan yangi siyosiy muhit, globallashuv jarayonlari hamkorlik yo'nalishlarini kengaytirib borishni, foydalanilmagan imkoniyatlarni ishga solishni talab etadi. Zero, bu zamonaviy tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish, mintaqada qulay investitsiyaviy muhitni yaratish, xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, biznes tuzilmalarining Markaziy Osiyo davlatlariga sarmoya kiritish bo'yicha intilishlarini samarali ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Shu kabilardan kelib chiqib aytish mumkinki, mintaqa davlatlari uchun farqli va o'ziga xos yondashuvlar barobarida, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, modernizatsiyalash, yangi hamkorlik yo'nalishlarini yo'lga qo'yish kabi umumiy strategik vazifalar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.. Иқтисодий шарҳ. 2022 йил 6-сон.
2. Иқтисодий шарҳ. 2022 йил 12-сон.
3. <http://www.isrs.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/uzbekiston-va-kirgiziston-urtasida-diplomatik-alokalarining-urnatilganligiga-28-jil-tuldi> (Мурожаат этилган сана:16.03.2021.).
4. https://uza.uz/uz/posts/ozbek-qirgiz-munosabatlari-yangi-bosqichga-kotarilmoqda_248478 (Мурожаат этилган сана:16.03.2021.).
5. <http://www.isrs.uz/uz/maqolalar/uzbekiston-va-turkmaniston-asrlar-davomida-sinalgan-hamkorlik> (Мурожаат этилган сана:08.09.2020.).
6. <http://www.isrs.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/uzbekiston-va-kirgiziston-urtasida-diplomatik-alokalarining-urnatilganligiga-28-jil-tuldi> (Мурожаат этилган сана:16.03.2021.).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI O‘RTASIDA BOJXONA SOHASIDA OLDINDAN AXBOROT ALMASHINUVIDAGI AYRIM MASALALAR

*Nigmanov E.A.,
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent,
Shavkatova D.,
Bojxona instituti*

**“O‘zbekistonning tashqi siyosatida
Markaziy Osiyo – bosh ustuvor yo‘nalish”
Shavkat Mirziyoyev [1]**

Ma'lumki, Markaziy Osiyo mintaqasi O'zbekiston Respublikasi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, ushbu davlatlar aholisi qadimdan ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy sohada birdamlikda hayot kechirishgan. Mintaqa davlatlarining iqtisodiyotini rivojlantirish uchun o'zaro hamkorlik har doimgidanda dolzarb hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonning tashqi siyosatdagi yangi yondashuvi tufayli, qo'shnilar bilan iqtisodiy hamkorlikda sezilarli yutuqlarga erishildi. Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan olib borayotgan ochiq va fragmatik tashqi siyosat tufayli O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi har bir davlati bilan tashqi savdo aylanmasi o'sdi va bu ko'rsatkich 2022-yilda 7,5 mlrd. dollarni tashkil etdi.[2]


Jadval

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasi bilan tashqi savdo aylanmasi (2022-yil, mln. AQSH dollarida)[2]

| Davlatlar | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Saldo |
|--------------------|-------------------------------|----------------|---------------|--------------|
| Qozog'izton | 4 600 | 1 400 | 3 200 | -1 800 |

| | | | | |
|---------------------|----------------|----------------|----------------|-----------------|
| Qirg'iziston | 1 300 | 973,3 | 280,7 | 692,6 |
| Tojikiston | 674,4 | 519,9 | 154,5 | 365,4 |
| Turkmaniston | 926,3 | 194,8 | 731,5 | -536,7 |
| Jami | 7 500,7 | 3 088,4 | 4 366,7 | -1 278,7 |

Bundan tashqari, 2022-yil Markaziy Osiyoning har bir davlati bilan alohida savdo hajmi bo'yicha rekord yil bo'ldi. 6 yil davomida barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi ko'paydi: Qozog'iston bilan - 2 barobar, 4,6 milliard dollargacha, Qirg'iziston bilan - 5,7 barobar, 1.3 mlrd. dollargacha, Tojikiston bilan - 3 barobar, dollargacha. 674,4 million, Turkmaniston - 4 baravarga, 926,3 million dollargacha etdi [3].



1-rasm. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mln.AQSH dollarida)[3]

Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi oshirilishi davlatlar o'rtasida hamkorlikning jadal rivojlantirishni talab etadi. Mintaqa davlatlari iqtisodiyotini rivojlantirish va o'zaro hamkorlikni oshirish uchun, birinchi navbatda bojxona sohasida hamkorlikni yanada oshirishni va birlashishni talab etadi. Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro tashqi iqtisodiy faoliyatida bir qancha yengilliklar va imtiyozlar bermoqda.

Lekin, shunga qaramasdan mintaqa davlatlarining bojxona sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar juda ko'p. Avvalo, mintaqa tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) qatnashchilarining erkin savdo qilishida yuzaga kelayotgan ortiqcha sarf va xarajatlarni maksimal miqdorda kamaytirish va ularni faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarur. Buning uchun mintaqa davlatlarining bojxona organlarini integratsiyalashtirish va asosiy to'siqlarni aniqlab, uni yechimini topish zarur.

Tashqi savdo aylanmasi o'zaro yuqori bo'lgan davlatlarda chegaradagi ma'lumotlarni o'zaro almashish va unda samarali foydalanish yo'lga qo'yilgan. Mintaqa davlatlari orasida ham ma'lumotlarni oldindan almashish uchun dastlabki qadamlar qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi hozirgi kunda Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi hamda Tojikiston Respublikasi bilan bojxona sohasida oldindan axborot almashinuvini yo'lga qo'ygan. Davlatlarning bojxona xizmatlari o'rtasida ikki tomonla so'rovnomasida o'zaro axborotlar almashinuvi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, davlatlar o'rtasida Bojxona yuk deklaratsiya(ByuD)dagi ayrim ma'lumotlar almashiniladi.

Jumlada, 2017-yilning 23-fevralida O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligi o'rtasida, 2018-yilning

4-oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va Tojikiston Respublikasi Hukumat huzuridagi bojxona xizmati o'rtasida va 2019-yilning 8-may kuni O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va Qirg'iziston Respublikasi Hukumat huzuridagi bojxona xizmati o'rtasida axborot almashinuvining texnik shartlari imzolangan.

Hozirgi kunda davlatlar o'rtasida almashinilgan ma'lumotlarni bojxona organlari "AIS Monitoring" avtomatlashtirilgan orqali nazorat qilishlari mumkin va ushbu dastur ko'rinishi quyidagi rasmda aks etadi.

Автоматизированная система мониторинга обмена данных - Internet Explorer

Государственный Таможенный Комитет Республики Узбекистан
Единая Автоматизированная Информационная Система

Мониторинг Настройки Отчеты ГНК Конфискация Текстиль ГАИ реестр Давлат короналари

Форма взаимодействия: Межгос.обмен Междовл.обмен

Выбор данных: Передача Прием

Поиск: Поиск по ГТД Поиск по товарам Поиск по ПТД Поиск по таможенный склад

Фильтрация:

Страна: 643-Россия Рег.№/Справочник № ГТД: Упрощ.там.коридор: Все

Ведомство: Бюро принудительного испол. Наименование товара: Дата начало с: 01.01.2023

Страна назначения: Все Код ТНВЭД товара: 5205 Дата конец по: 05.05.2023

Страна торгующая: Все ИНН Получатель: (Отправитель): Налогоплательщика: Юр.лиц

Режим: Все ОКПО Получатель: (Отправитель):

Товар происхождения: Все Наим.Получатель: (Отправитель):

Тип документа: Все Номер документа:

Информация о приеме и передаче: Отправлено: 301 504 док-во Принято: 865 772 док-во

Найдено 2941 записей, показываю с 1 по 15. [Начало] 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10 [Следующая] [Конец]

| № | Рег № | Дата регистрации | Статус | Отправитель | Получатель | № бланка | Режим | ИНН отправителя | Наименования отправителя | ИНН получателя | Наименования получателя | ОКПО декларанта | Наименования декларанта | Вал контракта | Общая факт стоимость | Код торгующей страны | ИДН | Общая там стоимость | Курс валюты | Курс доллара | Инспектор | Дата передача | № то |
|---|-------|------------------|--------|-------------|------------|----------|-------|-----------------|--------------------------|----------------|-------------------------|-----------------|-------------------------|---------------|----------------------|----------------------|-----|---------------------|-------------|--------------|-----------|---------------|------|
|---|-------|------------------|--------|-------------|------------|----------|-------|-----------------|--------------------------|----------------|-------------------------|-----------------|-------------------------|---------------|----------------------|----------------------|-----|---------------------|-------------|--------------|-----------|---------------|------|

2-rasm. “AIS Monitoring” dasturi interfeysi

Tadbirkor sub’ekti (bir shaxs) tomonidan ikki davlatga taqdim etilgan ma’lumotlarni avtomatik solishtirish Markaziy Osiyo davlatlaridan hozirgi kunda faqat qirg‘iz-o‘zbek chegara o‘tkazish punktlarida Qirg‘iziston Respublikasi tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasida esa chet davlatlardan keladigan ma’lumotlar “AIS Monitoring” dasturiga yuklanadi, ushbu dasturdan bojxona xizmati xodimlari foydalanish huquqiga ega. Masalan, deklaratsiya rasmiyalashtiruvi jarayonida tadbirkor tomonidan O‘zbekistonga taqdim etilgan ma’lumotlar va ikki davlat o‘rtasidagi kelishuvga asosan chet davlat tegishli organlari tomonidan almashiniladigan ma’lumotlarni solishtirmoqchi bo‘lsa, o‘ziga kerakli deklaratsiyani izlab topadi va solishtirib chiqadi, bu esa o‘z navbatida xodimdan o‘rtacha 10-15 daqiqani talab etadi. Qolaversa, agar tadbirkordan eksport deklaratsiyani taqdim etish so‘ralmagan bo‘lsa, ma’lumotlarni solishtirishning deyarli imkoni yo‘q.

Markaziy Osiyo davlatlaridan O‘zbekiston Respublikasiga tovar eksport qilmoqchi bo‘lgan tadbirkor, eksportyor davlatga eksport bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etadi va tovarni importyor davlatga olib kirganda import bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etadi. Ba’zi istisnolarni hisobga olmaganda, bu ikkala bojxona yuk deklaratsiyalaridagi ko‘p ma’lumotlar tabiiyki bir xil bo‘ladi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida ma'lumot almashinish hali yetarlicha rivojlanmagan. Shuni ta'kidlash mumkinki, xalqaro tajriba sifatida

NAFTA iqtisodiy hamkorligiga a'zo davlatlardan AQSH va Meksikada ikki davlatdan bir-biriga olib o'tiladigan tovarlarda eksport va import deklaratsiyasi bitta to'ldiriladi va davlatlar erkin savdo zonasi tuzganligi sababidan ikki davlat o'rtasida import yoki eksport qilinganda bojxona to'lovlari undirilmaydi.

Markaziy Osiyo davlatlari hali erkin savdo zonasi tuzmaganligi boisidan davlatlar o'rtasida tovar olib o'tilganda bojxona to'lovlarini undirish nazarda tutiladi. Bunda faqat Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalari Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo bo'lganligi uchun, bu davlatlar o'rtasida tovarlar bojxona to'lovlarisiz harakatlanadi va ushbu davlatlarning bojxona yuk deklaratsiyalarini to'ldirilish shakli bir xil, lekin bu davlatlarda ham alohida eksport va import bojxona yuk deklaratsiyalari rasmiylashtiriladi.

2022-yilning 12-13 oktyabr kunlari AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) tomonidan Qozog'istonning Ostona shahrida "Bojxona xizmatlarini raqamlashtirish: qog'ozsiz savdo" mavzusidagi 12-yillik Markaziy Osiyo savdo forumi o'tkazildi. Unda Qirg'iziston Respublikasi bojxona xizmati vakili tomonidan berilgan ma'lumotga kora, raqamlashtirish sohasidagi ulkan yutuqlardan biri qirg'iz-o'zbek chegara o'tkazish punktlarida axborot almashinuvi yo'lga qo'yilganligi bo'lib, buning natijada undiriladigan to'lovlar hajmi qariyb 30 % ga ortgan". Bundan kelib chiqadiki, axborot almashishdan samarali foydalanish orqali bojxona to'lovlari sezilari oshishi mumkin [4].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunga kelib, ma'lumotlarni raqamlashtirish, oldindan axborot almashinish va undan samarali foydalanish davrning eng dolzarb masalasi hisoblanadi. Bu orqali bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini soddalashtirish, rasmiylashtiruv uchun ketadigan vaqt va xarajatlarni qisqartirish, qonunbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish va uning oldini olish mumkin.

Mintaqa davlatlari o'rtasida oldindan axborot almashinishni samrali tashkil etish bo'yicha quyidagi muammo va ularni yechimlarni taklif qilish mumkin:

Muammo: Mintaqa davlatlari o'rtasida oldindan axborot almashishga dastlabki qadamlar 2017-yilda boshlangan bo'lsa ham, hozirgi kunga kelib ham bundan samarali foydalanilmayapti. Chunki, importga rasmiylashtirayotgan tadbirkor tomonidan eksport BYuD taqdim etilgan holdagina eksport va import uchun taqdim etilgan ma'lumotlarni solishtirish mumkin. Qolaversa, eksport qilingan tovarlarning barchasini mamlakatga kirib kelishida to'liq nazorat qilish imkoniyatini bermaydi. Shuning uchun quyidagi **takliflar** variantlarda taklif etamiz.

Birinchidan, Hozirgi kunda "AIS monitoring" dasturida jadval ko'rinishida aks etadigan ma'lumotlarni bojxona yuk deklaratsiyasi ko'rinishida shakllantirish va "Elektron bojxona rasmiylashtiruv" dasturida import ByuDsi rasmiylashtirish jarayonida tadbirkor tomonidan taqdim etilgan import ByuDi va chet davlatdan almashinilgan ma'lumotlardan shakllangan deklaratsiyasini yonma-yon qo'yish va solishtirish imkoniyatini yaratish.

Ikkinchidan, Davlatlar o'rtasida almashiniladigan ma'lumotlarni (dastur yordamida) avtomatik solishtirish va nomuvofiqlik bo'lgan hollarda Xavfni boshqarish tizimi orqali ushbu BYuD ni qizil yoki sariq yo'lakka yo'naltirish.

Uchinchidan, Almashinilgan ma'lumotlarni deklaratsiya ko'rinishida ifodalash va undan bazani shakllantirish, import qiluvchi tadbirkor hosil bo'lgan bazadan o'ziga kerakli deklaratsiyani ikki tomon o'rtasida tuzilagan Tovar transport nakladnoy (TTN) raqami, Kontrakt va invoys raqami, tovarning TIF TN raqamini kiritgan holda ajratib olishi, uning ustiga qo'shimchalar kiritgan holda import BYuDni shakllantirish va rasmiylashtirish uchun taqdim etish.

Natija: BYuDdagi ma'lumotlar almashinib qolishi oldi olinadi, bu orqali undirilayotgan bojxona to'lovlari oshirilishi mumkin, almashinayotgan ma'lumotlardan samarali foydalangan holda jahon standartlariga yaqinlashish, rasmiylashtiruv jarayonini samarali tashkil etish, eksport BYuD taqdim etishni talab qilishdan voz kechish, qo'shni

davlatlardan jo‘natilayotgan eskport yuklar to‘liq va to‘g‘ri yetib kelayotganligini nazorat qilish imkonini beradi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan nafaqat bojxona sohasida, balki har qanday sohada oldindan samarali axborot almashinuvi bugungi kundagi eng dolzarb masaladir. Shuning uchun uni samarali tashkil etishga erishish mintaqadagi barcha davlatlarning iqtisodiyotiga o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1..O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomasi

https://www.norma.uz/oz/muhim_voqealar/uzbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirziyevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi(2017-yil 25-dekabr).

2. 2022-yilda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi \$7,5 mlrd.ga yetdi

<https://uzreport.news/economy/o-zbekistonning-markaziy-osiyo-davlatlari-bilan-2022-yil-yanvar-dekabr-oylarida-savdo-alog>

3. Центральная Азия в производственно-сбытовых цепочках
<https://review.uz/post/centralnaya-aziya-v-proizvodstvenno-sbtovx-cepochkax>

4. Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari / www.customs.uz

**MARKAZIY OSIYO MINTAQAVIY ENERGETIKA
MANBALARINING MUHIM TARMOQLARI VA UNIMLI
FOYDALANISH SAMARALARI**

Sattorov A.A.,

siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

(O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti)

Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun eng qiyin muammolardan biri chuchuk suv tanqisligi va u bilan bog‘liq transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalalaridir. Markaziy Osiyodagi mavjud voqealıklar bevosita olib borilayotgan iqtisodiy siyosat, suv resurslaridan foydalanishda mintaqa davlatlarining o‘zaro hamkorligining yanada mustahkamlanishi, shuningdek, iqlim o‘zgarishi, aholi sonining ko‘payishi va suv iste‘moli bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, buning natijasida aholining suv iste‘moli ko‘payib bormoqda.

Markaziy Osiyo gidrografik tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyati uning suv havzalarining nafaqat mintaqada, balki mintaqaning har bir vakolati doirasida o‘ta notekis taqsimlanishi bo‘lib, bu mamlakatlarga o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash uchun suv resurslaridan to‘liq foydalanish imkonini bermaydi. Mintaqadagi asosiy suv manbalari ikki davlat - Qirg‘iziston va Tojikiston hududida joylashgani bu davlatlarning O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston bilan munosabatlarida qiyinchiliklar tug‘dirishi e‘tirof etib kelingan. Vaziyat suvdan foydalanishga turlicha yondashuvlar bilan ham murakkablashadi[1.123].

Mintaqada suv omborlari yagona davlat doirasida qurilgan va chegaralari sof ma‘muriy bo‘lgan barcha qo‘shni respublikalarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan edi. Rog‘un GESi, Vaxshdagi SHo‘rob GESi, Pyanjdagi Dashtijum GESi ham huddi shunday. Ularning qurilishi 1980-yillarning oxirida mavjud yagona davlat doirasida hujjatlashtirilgan. Suvdan foydalanish muammosining hal etilmaganidan iqtisodiy zararni mintaqaning barcha mamlakatlari o‘z zimmalariga oladilar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi ma‘lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyoda suv resurslaridan foydalanishning hal etilmagan muammolari suv resurslarini samarali boshqarish natijasida har yili 1,7 milliard dollar miqdoridagi yuqotishlarga olib keladi[2].

O‘zbekiston energetika sohasida e‘lon qilingan loyihalar bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida 21,8 mlrd dollarlik investitsiya loyihalari hajmi bilan yetakchi bo‘ldi, deyiladi EOTB hisobotida. Shu

bilan birga, bu mablag'ning yarmi atom elektr stansiyasini qurish bo'yicha avvalroq e'lon qilingan loyihaga to'g'ri keladi.

So'nggi o'ttiz yilda mintaqada sanoat har yili o'rtacha 6,7%ga o'sdi, aholi soni esa 33,3 foizga (54,3 mln.dan 72,4 mln.ga) ko'paydi, bu esa hududda energiya va suvga bo'lgan talab ortishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi[3].

O'zbekiston energetika sohasida e'lon qilingan loyihalar bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida yetakchiga aylandi. Bu haqda Yevroosiyo taraqqiyot banki (YEOTB) hisobotida [ma'lum qilingan edi](#).

YEOTB ma'lumotlariga ko'ra, investitsiya loyihalarining umumiy hajmi 21,76 mlrd dollarga baholanmoqda. Mamlakatning yetakchi mavqega ega bo'lishida qiymati 11 mlrd dollarlik atom elektr stansiyasini qurish bo'yicha e'lon qilingan loyiha alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston issiqlik energiyasini ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha ham yetakchi (6,89 mlrd dollar) bo'lib, gidroelektr stansiyalarini (2,55 mlrd dollar) rivojlantirish bo'yicha faol say-harakatlarni amalga oshirmoqda. Bundan tashqari, ko'p tomonlama taraqqiyot banklari O'zbekistonning energetika sohasiga 4,7 mlrd dollar sarmoya kiritgan, bu ham Markaziy Osiyodagi eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. YEOTB hisobotiga ko'ra, investitsiyalarning 46,3 foizi respublika suv-energetika kompleksi (SEK) hissasiga to'g'ri keladi.



O‘zbekistonda 2019–2029 yillarda atom energetikasini rivojlantirish [konsepsiyasiga](#) ko‘ra, mamlakatda atom elektr stansiyasini qurish 2022 yilga mo‘ljallangan. Stansiya O‘zbekiston davlat byudjeti va Rossiya davlat krediti hisobidan quriladi. Loyiha Jizzax viloyatida quvvati 1,2 GVt/soat bo‘lgan VVER-1200 tipidagi bosimli suv reaktorlariga ega atom elektr stansiyasini qurishni nazarda tutadi. Uni qurishda Rossiyaning “Rosatom” davlat korporatsiyasi ishtirok etadi. “O‘zatom” bosh direktori stansiyaning birinchi energiya blokini 2028 yil dekabrda, ikkinchi blokini esa 2030 yil iyun oyida ishga tushirish rejalashtirilganini [ta’kidlagandi](#).

2019 yil oktabr oyida “Rosatom” bosh direktori Aleksey Lixachev korporatsiya O‘zbekistonda atom elektr stansiyasini qurish bo‘yicha asosiy shartnomani 2019 yil oxirigacha imzolashini va 2020 yil boshida stansiya qurilish maydonchasida qurilish ishlarini boshlashni rejalashtirayotganini [ma’lum qilgandi](#). Biroq hozircha hujjat imzolangan haqida aniq ma’lumotlar mavjud emas.

Shu bilan birga, prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 19 noyabr kuni Rossiyaga bir kunlik tashrifi chog‘ida mamlakatlar o‘rtasida 18 ta hujjat, jumladan, hukumatlar o‘rtasida yadroviy va biologik xavfsizlik sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi [bitimlar imzolandi](#).

Noyabr oyi boshida Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov hozirda O‘zbekistonda atom elektr stansiyasini qurish masalasi loyihaning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi, yashil energetikaga sarmoya kiritish bo‘yicha ko‘plab takliflarni hisobga olgan holda ham, uning shaffofligi nuqtai nazaridan ham ko‘rib [chiqilayotganini aytdi](#).

“Biz nafaqat O‘zbekiston, balki mamlakatimiz bilan chegaradosh qo‘shni davlatlar jamoatchiligining ham bu masalaga munosabatini o‘rganamiz”, — dedi Tashqi ishlar vaziri[4].

Germaniyaning "OstContact" iqtisodiy jurnalining 2021 yil mart sonida Markaziy Osiyo va mintaqaviy energetika masalalari bo‘yicha yetakchi nemis mutaxassisi Birgit Vetzelnig "Markaziy Osiyoda o‘zgarishlar shabbodasi" nomli maqolasi chop etildi. Ushbu nemis tilidagi jurnal eng muhim va shiddat bilan rivojlanayotgan bozorlarda, shu jumladan, Markaziy Osiyodagi mavjud iqtisodiy tendensiyalar haqida

o'quvchilarga ma'lumot beradi. Maqolada nemis mutaxassisi SH.Mirziyoyevning mamlakat Prezidenti etib saylanganidan keyin O'zbekiston va Markaziy Osiyodagi vaziyatni tahlil qiladi. Mazkur yo'nalishda mintaqada energetika sohasidagi davlatlararo hamkorlikning uzoq muddatli istiqbollari va prognozlari ko'rib chiqilgan[5]²⁰.

Ushbu maqolada mintaqada yildan-yilga yangi tortishuvlarga sabab bo'lgan transchegaraviy daryolar suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi bo'yicha say-harakatlarni birlashtiruvchi yechimga kelingani, O'zbekiston suv muammolari bo'yicha umumiy konsensusga erishish uchun mintaqada yangi to'g'onlarni moliyalashtirishda ishtirok etish taklifini kiritishi, aholi soni 70 milliondan ortiq bo'lgan Markaziy Osiyo mamlakatlarining birlashuvi samarali umumiy bozorni vujudga keltirganini ta'kidlab o'tadi.

Umumiy bozor obyekti elektroenergetika sohasi bo'lishi mumkin. Kim va qanday vositalar bilan bu umumiy bozorni shakllantirishda yordam beradi, degan savol muqokama masalasi bo'lib qolishi mumkin. Zero mintaqada mamlakatlarning bu sohadagi talab va yondashuvlari turlicha. Lekin mintaqaning iqtisodiyotiga investitsiyalar kirishini hisobga olgan holda energiya ta'minotining barqaror va rivojlangan bo'lishi haqida yakdil fikr mavjud. Qirg'iziston va Tojikistondagi energiyaning katta qismi gidroelektrostansiyalarda ishlab chiqariladi. Bu davlatlar yer maydonining 90 foizi tog'lardan iborat. Yetib borish qiyin bo'lgan hududlarda elektr energiyasining zarur ulushini quyosh panellari yordamida ishlab chiqarish mumkin.

2019 yil fevral oyida Markaziy Osiyoda quyosh energiyasining yuqori samaradorligini ta'minlaydigan va eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanadigan yirik quyosh parki Qozog'istonning Saranda shaharchasida ish boshladi. 100 megavatt quvvatga ega bo'lgan mazkur park Saranda kabi bir necha aholi turar joylarini elektr energiyasi bilan ta'minlashga qodir. Parkning ishlash muddati 40 yilni tashkil etadi. Bundan tashqari, 90 megavatt quvvatga ega yana ikkita quyosh energiyasi stansiyalari qurilmoqda. 2030 yilga kelib Qozog'iston umumiy elektrenergiyasining 30 foizini qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan ishlab

²⁰Қараңг. <http://isrs.uz/uz/page/pdf/svezij-veter-v-centralnoj-azii>

chiqarmoqchi. Shu bilan birga O‘zbekiston va Qozog‘iston yadro energetikasidan muqobil energiya manbai sifatida foydalanish mumkin. Energetik shart-sharoitlar qanchalik ko‘p qirrali bo‘lsa, Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy va siyosiy sharoitlari ham shunchalik farqlanadi. Mintaqa davlatlarining turli imkoniyatlariga qaramay, o‘zaro manfaatli mintaqaviy hamkorlik g‘oyasi ularni birlashtirdi[6].

Mintaqa uchun zarur bo‘lgan energiya manbalarini ishlab chiqishda suv zahiralari va manbalarini yaratish ishlari jadallashib bormoqda. Ushbu harakatlar mintaqada tabiiy suv havzalarining kamayishi va hududlarning cho‘llashishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga mintaqada iqlimning keskin o‘zgarishi va issib borishi ushbu muammoning yanada kengayishiga olib kelmoqda.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, cho‘llashish dunyoda 200 mln kishi hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Cho‘llashish jarayonlarining asosiy sababi –iqlim o‘zgarishi va qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan nomutanosib foydalanish hisoblanadi.

Cho‘llashish Markaziy Osiyo uchun ham jiddiy muammo hisoblanadi. So‘nggi o‘n yilda mintaqada bahor mavsumining harorati o‘rtacha 0,6 darajaga oshgan. Natijada har yili Markaziy Osiyo muzliklarining 1,5-2 foizi erimoqda. BMT mutaxassislari 2020 yil yakuniga ko‘ra Markaziy Osiyoda yerlarning 37 foizi degradatsiyaga uchraganini ma’lum qilishgan[7]. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda bugun mamlakatimizda ekologik muammolarni hal etish davlat darajasiga ko‘tarilgan. Xususan, 2020 yil sentabrda o‘tkazilgan BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida prezidentimiz Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish to‘g‘risida maxsus rezolyusiya qabul qilish taklif qilgan. Oradan qisqa vaqt o‘tib, 2021 yil 18 mayda BMTning “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish” to‘g‘risida maxsus rezolyusiya qabul qilindi. O‘zbekiston rahbarining tashabbusi jahon hamjamiyati tomonidan keng qo‘llab-quvvatlandi. Dunyoning turli mintaqalaridagi 50 dan ortiq davlatlar mazkur rezolyusiyaga hammuallif sifatida ishtirok etgani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Orolbo‘yi Bosh

Assambleya tomonidan “Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi” singari yuqori maqom taqdim etilgan ilk mintaqa bo‘ldi.

Mintaqada energiya manbalarini barqarorligini ta’minlash maqsadida Markaziy Osiyo yagona energetika tizimi tashkil qilingan. Garchi doimiy energiya manbalari mavjudligini ta’minlashga qaratilgan bu reja ayrim muammo va kamchiliklarga ham uchrab turibdi. Markaziy Osiyo yagona energetika tizimi nima, qanday ishlaydi kabi muhim savollarga javob izlab ko‘ramiz.

- Markaziy Osiyo elektr energetika yagona tizimi nima? U nima uchun “energoxalqa” deb ataladi?

Avvalo nomini to‘g‘ri aytishdan boshlaylik... Aniqrog‘i, bizning energetika birlashmamiz “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston janubining yagona energiya tizimi” deb atalardi. Hozirda Markaziy Osiyo va Janubiy Qozog‘iston yagona energiya tizimi deb shartli ravishda atilmoqda. Umuman olganda, bunday energetika tizimi faqat bizda emas, dunyo mamlakatlaridayam ko‘pgina. Ilgari Sovet Ittifoqida bir nechta bunday tizimlar mavjud edi va ularning har birining o‘z birlashgan energetik dispetcherlik markazlari bor bo‘lgan. Sobiq Ittifoqning Markaziy dispetcherlik idorasi (MDI – SDU) Moskvada joylashgandi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘sha davrda O‘rta Osiyo va Janubiy Qozog‘iston Birlashgan yagona energiya tizimi Sovetlar davlatining boshqa hududlari yagona energetika tizimidan ajratilgan holda ishlagan. Markazi Toshkent shahrida joylashgan dispetcherlik nazoratidan elektr ta’minoti umumtizimining ko‘rsatkichlari: chastota va boshqa rejim parametrlari mustaqil tartibga solingan.

Elektr ta’minoti tizimining o‘zaro yaxlitligi (konfiguratsiyasi) 1970-yillarda, to‘rtta respublika hududidan o‘tuvchi 500 kV kuchlanishli liniyalar bitta halqaga birlashtirilganda shakllangan edi. Shu o‘rinda nima uchun degan savol tug‘iladi... Albatta, bu parallel ravishda, ya’ni o‘zaro hamkorlikda ishlash – barcha ishtirokchilarining elektr ta’minotidagi ishonchliligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Hatto mutaxassis bo‘lmaganlar ham “halqada ishlash tizimi” — ushbu halqaning biron bir bo‘g‘ini o‘chirilgan bo‘lsa ham uning barqarorligini saqlashga imkon berishini tushuniladi. Yoki aksincha, agar energiya tizimining

qismlarini bog'laydigan yirik tarmoq o'chirilgan bo'lsa, ularning parallel ishlashi buzilishi ham mumkin. Bunday vaziyatda elektr ishlab chiqaruvchi birinchi manbalar – elektr stansiyalarning barqarorligi saqlab qolinadi.

Hozirgi vaqtda ushbu “halqa”da qo'shimcha ichki halqalar paydo bo'lgan, shunga qaramay, Markaziy Osiyo va Janubiy Qozog'iston yagona energiya halqasi tushunchasi Markaziy Osiyo energetika tizimlarining o'zaro bog'liqligi va o'zaro bog'liqligining ramzi sifatida saqlanib qolingan. Demakki, matbuotda u yoki bu energiya tizimi “halqani tark etgani” haqida yozayotgan bo'lsa, bu fikr mutaxassisning fikri emas yoki u mutaxassis yetarli bilim-salohiyatga ega emas. Hozirgacha 500 kV kuchlanishli tarmoqlar halqasiga ega bo'lgan energiya tizimlarining hech biri hamkorlikdagi parallel ishlash rejimini tark etgani yo'q[7].

Turkmaniston va Tojikistonning hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo elektr energetika yagona tizimidan ajralgan holda ishlayotganini ro'kach qilgancha bu fikrga ayrim axborot manbalari e'tiroz bildirishlari mumkin. Ammo shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, Turkmaniston va Tojikistonning energiya tizimlari O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston tasarrufida bo'lgan 500 kV kuchlanishli “halqa” bilan bog'liq emas.

Turkmaniston 2003 yilda o'z tashabbusi bilan Eron energetika tizimi ko'rinishida o'zi uchun iqtisodiy hamkor topib, Markaziy Osiyo elektr energetika yagona tizimidan chiqdi va hozir u bilan parallel ravishda ishlamoqda. Turkmaniston biz bilan “orol” deb atalgan sxemalar bo'yicha ish olib boradi, ya'ni O'zbekiston bilan alohida ishlab chiqarish tarmoqlarini ulash orqali hamkorlik qildi.

Tojikiston bir vaqtlar parallel ishlash shartlarini takroran buzganligi sababli “halqa” tarmog'idan ajratilgan edi. Bu Markaziy Osiyo va Janubiy Qozog'iston tizimining boshqa ishtirokchilari qabul qilgan qo'shma qaror bo'lgandi. Hozirda Osiyo Taraqqiyot bankining moliyaviy ko'magi asosida Tojikistonni yagona energetika tizimiga qayta ulash bo'yicha qator ishlar olib borilmoqda. Tajriba ko'rsatdiki, hamkorlikda ishlash tizimidan chiqib ketish oson ekan, ammo unga ulanish ma'lum bir vaqt va xarajatlar talab etadi. Hozirda O'zbekistonda ham Tojikiston bilan energetika aloqalarini mustahkamlash uchun yirik qurilish-montaj ishlari olib

bormoqda. Xullas, Tojikistonning Markaziy Osiyo yagona tizimi bilan hamkorlikda ishlashini tiklash taxminan 2023 yilda amalga oshiriladi.

Tojikiston energetika tizimi o'tgan yillar davomida chastotani mustaqil ravishda tartibga solib kelgan, bunga gidroelektr stansiyalarida mavjud bo'lgan katta suv zaxiralari yordam berdi. Elektr energiyasining muhim ko'rsatkichlarini doimiy ravishda sozlash murakkab texnik-muhandislik ishi bo'lib, bu muammoni issiqlik stansiyalari (Qozog'iston va O'zbekistonda bo'lgani kabi) yoki kichik quvvatli gidroelektr stansiyalarining zaxiralari bilan hal qilish amalda mumkin emas. Shuning uchun ham ushbu energiya tizimlarining yagona "Markaziy Osiyo halqasi"da birgalikda ishlashi Markaziy Osiyo energetika tizimlarining ishonchli parallel ishlashini ta'minlash, nafaqat ular o'rtasidagi, balki "uzoq qo'shni" davlatlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishning dolzarb zarurati hisoblanadi.

Markaziy Osiyoning yagona energetika tizimi to'rtta davlat — O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Qozog'iston janubidagi beshta tutash viloyat hududida shakllandi. 1960 yilda O'rta Osiyo yagona energiya tizimi tashkil etilishi boshlangan bo'lib, o'shanda O'zbekiston energetika tizimi, Qirg'iziston janubi, Tojikiston shimoli va Janubiy Qozog'istonning Chimkent tutashuvi energetika tizimlari 110 va 220 kV kuchlanishli elektr uzatish liniyalari orqali parallel ishlashga ulangan.

O'rta Osiyo yagona energetika tizimi yaratilish davrida, 1961 yil 1 yanvar holatiga 4 ta energetika tizimining o'rnatilgan quvvati 1157 MVt, maksimal yuklanishi 921 MVt, yillik ishlab chiqarish 6,5 mlrd. kV soatga teng bo'lgan. Bu, o'z navbatida, mintaqada elektr energiyasi ta'minoti ishonchlilik va sifatini keskin oshirib, gidro (suv omborlari zaxirasi) va yoqilg'i (tabiiy gaz va neft mahsulotlari) resurslaridan oqilona foydalanish imkonini bergan[7].

Markaziy Osiyo YAET konfiguratsiyasi ittifoq respublikalarining milliy chegaralarini hisobga olmagan holda yagona obyekt sifatida ishlab chiqilgan va boshqa ko'plab energetika birlashmalari singari sobiq Ittifoqning Yagona energiya tizimidan ajratilgan holda ishlagan. 30% gidroelektr stansiyalar va 70% issiqlik elektr stansiyalaridan tashkil topgan

ushbu birlashma fan va ekspluatatsiya nuqtai nazaridan chastota va quvvatni tartibga solish, melioratsiya va energetika muammolarini hal qilish uchun maqbul edi. Markaziy Osiyo va Janubiy Qozog‘iston yagona energiya rejimlarini uzoq muddatli rejalashtirish birlashmaga kiritilgan har bir energiya tizimlarida ishlab chiqaruvchi manbalar tarkibini va shunga mos ravishda energiya tizimlarini elektr stansiyalarini yoqilg‘i bilan markazlashtirilgan tartibda ta‘minlash masalalarini hisobga olgan.

Rejimlarni saqlashda nafaqat energiya resurslari, balki Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiyotining negizi bo‘lgan qishloq xo‘jaligi, ya‘ni irrigatsiya masalalari ham hisobga olingan. Rejimni optimallashtirish yonilg‘i xarajatlarini va yo‘qotishlarni (texnologik sarf) minimallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarmoqlarni ta‘mirlash jadvallari bir-biri bilan kelishilgan holda, ehtiyot qismlarni yetkazish markazlashtirilgan holda ta‘minlangan.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin energiya materiallari va resurslarini markazlashtirilgan holda ta‘minlash-taqsimlash tugatildi. Barcha energetika tizimlarida energiya mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha shoshilinch choralar ko‘rildi. Ya‘ni energiya va yoqilg‘i ta‘minotida o‘z-o‘zini muvozanatlash, barqarorlashtirishga intildi. Oddiy aytganda, hamma o‘z imkoniyatlarini ishga soldi. Masalan, gidroenergetika salohiyati yuqori bo‘lgan davlatlar o‘z ehtiyojini qoplash uchun qishda ham suv omborlari sathini kamaytirib bordi. Bu mintaqada melioratsiya tartib-taomilini izdan chiqarib, ko‘pgina ekologik muammolarga duch qildi. Muvofiqlashtiruvchi birlashma ko‘rsatmalariga amal qilinmadi deyarli.

Nihoyat, 1991 yil 19 noyabrda Ashxobodda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikasining energetika tizimlarining parallel ishlashi to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Albatta, bu energetika sohasi rahbarlarining to‘g‘ri qarori bo‘lib, mintaqadagi energetika tizimlarining hech biri mustaqil ravishda o‘z iste‘molchilarini to‘liq ishonchli energiya ta‘minoti bilan ta‘minlay olmasligini tushungan holda amalga oshirildi. Shunday qilib, “Markaziy energiya tizimlarini yagona dispetcherlik nazorati” tashkiloti ta‘sis etildi va moliyalashtirish manbalari aniqlandi. Bir so‘z bilan aytganda, Markaziy

Osiyo energetika tizimlari rahbarlarining uzoqni ko‘ra bilishi va samaradorlikka erishishi natijasida “mintaqa dispetcheri” saqlab qolindi.

Markaziy Osiyo elektr tarmoqlari parallel ishini boshqarish va muvofiqlashtirish bo‘yicha boshqaruv organi – Markaziy Osiyo Yagona energetika tizimi Kengashi (Markaziy Osiyo YAET Kengashi), unga energiya tizimlarining birinchi rahbarlari kiritilgan bo‘lib, yilning chorakliklarida poytaxt shaharlarda navbatma-navbat yig‘ilib, masalalar jamoaviy tarzda muhokama etiladi.

Markaziy Osiyoda davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha mutlaqo yangi bo‘lgan “muammodan qochish emas uning yechimini topish”, “har qanday muammo yuzasidan muloqot qilish”, “xavfsizlikning bo‘linmasligi, uni samarali ta‘minlashning asosi hamkorlik ekanligi” kabi yondashuvlarining natijasi hisoblanadi. Bu to‘g‘risida Markaziy Osiyo masalalari bilan shug‘ullanadigan dunyoning yetakchi ekspertlari va davlat arboblari juda ko‘p ijobiy fikr bildirishgan.

Xususan, Tojikiston prezidenti Imomali Rahmonning prezidentimizning ushbu mamlakatga tashrifi chog‘ida aytgan fikrlarni yodga olish joiz. U zamonaviy O‘zbekiston va Tojikistonning har tomonlama strategik munosabatlariga ta‘rif berar ekan, Shavkat Mirziyoyevni uning “tashabbuskori va arxitektori” deb atagan.

Shavkat Mirziyoyev nafaqat o‘zbek-tojik munosabatlarining, balki Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining zamonaviy munosabatlarining “tashabbuskori va arxitektori” hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гусев Л.Й. Водно-энергетические проблемы центральной Азии и возможные пути их разрешения. См.: Боришполетс К.П. Центральная Азия как региональный проект // Вестник МГИМО -Университета. 2010. Но2.

2. “Энергетика ва барқарор ривожланиш муаммолари” шарҳи. БМТТД, БМТнинг Иқтисодиёт ва ижтимоий муаммолар департаменти, Жаҳон Энергетика кенгаши. – АҚШ. 2000.

3. Markaziy Osiyoda suv-energetika kompleksiga yoʻnaltirilgan investitsiyalar.

4. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/11/26/energy-sector/>

5. <http://isrs.uz/uz/page/pdf/svezij-veter-v-centralnoj-azii>

6. <http://storage.ismi.uz/source/1/2019/03/New%20Microsoft%20Word%20Document.pdf>

7. <https://kun.uz/news/2021/08/05/pragmatik-tashqi-siyosat-ekspert-bilan-markaziy-osiyo-muammolari-va-ularni-hal-qilishda-ozbekistonning-orni-haqida-suhbat>

8. Захарова К.С. Водно-энергетические проблемы в Центральной Азии на современном этапе. Проблемы постсоветского пространства. 2018;5(3):298-308. <https://doi.org/10.24975/2313-8920-2018-5-3-298-308>

KONFERENSIYA MATERIALLARI

O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN HAMKORLIGINING MUHIM OMIL XUSUSIDA

*Abdullayev D.N.,
tarix fanlari doktori, dotsent
Toshkent davlat pedagogika universiteti*

Jahonda ro‘y berayotgan globalashuv sharoitida umummilliy qadriyatlarni ulug‘lash barobarida mamlakatlar ichki hayoti va tashqi aloqalarida barqarorlik hamda do‘stona munosabatlarni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada uni mustahkamlashga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri mamlakatga halol mehnat qiluvchi shaxslarni rag‘batlantirish bo‘lib, bu jamiyat taraqqiyotida alohida tizim sifatida shakllanib kelgan. Xususan, jahon mamlakatlarida mukofotlash tizimi davlat siyosati va mafkurasining muhim vositalaridan biri sifatida baholanib kelgan.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida oliyanob maqsad yo‘lida fidokorona mehnat qilayotgan fuqarolarni asrab-avaylash, ularning mehnatini e‘tirof etish, moddiy va ma‘naviy jihatdan rag‘batlantirish hamda mukofotlash davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Ayniqsa, “...bugun yurtimizda erkin va ozod, adolatli, insonparvar jamiyat barpo etishda eng avvalo, odamlarimizning halol mehnatiga xurmat bilan qarash, ularning qadr-qimmatini munosib baholash”ga alohida e‘tibor qaratilmoqda [3, 96-b].

O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillarida diplomatiya sohasida professional kadrlarni tayyorlash, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va mustahkamlash, ularning hizmatini munosib baholash, mehnatini rag‘batlantirish masalalariga jiddiy e‘tibor qaratildi. Soha bo‘yicha ilk bor 1992 yil 3 iyulda “O‘zbekiston Respublikasining diplomatiya xodimlari uchun diplomatiya daraja va martabalari belgilash to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Qonunga binoan diplomatik martabalar

ularning, oliy ma'lumoti, ish staji, malaka unvonlari va boshqa farqlovchi belgilarini hisobga olgan holda izchil tartibda beriladigan bo'ldi. Bunga qadar O'zbekiston diplomatiyasiga ulkan xissa qo'shgan, alohida hizmatlari bilan sohaning rivojlanishiga xizmat qilgan ba'zi diplomatlar turli darajali unvonlar bilan taqdirlangan [6, 78-79-b].

Shuningdek, dunyo davlatlari, millatlar o'rtasida munosabatlarni yo'lga qo'yishda, yaxshilashda va rivojlantirishda o'z hissasini qo'shgan fuqarolarga davlat tomonidan e'tibor berilib, har yili ular davlat mukofotlari bilan taqdirlanib kelmoqdalar. Bu mukofotlar millatlararo munosabatlarning ramziy belgisi qay darajada ekanligini namoyon etmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida Respublika baynalmilal madaniyat markazi va milliy madaniy markazlarning yuzdan ortiq faollari faxriy unvonlarga sazovor bo'ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi. Bu jarayonda turli millatlar vakili bo'lgan 14 nafar fuqaro "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan mukofotlanganini alohida ta'kidlash o'rinlidir [3, 302-b]. Viloyatlarda tashkil topgan milliy madaniy markazlar ham yurt ravnaqi, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shuni e'tiborga olgan holda, 1994 yildan 2000 yilgacha bir qancha markaz rahbarlari Vatanning yuksak mukofotlari bilan taqdirlandi. Xususan, Farg'ona viloyati koreys madaniyati markazi raisi Lyan Revmir "Shuhrat" medali bilan, Qashqadaryo viloyati U.Yusupov tumani arab madaniyat markazining raisi M.Saidov "Mehnat shuhrati" ordeni bilan, Andijon viloyati Xo'jabod tumani qirg'iz madaniyat markazining raisi A.Aliyev "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan turli sohalardagi o'zaro hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda bag'rikenglik hamda mehmondo'stlik qadriyatlarini davom ettirgan holda Markaziy Osiyo halqlari vakillarining O'zbekiston Davlat mukofotlari bilan munosib taqdirlanib, e'tirof etilayotganligi o'zaro munosabatlar rivojida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning qozoq millatiga mansub 600 dan ziyod fuqarosi yuksak Davlat mukofoti va unvonlariga sazovor bo'lgani ham ularning mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib, xalqimiz orasida xurmat qozonib, keng e'tirof etib kelinayotganining

tasdig'idir [3, 379-b]. 1991 yildan hozirgi kungacha 23 nafar Qozog'iston fuqarolari O'zbekiston Respublikasining nufuzli Davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Xususan, Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti N.Nazarboyev "Buyuk xizmatlari uchun", "El-yurt hurmati" ordeni, Qozog'iston sobiq Bosh vaziri A.Mamin "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan[2]. Bundan tashqari, qozoq millatiga mansub O'zbekiston fuqarolari Navoiy viloyatidagi "Birlik" fermer xo'jaligi bosh cho'poni Serikbay Sagatov va Qoraqalpog'iston Respublikasi "Taxtakopir" fermer xo'jaligi raisi Agitay Odilov "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvoniga sazovor bo'lishgan. O'zbekiston xalq artisti O'rol Tansiqboyev vafotidan so'ng "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan. 2004-2005 yillarda etnik qozoqlarning 15 nafar vakili "Do'stlik", 28 nafari "Shuhrat", uch nafari "Mehnat shuhrati", bir nafari "Sog'lom avlod uchun", olti nafari "Jasorat" medallari bilan taqdirlangan[1]. 2016 yilning o'zida 33 nafar etnik qozoq davlat mukofotlariga loyiq deb topilgan. Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston davlatining rivojiga katta hissa qo'shib kelayotgan qozoq millatiga mansub O'zbekiston fuqarolarining sa'y-harakatlari har doim yuksak e'tirof etilib, nufuzli davlat mukofotlariga munosib ko'rilmogda.

Shuningdek, 2017 yilgacha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan o'tgan davr mobaynida 150 nafarga yaqin turkman millatiga mansub yurtdoshlarimiz milliy madaniyatlar, urf-odat an'analarning o'ziga xosligini saqlash va rivojlantirish, do'stlik va qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash sohasidagi samarali xizmatlari hamda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qo'shgan xissasi uchun yuksak mukofot va ordenlar bilan munosib tarzda taqdirlanganlar. Jumladan, 2015 yil J.Omonov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Fahriy yorlig'i, A.Erkayev "Xalq ta'limi a'lochisi" medali bilan, shuningdek, 1999 yil M.Mustafayev, 2002 yil B.Sultonov, 2007 yil O.Qurbonov, 2011 yil O.Avezdurdiyev, 2012 yil M.Taganmuratov, 2016 yil B.Radjabova, 2017 yil A.Abayev kabi yurtdoshlarimiz "Do'stlik" ordeni, Q.Shaykulov esa "Shuhrat" medali bilan mukofotlandilar [5, 115-b].

Mustaqillik yillarida 700 nafardan ziyod tojik millatiga mansub yurtdoshlarimiz Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangani ham tojik birodarlarimizning barcha sohalarda yuksak natijalarni qo'lga

kiritib, el-yurtimizning hurmat va e'tiboriga sazovor bo'lib kelayotganidan dalolat beradi [4, 338-339-b]. Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining 98 sovrindoridan 2 nafari tojik millati vakili ekani ham davlatimizning adolatli milliy siyosati, xalqimiz bag'rikengligining yorqin ifodasidir.

Aytish joizki, har bir davlatda millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, bag'rikenglikni ta'minlash doim dolzarb masala bo'lib kelgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki bu borada mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilgan va oshirib kelinmoqda. O'z navbatida respublikamizning ko'plab fuqarolari xorijiy davlatlarning mukofotlariga sazovor bo'lib kelishmoqda. Bu yo'nalish ham davlatlar o'rtasida manfaatli aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin egallab kelmoqda. O'z navbatida O'zbekiston xalqaro miqyosda ham turli sohalarda olib borayotgan shiddatli o'zgarishlar hamda yutuqlar tashabbuskori sifatida e'tirof etilib Xalqaro mukofotlar bilan taqdirlanib kelmoqda. Buni birgina mamlakat rahbarlari hamda fuqarolariga ko'rsatilgan hurmat hamda e'tirof misolida ochiq anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.. Казахская и Узбекская диаспора: роль национально-культурных центров в их исторической судьбе. <https://articlekz.com/article/18448>
2. <http://www.uzembassy.kz/ru/page/kulturno-gumanitarnye-svyazi>
3. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017.
4. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2018.
5. Mirzayev G'R. O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston hamkorlik aloqalarining shakllanish va rivojlanish tarixi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018.
6. Sayfullayev D.B. Mustaqillik davrida O'zbekiston diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2017.

ШАВКАТ МИРЗИЁЕВ ИНИЦИАТОР СТАБИЛЬНОСТИ И БЕЗОПАСНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Адыгезалов А.Н.,

*доктор философии (PhD) по историческим наукам,
(Международный институт Центральной Азии)*

В Центральной Азии во многом благодаря усилиям Ташкента появилась возможность формирования новой геополитической реальности и структуры безопасности. Их практическая реализация стала возможна благодаря дальновидной и взвешенной политике Президента Узбекистана Ш. Мирзиёева. По средствам распространения межрелигиозного и межконфессионального согласия и терпимости в регионе, новое руководство Узбекистана придает особое значение качеству двусторонних отношений Узбекистана с его соседями.

Первыми шагами, предпринятыми Узбекистаном в рамках изменения своей региональной политики в сторону ее активизации, стали действия, направленные на нормализацию отношений с Кыргызстаном и Таджикистаном. До 2017 года отношения Ташкента с этими двумя странами были отягощены целым комплексом проблемных точек.

Отношения с Бишкеком осложнялись как последствиями межэтнического конфликта в Кыргызстане 2010 года, основными жертвами которого стали этнические узбеки, проживающие в южных регионах этой республики, так и нерешенностью пограничных вопросов. Тем не менее, уже в сентябре 2017 году между Кыргызстаном и Узбекистаном был подписан Договор об узбекско-кыргызской государственной границе, было согласовано около 85%

государственной границы, сняты ограничения с ряда контрольно-пропускных пунктов [2].

Решение по пограничным вопросам рассматривалось Узбекистаном и Кыргызстаном как комплексная задача, включающая в себя не только делимитацию границы, но и сотрудничество в таких направлениях, как использование водных и энергетических ресурсов, развитие приграничных областей и межрегиональное сотрудничество, развитие транспортной инфраструктуры, в частности – мультимодального коридора Ташкент–Андижан–Ош–Иркештам–Кашгар.

Показателем нормализации отношений между двумя странами стало первое в истории кыргызско-узбекских отношений участие кыргызской делегации на выборах в Законодательную палату Олий Мажлис Республики Узбекистан в декабре 2019 года в качестве международных наблюдателей [3]. А в 2022 году, благодаря политической воли Ш. Мирзиёева и С. Жапарова, десятилетиями откладываемый вопрос государственной границы нашел свое решение.

Сходные темпы выстраивания двусторонних отношений наблюдаются и между Узбекистаном и Таджикистаном. Если ранее между соседними республиками действовал визовый режим и не было практически никакого прямого сообщения, за исключением приграничного, то уже в 2017 году были возобновлены авиарейсы между Душанбе и Ташкентом, восстановлена железная дорога Галаба–Амузанг, была открыта международная автомобильная дорога на участке Самарканд–Пенджикент, продолжил работу ряд пунктов пропуска на таджикско-узбекской границе. В 2018 году было достигнуто соглашение о возобновлении поставок узбекского газа в Таджикистан, также был подписан Договор об отдельных участках узбекско-таджикской государственной госграницы, который позволил сторонам почти полностью согласовать ранее неделимитированные участки границы. Одним из прорывных стало решение территориального спора вокруг Фархадской ГЭС.

Хотя двусторонние отношения между Узбекистаном, с одной стороны, Казахстаном и Туркменистаном с другой, не имели сложностей, сравнимых с отношениями с Кыргызстаном и Таджикистаном, и на протяжении всех годов независимости развивались поступательно, начиная с 2017 года здесь также фиксируется активизация сотрудничества.

Так, стратегическое партнерство Узбекистана и Казахстана, закрепленное соответствующим двусторонним договором в 2013 году, после 2017 года перешло на практический уровень, когда регулярные контакты лидеров двух государств стали подкрепляться активизацией сотрудничества экономического, социального и культурного плана [4, с. 588], а в декабре 2021 года стороны подписали Договор «О Союзнических отношениях между Казахстаном и Узбекистаном».

Свидетельством доверительных отношений между Узбекистаном и Туркменистаном является Декларация об углублении стратегического партнерства, подписанная в 2022 году, предусматривающая более тесное сотрудничество как в двустороннем формате, так и в региональном. Также дан старт строительству Зоны приграничной торговли с современной инфраструктурой, что задаст тон товарообороту, расширению бизнес-контактов и созданию новых рабочих мест в регионах двух государств.

Активная региональная стратегия Узбекистана создала благоприятный дипломатический климат между Центральноазиатскими странами. Инициатива Президента Ш. Мирзиёева на Генеральной Ассамблее ООН в сентябре 2017 года о проведении консультативных встреч лидеров стран Центральной Азии была поддержана его коллегами. На сегодняшний день уже состоялись четыре консультативные встречи: в Астане (март 2018 года), в Ташкенте (ноябрь 2019 года) и в Туркменбаши (август 2021 года), а Чолпон-Ате (июль 2022).

Результатами этих встреч стали: превращение Центральной Азии в единую торгово-инвестиционную и транспортно-

коммуникационную площадку; начало реализации проектов промышленной кооперации; создание совместных инвестиционных компаний и фондов; осуществление транспортно-транзитной интеграции; расширение приграничной торговли; увеличение масштабов культурно-гуманитарного сотрудничества.

Благодаря открытой и прагматичной политике Узбекистана в отношении стран Центральной Азии, были возобновлены региональные связи и открыты границы; восстановлены и обогатились новыми направлениями воздушные, автобусные и железнодорожные маршруты; также были облегчены связи между людьми, что, в свою очередь, способствовало развитию региональных экономических и торговых отношений. В результате уровень двустороннего и многостороннего сотрудничества в регионе заметно повысился [5].

Такое улучшение торгово-экономических отношений между странами Центральной Азии в целом способствовало повышению инвестиционной привлекательности региона. В частности, в период с 2017 по 2020 год между Узбекистаном и странами региона были подписаны более 300 договоров, а также контрактов и соглашений на сумму около 75 млрд долларов [6]. К 2022 году взаимная торговля между центральноазиатскими государствами выросла в 2 раза, на 45% увеличился приток прямых иностранных инвестиций в регион, достигнув 40 млрд долларов.

Одновременно в силу определенных факторов, страны Центральной Азии отличаются друг от друга разными торговыми режимами, влияющими и препятствующими более интенсивному сотрудничеству и взаимодействию между ними [7].

Нынешнее состояние торговых режимов выглядит следующим образом:

- Казахстан и Кыргызстан, как члены Евразийского экономического союза, пользуются общим таможенным пространством;
- Казахстан, Кыргызстан и Таджикистан являются членами Всемирной торговой организации;

– Страны Центральной Азии (за исключением Туркменистана) входят в зону свободной торговли Содружества Независимых Государств (СНГ).

Несмотря на то, что страны Центральной Азии практикуют двусторонние соглашения о регулировании и стимулировании взаимной торговли, существует высокий спрос на объединение межрегиональных торговых режимов и экономических отношений, что впоследствии будет способствовать углублению регионального торгово-экономического сотрудничества.

С этой точки зрения, региональные трансграничные инициативы и проекты, такие как Международный центр торгово-экономического сотрудничества «Центральная Азия» (ИСТЕС) между Узбекистаном и Казахстаном, Программа регионального экономического сотрудничества Центральной Азии (ЦАРЭС), Центральноазиатское инвестиционное партнерство, имеют потенциал для улучшения и стимулирования двусторонних торгово-экономических отношений и поддержки многосторонних усилий по укреплению регионального взаимодействия и сотрудничества [5].

В качестве еще одного примера регионального сотрудничества следует отметить борьбу с COVID-19. Так, в начале глобальной пандемии руководство Узбекистана продемонстрировало свою приверженность региональному сотрудничеству и призвало к совместному реагированию на пандемию COVID-19 в Центральной Азии. Страны Центральной Азии поддерживали обмен опытом и информацией по борьбе с коронавирусной инфекцией, демонстрируя региональную солидарность в борьбе с общими задачами. Гуманитарная помощь из Узбекистана в Кыргызстан и Таджикистан, а затем из Казахстана в Кыргызстан, способствовала региональному сотрудничеству и его преимуществам [5].

Вместе с тем, Узбекистан отстаивает позицию, что Центральноазиатская безопасность и идентичность невозможна без стабилизации и нормализации ситуации в Афганистане, его интеграции в региональные экономические процессы. Так, в своем выступлении на Международной конференции в Самарканде 10

ноября 2017 года Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев высказал глубокую мысль: «Одна из первоочередных задач – всестороннее содействие интеграции Афганистана в региональные экономические процессы. Это станет важнейшим вкладом в усилия мирового сообщества по обеспечению мирного развития в Афганистане. Узбекистан продолжит активное участие в экономическом восстановлении соседней страны, развитии ее транспортной и энергетической инфраструктуры, подготовки ее национальных кадров» [1].

Еще одним шагом в направлении урегулирования афганской проблемы со стороны Узбекистана можно считать 2018 год, когда 26-27 марта в Ташкенте состоялась международная конференция «Мирный процесс, сотрудничество в области безопасности и региональное взаимодействие», в которой приняли участие представители 21 страны, ООН, ЕС и других международных организаций. Принятая Ташкентская декларация была признана решением глобальных угроз.

Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев «...обратил внимание на развитие дружественных отношений между Узбекистаном и Афганистаном, на вовлечение Афганистана в систему торгово-экономических, транспортных коммуникационных, культурных и гуманитарных связей. Конечно, такого рода отношения с Афганистаном принципиально отличаются от предыдущих, и это означает, что они не только используют декларативные аспекты и дипломатию для установления мира в Афганистане, но и обеспечивают их экономическими и финансовыми ресурсами. В своем выступлении глава государства отметил, что пришло время взглянуть на Афганистан как на страну, которая не угрожает миру и стабильности и выдвинул предложения по укреплению безопасности и стабильности в этой стране, строительству автомобильных и железных дорог, прокладке трубопроводов для природных ресурсов, и созданию благоприятных условий для региональной и трансграничной торговли» [8, с. 81-82].

Очередным шагом в направлении стабилизации обстановки в Афганистане, его присоединении к процессам региональных и межрегиональных отношений стала Международная конференция «Центральная и Южная Азия: региональная взаимосвязанность. Вызовы и возможности», прошедшая в Ташкенте в июле 2021 года, в которой приняли участие более 250 участников из более чем 40 стран, в том числе, и из Афганистана. В ходе заседания были рассмотрены состояние и перспективы развития межрегионального сотрудничества в Центральной и Южной Азии, успешные примеры взаимодействия, перспективные инфраструктурные проекты взаимосвязанности.

Однако, стремительные события августа 2021 года привели в некоторое замешательство мировое сообщество. Так, в результате вывода войск США из Афганистана, и побега легитимного лидера страны А. Гани, к власти в Афганистане пришли талибы.

Даже в таких не простых и неоднозначных реалиях руководство Узбекистана во главе с Ш.М. Мирзиёевым показало свою готовность к конструктивному диалогу с новым руководством Афганистана. Так, на юбилейном саммите ШОС, состоявшемся в Душанбе президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев предложил проводить встречи высокого уровня в формате «ШОС - Афганистан» для обсуждения кризисных вопросов в регионе. Кроме этого, с движением Талибан были установлены контакты. Экс-глава МИД Республики Узбекистан А. Камилов отмечал, что он не считает движение Талибан террористическим движением [9, с. 475].

Таким образом, руководство Узбекистана определило приоритетом своей внешней политики – Центральную Азию, посредством которой выстроило конструктивный диалог со всеми государствами региона, выступило инициатором консультативных встреч глав государств, стимулировало всеобъемлющее объединение.

Отдельной главой региональной интеграции выступает Афганистан, без нормализации социально-экономической обстановки в котором невозможна полноценная стабилизация и безопасность в регионе. Руководство Узбекистана осознавая всю степень риска,

связанного с приходом нового руководства в Афганистане, готово к выстраиванию конструктивного диалога с ним. Узбекистан, хотя и не торопится с признанием правительства талибов, однако, призывает рассматривать Афганистан, не как угрозу, а как равного партнера. Узбекистан продолжает лоббировать реализацию трансафганских проектов, которые позволят стране выйти к Мировому океану кратчайшим путем [10, с. 17].

Список использованной литературы

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на Международной конференции «Центральная Азия: одно прошлое и общее будущее, сотрудничество ради устойчивого развития и взаимного процветания» в Самарканде / Народное слово. – 2017. – 11 ноября.
2. Ташиев К. Теперь спорных участков на кыргызско-узбекской границе не будет // <https://knews.kg/2021/03/26/kamchybek-tashiev-teper-spornyh-uchastkov-na-kyrgyzsko-uzbekskoj-granitse-ne-budet/>
3. Бурнашев Р. Новый региональный курс Узбекистана и конструирование Центральной Азии // <https://cabar.asia/en/uzbekistan-s-new-course-and-the-construction-of-central-asia>.
4. Adygezalov A.N. Focus on regional cooperation between Uzbekistan and Azerbaijan // Theoretical & Applied Science, 05 (109). 2022. Pp. 587-592.
5. Хакимов Ф. Динамика регионального развития в Центральной Азии и формат многостороннего сотрудничества «5+1» // <https://cabar.asia/ru/dinamika-regionalnogo-razvitiya-v-tsentralnoj-azii-i-novuj-format-mnogostoronnego-sotrudnichestva-5-1>
6. Туляков Е., Хакимов Ф. Дружественное сотрудничество со странами Центральной Азии – приоритетное направление внешнеполитической деятельности Узбекистана // <https://bigasia.ru/content/pub/review/druzhestvennoe-sotrudnichestvo-so-stranami-tsentralnoj-azii-prioritetnoe-napravlenie-vneshnepolitich>
7. Кутбитдинов Ю. Торгово-экономическое сотрудничество стран Центральной Азии в период пандемии // <https://review.uz/post/torgovo->

[ekonomicheskoe-sotrudnichestvo-stran-centralnoy-azii-v-period-pandemii-covid-19.](#)

8. Киргизбаев М. Узбекистан-Афганистан: гарантия стабильности и согласия в регионе и мире // Стратегия Узбекистана. 2019, № 1. С. 80-83.

9. См. Якубов И.Х., Нуриддинов У.К. Афганский фактор в Центральной Азии: текущие тенденции и перспективы развития // Постсоветские исследования. Т.4. № 6 (2021). С. 470-478.

10. Адыегалов А.Н. Узбекско-афганские отношения: вызовы и реалии // Etnopolitika araştırmaları dergisi. 2022, № 1. С. 5-19.

MARKAZIY OSIYO VA JAHONDAGI HARBIY-SIYOSIY MASALALAR TAHLILI

Haydarov A.U.

(O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti)

Hozirgi davrda harbiy kuch jahonda kechayotgan xalqaro-siyosiy jarayonlarga ta’sir etuvchi omillardan biriga aylanib qolmoqda. Insoniyat patsifistik g‘oyalarni ilgari surib, urush va qurolli mojarolarga barham berishga har qancha intilmasin, davlatlar va xalqaro harbiy-siyosiy tashkilotlar dunyoning turli hududlarida ko‘zlagan strategik manfaatlarini o‘z harbiy salohiyatlariga tayangan holda himoya qilish ilinjidalari. Bu esa o‘z o‘rnida, alohida bir mintaqaga yoki jahon miqyosida harbiy-siyosiy vaziyatning keskin tus olishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash joizki O‘zbekistonda olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatning asosini aynan tinchlikparvar g‘oya, davlatlararo va millatlararo totuvlik, mintaqaga va dunyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash kabi ezgu maqsadlar tashkil etishini bugun butun jahon hamjamiyati yaxshi biladi. Zero, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Islom Karimovning turli vaqtlarda turli nufuzli minbarlardan turib Markaziy Osiyoda tinchlikni saqlash, bu mintaqani barqaror xavfsiz hududga aylantirish, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizm, giyohvandlik, mintaqaviy

mojarolar, millatlararo ziddiyatlar, ekologik muammolarga qarshi kurash borasida bayon etgan tashabbuslari bugun nafaqat dunyo miqyosida qo‘llab-quvvatlanmoqda, balki ularni hayotga tatbiq etish eng maqbul yo‘l ekanligi e’tirof etilmoqda .

Mintaqamizdagi harbiy-siyosiy vaziyatni o‘rganish, qolaversa, jahonda kechayotgan muhim harbiy-siyosiy jarayonlarni to‘g‘ri baholash O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta’minlash tizimining yanada takomillashuviga xizmat qiladi .

Demak, Markaziy Osiyo va jahonda kechayotgan harbiy-siyosiy vaziyatga bevosita ta’sir etuvchi eng muhim omillarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak quyida:

Qozog‘iston dunyodagi yetakchi armiyalar standartiga mos Qurolli Kuchlarni shakllantirish ishlarini jadal olib bormoqda. Bu borada, Ostona 2008 yildan buyon qo‘shinlarda avtomatlashgan boshqaruv tizimini joriy qilish, artilleriya va raketa qo‘shin turlarini zamon talablariga mos ravishda qurollantirish, harbiy aviatsiyani modernizatsiyalash, zirhli texnikalar sotib olishni amalga oshirib kelmoqda.

Qirg‘izistondagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tang vaziyat mamlakat Qurolli Kuchlaridagi tarkibiy o‘zgarishlarni, harbiy qismlar ta’minotini, ta’lim va jangovar tayyorgarlikni ko‘proq xorijiy ko‘mak evaziga amalga oshirishni taqozo etadi. AQSH «Manas» aeroportida joylashgan tranzit yuklarni olib o‘tish markazining ijarasi uchun Qirg‘iziston hukumatiga haq to‘lab kelayotgandi. Yaqinda AQShning Qirg‘izistondagi aviabazasi boshlig‘i mazkur mamlakatdagi missiya nihoyasiga yetganini e’lon qildi. Biroq 2012 yilda Rossiya Qirg‘izistonga 1,1 mlrd. dollarlik harbiy anjomlar, jangovar texnika va qurollar tariqasida yordam ko‘rsatishi borasida ikki tomon kelishib olishganini ham unutmaslik kerak. Vaholanki, rasmiy Bishkek yordamni Rossiya 2017 yildan boshlab respublika hududida joylashgan turli harbiy obyektlarini yagona harbiy baza maqomi ostida birlashtirishi uchun bergan roziligi evaziga olayotgani ehtimoldan holi emas .

Tojikiston ham milliy armiyasini barpo etarkan, asosiy e’tiborni harbiy kadrlarni tayyorlash, qo‘shinlarni jangovar texnika va qurollar bilan butlashga qaratib kelmoqda. Ma’lumki, hududda Rossiyaning 201-harbiy

bazasi joylashgan. 2012 yilda Tojikiston va Rossiya o'rtasida bu harbiy bazaning maqomi va muddatini bir necha yilga qadar uzaytirilgani bejizga emas. Evaziga Rossiya o'z zimmasiga Tojikistonga harbiy-texnik yordam ko'rsatish majburiyatini oldi. Shuningdek, respublika chegara qo'shinlarini AQSH bilan hamkorlik doirasida shakllantirayotganini ham ta'kidlab o'tish o'rinlidir.

Turkmaniston neytralitet maqomiga ega bo'lishiga qaramay, Kaspiy flotiliyasi kuch va vositalarini takomillashtirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirib kelyapti. Bu borada rasmiy Ashxobod o'zining xorijiy hamkorlari bilan harbiy-texnik sohada yaqin aloqalarni saqlashga intilmoqda. Ko'rinib turibdiki, qo'shni mamlakatlarda harbiy xavfsizlik tizimini takomillashtirish jarayoni kuzatilmoqda. Bunga mintaqa mamlakatlari xavfsizligiga tahdidlar, xususan diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga nisbatan zarurat sabab bo'layotganini anglash mumkin.

Afg'oniston «Frans Press» agentligining hukumat hisobotiga tayangan holda yaqinda tarqatgan xabariga ko'ra, olib borilgan jangovar harakatlar oqibatida so'nggi 10 yil ichida Afg'oniston davlat kuchlarining 13700 nafar harbiy xizmatchisi halok bo'lgan. Bu hali ham mamlakatda tinchlikka, barqarorlikka tahdidlar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

«Bugungi kunda dunyoda va yon-atrofimizda yuz berayotgan mojaro va to'qnashuvlar, radikalizmning kuchayishi, Afg'onistondagi urushning hamon davom etayotgani va bu muammoni hal etish borasida mavhumlik saqlanib qolayotgani, terrorizm va diniy ekstremizmning faollashayotgani, tajovuzkor narkotrafikning keng tus olayotgani, chegaralarimizga bevosita yaqin hududlarda xavf-xatar kucha-yib borayotgani – bularning barchasi bizda chuqur tashvish va xavotir uyg'otmasdan qolmaydi, albatta.

AYSAF deb atalmish tinchlikparvar kuchlarning Afg'onistondan olib chiqib ketilishi Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha mamlakatlar uchun jiddiy sinovga aylanishi, bizning janubiy sarhadlarimizda va chegaradosh hududlarda keskinlikning yanada kuchayishiga olib kelishi mumkin.

“Mamlakatimizning zamonaviy Qurolli Kuchlarini tashkil etishda harbiy qurilish sohasiga prinsipial jihatdan yangicha yondashuvning ishlab chiqilgani ko'p jihatdan hal qiluvchi omil bo'ldi. Bu yondashuv eski, o'z

umrini o‘tab bo‘lgan, bir qolipdagi qarorlardan butunlay voz kechish, ehtimol tutilgan harbiy harakatlar teatri hamda yaqin va uzoq yon-atrofimizda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlarini har tomonlama hisobga olish, shuningdek, xorijiy davlatlarning tajriba va yutuqlarini amaliy jihatdan puxta o‘zlashtirishga asoslanganini ta’kidlash lozim .

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm endigina uchqunlay boshlagan o‘tgan asrning 90-yillari boshida, ya’ni 1993 yildayoq Yurtboshimiz eng yuksak xalqaro minbar – BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida jahon jamoatchiligi e’tiborini Afg‘oniston muammosiga qaratib, bir qator amaliy takliflarni ilgari surgan edi . Ana shu an’anadan chekinmagan holda, xalqaro miqyosda olib borilayotgan aksilterror harakatlarni qo‘llagan holda, mamlakatimiz hali ham Afg‘oniston muammosini tinch, siyosiy yo‘l bilan hal qilish tarafdori bo‘lib kelmoqda.

Fikrimizni davom ettiradigan bo‘lsak, BMT shafeligi ostidagi «6+2» guruhiga a’zo davlatlar tomonidan 1999 yil iyul oyida qabul qilingan «Afg‘onistondagi ziddiyatni tinch yo‘l bilan hal etishning asosiy tamoyillari to‘g‘risidagi Toshkent deklaratsiyasi»da ham mamlakatimizning Afg‘onistondagi murakkab vaziyatni tinch yo‘l bilan hal etish g‘oyasi aks etganini ko‘rish mumkin.

BMT Bosh Assambleyasining 2000 yil sentabr oyida bo‘lib o‘tgan Ming yillik Sammitida Yurtboshimiz «mintaqalar xavfsizligi va alohida davlatlar milliy xavfsizligini ta’minlamay turib, umumiy xalqaro xavfsizlikka erishib bo‘lmasligi»ni alohida ta’kidlab, «Kimki qandaydir tor xavfsizlik qobig‘iga o‘ralib, bu Yevropa, Amerika yoki boshqa biron mintaqaga taalluqli deya «o‘zga» davlatlar muammolaridan go‘yo chetda turishga intilayotgan bo‘lsa, mavjud voqelikdan tamomila yiroqdir – bugun dunyo mamlakatlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq va ajralmasdir», – deb xalqaro jamoatchilikni Afg‘onistonda vujudga kelgan tahlikali vaziyatdan ogoh etgan edi .

Yurtboshimizning 2008 yili Buxarestda o‘tkazilgan NATO/SEAP sammiti hamda 2010 yilning sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan oliy darajadagi yalpi

majlisida soʻzlagan nutqida tilga olingan BMT shafeligida «6+3» muloqot guruhini tashkil etish tashabbusi esa, butun jahon jamoatchiligining katta qiziqishiga sabab boʻldi .

Oʻzbekistonning mintaqada muhim va zarur oʻrin tutishining yana bir omili Afgʻonistonga iqtisodiyotini tiklash uchun keng miqyosli yordam berayotgani sanaladi. Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston temir yoʻllarni qurish, elektr energiyasi bilan taʼminlash, qazilma ishlarini, qishloq xoʻjaligini, irrigatsiya, taʼlim va mutaxassislar almashinuvini rivojlantirish hamda qurilish asbob-uskunalari, metall, oʻgʻitlar, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar bilan taʼminlash kabi sohalarda juda koʻplab loyihalarni amalga oshirdi.

Yuqoridagi barcha omillar Oʻzbekistonning Afgʻonis-tonni qayta tiklash jarayonida faol ishtirokchi sifatida mustahkam oʻrin egallaganidan dalolatdir.

Jahondagi harbiy-siyosiy vaziyatni mutaxassislar xalqaro munosabatlar tizimining bugungi holatini quyidagi omillar bilan tasniflashmoqda:

- xalqaro munosabatlar tarkibiy tuzilmasining oʻzgarishi global xavfsizlik uchun oldindan aytish qiyin boʻlgan oqibatlariga olib kelmoqda;
- jahonning muhim mintaqalarida keskinlikning yangi oʻchoqlari va qurolli mojarolar yuzaga kelish xavfi ortmoqda;
- geosiyosiy taʼsir ostidagi sohalarni «qayta taqsimlash»ga urinishlar kuzatilmoqda;
- xalqaro huquqning universal prinsiplari buzilishi jahonda strategik mavhumlikni kuchaytirmoqda;
- globallashtirish – bir tomondan, davlatlarning barqaror rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar ochmoqda, boshqa tomondan iqtisodiy, oziq-ovqat, energetika, ekologiya, axborot, gumanitar xavfsizlik sohaslarida toʻgʻridan-toʻgʻri va potensial xavflar tugʻdirmoqda;
- terrorchilik, diniy va siyosiy ekstremizm, narkotajovuz, kiberjinoyatchilik, axborot «urushlari», transmilliy jinoyatchilik kabi noanʼanaviy xavf-xatarlar va shunga oʻxshash tahdidlar koʻlami kengayib bormoqda;

- global iqtisodiyotda, moliya, bank hamda valyuta bozorlarida inqirozli vaziyatlar yuzaga kelmoqda;
 - iqtisodiy o‘shish Markazi Osiyoga siljimoqda;
 - turli xil yo‘nalishdagi integratsion va dezintegratsion jarayonlar chuqurlashmoqda;
 - strategik resurslar uchun kurash kuchaymoqda;
- dunyoning turli mintaqalari rivojlanishidagi nomutanosiblik chuqurlashmoqda.

Ta’kidlash lozimki, bu omillarning barchasi pirovard natijada davlatlararo munosabatlarda keskinlik va qarama-qarshiliklarga olib kelishi mumkin. Shu o‘rinda dunyodagi vaziyatga qisqacha nazar tashlasak.

O‘tgan yaqin yillarga nazar solsak Yaqin sharq mamlakatlarida va Ukrainada yuz bergan hamda davom etib kelayotgan tartibsizliklar, qurolli to‘qnashuvlar tabiiyki bizda ham xavotir va sergaklikni oshiradi.

Jahondagi harbiy-siyosiy vaziyatga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgan muhim omillardan yana biri sifatida Osiyo–Tinch okeani mintaqasidagi yuzaga kelayotgan kuchlar muvozanatidagi o‘zgarishlarni aytishimiz mumkin. Ma’lumki, bu mintaqada harbiy qudratga ega yetakchi davlatlardan biri Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) hisoblanadi. So‘nggi yillarda Xitoyning harbiy sohaga ajratayotgan byudjeti tez suratlarda oshib borayotganligi qaysidir ma’noda mintaqada strategik manfaatlar yo‘lida keskin tashqi siyosat olib borishga qodirligi ham namoyon bo‘ldi.

Bevosita mintaqamizga tutash Yaqin Sharqdagi vaziyat, umuman olganda, keskinligicha qolmoqda. Xususan, Eron yadroviy dasturi muammosini hal etish, Suriyadagi mana bir necha yildirki davom etayotgan qurolli mojaroga chek qo‘yish jahon hamjamiyatining diqqat markazida turibdi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda dunyoda xavfsizlikka nisbatan tahdid va xatarlar tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish va ularning jangovar tayyorgarligini, mamlakatimizga qarshi qaratilgan har qanday tajovuzga o‘z vaqtida va munosib zarba berish qobiliyatini oshirishni ta’minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shuni unutmaslik kerakki, kiberjinoyatchilik, kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda salbiy informatsion ta'sir o'tkazish kabi xalqaro xavfsizlikka nisbatan ilgari ko'rilmagan xavf-xatarlar avj olmoqda. Bunday tahdidlarga yetarli baho bermasdan, ularning oldini olmasdan, beparvo bo'lib yashash mumkin emas. Xalqaro hamjamiyatda katta aks sado bergan hujjat, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2012 yil sentabr oyida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qonun aynan ana shu maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan .

Qurolli Kuchlarimizning salohiyati va jangovar tayyorgarligini har tomonlama mustahkamlash, mamlakatimiz suvereniteti va uning davlat chegaralarini himoya qilish choralarini kuchaytirish borasidagi ishlarni davom ettirish mustaqilligimizni asrab-avaylashning, yurtimiz xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashning eng muhim sharti va kafolati ekanligini unutmasliklari darkor.

**Markaziy Osiyo mintaqasida «Boshqariladigan Xaoc»
konsepsiyasi asosida «Rangli inqiloblar»ni keltirib chiqaruvchi
omillar**

Mansurov M.M.,

siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

(Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti)

So'nggi yillarda jahonda kechayotgan global siyosiy jarayonlar, tashqi kuchlarning uz maqsadlari yo'lida olib borayotgan geosiyosiy o'yinlari doirasida «rangli inqiloblar»ni amalga oshirilayotganligi nafaqat davlatlarni, balki butun mintaka xavfsizligiga tahdid tug'dirmoqda. Buni Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida 2010-2014 yillarda sodir bo'lgan «Arab bahori» deb nom olgan inqilobiy xarakatlarda kuzatsak bo'ladi. Bu «inqiloblar» bir qancha mamlakatlarda siyosiy tuzumning o'zgarishi yoki umuman tizimning yo'qolishiga olib keldi.

Xozirgi kunga qadar keng ilmiy doirada arab mamlakatlarida bo'lgan inqiloblar tabiiy ravishda sodir bo'lganligi yoki uyushtirilganligi yuzasidan baxslar mavjud. Lekin inqiloblar hamma mamlakatlarda deyarli bir vaqtda

boshlanganligi, inqiloblarni o'z-o'zidan sodir bo'lganlik ehtimolini kamaytiradi. Shuni xam ta'kidlash kerakki, kuchli qurolli kuchlari va politsiyasiga ega bo'lgan ushbu mamlakatlarda tashki ko'maklarsiz isyon ko'tarilishi mushkul. Aynan Tunis, Misr, Liviya, Baxrayn, Yamanda ommaviy tartibsizliklar kelib chikishi, lekin ushbu davlatlarga juda yaqin bo'lgan hamda demokratiya va ijtimoiy sohada muammolar ko'pligi jihatidan ustun bo'lgan Jazoir, Marokash va boshqa shu kabi mamlakatlarning chetda qolib ketishi xam ehtimollikdan yiroqda. Boshqacha qilib aytganda, ushbu ommaviy tartibsizliklar to'liqini xuddi «rangli inkiloblar»da kuzatiladigan «boshqariladigan zanjir reaksiyasi»ni esga soladi. Binobarin, «rangli inqilob»lar texnologiyasida albatta «inqilobiy ko'chib o'tish» elementi bo'lib, bunga ko'ra bir mamlakatda bo'layotgan «inqilob» ikkinchi mamlakatda boshlanishiga turtki bo'lishi mumkin. Agar Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlarida sodir bo'lgan «inqiloblar»ni chuqur tahlil qilsak, bu yerda bo'lib o'tgan «inqiloblar» MDH, mamlakatlarida sodir bo'lgan «rangli inqilob»lar ssenariysiga o'xshaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, xozirda «rangli inqilob»larni amalga oshirishning yangi bosqichiga o'tilgan. Ya'ni avvalgiday bir mamlakatda emas, «domino tamoyili» asosida bir-biriga yaqin bir nechta mamlakatlarda yoki bir mintaqada bekarorlikni vujudga keltirish ishlari boshlangan. Bu xavfdan Markaziy Osiyo mintakasi ham xoli emas, albatta. Bizga ma'lumki, «rangli inqiloblar»ni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zaruriy va yetarli sharoit mavjud bo'lishi lozim. Zaruriy sharoit mamlakatda amaldagi xukumatning inqirozi bilan keluvchi siyosiy bekarorlikning mavjud bo'lishidir. Agar mamlakatda siyosiy vaziyat barqaror bo'lsa, uni sun'iy ravishda beqarorlashtirish lozim bo'ladi. Yetarli sharoit uyushgan (maxsus tarmoqlar shaklida) norozilik xarakatining mavjudligi. Ushbu zaruriy va yetarli sharoit yaratishga zaruriy omillar mavjud bo'lishi kerak. Biz turli mamlakatlarda sodir bo'lgan «rangli inqilob»larni tahlil kilib chiqqan xolda quyidagi sabab bo'luvchi omillarni (omillar to'liq ko'rsatilganligiga da'vo qilmagan holda) ro'yhatini tuzib chiqdik:

- Aholi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolining yomonlashuvi.

Gruziyada 2003 yilda aholi daromadi 50%ga tushib ketgan²¹. Bu omil Qirg'iziston, Misrda bo'lib o'tgan «rangli inqilob»larda ham kuzatilgan.

- Ishsizlik darajasining yuqoriligi. Bunga Tunis, Misr, Suriya va Qirg'izistonda bo'lib o'tgan «rangli inqilob»larni misol qilib keltirsak bo'ladi. Tunisda inqilob yuz berishidan avval aholining 30-50 foizi ishsizlarga aylangan va ularning aksariyatini yoshlar tashkil qilgan. Bu yerlarda ishsizlik darajasining yuqoriligi «rangli inqilob»ning kelib chiqishida asosiy omillardan biri bo'lgan²².

Oliy ma'lumotli yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasining oshib ketishi. «Rangli inqilob»lar ro'y bergan mamlakatlarda, ayniqsa, oliy ma'lumotli yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi 25-30 % atrofida bo'lgan. Jumladan, 2003 yil «Atirgullar inqilobi» amalga oshirilgan davrda Gruziyada 20-24 yoshli aholi o'rtasida ishsizlik darajasi 27,5%ni tashkil etgan, shuningdek, usha vaqtda oliy ma'lumotli yoshlar o'rtasidagi ishsizlik darajasi 37,5%ni ko'rsatgan. Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mintaqasida sodir bo'lgan «Arab bahori» inqilobi davridagi iqtisodiy holatni kuzatadigan bo'lsak, Tunisda oliy ma'lumotli yoshlar o'rtasidagi ishsizlik 25%ni, Liviyada 26,4% hamda Misrda esa 27%ni tashkil etgan. Ushbu holatdan foydalangan tashqi kuchlar yoshlar o'rtasida turli ko'rinishdagi yashirin guruhlar tashkil etishga erishgan. Bundan tashqari, ularni xorijdan moliyalashtiriladigan NNT tarkibiga keng jalb etilgan²³. Mamlakat ichkarisida NNTlar faoliyatining kengayishi. Bu omil ham «rangli inqilob»lar sodir bo'lgan deyarli barcha mamlakatlarda mavjud bo'ladi. Chunki mamlakat ichkarisida «rangli inqilob»larni tashkillashtirish, moliyalashtirish kabi ishlar aynan NNTlar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, arab davlatlarida, xorijiy NNTlar tomonidan 2009-2010 yillarda demokratiyani targ'ib qilish bo'yicha Misrda 23 ta, Falastinda 21 ta, Yamanda 13 ta, Iordaniyada 10 ta, Livanda 8 ta, Tunisda 3 ta, Liviyada 3

²¹ Гриняев С.Н., Арзуманян Р.В., Воробьев А.В., Аньшина Е.В., Кравченко В.Ю., Медведев Д.А. *Иррегулярные конфликты: «цветные революции». Анализ и оценка форм, приемов и способов ведения операций по смене режимов в суверенных государствах / Под общ.ред. С.Н. Гриняева.* — М.: АНОЦСОиП, 2015. - С. 75.

²² Лабинская И. *События в Северной Африке и на Ближнем Востоке: причины и следствия //Мировая экономика и международные отношения (Москва, ИМЭМО). 2011. № 7. - С. 11-25; № 8. - С. 52-66.*

²³Карпович О. Г., Манойло А. В., Наумов А. О. *Противодействиетехнологиям цветных революцийв молодежной среде. Кандидат.* - М.: 2015. - 98 с.

ta, Suriyada 3 ta, Jazoirda 3 ta va Quvaytda 1 ta NNT tashkil etilgan²⁴. Davlatda korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikning o'sishi. Tunisdagi voqealarning rivojlanishiga davlat boshqaruvida korrupsiya va urug'-aymoqchilikning rivojlanganligi ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan, bank, tijorat, turizm sohalari prezidentning ikkinchi xotinining oilasi - Trabelsi urug'i tomonidan boshqarilgan. Ushbu holatni Misrda, Qirg'izistonda ham ko'rish mumkin.

- Aholi o'rtasida diniy ekstremistik g'oyalarning keng tarqalishi. Mirs, Suriya, Liviya, Tunis, Yaman davlatlarida bo'lgan «rangli inqilob»larda «Musulmon birodarlari», «Xizbullox», «Al-Qoida» va boshqa diniy ekstremistik, terroristik tashkilotlari faol xarakter olib borgan. Xattoki Misrda Mursi boshchiligidagi «Musulmon birodarlari» hokimiyat tepasiga kelgan. Tunisda 2011 yilning 23 oktabr kuni navbatdagi parlament saylovlarida 217 ta deputatlik o'rnidan 90 ta o'rinni islom partiyasi hisoblangan «An-Naxda» (qayta tug'ilish) partiyasi qo'lga kiritgan.

- Turli xil etnik guruhlar o'rtasida konfliktlarni mavjudligi. Qirg'izistonda qirg'izlar bilan o'zbeklar, Ukrainada ukrainlar bilan ruslar o'rtasidagi konfliktlarni misol sifatida keltirish o'rinlidir.

- Diniy konfessiyalar vakillari o'rtasidagi munosabatning yomonlashuvi. Bunga Suriyadagi shia mazxabiga kiruvchi «alavid»lar bilan sunniylar va Yamandagi «xuzit»lar bilan sunniylar o'rtasidagi keskinlikni yaqqol misol sifatida keltirsak bo'ladi. Qirg'izistonda ham ushbu xolatni kuzatish mumkin, lekin bu omil u yerda Suriya va Yamandagi kabi yaqqol ko'zga tashlanmaydi.

- Milliy ozchilikka nisbatan diskriminatsiyani mavjud ekanligi. 2010 yilda bo'lib o'tgan Qirg'izistondagi «rangli inqilob»da qirg'izlarning o'zbeklarga nisbatan, 2014 yilda Ukrainada bo'lgan «rangli inqilob»larda ukrainlarning ruslarga nisbatan bo'lgan xatti-harakatlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

- Siyosiy tuzumning turi (demokratik yoki avtoritar). Yuqorida ta'kidlaganimizdek avtoritar tuzum «rangli inqilob»larni amalga

²⁴ Карякин В. Политика США на Ближнем и Среднем Востоке: новые подходы и застарелые проблемы //Центральная Азия и Кавказ (Лулеа, Швеция). № 4.2010. - С. 90-99.

oshirishga juda qulay hisoblanadi. Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlaridagi davlat boshqaruvi tizimi yakkaxokimlik, mamlakatni boshqarish esa avtoritar shaklda bo‘lib, jumladan, Tunis Arab Respublikasi avtoritar respublika hisoblangan. 1987 yilda hokimiyat tepasiga kelgan prezident Ben Ali 2011 yilgacha, ya’ni to‘rt marotaba mazkur lavozimni egallagan va uning boshqaruv guruhi repressiv apparatga tayangan xolda siyosat olib borgan. Xuddi shunday Misrda X., Muborak 1981 yildan buyon, Liviyada M.Kaddafi 1974 yildan buyon real hokimiyat tepasida bo‘lib kelgan.

- Hokimiyatga erishish uchun turli xil klanlar o‘rtasida kurashning mavjudligi. Bunga Liviyadagi vaziyat yaqqol misol bo‘la oladi. Bu yerdagi qabilalar o‘rtasidagi o‘zaro kurash «rangli inqilob»ni kelib chiqishiga asosiy omillardan biri bo‘lgan. Liviyada qo‘zg‘alonlar boshlangan paytda Bengozi shaxridagi eng ko‘p aholiga ega Varfalla qabilasi birinchilardan bo‘lib norozilik namoyishini tashkilashtirgan. Bu xolat mamlakatning boshqa hududlarida istihomat qiluvchi Zintan, Zaviya, Obeydat va boshqa qabilalarning xarakatga kelishiga sabab bo‘lgan.

- Siyosiy elita o‘rtasida qarama-qarshilikning mavjudligi. Bu omilni biz Qirg‘izistonda bo‘lgan «rangli inqilob»larda «shimollik»lar va «janublik»lar o‘rtasida kechgan kurashda yaqqol kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, Liviyada M.Kaddafi ma’muriyatining boshqaruvdagi asosiy kamchiligi siyosiy raqobatni yuzaga kelishiga imkon bermaganligi, ayrim xollarda esa qarama-qarshi fikrli va turli urug‘dan bo‘lgan odamlarni boshqaruv lavozimlariga tayinlaganligidir.

- Maxsus xizmatlar va mudofaa qo‘shinlarining davlat rahbariga nisbatan xayrihoh emasligi. Bu xolat Ukrainada bo‘lgan «rangli inqilob»larda kuzatiladi. Ukrainaning maxsus xizmatlari va qurolli kuchlarining yuqori darajadagi mansabdor shaxslari AQSH va Yevropa maxsus xizmatlari bilan yaqindan aloqa kilib kelgan. Bundan tashqari, ayrim mutaxassislarining aytishicha, Misrda rasmiy xukumatga karshi bo‘lib o‘tgan ommaviy chikishlarga nisbatan armiya betaraf yo‘lni tanlagan.

- Hokimiyatni milliy ozchilik tomonidan egallanishi. Bu omil turli millatlardan tashkil topgan sobik Yugoslaviyani parchalab yuborishda

asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilgan. Suriyada etnik ozchilik vakillari (boshqaruvda bo'lgan alavitlar Suriya aholisining 14 foizini tashkil etsa, sunniylar mamlakat aholisining 74 foizini tashkil etadi) tomonidan mamlakat boshqarilishini ham keltirsak bo'ladi.

- OAV nazoratini xususiy sektor yoki chet el investorlari qo'lga o'tib ketishi. Bu omilni Qirg'iziston, Suriya, Tunis kabi davlatlarda kuzatishimiz mumkin. Qirg'izistonda 2000 yilda Aleksandr Kim tomonidan tashkil qilingan xususiy «MSN» gazetasi («Moya stolitsa — novosti»), «rangli inqilob»larni kelib chiqishida muhim ro'l o'ynagan 2004 yilda AQSH tomonidan 70 ming AQSH dollari miqdorida grant olgan)

Hokimiyat vakillari va yoshlar dunyo qarashining mos kelmasligi. 2011-2012 yillarda bo'lib o'tgan «Arab bahori»da ko'p arab davlatlarida ushbu xolat kuzatilgan. Chunki ko'pchilik yoshlar oliy ma'lumotli bo'lib, aksariyati chet mamlakatlarda taxsil olib kelgan. Xususan, 2001 yil sentabr voqealaridan so'ng, AQSH ma'muriyati tomonidan katta miqdorda federal budjetdan pul mablag'lari ajratilib, arab mamlakatlarida 350 dan ortiq ta'lim, madaniyat, demokratiyani targ'ib qilish dasturlari yaratilgan xamda ma'lumotlar tarqatuvchi bazalar tashkil etilib, AQSh siyosatiga tarafdor fuqarolar qatlamini yaratish bo'yicha ishlar olib borilgan. Ushbu dasturlar yagona «Yaqin Sharqda hamkorlikni qullab-quvvatlash tashabbusi» dasturiga birlashtirilib, ushbu dasturlar faoliyati AQSH NNTlari orqali amalga oshirilgan. Ularning faoliyati AQSH Davlat departamenti tomonidan nazorat qilingan.

- Aholi o'rtasida hokimiyatdan norozi bo'lgan qatlam vakillarini ko'payishi. Bu omil deyarli barcha «rangli inqilob»larda kuzatiladi. Chunki «rangli inqilob»larni o'ziga xos tamoni, siyosiy texnologlar avval ommani hokimiyatga qarshi qo'yib, so'ng shu omma qo'li bilan hokimiyatni ag'darishga xarakat qiladi.

- Transchegaraviy tahdidlarning mavjud ekanligi. Narkotrafik, terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, qurol savdosi kabi transchegaraviy tahdidlar Markaziy Osiyoda xam Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqalarida ham yaqqol kuzatiladigan xodisadir.

- Mintaqada notinch mamlakatning mavjudligi. Yaqin Sharq va

Shimoliy Afrikada bo‘lgan «rangli inqilob»larda Falastin-Isroil muammosining bir necha yillardan buyon yechilmay kelayotganligi bu mintaqaning beqarorlashuviga olib kelgan omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

- Mamlakatda tabiiy qazilma boyliklarni mavjud ekanligi. Buni Yakin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida yaqqol kuzatish mumkin. Ushbu omil tashqi kuchlarning asosiy maqsadi bo‘lib xizmat qilgan. Xususan, Liviya Afrikada katta miqdordagi neft zaxirasiga ega davlat hisoblanib, neft ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha mintaqada uchinchi o‘rinda bo‘lgan.

- Mamlakat savdo yo‘llari o‘tgan strategik mintaqada joylashganligi. Bu omilni Misr, Liviya, Tunisda kuzatish mumkin. Ukraina ham Rossiya gazini Yevropaga tranzit qilishda strategik mamlakat hisoblangan. Markaziy Osiyo mintakasi Xitoy bilan Yevropa va Afrika bilan bog‘lovchi strategik mintaqada hisoblanganligi uchun bu mintakadagi Qirg‘izistonda bo‘lgan «rangli inqilob»da bu omil bo‘lganligini ta’kidlasak bo‘ladi.

- Qudratli davlatlarning manfaatlari to‘qnashuvining keskinlashishi. Bu omil, shubhasiz, barcha davlatlarda sodir bo‘lgan «rangli inqilob»larda kuzatish mumkin. Chunki tanlangan mamlakatda manfaat bulmasa, bu yerda harakat qilishga ham hojat bo‘lmaydi.

Adabiyotlar ro‘yhati.

¹1..Гриняев С.Н., Арзуманян Р.В., Воробьев А.В., Аньшина Е.В., Кравченко В.Ю., Медведев Д.А. Иррегулярные конфликты: «цветные революции». Анализ и оценка форм, приемов и способов ведения операций по смене режимов в суверенных государствах / Под общ.ред. С.Н. Гриняева. — М.: АНОЦСОиП, 2015. - С. 75.

2. Лабинская И. События в Северной Африке и на Ближнем Востоке: причины и следствия //Мировая экономика и международные отношения (Москва, ИМЭМО). 2011. № 7. - С. 11-25; № 8. - С. 52-66.

3. Карпович О. Г., Манойло А. В., Наумов А. О. Противодействиетехнологиям цветных революцийв молодежной среде. Кандидат. - М.: 2015. - 98 с.

4. Карякин В. Политика США на Ближнем и Среднем Востоке: новые подходы и застарелые проблемы //Центральная Азия и Кавказ (Лулеа, Швеция). № 4.2010. - С. 90-99.

ГЕОЭКОНОМИЧЕСКОЕ ИНТЕРЕСЫ КНР В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

*Назирова М.М.,
доктор философии по политическим наукам (PhD),
(Международная исламская академия Узбекистана)*

Центральная Азия – не только ключевой регион на карте мира, установление контроля над которым позволяет управлять региональным транзитом углеводородов и других видов стратегического сырья для крупнейших развивающихся экономик (прежде всего, Китая) и, как следствие, влиять на их экономический рост и совокупную мощь. Центральная Азия – это перекресток цивилизаций, контроль над которым, как считалось на протяжении веков, позволяет властвовать над миром. Это свое исключительное геополитическое значение регион сохраняет и сегодня.

В XXI веке Центральная Азия находится в повестки дня международной политики. Регион, обладая богатыми природными ресурсами, имеет важное геостратегическое положение, в котором наблюдается геополитическое противостояние глобальных акторов. С перспективы Китая Центральная Азия представляется альтернативным источником энергоносителей и витальным партнером для стабилизации и развития провинции Синьцзян.

Стоит отметить, что КНР, ввиду географически близкого расположения и ментальной общности, исконно имела дружественные и добрососедские взаимоотношения со странами Центральной Азии.

По мнению многих китайских экспертов, США представляют угрозу для экономического роста Китая, потому Китай должен свести свою зависимость от США до минимума. Политика Китая в области энергетики направлена на контроль продукции от зонда до терминала или обеспечение долгосрочных поставок путем покупки акций компании-производителя. Например, ввиду особой недоверчивости к рынкам, Китай в большей степени инвестирует в акции и долгосрочные контракты на поставку, в отличие от западных нефтяных стратегий, направленных на защиту от шоков предложения и цен.

В этих рамках видно, что центральноазиатские энергоресурсы, наряду с российскими энергоносителями, являются наиболее удобными для Китая. Однако такие факторы, как неспособность Китая успешно договориться с Россией о строительстве трубопровода из Восточной Сибири в Северо-Восточный Китай, заставили Китай искать совместные энергетические проекты с несколькими странами Центральной Азии.

Другими словами, Центральная Азия имеет значение для Китая с точки зрения обеспечения энергоресурсами и диверсификации транспортных маршрутов, потому что этот регион более безопасен, чем морские маршруты, контролируемые США. Весьма вероятно, что страны региона будут участвовать в энергетическом сотрудничестве с Китаем, а не с США из-за его географического положения.

Подписав соглашение с Казахстаном в 1997 году, Китай объявил, что инвестирует \$11 млрд. в проекты в энергетическом секторе. Начав активную деятельность в странах Центральной Азии, китайские компании сейчас добывают 20 миллионов тонн нефти в Казахстане, где работает наибольшее количество компаний. Китайская национальная нефтегазовая корпорация China National Petroleum Corporation (CNPC) вошла в пятерку компаний по объему добычи нефти в конце 2017 года в Казахстане. [CNPC 2022]

На казахстанском рынке углеводородов Китай представлен крупнейшими энергетическими компаниями: CNPC, Sinopec, CITIC. Объем нефти, добываемой в Республике Казахстан с участием

китайских компаний, составляет около 45 млн. тонн, что составляет более 50% от общей годовой добычи нефти. В настоящее время продолжается строительство/реконструкция Атырауского НПЗ (с участием Sinopec), Шымкентского НПЗ (с участием CNPC), Актауского завода пластмасс и Мойнакской ГЭС. В Актау строится битумный завод с долей китайского капитала, завод будет удовлетворять растущий спрос при строительстве транспортного коридора «Западный Китай-Западная Европа».

Стремительно развивается инфраструктура нефте- и газопроводов. В декабре 2010 года началось строительство второго участка газопровода «Бейнеу-Бозой-Шымкент» протяженностью 1475 км. Завершено техническое обоснование проекта и переговоры о создании совместной компании по строительству и коммерческой эксплуатации газопровода.

Китайский капитал присутствует во многих сферах туркменской экономики. [Парамонов 2015]. В нефтегазовой отрасли Туркменистана активно работает Китайская национальная нефтегазовая корпорация (CNPC) и ряд других компаний, которые реализуют множество проектов. Китайцы активно участвуют в подготовке к освоению газоносной территории «Багтиярлык» (восточная часть Туркменистана, правобережье реки Амударья), а также в строительстве газоперерабатывающего завода вблизи газоносной территории «Багтиярлык». Китай также участвует в геологоразведке газового месторождения «Южный Иолотань» (юго-восточная часть Туркменистана) и строительстве туркменского участка магистрального газопровода «Туркменистан – Китай». КНР также намерена участвовать в разработке месторождений природного газа, расположенных к западу от реки Аму-Дарья. [Xinhua 2011]

Поднебесная поставляет в Туркменистан нефтегазовое оборудование (в основном буровые установки, транспортные средства, а также запасные части и комплектующие к ним). В ряде случаев Пекин предоставляет Ашхабаду кредиты для закупки техники китайского производства, а кредитором выступает Экспортно-импортный банк КНР. Надо отметить, что Китайская

национальная нефтегазовая корпорация создала в Туркменистане более 15 тыс. рабочих мест и подготовила свыше 60 тыс. специалистов управления муниципального уровня. [Син Ли 2013: 58]

В отличие от Казахстана, Кыргызстана и Таджикистана, Узбекистан не имеет общей границы с Китаем. После обретения независимости этим трем региональным странам пришлось решать пограничные споры с Китаем, чего не произошло с Узбекистаном.

2015-2016 годы ознаменовались скромным увеличением экспорта газа из Узбекистана в Китай, и, судя по возрастающей тенденции, она будет расти и дальше. Экспорт газа из Узбекистана в Китай интегрирован в более крупную торговую сеть по энергетике между Китаем и центрально азиатскими государствами. Газопровод Центральная Азия - Китай начинается из Туркменистана и проходит через Узбекистан и Казахстан, а затем входит в китайскую провинцию Синьцзян. Узбекистан также экспортирует большую часть своего урана в Китай.

Инициатива «Один пояс – Один путь» (ОПОП) – это потенциально трансформационная инициатива геополитического развития, выдвинутая Китаем, которая охватывает 65 стран, на которые приходится примерно 32 процента мирового ВВП, 39 процентов мировой торговли и 63 процента населения мира. ОПОП, также называемый Экономическим поясом Шелкового пути (ЭПШП) и Морским шелковым путем (МШП) XXI века, является геополитической инициативой, выдвинутой президентом Китая Си Цзиньпинем, которая выходит далеко за рамки создания инфраструктуры вдоль древнего Шелкового пути. Инициатива направлена на развитие широкой сети связей и сотрудничества, охватывающих всю евразийскую территорию суши и части Африки, включая Центральную, Юго-Восточную и Южную Азию, Ближний Восток, Европу, Северную и Восточную Африку.

Согласно терминологии ОПОП, «пояс» относится к наземному соединению (через ЭПШП) и «дорога» к морским маршрутам (через МШП). Первоначально представленная в 2013 году в Университете Назарбаева в Астане под названием «Один пояс – Один путь», эта

инициатива в настоящее время называется Инициативой Пояса и пути (ИПП). Она широко рассматривается как знаковая стратегия Китая в области глобализации, развития и мягкой силы и тесно связана с лидерством президента Си. К настоящему времени ИПП стал весьма заметным геополитическим проектом: в мае 2017 года президент Си организовал в Пекине первый форум «Пояс и дорога», в котором приняли участие 29 глав государств и делегаций из 130 стран и 70 международных организаций. Второй форум BARF (Belt and Road Forum) проведен в 2019 году.

Объем инвестиций, ожидаемых в рамках ИПП, огромен. По сообщению китайского правительства, под эгидой ИПП уже освоено инвестиций на сумму \$890 млрд., при этом общий объем инвестиций Китая в рамках этой инициативы составит около \$4 трлн.

Хотя развитие физической инфраструктуры по-прежнему является наиболее обсуждаемым компонентом ИПП, официальный Пекин заявляет, что данный элемент инициативы является лишь одним из пяти основных составных частей ИПП:

- Координация политики: планирование и поддержка крупных инфраструктурных проектов развития;
- Подключение объектов: создание объектов для обеспечения возможности подключения вдоль пояса и дороги;
- Торговля и инвестиции: содействие трансграничным инвестициями сотрудничеству в цепочке поставок;
- финансовая интеграция: улучшение координации финансовой политики и двустороннего финансового сотрудничества;
- культурный обмен: развитие связей и сотрудничества между людьми.

Один из способов связать пять тематических областей – это рассмотреть ИПП как инициативу, направленную на улучшение связи Китая с 65 странами на трех континентах через (а) физическую инфраструктуру (дороги, железные дороги, трубопроводы, сети электропередачи), (б) торговлю, инвестиции, финансовые потоки, и (в) обмены между людьми.

В рамках тематической области подключения в ИПП в настоящее время включены семь основных сухопутных и морских коридоров:

- Новый Евразийский сухопутный мост из Западного Китая в Европу;
- коридор Китай-Монголия-Россия от Северного Китая до Восточной России;
- коридор Китай – Центральная Азия – Западная Азия, от Западного Китая до Турции;
- коридор Китай – Индокитайский полуостров, от Южного Китая до Сингапура;
- коридор Китай-Мьянма-Бангладеш-Индия от Южного Китая до Индии;
- Китайско-Пакистанский коридор, от юго-западного Китая до Пакистана;
- МШП – от побережья Китая/Южного Китая до Сингапура и через Средиземное море через Индийский океан, Аравийское и Красное море.

В то время как популярные названия, такие как «новый шелковый путь», подразумевают, что компонент связи ИПП включает в основном маршруты через Центральную Азию, в действительности только два из этих семи коридоров пересекают пять стран, составляющих регион Центральной Азии. [Raad360.com]

У Китая и Узбекистана нет политических разногласий, и им удалось вывести свои отношения на уровень взаимовыгодного партнерства. Ввиду этого, Китай и Узбекистана активно работают над развитием транспортного сообщения и в случае успешного завершения совместных проектов, предполагается, что объемы двусторонней торговли могут расти геометрической прогрессией. Сотрудничество в сфере энергетики может также внести значимый вклад в двусторонние экономические отношения и улучшить статус Узбекистана во внешней политике Китая.

Если Пекин построит железнодорожный коридор Китай-Кыргызстан-Узбекистан и дальше через Туркменистан в Иран и Персидский залив с возможным выходом из Ирана через Турцию в

Европу по плану «Один пояс – Один путь», этот раздел станет из числа важнейших элементов, обеспечивающих включение Узбекистана в глобальную сеть логистических маршрутов. После реализации данного проекта Узбекистан получит прямой выход не только в Китай, но и на Ближний Восток.

Таким образом, Центральная Азия может использовать возможности и ресурсы инициативы «Один пояс – Один путь» для активного продвижения отечественной продукции на новые рынки – в Китай и другие страны, расположенные вдоль пояса, для привлечения инвестиций в развитие базовых секторов национальной экономики.

Литература:

- 1..China-Turkmenistan Cooperation Committee holds 2nd meeting. // Xinhua. http://news.xinhuanet.com/english/china/2012-07/27/c_131743729.htm.
2. RAAD. <http://raad360.com/blog-post/chinas-belt-road-initiative-blog-12/>
3. Официальный сайт CNPC. http://www.cnpc.com.cn/ru/hskst/hskst_index.shtml.
4. Парамонов В., Строков А., Столповский О. Экономическое присутствие Китая в Туркменистане. Часть 2. <http://ceasia.ru/ekonomika/ekonomicheskoe-prisutstvie-kitaya-v-turkmenistane.-chast-2.htm>
5. Син Ли, Чэнсин Ван. Стратегия энергетической безопасности Китая в Центральной Азии // Сравнительная политика и геополитика. - 2013. - № 2(12). - С. 58.

AFG‘ONISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHGA MAS’UL DAVLAT TUZILMALARI FAOLIYATIGA NAZAR

*Rashidov R.R.,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

(O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti)

Afg‘onistonda keyingi 40 yildan ortiq vaqt mobaynida xavfsizlik va barqarorlik juda dolzarb masala bo‘lib qolayotgan sharoitda jamoat tartibini saqlashga va jamoat xavfsizligini ta‘minlashga mas‘ul davlat tuzilmalarining faoliyati alohida e‘tiborni talab qilmoqda.

2001 yildan boshlab Afg‘onistonda yangicha siyosiy tizim yaratish jarayonlarining debochasini boshlab bergan Bonn Kelishuvlariga asosan xalqaro hamjamiyat rahnamoligida xavfsizlikni ta‘minlovchi kuchlarni qayta tiklashga kirishildi hamda mamlakatdagi turli noqonuniy kuchlarga qarshi kurashda muhim tayanch bo‘lishi uchun Afg‘oniston Mudofaa vazirligi tarkibida Afg‘on Milliy Armiyasi hamda Afg‘oniston Ichki Ishlar vazirligi tarkibida Afg‘on Milliy Politsiyasi tuzila boshlandi [1]. Xavfsizlik tuzilmalari dastlab 60 ming nafardan iborat armiya, 8 ming nafar harbiy havo kuchlari, 12 ming nafar chegara qo‘shinlari va 70 ming nafar politsiya kuchlaridan iborat tarkibda tashkil etilishi rejalashtirildi [2].

2005 yil oxiriga qadar amalga oshirilgan “Qurolsizlanish, demobilizatsiya va reintegratsiya” (QDR) dasturi [3] hamda mahalliy militsiya kuchlari sifatida faoliyat yuritgan 129 ming nafar qurollangan shaxslardan iborat 1800 dan ortiq guruhlarning faoliyatiga chek qo‘yish maqsadida “Noqonuniy qurolli guruhlarni tarqatib yuborish” (Disbandment of Illegal Armed Groups – DIAG) [4] kabi dasturlar ham amalga oshirildi va bu afg‘on zaminida jamoat xavfsizligini ta‘minlashga mas‘ul bo‘lgan davlat tuzilmalarini faoliyatini yangidan boshlash oldidan ko‘rilgan muhim chora-tadbirlar sifatida qayd etildi.

2002 yil boshlarida taxminan 50000 – 60000 nafar afg‘on fuqarolari joylarda militsiya xodimi sifatida faoliyat yuritar edi va ularning aksariyati kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lmay 70-90 %i savodsiz edi. Shuningdek, ularning moddiy texnik ta‘minoti nochor ahvolda bo‘lib, markaziy hokimiyatdan ko‘ra, ko‘proq dala qo‘mondonlari va mahalliy yetakchilarga loyal munosabatda edilar.

2002 yil boshlaridan qayta tashkil etila boshlangan Afg‘on Milliy Politsiyasi 2014 yil oxirlariga kelib taxminan 152 ming nafarga yetgan edi [5] va uning tarkibida quyidagi tuzilmalar shakllantirilgan edi:

- Afg‘on Formali Politsiyasi (Afghan Uniform Police);
- Chegara Politsiyasi (Border Police);
- Jamoat Tartiboti Politsiyasi (Civil Order Police);
- Yo‘l-harakati Politsiyasi (Traffic Police);
- Narkotiklarga va Terrorizmga qarshi Politsiya (Counter Narcotics and Counter Terrorism Police);
- Tabiiy ofatlarga va Yong‘inga qarshi kurash Politsiyasi (Natural Disasters and Fire Fighting Police);
- Jinoyat Tergovi Boshqarmasi (Criminal Investigations Department);
- Moliya va Byudjet Boshqarmasi (Finance and Budget Department);
- Pasport Boshqarmasi (Passport Directorate) va shu kabilar [6].

Afg‘on Milliy Politsiyasini zamonaviy tarzda shakllantirish bo‘yicha qabul qilingan Strategiyada quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan edi:

- Ehtiyojlardan kelib chiquvchi va standartga mos o‘quv hamda kasbiy tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirib borish;
- Maqsad va vazifalarga mos zamonaviy moddiy-texnik jihozlar bilan ta‘minlash;
- Noqonuniy qurolli guruhlarini qurolsizlantirish;
- Operatsiyalar o‘tkazish qobiliyatini rivojlantirish va shaxsiy tarkibdagi yo‘qotishlar miqdorini kamaytirish;
- Ichki ishlar vazirligi tizimida xotin-qizlarning faoliyat yuritishini kengaytirish;
- Ba‘zi hududlarda Ichki ishlar tizimi tarkibiga kirmay qolgan mahalliy politsiya tuzilmalarini standartlarga muvofiq Afg‘on Milliy Politsiyasi tarkibiga integratsiyalashuvini qo‘llab-quvvatlash;
- Ichki ishlar tizimida tarkibiy islohotlarni olib borish va fuqaroparvar ko‘nikmalarni kuchaytirish;
- Jamoat tartibotini saqlash va qonun ustuvorligini ta‘minlashda fuqarolar ishtirokini kengaytirish;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda politsiya faoliyatida shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini tatbiq etish;
- Sud, adliya va boshqa davlat tuzilmalari bilan hamkorlikdagi faoliyatni kuchaytirish;

- Politsiya tuzilmalari faoliyatida, xususan qamoqxonalar va jazoni ijro etish muassasalarida inson huquqlariga rioya qilinishini ta'minlash;
- Uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va narkotik moddalar yetishtirishga qarshi kurashish;
- Politsiya tuzilmalarida mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilash [7].

Bir qator kamchiliklar va salbiy omillarga qaramasdan, Afg'oniston xavfsizlikni ta'minlovchi kuchlari, ya'ni Afg'on Milliy Armiyasi va Afg'on Milliy Politsiyasi 2013 yil iyunidan boshlab butun mamlakat hududida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi [8]. Biroq, ushbu tuzilmalar o'z faoliyatini samarali tarzda tashkil eta olmadi va o'z zimmasidagi mas'uliyatli vazifalarni to'laqonli bajara olmadi. Natijada 2021 yilning yozida "Tolibon" harakati Afg'onistonda markaziy hokimiyatni egalladi.

Bir qator ekspert va tahlilchilar Afg'oniston Islom Respublikasi Qurolli Kuchlari faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazgan omillardan biri sifatida 2020 yil fevralida AQSH va "Tolibon" harakati o'rtasidagi kelishuvni keltirib o'tadilar. Jumladan, AQShning Afg'onistonni qayta tiklash bo'yicha maxsus inspektori (Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction, SIGAR) tomonidan olib borilgan o'rganishlar natijasida chop etilgan bir qator tahliliy ma'lumotnoma va dokladlar bu borada atroflicha ma'lumot beradi [9]. Xususan, Afg'onistonni qayta tiklash bo'yicha maxsus inspektor tahlillariga ko'ra, AQSH va "Tolibon" kelishuvi Afg'onistonda jamoat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul davlat tuzilmalarining jangovar ruhiga zarba bergan hamda AQShning o'z qo'shinlarini Afg'onistondan zudlik bilan olib chiqib ketishi 2021 yilning avgustida afg'on xavfsizlik kuchlarining to'satdan qulashiga asosiy sabab qilib keltirilgan [10].

Shuningdek, Afg'onistonni qayta tiklash bo'yicha maxsus inspektori o'z tahlillarida 2021 yil yoziga kelib afg'on xavfsizlik kuchlari tanazzulga uchrashining quyidagi sabab va omillarini keltirib o'tadi:

1. Biror bir mamlakat yoki agentlik Afg'oniston milliy mudofaa va xavfsizlikni ta'minlovchi kuchlari (Afghanistan National Defense and Security Forces – ANDSF) faoliyatini ta'minlash hamda qo'llab-

quvvatlash bo'yicha to'la javobgarlik va mas'uliyatni o'z zimmasiga olmadi, bu holat o'z navbatida butun xalqaro hamjamiyatning muvofiqlashtirilmagan harakatlariga olib keldi.

2. AQSH Afg'oniston mudofaa va xavfsizlikni ta'minlovchi kuchlari faoliyatini yo'lga qo'yish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha cheksiz hamda muddatsiz yordam ko'rsatib keldi. Jumladan, AQSH hukumati Afg'oniston mudofaa va xavfsizlikni ta'minlovchi kuchlariga eng ilg'or va zamonaviy qurol-yarog'larni bergan bo'lsa-da, afg'on kuchlari ulardan foydalana olmadi.

3. AQSH harbiylari hukumat tomonidan qo'yilgan siyosiy talablarni bajarish uchun belgilangan muddatda Afg'oniston xavfsizlikni ta'minlovchi kuchlarining mustaqil harbiy harakatlar olib boruvchi, tegishli tajriba va ko'nikmaga ega tuzilmaga aylanishi uchun katta say-harakatlar olib bordilar. Biroq, Afg'oniston xavfsizlikni ta'minlovchi kuchlari rivojlanishini belgilovchi AQSH tomonidan o'rnatilgan talablar va o'lchovlar Afg'oniston xavfsizlikni ta'minlovchi kuchlarining real imkoniyatidan kelib chiqmagan edi.

4. Afg'oniston xavfsizlikni ta'minlovchi kuchlarining to'laqonli faoliyat yuritishiga mamlakatdagi yuqori darajadagi korrupsiya ham salbiy rol o'ynadi [10].

Bugungi kunda Afg'onistonda hokimiyatda turgan "Tolibon" hukumati jamoat xavfsizligini ta'minlashga ham muayyan darajada e'tibor qaratmoqda. Toliblarning bu boradagi say-harakatlari sifatida mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlanishiga erishish, noqonuniy hamda turli terroristik, ekstremistik guruhlar faoliyatiga chek qo'yish kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. Toliblar ushbu maqsadda oldingi hukumat tizimida faoliyat yuritgan Afg'on Milliy Politsiyasi salohiyatidan to'laqonli foydalanib kelmoqdalar, ya'ni bugungi kunda Afg'on Milliy Politsiyasi shaxsiy tarkibining aksariyat qismi "Tolibon" hukumati uchun xizmat qilmoqda va Afg'on Milliy Politsiyasining mavjud moddiy-texnik bazasi ham to'laqonli toliblar tasarrufiga o'tgan.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga yakun yasab aytish mumkinki, Afg'onistonda keyingi 40 yildan ortiq vaqt mobaynida xavfsizlik va

barqarorlikni ta'minlash sohasida jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda va bu borada quyidagi xulosalarni bildirish o'rinli bo'lar edi.

Birinchi, Afg'onistonda jamoat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul davlat tuzilmalarini shakllantirish hamda ularning to'laqonli, muntazam va kuchli tuzilmalarga aylanishiga erishish 2001 yildan so'ng yangidan shakllantirilgan afg'on davlatining faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishi lozim edi. Biroq, tadqiq etilayotgan davrda afg'on davlatining qurolli kuchlarni, shu jumladan jamoat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul davlat tuzilmalarini barpo etish yo'lidagi say-harakatlari besamar ketdi hamda yuqoridagi tuzilmalar bir qator kamchilik va muammolar, shuningdek salbiy illatlardan qutula olmadi.

Ikkinchi, Afg'on Milliy Politsiyasini shakllantirish bo'yicha qabul qilingan Strategiyada belgilangan maqsad va vazifalarning [7] tahlili shuni ko'rsatadiki, 2002-2020-yillar mobaynida ulardan ba'zilari (o'quv va kasbiy tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirish, politsiya tuzilmalarida xotin-qizlarning faoliyat yuritishini kengaytirish, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilash) nisbatan muvaffaqiyatli bajarilgan bo'lsa, qolgan aksariyat maqsad va vazifalarning amalga oshirilishida kamchiliklar hamda yetishmovchiliklar saqlanib qoldi va bu Afg'on Milliy Politsiyasi faoliyatida salbiy aks etdi.

Uchinchi, afg'on jamoat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul davlat tuzilmalari operativ-taktik darajada ham o'z salohiyatini to'laqonli namoyon eta olmadi. Jumladan, mazkur tuzilmalarda harbiy-taktik tayyorgarlikning past darajada qolganligi, o'z byudjetining yo'qligi, harbiy xizmatchilar oylik maoshi miqdorining kamligi, zamonaviy qurol-yarog' hamda moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlanganlik darajasining pastligi, shuningdek shaxsiy tarkibda boshlang'ich va undan yuqori bilim olganlik darajasining pastligi, ya'ni oliy ma'lumotli, malakali ofitser-zobitlar umumiy harbiy xizmatchilarning atigi 10 %ni tashkil etishi hamda armiya saflarida korrupsiyaning mavjudligi jamoat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul tuzilmalar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

To'rtinchi, bugungi kunda "Tolibon" hukumati oldida jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, tinchlik va barqarorlikka erishish, terroristik va ekstremistik

kayfiyatdagi guruhlar faoliyatiga chek qo'yishga qaratilgan masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jones, S.G., Munoz, A. Afghanistan's Local War: Building Local Defense Forces. – Santa Monica, CA: RAND Corporation, 2010. – P. 6.

2. Jalali, A.A. Rebuilding Afghanistan's National Army / Parameters, US Army War College Quarterly – Autumn 2002. – P. 82. <http://strategicstudiesinstitute.army.mil/pubs/parameters/Articles/02autumn/jalali.htm>

3. Maley, W. Rescuing Afghanistan. – Sydney: University of New South Wales Press Ltd, 2006. – R. 68-69.

4. Bhatia, M. and Sedra, M. Afghanistan, Arms and Conflict. Armed groups, disarmament and security in a post-war society. – New York: Routledge, 2008. – R. 134-135.

5. Report on Progress Toward Security and Stability in Afghanistan. October 2014. Report to Congress. – R. 53. available at: http://www.defense.gov/Portals/1/Documents/pubs/Oct2014_Report_Final.pdf

6. Murray T. Reinventing the Police: Output versus Impact / Afghanistan's security sector governance challenges. The Geneva Centre for the Democratic Control of Armed Forces (DCAF) Regional Programmes Series № 10. – Geneva: Procon Ltd., 2011. – R. 23-43.

7. National Police Strategy Goals. Ministry of Interior Affairs (MoIA). <http://moi.gov.af/en/page/dms/policy>

8. Brown V.F. Security and Political Developments in Afghanistan in 2014 and After: Endgame or New Game / Outlook on Security № 2, 2014. – R. 8. <http://www.brookings.edu/research/papers/2014/03/24-security-political-developments-afghanistan-2014-beyond-felbabbrown>

9. Qarang: Reconstructing the Afghan National Defense and Security Forces: Lessons from the U.S. Experience in Afghanistan. Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction (SIGAR) Report. September 2017. – 260 r.; What We Need to Learn: Lessons From Twenty

Years of Afghanistan Reconstruction. Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction (SIGAR) Report. August 2021. – 122 r.; Collapse of the Afghan National Defense and Security Forces: An Assessment of the Factors That Led to Its Demise. Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction (SIGAR) Interim Report. May 2022. – 63 r.; Police in Conflict: Lessons from the U.S. Experience in Afghanistan. Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction (SIGAR) Report. June 2022. –308 r.

10. Collapse of the Afghan National Defense and Security Forces: An Assessment of the Factors That Led to Its Demise. Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction (SIGAR) Interim Report. May 2022. – R. 6-7.

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI SIYOSIY PARTIYALARI MAFKURASIDA SOTSIAL-DEMOKRATIYA G‘OYALARINING O‘RNI

Rasulova N.S.,

tarix fanlari nomzodi, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining o‘zaro raqobat qiladigan muhim elementi bo‘lib, ular muayyan ijtimoiy guruhlarining manfaatlari, ehtiyojlari va maqsadlarini aks ettiruvchi fuqarolik jamiyati va davlat o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi. Siyosiy partiyalarning vazifasi – alohida fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar, manfaatdor guruhlarining ko‘plab xususiy manfaatlarini ularning umumiy siyosiy manfaatiga aylantirish. Partiyalar va saylov tizimi orqali fuqarolarning siyosiy hayotdagi ishtiroki rasmiy shakl oladi. Ular siyosiy hokimiyat mexanizmining ishlashida faol ishtirok etadi yoki unga bilvosita ta’sir etadi. Partiyalar faoliyatining yana bir muhim jihati ularning aholiga mafkuraviy ta’sir ko‘rsatishidir, ularning siyosiy ong va madaniyatni shakllantirishdagi roli ham katta.

Ma'lumki, siyosiy partiya g'oya va mafkurasiz mavjud bo'lmaydi. Siyosiy partiyalarning kuchi va ijtimoiy hayotdagi mavqei ularning g'oya va mafkuralariga bog'liq. G'oya va mafkura ijtimoiy taraqqiyotda muhim o'rin tutadi, jamiyat a'zolarini birlashtiradi, umumiy maqsadlarga safarbar etadi. «Partiya mafkurasini – tashqi muhitni shakllantirish va rivojlantirish yo'lini o'zida aks ettiruvchi jamlangan va rasmiylashtirilgan g'oya, qarash, tasavvur va qadriyatlar tizimidir»²⁵.

Siyosiy partiyalar mafkuralari orasida sotsial-demokratiya g'oyasi ancha keng tarqalgan hisoblanadi. Zamonaviy sotsial-demokratiyaning ildizi utopik sotsializm konsepsiyasi shakllangan dastlabki sanoat inqilobi davriga to'g'ri keladi. Sotsial demokratiya 1789 yilgi Fransuz inqilobi mafkurasini hamda K.A.Sen-Simon, SH.Furye, R.Ouen kabi sotsialistlarning g'oyalari ta'sirida yuzaga kelgan. G'arbiy Yevropaning qator mamlakatlarida sanoat rivojlanib, yirik korxonalar vujudga kelgach og'ir mehnatdan azoblanayotgan ishchilarning haq-huquqlarini himoya qilish uchun sotsial-demokratlar guruhi shakllangan. Ular dastlab matbuot va kasaba uyushmalari orqali, keyinchalik esa siyosiy partiyalar orqali harakat qilganlar. Bu turdagi partiyalar faoliyatining asosida demokratik shart-sharoitlar yaratib, mehnatkashlarning ijtimoiy (sotsial) huquqlarini himoyalash yotardi. Shu bois ham ular *sotsial-demokratik partiyalar* deb atala boshladi.

Umuman olganda, zamonaviy sotsial-demokratiya adolat, erkinlik va birdamlik prinsipiga tayanib, xalqning farovonligini muntazam oshirib borish maqsadini ko'zlaydi. Bu yo'nalishdagi partiyalar inson huquqlarining ta'minlanishi, irqi, milliy va diniy mansubligi, jinsi, yoshi yoki tashqi ko'rinishiga oid boshqa xususiyatlar bilan kamsitilishiga qarshi kurashish, huquq va imkoniyatlarning tengligini himoyalash, "umumiy (yalpi) farovonlik davlati"ni shakllantirish, siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, adolatli savdo, amaliy ta'sir ko'rsatadigan jamoatchilik nazorati sistemasini yaratish va qo'llash, boy va kambag'allar o'rtasidagi tavofutni kamaytirish, aholining kambag'al qatlamini qo'llab-quvvatlash,

²⁵ Мейтус В., Мейтус Вл. Политическая партия: стратегия и управление. – Киев: Эльга, Ника-Центр, 2004. – С.85.

ishsizlikka qarshi kurashish kabi *prinsiplarning* ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratadilar. Saylovda g'alabani ta'minlash uchun hozirgi sotsial-demokratik partiyalar avvalo yollanma mehnat vakillari, ya'ni o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, ijtimoiy xizmat sohasida band bo'lgan kishilarning manfaatlarini himoya qiladi.

Hozirda amalda bo'lgan sotsial-demokratiya prinsiplari demokratik sotsializmni qaror toptirishga intilayotgan aksariyat siyosiy partiya va tashkilotlar Sotsialistik Internatsional tashkilotiga birlashganlar.

Sotsialistik Internatsional (qisqa nomi – Sotsintern)ning Ustavida belgilanishicha, uning maqsadi – birlashmaga kiruvchi partiyalar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ularning qarashlari va harakatlarini o'zaro kelishuv asosida muvofiqlashtirish, shuningdek birlashma a'zosi bo'lmagan, lekin Sotsintern bilan hamkorlik qilishni istovchi sotsialistik yo'nalishdagi boshqa partiyalar bilan aloqalarni kengaytirishdir.

Sotsialistik Internatsional – xalqaro nohukumat sotsial-demokratik tashkilot hisoblanadi. Uning qarorgohi (kotibiyati) Londonda joylashgan bo'lib, 1951 yil 3 iyulda Frankfurt kongressida tashkil topgan. Sotsial demokratiya va sotsial liberalizm g'oyalariga asoslangan Sotsialistik Internatsional bugun jahonning barcha mintaqalaridagi 145 ta siyosiy partiya va tashkilotlarni birlashtirgan ²⁶.

Tashkilotning *haqiqiy a'zolari* uning yig'ilishlarida so'zlash, fikr bildirish, qarorlarni yoqlab yoki qarshi ovoz berish huquqiga hamda a'zolik badallarini to'lash majburiyatiga ega. *Maslahatchi a'zolari* majlisda so'zlashi mumkin, ammo ovoz berish huquqiga ega emas, biroq badal to'lovlarini to'lashga majbur. *Kuzatuvchi maqomidagi a'zolari* yig'ilishlarda ishtirok etishi mumkin, ammo ovoz berish huquqiga ega emas, lekin yillik badallarni to'laydilar. Shuningdek, “Xalqaro sotsialist ayollar”, Xalqaro sotsialistik yoshlar uyushmasi, “Lochin” xalqaro harakati kabi birodarlik tashkilotlari ham so'zga chiqish va ovoz berish huquqiga egadirlar.

²⁶ About us. Progressive politics for a fairer world // www.socialistinternational.org/about.cfm

Osiyo mamlakatlaridan Isroilning Merets-Yaxad partiyasi, Iroqning Kurdiston vatanparvar ittifoqi, Livanning Progressiv-sotsial partiyasi, Malayziyaning Demokratik harakat partiyasi, Mo'g'uliston xalq partiyasi, Nepal kongressi, Pokiston xalq partiyasi, Yaponiyadagi Sotsial-demokratik partiya – Sotsialistik Internatsionalda *a'zo partiyalar*, Rossiya Federatsiyasining “Spravedlivaya Rossiya” partiyasi va Qozog‘istonning “Umummilliy sotsial-demokratik partiyasi” – *maslahatchi a'zo*, Qirg‘izistonning “Ota makon” (“Vatan”) partiyasi esa *kuzatuvchi a'zolar* hisoblanadi²⁷[3].

Misol uchun, qo‘shni respublikalardan 1993 yil 25 sentabrda tashkil etilgan Qirg‘iziston sotsial-demokratik partiyasining maqsadi – Qirg‘iziston Respublikasida qudratli iqtisodiy salohiyat (imkoniyat) yaratish, umuminsoniy qadriyatlar, siyosiy va iqtisodiy erkinlik, demokratiya va birdamlik prinsiplari negizida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat pozitsiyalarini mustahkamlashdir²⁸. Partiya tashkil etishning tashabbuskori Almazbek Atambayev bo‘lib, respublikada parlamentning barcha chaqiriqlarida alohida o‘ringa ega bo‘lgan.

Qozog‘iston Umummilliy sotsial-demokratik partiyasi 2006 yil 10 sentabrda tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy shiori – “Ozodlik! Adolat! Birdamlik!”²⁹. 140 mingdan ortiq a‘zolari birlashtirgan ushbu partiya Qozog‘iston siyosiy amaliyotida jahon sotsial-demokratik harakati qadriyatlari, Erkinlik, Adolat, Birdamlik prinsiplari qaror topishi borasida izchil ish olib bormoqda, o‘z oldiga demokratik, huquqiy, sotsial (ijtimoiy) davlat, innovatsion iqtisodiyot barpo etish, yangi insonparvar (gumanitar) siyosatni amalga oshirish vazifalarini qo‘ymoqda.

O‘zbekiston siyosiy partiyalari orasida ham ikkita partiya (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi va O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi) sotsial-demokratiya mafkurasiga asoslanib ish yuritadi. Ushbu partiyalar sotsial-demokratiya g‘oyasining asosiy prinsiplaridan hisoblangan erkin saylov, shaxs va kamchilik huquqining kafolatlari, qonun ustuvorligi va mustaqil sud tizimi g‘oyalariga asoslanib, partiyalarning saylovda g‘alaba qozonishi uchun hozirgi vaqtda ishchilar

²⁷ About us. Progressive politics for a fairer world // www.socialistinternational.org/about.cfm

²⁸ История партии – Социал-демократическая партия Кыргызстана // www.sdpk.kg

²⁹ Программа Общенациональной социал-демократической партии (ОСДП) // www.osdp.info/o-partii-2/

sinfi partiyasi maqomini saqlab qolgani holda, ayni vaqtda boshqa qatlam vakillari, birinchi navbatda, yollanma mehnat vakillari – o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlari, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lganlar – manfaatlarini ham himoya qilmoqda.

1991 yil 18 noyabrda tashkil topgan hamda bugungi kunda 460 ming nafardan ortiq a‘zoni birlashtirgan O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining asosiy maqsadi – ijtimoiy himoya va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj aholi qatlamlarining manfaatlarini himoya qilish bo‘lib, bu uning mamlakat siyosiy kuchlarining so‘l qanoti ekanligini belgilaydi³⁰.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining mafkurasida ilgari surilayotgan ijtimoiy adolat va birdamlik, demokratiya va ozodlik singari qadriyatlar Sotsialistik Internatsionalning asosiy prinsiplari va mafkurasiga bilan hamohangdir. Sotsial-demokratiyaning ushbu asosiy prinsiplari 1995 yil 18 fevralda tashkil etilgan O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining Ustavi va dasturlarida ham o‘z ifodasini topgan.

Partiya Ustavida uning asosiy maqsadi – mustaqil O‘zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan huquqiy-demokratik davlat barpo etish, jamiyatda ijtimoiy adolat o‘rnatish, inson huquqlari va erkini, ma‘naviyat va ma‘rifat qaror topgan fuqarolik jamiyatini ta‘minlash – belgilab qo‘yilgan. Ushbu partiyaning ta‘sischilari O‘zbekistonda o‘rtahol va kam ta‘minlangan aholi qatlamlarining irodasini ifoda etuvchi sotsial-demokratik yunalishdagi partiya tuzish zaruratini tushungan insonlar edi.

430 mingdan nafardan ortiq a‘zoni bir maqsad sari birlashtirgan “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi (ASDP) “Kuch – adolatda!”, “Adolat – hayotimizning bosh mezoni”, “Adolat – har bir inson uchun” g‘oyalariga hamda sotsial-demokratiyaning eng muhim qadriyatlari bo‘lgan – ijtimoiy adolat, erkinlik, birdamlik va imkoniyatlar tengligi prinsiplariga tayanadi³¹.

Yuqorida tahlil etilgan har ikkala partiya ham jahon demokratik harakatining so‘l qanotida qabul qilingan tenglik, ozodlik, adolat,

³⁰ Ўзбекистон Халқ демократик партияси тарихи // www.xdp.uz

³¹ Курултойдан курултойгача. Ўзбекистон “Адолат” социал-демократик партиясининг 2015-2019 йиллардаги фаолияти юзасидан ҳисоботи. – Т., 2019; Ўзбекистон “Адолат” социал-демократик партияси тарихи // www.aspd.uz

birdamlik, demokratiya va inson huquqlari, tinchlik prinsiplariga hamda xalqimizga xos milliy, umuminsoniy hamda demokratik qadriyatlarga amal qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sotsial-demokratik yo'nalishdagi siyosiy partiyalarning mafkuralari partiya elektorati va jamiyat manfaatlarining o'zgarishi asosida doimiy rivojlanib, takomillashib borishi zarur. Ayniqsa, XDP va ASDPlarning boshqa mamlakatlardagi sotsial-demokratiyamafkurasiga asoslangan siyosiy partiyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, ular bilan tajriba almashish, Sotsialistik Internatsional faoliyatida ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash lozim.

Zero, jamiyatimizda qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash, oilalarda, mahallalarda sog'lom muhitni mustahkamlash, ijtimoiy adolat, ilm-fan, ta'lim-tarbiya va sog'liqni saqlash sohasida aholi manfaatlarini himoya qilish barchamizning fuqarolik burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1..Мейтус В., Мейтус Вл. Политическая партия: стратегия и управление. – Киев: Эльга, Ника-Центр, 2004. – С.85.
2. About us. Progressive politics for a fairer world // www.socialistinternational.org/about.cfm
3. История партии – Социал-демократическая партия Кыргызстана // www.sdpk.kg
4. Программа Общенациональной социал-демократической партии (ОСДП) // www.osdp.info/o-partii-2/
5. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi tarixi // www.xdp.uz
6. Qurultoydan qurultoygacha. O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining 2015-2019 yillardagi faoliyati yuzasidan hisoboti. – T., 2019; O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi tarixi. www.aspd.uz

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA GEOSIYOSIY JARAYONLARNING HARBIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHGA TA'SIRI

*Sattorov A.A.,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
(Jamoat xavfsizligi universiteti)*

*Karimov R.
(Farg'ona davlat universiteti)*

Markaziy Osiyo mintaqasi hududlarini garchi milliy mustaqillik yiillarida xavfsizlik barqaror ta'minlanib kelinayotgan bo'lsada, xavfsizlikni to'laqonli ta'minlangan deb bo'lmaydi. Bir qator tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarida bu borada turlicha yondashilib, turli darajada yuz berayotgan geosiyosiy o'yinlar, jarayonlar bu mintaqaning harbiy xavfsizligiga ham ta'sir etib kelmoqda. Mazkur muammo yuzasidan shu jihatlariga yaqin yo'nalishlarda bir qator izlanish, tadqiqotlarni keltirib o'tish mumkin. Tadqiq etilayotgan mavzu ko'p qirrali bo'lgani bois uning u yoki bu jihatlarini o'rganishda nazariy asos bo'lishi mumkin.

Tadqiqotchilar J.Mangeym, T.Parsons, S.Xantington, D.Iston, R.Dal, L.Pay, G.Almond va boshqa bir qator xorijlik nazariyotchi olimlar izlanishlarida siyosiy jarayonlar, ularning turlari, shakllari, dinamikasiga oid konseptual qarash va yondashuvlar ishlab chiqilgan. MDH davlatlari olimlari R.Muxayev, A.Degtyarev, A.Melvil, YE.Meleshkina, K.Borishpolets, A.Axremenko va boshqalarning izlanishlarida siyosiy jarayonlarni postsovet hududi kontekstida tasniflash va tahlil etish uslublari keng yoritilgan.

Markaziy Osiyodagi mintaqaviy va harbiy xavfsizlik muammolarini bir qator tadqiqotlarda ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotlar doirasida asosan "Umumiy xavfsizlik", "hamjamiyat xavfsizligi", "mintaqaviy xavfsizlik kompleksi" va boshqa konsepsiyalar ushbu ilmiy izlanishlar asosida ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan P.Makkambayev³² mamlakatimiz harbiy xavfsizligini ta’minlashning nazariy asoslarini tadqiq etgan bo‘lsa, bir qator MDH davlatlari olimlari S.Antyushin, S.Tyushkevich, Y.Syurilov, V.Danilovlarning tadqiqotlarida harbiy xavfsizlik va harbiy-siyosiy vaziyatning nazariy-metodologik asoslari tadqiq qilingan³³.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda Markaziy Osiyoni siyosiy fanlar doirasida tadqiq etilgan o‘nlab ilmiy nashrlar chop etilgan. Xususan, R.Alimov, S.Safoyev, U.Xasanov, S.Saidolimov, CH.Ko‘charov, A.Jalilov, I.Bobokulov, F.Tolipov, F.Bafoyev va boshqa olimlar izlanishlarida Markaziy Osiyo mintaiaviy xavfsizligining xalqaro-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy jihatlarini hamda geosiyosiy va harbiy omillarini o‘rganganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Markaziy Osiyo davlatlarida yangi milliy davlatchilik asoslarining shakllanishi, suveren taraqqiyot strategiyasining amalga oshirilishi, mintaqada siyosiy jarayonlar kechishining turli jihatlarini M.Olkott, G.Glizon, SH.Akiner, F.Starr, M.Olivye, S.Peyruz kabi amerikalik, yevropalik olim va ekspertlar tomonidan tahlil qilinganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, mintaqadagi harbiy-siyosiy jarayonlar va ularning afg‘on mojarosi bilan bog‘liq jihatlarini R.Allison, L.Jonson, B.Rubin va M.Makkoli kabi olimlarning tadqiqotlarida qisman o‘rganilgan deyish mumkin³⁴.

Garchi ushbu tadqiqotlarda ushbu jarayonlarning u yo bu jihatlarini tadqiq qilingan bo‘lsada, mintaqadagi harbiy xavfsizlik masalalari va geosiyosiy jarayonlarning mintaqa harbiy xavfsizligiga ta’siri tadqiq etilmay qolmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarining har birida tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy jihatdan ko‘p qirrali omillar ta’sirida shakllangan o‘ziga xos qadriyatlar tizimi jamiyat taraqqiyotiga, yangi demokratik davlatchilik institutlarining shakllanish jarayonlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

³²Маккамбаев П.А. Актуальные проблемы обеспечения военной безопасности Республики Узбекистан. Монография. -Т.ТГЮИ, 2010. – 164 с.

³³ Антюшин С.С. Военная безопасность как фактор стабильности российского общества: Социально-философский анализ. Автореф. дисс. на соискание ученой степени кандидата политических наук. – М. ВУ, 2005;

³⁴ Allison R, Jonson L. Central Asian Security: the new international context. – London. Royal Institute of International Affairs, 2001; Rubin B.R. The Fragmentation of Afghanistan: State Formation and Collaps in the International System. – New Haven: Yale University Press. 1995.

Qozog‘istondagi siyosiy vaziyat bir qancha doimiy va vaqtinchalik tashqi va ichki omillarga ko‘ra belgilanadi. Mamlakatda ichki vaziyat va uning umumiy holatini belgilab beruvchi eng muhim omillardan biri uning tarixiy shakllangan etnoijtimoiy va etnodemografik xususiyatidir.

Qozog‘iston jamiyatida manfaatlar muvozanatini ta‘minlashning muhim omili “juz” tizimidir.

Qozog‘istondagi siyosiy tizimning umumiy holati patron-kliyent munosabatlari bilan belgilanib, qozoq xalqining tarixan shakllangan uch subetnik guruhi – “katta juz” (janubiy va janubi-sharqiy Qozog‘iston), “o‘rta juz” (shimoliy, markaziy va sharqiy Qozog‘iston), “kichik juz” (g‘arbiy Qozog‘iston) vakillarining hokimiyat uchun raqobati ko‘rinishida amalga oshdi. Hozirda qozoq millatiga mansub aholining 35 foizi “katta juz” (11 ta urug‘), 40 foizi “o‘rta juz” (7 ta urug‘), 25 foizi “kichik juz” (3 ta urug‘) vakili hisoblanadi[1.14].

Qirg‘izistonda ichki vaziyatning xususiyati uning uzoq yillar davomida

o‘ta nozikligi, iqtisodiy zaiflik, siyosiy tizim inqirozi saqlanib qolayotgani va asosiysi davlat rasmiy institutlarining mavqei jamiyatda va mamlakatning ayrim hududlarida mustahkam emasligi kabi holatlar bilan xarakterlandi. Qirg‘izistonda o‘tish davridagi siyosiy jarayonlar mintaqaning boshqa respublikalaridan farqli o‘laroq jamiyatda barcha siyosiy kuchlarni birdek qanoatlantiradigan siyosiy tizim shakliga erishishning murakkabligi, siyosiy inqirozlarning “rangli inqiloblar” (2005 yilda – “Lola inqilobi”, 2010 yilda – “Aprel inqilobi”) ko‘rinishida vaqti-vaqti bilan takrorlanishi, siyosiy kuchlar manfaatlaridagi muvozanatning yo‘qligi, hukumatni idora qilish shakllarining tez-tez o‘zgartirilishi, mamlakatdagi siyosiy vaziyatga tashqi kuchlarning ta‘siri yuqoriligi, mamlakatning sotsio-madaniy, hududiy jihatdan ikki qismga (“shimol” va “janub”ga) bo‘lingani bilan tavsiflanadi[1.15]. Davomli qarama-qarshiliklar hamda markaziy hokimiyatning respublika bo‘ylab ta‘siri birdek emasligi Qirg‘iziston janubida millatlararo to‘qnashuvlar, qonli voqealar uchun shart-sharoit hozirladi. Bu jarayonlarga albatta geosiyosiy kuchlarning ta‘siri ham bo‘lganligini kurish mumkin.

Tojikistonda esa 1991-1997 yillarda davom etgan qirg'in-barot fuqarolar urushi va ko'plab yo'qotishlarni o'ziga olgan o'tish davri milliy davlatchilikni shakllantirish jarayoni o'ta murakkab kechganligidan dalolat beradi. Markaziy Osiyoning hududi jihatidan eng kichik mamlakati, asosan tog'li hududlardan iborat bo'lgan Tojikistonni to'rtta nisbatan mustaqil tog' tizmalari bir-birini ajratib turadigan hududlar tashkil etadi.

Mamlakatda yuz berayotgan siyosiy jarayonlarni tahlil qilishda subetnik va konfessiyalararo ixtiloflarning extimoliy keskinlashuvi xavfi kabi omil (respublika aholisining aksariyati islom dinining sunniy mazhabiga, Tog'li-Badaxshon avtonom viloyati aholisi esa shia mazhabining ismoiliya yo'nalishiga e'tiqod qiladi) alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu davrda Tojikistonda milliy davlatchilikni shakllantirish bilan bog'liq siyosiy jarayonlarga radikal islomiy harakat tarafdorlarining ta'siri kuchli bo'ldi. Uzoq vaqt davomida Tojikiston Markaziy Osiyoning islomiy siyosiy tashkilot (Tojikiston Islom uyg'onish partiyasi) rasmiy faoliyat yuritgan yagona davlati bo'ldi. Uning vakillari 1997 yilda Moskvada imzolangan umumiy bitimga muvofiq 30 foizlik kvota doirasida respublikaning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, huquqni muhofaza qilish organlari va harbiy tuzilmalarga qo'shildi[2].

Turkmanistonda esa o'tish davrida yangi milliy davlatchilikni shakllantirish jarayoni bir muncha tez va tekis kechdi. Ayrim mualliflar fikricha, o'tish davrida turkman xalqi na siyosiy, na madaniy liberallashtirishni boshdan kechirdi, sababi mamlakat birinchi prezidenti S.Niyozov sobiq sovetcha bir partiyali boshqaruv modelini unga monand turkman modeli bilan almashtirdi, kommunistik partiya zaminida Turkmaniston demokratik partiyasini tashkil etdi. Bu esa turkman elitalariga hokimiyat va institusional imkoniyatlarni saqlab qolishga imkon berdi. Turkmanistonda prezidentning mutlaq hokimiyati o'rnatilgani va keyinchalik millatboshi maqomiga ko'tarilgani tarixan ildiz otgan o'ziga xos qadriyatlar tizimi, aksariyat aholining siyosiy jarayonlarga sust munosabati va paternalizm bilan izohlanadi. Jamiyatda qabila tizimi hanuzgacha saqlanib qolgani (turkman xalqini tashkil etuvchi qariyb 20 ta qabila orasida mamlakat aholisining 40 foizini tashkil etuvchi teke

qabilasi, shuningdek yomud va ersari qabilalari asosiy rol o'ynaydi) [3], aholining asosiy qismi qishloq hududlarida istiqomat qilgan holda an'anaviy hayot kechirishi, milliy urf-odatlariga rioya qilish bo'yicha qat'iy tartiblar mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotining asosiy omiliga aylanmoqda.

Zamonaviy davr xavfsizligini an'anaviy tushunishda kuch ishlatish, hududiy yaxlitlik va chegara xavfsizligi kabi omillar muhim ahamiyatga yega yedi. Bundan tashqari, zamonaviy davr xavfsizligini tushunishda avvalo oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, energiya xavfsizligi va kiberxavfsizlik kabi ko'plab omillar hisobga olinadi³⁵.

Yaqinda Rossiya-Ukraina urushi paytida bunday omillarning ahamiyati yana tan olindi. Ushbu urush nafaqat Yevropaga, balki butun dunyo xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Dunyoda hokimiyat uchun kurash Yevropa, tinch okeani mintaqasi va Markaziy Osiyoda to'plangan. Har bir hudud buyuk davlatlar qo'lida o'z nishoniga aylangan.

Rossiya Yevropa bilan band ekan, Xitoyning manfaatlari Tinch okeani mintaqasiga qaratilgan. G'arb davlatlari bir vaqtning o'zida ham Rossiya, ham Xitoy bilan qanday kurashishni bilmaydi. Ular topgan yeng yaxshi yechim; bu Rossiya va Xitoy umumiy xavfsizlik manfaatlari yega bo'lgan Markaziy Osiyo xavfsizligiga tahdid bo'lishi mumkin.

So'nggi paytlarda Xitoy uchun bir muammo bor: Osiyoda NATO va AQShning tobora kengayib borayotgan manfaatlari[1.]

Pekin ma'muriyati fikricha, bugungi kunda Markaziy Osiyo bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xavfsizlik muammolarining aksariyati NATO-AQSH tomonidan ataylab yaratilgan. Xitoy birinchi navbatda, Amerika qo'shinlarining Afg'onistondan olib chiqilishi uning uchun oldindan tayyorlangan tuzoq, deb hisoblaydi.

So'nggi bir yilda Xitoyning Tojikiston hududida chegara himoyasi uchun baza yaratgani iddao qilingan edi. Bunga sabab sifatida terorizm muammosi ekanligi, uning asosiy manbasi Afg'oniston ekanligi bildirildi.

Bundan tashqari, Afg'onistonda NATO qoldirgan qurollar Kashmirda terorizmning avj olishiga olib kelgani iddao qilinmoqda. Shinjon Uyg'ur avtonom viloyatida terorizm tarqalishining oldini olish maqsadida Xitoy

³⁵ Сенк Тамер Безопасность Центральной Азии: Угрозы и Возможности.

o'z chegaralarida yangi postlar qurish imkoniyatini ko'rib chiqishi zarur hisoblanadi. Biroq, Xitoy qo'shma Shtatlar singari mintaqaning jandarmeriyasini yegallashi yehtimoldan yiroq yemas. Bu yerda Xitoy uchun shakl mavjud. Ilgari ushbu xavfsizlik Aqsh tomonidan ta'minlangan; Xitoy iqtisodiy loyihalarini osongina amalga oshirishi mumkin edi.

Ammo endi u ushbu koridorlarning xavfsizligini ta'minlash uchun harakat qilishi kerak. Biroq, ma'lumki, Xitoy boshqa mamlakatlarning hududiy yaxlitligi va suverenitetini hurmat qilib, transchegaraviy harbiy harakatlarni ma'qullamaydi. Biroq Markaziy Osiyo muammolarini mintaqaga aralashmasdan hal qilish oson yemas. G'arb davlatlari Xitoyning bu tamoyilini juda yaxshi bilgani uchun Markaziy Osiyo xavfsizligiga tahdid solishga va uni mamlakat g'arbidagi muammolar bilan yegallashga intilmoqda.

Shunday qilib, Xitoy Osiyodagi muammolardan yuz o'girmaydi va tinch okeani mintaqasidagi muammolarni bartaraf eta olmaydi. Rossiyaning Ukrainaga hujumidan oldin Qozog'istonda norozilik namoyishlari boshlanganda, G'arb davlatlari Moskva endi yuzini G'arbg'a burolmaydi, Markaziy Osiyodagi muammolar bilan band bo'ladi va Ukrainadagi operatsiya kamida 2-3 oy davom etadi deb o'ylashdi. Biroq, Qozog'iston Prezidenti Janob Kassim-Jomart Tokayev norozilik namoyishlarini bostirish iltimosi bilan Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotiga (KXSHT) murojaat qildi va tashkilotning tezkor aralashuvi tufayli muammo bartaraf etildi: "mintaqada Rossiyaning ta'siri kuchaymoqda?"

Mintaqadagi geosiyosiy jarayonlar bevosita O'zbekiston harbiy xavfsizligiga ham ta'sir etadi. Mamlakat prezidenti bir qator xalqaro sammitlar va anjumanlardagi ma'ruzalarida bu masalalarga to'xtalib o'tgan. Xususan, Afg'onistondagi muammolarni mintaq xavfsizligi va barqarorligiga ta'sirini kamaytirish, afg'on xalqi dardi va tashvishini bartaraf qilish borasidagi tashabbuslarning amaliy natijalari mintaq xavfsizligini ta'minlash uchun ham xizmat qiladi.

“Biz o'z say-harakatlarimizni Afg'onistonni tinch, barqaror va farovon o'lkaga, terrorizm, urush va narkotik moddalardan xoli

mamlakatga aylantirish uchun mustahkam poydevor yaratishga safarbar qilishimiz lozim.

Afg‘oniston iqtisodiyotini qayta tiklash vazifasi bizning umumiy ustuvor yo‘nalishimizga aylanishi zarur. Ayni shunday qarash jafokash afg‘on zaminida mustahkam tinchlik o‘rnatishning muhim sharti hisoblandi” deb ta’kidlagan edi[5].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazirov M.M. Markaziy Osiyo davlatlaridagi siyosiy jarayonlar evolyusiyasining o‘ziga xos xususiyatlari. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Akademiya noshirlik markazi. 2018.

2. Общее соглашение об установлении мира и национального согласия в Таджикистане (и протоколы к нему) от 27.06.1997 г. Завершение операции ООН по поддержанию мира. <http://www.un.org/ru/peacekeeping/missions/past/unmotagr.htm>

3. Стронски П. Независимому Туркменистану двадцат пять лет: сена авторитаризма // Московский центр Карнеги. 22.05.2017. <https://carnegie.ru/2017/05/22/ru-pub-70020>

4. China in Eurasia Briefing: Why The Ukraine War Matters For Asia”, *RFERL*, <https://www.rferl.org/a/ukraine-war-matters-for-asia/31856235.html>,

(Data dostupa: 21.05.2022).

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Афғонистон: хавфсизлик ва иқтисодий тараққиёт” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган нутқи. Халқ сўзи. 2022 йил 26 июль.

YANGI O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING XALQARO HAMJAMIYAT TOMONIDAN E’TIROF ETILISHI

Tolipov A.A.,

*sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) , dotsent,
polkovnik
(O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti)*

O'zbekistonning tabiiy resurslar bilan yetarli darajada ta'minlangani, fan-texnika va mehnat resurslari salohiyati, to'plangan boy tajriba jihatidan Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi o'rin egallashi, kelgusida ushbu ustuvorliklarni samarali tarmoq va sohalarga safarbar etish hamda ulardan maqsadli foydalanish zaruratini tug'diradi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil noyabr oyida Samarqanda BMTshafe'ligida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada Markaziy Osiyo rahbarlari o'rtasida muntazam ravishda maslahatlashuvlar o'tkazish tashabbusini bildirdi.

Ta'kidlash joizki, bu yerda faqat Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari o'rtasida maslahatlashuvlar tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Buning uchun hech qanday yangi tashkilot tuzish maqsad qilinmagan. Bundan tashqari, qandaydir ustavlar, qarorlar qabul qilinishi ham rejaga kiritilmagan. 1990-2000 yillarda Markaziy Osiyoda Iqtisodiy ittifoq, tashqi siyosiy ittifoq tuzish uchun harakatlar bo'lgan edi. Biroq bu rejalar amalga oshmadi. Sababi, ayrim hal etilmagan masalalar mavjud bo'lgan bir vaqtda to'satdan borib, qandaydir shartnomalar tuzib bo'lmaydi. Shu sababli, mintaqada yig'ilib qolgan muammolarni, dolzarb masalalar ustida avval o'tirib, hech bir majburiyatsiz, hujjatlarsiz yoki tashkilotlar ishtirokisiz o'zaro fikr almashish kerak. Davlatlararo ishonchni kuchaytirish kerak edi. O'tgan yillar tajribasi shuni ko'rsatdi-ki, endikda mintaqa mamlakatlari amaliy ishlarga o'tishi joizligini davrning o'zi taqozo etdi.

Mazkur tashabbusning amalga oshishi natijasida Markaziy Osiyodagi rahbarlar ochiq-oydin fikr almashib, murakkab masalalarga hamjihatlikda yechim topishga intilmoqda va bu jahon hamjamiyati e'tirofiga sabab bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarning yaxshilanishi umuman mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yordam berdi. Xususan, 2017 yil boshidan hozirgi vaqtgacha O'zbekiston va region mamlakatlari o'rtasida 300 tadan

ko‘proq shartnoma, shuningdek taxminan 75 mlrd. dollar summada shartnomalar va bitimlar imzolangan.

Mintaqada ekologik, jumladan, suv-energetikaga bog‘liq masalalarni hal qilishda oldinga siljishlar kuzatilmoqda. Toshkent Qambar-Ota va Rog‘un GESi qurilishi loyihalarida o‘z ishtiroki imkoniyatini ko‘rib chiqishga tayyor [1.].

O‘zbekistonning amalga oshirilayotgan yangi tashqi siyosati xalqaro hamjamiyat tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, AQShdagi Gudzon instituti Harbiy-siyosiy tadqiqotlar markazi direktori Richard Vays fikricha, O‘zbekistonning tashqi siyosiy tashabbuslari butun Markaziy Osiyo uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Respublika mavjud muammolarni birgalikda hal qilish g‘oyasidan iborat kun tartibini ilgari surmoqda.

Rim geosiyosiy tadqiqotlar instituti (IsAG) Yevrosiyo dasturi ilmiy xodimi Fabrissi Viyelmini qayd etishicha, uzoq vaqt regional jarayonlardan chetda bo‘lgan O‘zbekiston bugungi kunda yangicha harakat qilmoqda. Mintaqa yuragi hisoblangan Toshkent Markaziy Osiyoda barqarorlashtiruvchi davlat tabiiy rolini o‘ziga qaytarib olmoqda.

Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi Andrey Grozin ham hozirgi paytda Markaziy Osiyoda davlatlararo munosabatlar tizimi shakllanayotganligiga e‘tibor qaratadi. Uning so‘zlariga qaraganda, so‘nggi vaqtda Toshkent turli xil yo‘nalishlar bo‘yicha yuqori faollikni namoyon qildi. Mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlarda sezilarli sog‘lomlashish belgilari yaqqol ifodalanmoqda [1.].

Xalqaro ekspertlarning Toshkentni mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi yangi harakatlari haqida bergan baholari o‘rinli. Yigirma yildan beri hal qilinmagan chegara masalalari keskinlik manbai, bir-biriga ta‘sir o‘tkazish vositasi va har qanday vaqtda “savdolashish” predmetiga aylanib kelayotgan edi. Bugungi kunda bunday ssenariylarni amalga oshirish imkoniyatlari keskin kamaydi. O‘zbekiston Qirg‘iziston va Tojikiston bilan davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish to‘g‘risidagi muhim hujjatlarni imzoladi.

O‘zbekiston 86 ta davlat fuqarolari uchun vizasiz rejimni va 57 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan vizali rejimni joriy qildi. 2019 yilda mamlakatga 6,7 mln. xorijiy turist keldi - bu 2016 yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 4,7 mln. yoki 3,3 baravar ko‘proqdir [1.]. Qo‘shni davlatlar bilan chegaralarda o‘nlab nazorat punktlari ochildi. Natijada har kuni o‘zbek-qirg‘iz chegarasini kesib o‘tgan fuqarolar soni 30 ming kishiga, o‘zbek-tojik chegarasida esa 20 ming kishiga yetdi.

Chegara masalasidan tashqari, qo‘shnilar bilan yana bir murakkab masala kun tartibidan chiqarildi. YA’ni, suv-energetika muammosi bo‘yicha o‘zaro anglashuvga erishildi. Markaziy Osiyo energetik halqasini to‘liq formatda ishga tushirish yuzasidan amaliy haarkatlar davom etmoqda. O‘zbekiston Qozog‘iston va Qirg‘iziston bilan mavsumiy ravishda Tojikiston bilan umumiy energetik xalqa doirasida muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. Bu o‘z navbatida, aholi va sanoat sohalarining elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini, ayniqsa qish mavsumida talab eng yuqori bo‘lgan paytda to‘liq qondirish imkonini beradi. Mintaqaning savdo-iqtisodiy sohadagi mavjud imkoniyatlari ochilmoqda [2.].

Shunday qilib, Markaziy Osiyoning bir butun hodisa sifatida barqaror rivojlanish va unda integratsiya tamoyillarining deizintegatsiya tamoyillariga zid ravishda mustahkamlanish istiqbollari ko‘p jihatdan Markaziy Osiyo mamlakatlarning mintaqa ichidagi savdo-sotiq va investitsiyalar hajmini bundan-da oshirishi, siyosiy iroda va ayonlarning masalalarga ijokorona yondashuvi majudligiga, shuningdek, dunyo iqtisodiyoti va geosiyosatidagi vaziyatga bog‘liq bo‘ladi.

R.Mahmudov fikricha, Ko‘plab muammolar Markaziy Osiyo mamlakatlari taraqqiyotning yangi modellarini birgalikda faol qidirishi uchun rag‘bat vazifasini o‘tashi mumkin, bu kelgusida mintaqada o‘zaro ishonch ortishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [3.].

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mamlakatlari taraqqiyotning yangi modellarini birgalikda faol qidirishi uchun rag‘bat vazifasini o‘tashi mumkin, bu kelgusida mintaqada o‘zaro ishonch ortishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishida shubhasiz, O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi faol, tashabbuskor va konstruktiv diplomatiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://www.isrs.uz/uz/maqolalar/kluceve-prioritety-vnesnej-politiki-obnovlennogo-uzbekistana> (Murojaat etilgan sana: 07.09.2020.).
2. <http://uza.uz/oz/society/musta-il-zbekiston-yangi-strategiya-yangi-imkoniyatlar-08-09-2020> (Murojaat etilgan sana:08.09.2020.).
3. <https://uzanalytics.com/xalqaromunosabat/8527/> (Murojaat etilgan sana: 20.12.2020.).

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING JAHON TOG‘-KON SANOATIDAGI O‘RNI

Turayeva S. R.,

tarix fanlari nomzodi, dotsent

(O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti)

Tog‘-kon sanoati Markaziy Osiyo davlatlarining ichki iqtisodiy tuzilishining ajralmas qismidir. Tog‘-kon sanoati rivojlanish Markaziy Osiyo davlatlarining jahon iqtisodiyotga integratsiyasi butun mintaqa taraqqiyotiga ta’sir o‘tkazuvchi omildir.

Sobiq Ittifoq parchalangandan keyin Markaziy Osiyo davlatlari Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston tog‘-kon sohasiga e’tibor qaratishi, mamlakat sanoat sohasining o‘shishiga, xom ashyo eksporti tufayli daromadining ortishiga olib keldi. Geografik joylashuviga ko‘ra Markaziy Osiyo ancha keng (4 mln kv.km) maydonni egallaydi. Mazkur mintaqa tabiiy foydali qazilmalarga boy hudud hisoblanadi.

YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, bunday tabiiy foydali zahiralarga boy geografik makonda Afg‘oniston, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Rossiyaning Osiyo mintaqalari, Mo‘g‘uliston, shimoli-g‘arbiy Xitoy, Hindistonning shimoliy hududlari va Pokiston va shimoli-sharqiy Eron kabi davlatlar joylashgan. Shubu davlatlarda foydali mineral xom ashyosi o‘z ehtiyojidan ortiq bo‘lib, hatto eksportni tashkil eta oladi, deb baholanadi. Ayniqsa dunyo bozorida tog‘-

kon xom ashyosi eksporti uchun qulay narxda va imkoniyatda deb, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston[3] kabi davlatlarni hisoblaydilar. Bu ma’lumotni o‘z tadqiqotlarida (Blinichkina, 2010; Chjouva Ghiasy, 2018; Morozov, 2020 yil; Plotnikov, 2020 yil; Jiltsov, 2020 yil; Britannica, 2021; Xolid, 2021) kabi olimlar tasdiqlaydi. Mustaqillikka erishgach ushbu davlatlar tog‘-kon sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqdalar. Bu borada mamlakatlar xorijiy investorlarni ham jalb etishga urinishmoqda. Markaziy Osiyodagi davlatlarga investorlarning kelishi siyosiy barqarorlik indeksleri ham ahamiyatli hisoblandi.

Markaziy Osiyo mintaqada tog‘-kon sanoatining taraqqiyot dinamikasi bir maromda emas. Bu resurslarning notekis taqsimlanishi bilan bog‘liq. Qozog‘iston joylashgan butun mintaqada zaxiralar bo‘yicha shubhasiz etakchi va shunga ko‘ra, turli mineral xom ashyoni qazib olish yo‘lga qo‘yilgan.

Qozog‘iston Respublikasining muhim foydali qazilma konlariga ega va energiya resursleri, bu asosan oldindan belgilab beradi. Qozog‘iston iqtisodiyotining asosi: turli xil hisob-kitoblarga ko‘ra, tog‘-kon sanoati mamlakat yalpi ichki mahsulotining 30-60% ni beradi. Biroq, ustunlik tufayli tog‘-kon sanoatining iqtisodiy tuzilmadagi ulushi, mamlakat tovar aylanmasida yuqori qo‘rsatkichlarini beradi. Qozog‘iston tog‘-kon mahsulotlarini qazib olish bo‘yicha yetakchilardan biri hisoblanadi. ko‘p metall bo‘lmagan minerallar 75% ni ta’minlaydi. Oltin va kumush ishlab chiqarish bo‘yicha 2019-yilda mamlakat kuchli o‘ntalikni ichida bo‘ldi. An’anaviy ravishda uran qazib olishda birinchi o‘rinni egallab, jahon ishlab chiqarishining 41,75%)[14] ko‘rsatkichini tashkil etadi. Tovar narxlari oshishi bilan u o‘ziga jalb qilishga intiladi. Joriy ishlab chiqarishni kengaytirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb etmoqda. Qozog‘istonning tog‘-kon sanoati asosan bir qancha yirik xorijiy va davlat tomonidan taqdim etilgan yoqilg‘i bo‘lmagan qazib olish bilan shug‘ullanadigan kompaniyalar sarmoyalaridan iborat. Bunday katta hududda Glencore, Rio Tinto kabi xorijiy kon kompaniyalari, Iluka Resources, Central Asia Metals Plc, Areva Sa, Arcelor Mittal, Rossiya mis kompaniyasi va Yunaytedt Rusal kompaniyasi (Avstraliya savdo va investitsiya

Komissiya, 2021) faoliyat yuritmoqda. Ular milliy tog'-kon sanoati rivojlanish salohiyati sezilarli hissa qo'shmoqda. Qozog'iston mamlakatga yirik xorijiy investitsiyalar (xorijiy investitsiyalarning 75% dan ortig'ini) tog'-kon sanoatiga yo'naltiriladi. Bu esa bu davlatning ichki iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Qirg'iziston Respublikasi foydali qazilma konlari asosan ko'mir, rangli va nodir yer metallari bilan bog'liq. Bu tabiiy resurslar deyarli mamlakat bo'ylab turlicha taqsimotda tarqalgan. Biroq, xalqaro ma'lumotlarga ko'ra, Qirg'izistonning foydali qazilmalari potentsialdan hali ham yomon foydalanilmoqda. Sohaga yaxshi mutaxassislar jalb etilsa, nisbatan kichik maydon va yaxshi geologik bilimlar bilan Qirg'iziston imkoniyatlarini hozirgi ko'rsatkichlardan oshirish mumkin.

1990-yillardagi sezilarli iqtisodiy tanazzul bo'lishiga qaramay Qirg'iziston yaxshi jihozlangan ishlab chiqarishni saqlab qolgan edi. Foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash uchun yuqoridagi holat asos bo'la oladi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, respublikada bugun davlatga tegishli oltin konlari (tasdiqlangan zaxiralari 430 ming tonna), qalay (208 ming tonna), volfram (144 ming tonna), noyob tuproq metallari (51 ming tonna), alyuminiy (349 million tonna), ko'mir (1 mlrd.dan orti tonna), surma (157,5 ming tonna), simob (40 ming tonna), molibden (2358 t) va ko'p boshqa foydali qazilmalarzaxirasi mavjud[18].

Qirg'izistonda oxirgi 5 yil ichida mis konlarida qazib olish ularning umumiy mineral resurslari (178 foizga) ortdi. O'rtacha yiliga mis miqdori 8 million tonnaga yaqin ruda qazib olinadi. Mutaxassislar hisobiga ko'ra, shartlar bo'yicha eng katta depozitlar zahiralari Kutu-Tegerek (1,02 million tonna, tarkibi: 0,6%, Taldibuloq (0,75 mln.t., tarkibi:): 0,2%, va Oital (0,6 mln.t., tarkibi: 0,17%) kabi konlari mavjud. Qirg'izistondan geologiya-qidiruv ishlari darajasi past. Qozog'istondagi kabi Qirg'izistonda ham kon sanoat xorij investorlari uchun eng jozibador sohalardan biridir. Mamlakat sohaga horijiy investorlarni jalb qilish orqali yaxshilashga harakat qilmoqda. Ayniqsa xorijiy investitsiyani geologiya-razvedka ishlariga litsenziyalar berishning shaffofligi va tabiiy resurslarni rivojlantirish[18] yo'nalishlariga jalb etishga urinmoqda. Qirg'izistonning tog'-kon sanoatidagi eng yirik investor sanoat Kanada bo'lib, unga 48%

sarmoya kiritgan. **Qumtor Gold** kompaniyasi Markaziy Osiyodagi eng yirik oltin koniga investitsiya kiritgan. Ushbu loyihaning makroiqtisodiy ta'siri katta bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsuloti taxminan 10% ni tashkil qiladi.

Qirg'iston tog'-kon sanoatiga qiziqish ortishiga qaramay rivojlangan mamlakatlardan potentsial investorlar bor ammo, milliy konchilik hali ham real rivojlanmagan. To'plangan muammolar tufayli sanoat oldingi yillar ko'rsatkichlariga hali bormagan. Qirg'izistonda tog'-kon sanotidagi bu muammolar kadrlar bilan bog'liq muammolarni ham o'z ichiga oladi. Yana konlarni o'zlashtirish, konchilik ishlarini litsenziyalash tizimi shaffofligi bilan bog'liq muammolar ham mavjudligini inkor qilib bo'lmaydi. Asosiy xavf - mahalliy aholining konchilikka qarshi kayfiyatdagi harakatlari bilan bog'liq bo'lib, ba'zan xorijiy sarmoyadorlar mulki talon taroj bo'lish harakatlari kuzatilgan[16].

Tojikistonda rangli va nodir metallar (simob, surma, qo'rg'oshin, oltin, kumush, va boshqalar.) ning zaxiralari mavjudligini ta'kidlash kerak qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar (yoqut, granat, la'l, lojuvaard, firuza, ametist, aqiq, oniks va boshqalar). Biroq, mamlakatning asosiy qismi tabiiy resurslari g'arbiy tog'li hududlarda joylashgan. **Tojikistonda konchilikning tuzilishi.** O'tgan o'ttiz yil ichida mamlakatning tog'-kon sanoat sezilarli darajada pasayib ketdi. Fuqarolar urushi (1992-1997), keyin ijtimoiy va iqtisodiy inqiroz[2] bunga sabablardan biridir. Biroq, 2000-yillarning boshidan beri mavjud qazib olish va qayta ishlash tarmoqlari biroz o'sish yuz berdi. Eng muhim rivojlanishlardan biri yo'nalishi ko'mir qazib olish bo'lib, uning asosiy qismi qayta ishlanadi. Mamlakat shimolidagi SHo'rob konida rangli metallar ishlab chiqarish, asosan mis, oltin, kumush qazib olish sur'atlari tez tiklana boshladi (oxirgi 5 faqat yillarda uning o'sish sur'atlari 511% ni tashkil etdi, mos ravishda 92% va 317%). Asosiy oltin konlari mamlakat hududining g'arbiy qismida va markazida joylashgan. Tojikiston xorijiy sarmoyaga katta umid bog'laydi va konchilik infratuzilmasini rivojlantirish[19] ishlarini jadallashtirmoqda. Mamlakat barqarorlik indekslarining pastligi tufayli xorijiy investorlarning sohaga kelishi sust kechmoqda.

Turkmanistonning hozirgi va kelajakdagi iqtisodiyoti xom neft va tabiiy gaz eksportiga juda bog'liq. Shuning uchun mamlakat uchun ushbu sohalarni rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Turkmaniston neft va gazni sotish uchun yangi yo'nalishlarni izlayotgan davlat hisoblanadi. Turkmanistonning ishlab chiqarish zavodlariga kiritgan sarmoyalari, asosan kimyoviy moddalar va qurilish materiallari uchun mavjud brom va yodni ishlab chiqarish korxonalari, kaliy, qurilish materiallari qayta ishlash korxonalari va boshqalar sohalarga qaratilgan. Sarmoya kiritish ehtimoli kelgusida ushbu minerallarni ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilishi bir necha yil[21] davom etishi ko'zda tutilgan siyosat olib bormoqda.

Turkmaniston tabiiyligi bo'yicha dunyoda 6-o'rinda turadigan gaz zaxiralari va neft bo'yicha 43-o'rinda zaxiralari[20] mavjud. Ushbu haqiqatni hisobga olsak, asosiy ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sohalari hisoblanadi. 2017-yil o'rtalarida "Garliq" konchilik va kaliy tuzlarini qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. U million tonna ishlab chiqarish quvvatiga mo'ljallangan. Unda yiliga 7,8 tonna ruda qayta ishlanadi.

O'zbekistonning tog'-kon sanoati nisbatan bir qismini tashkil qilsa-da. O'zbekistonning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi sur'atlari endi jadallashgan hisoblandi. Rangli va kamdan-kam uchraydigan juda katta xom ashyo bazasi metallar, ularning aksariyati tog'da joylashgan. markaziy va sharqiy rayonlarda tog' tizmalarida asosiy konlar joylashgan. O'zbekiston hududidiningi geografik jihatdan beshdan bir qismini tog'lar tashkil etadi. Hozirda, 2028 ta davlatga tegishli foydali qazilma konlari mavjud. So'nggi bir necha yil ichida O'zbekiston tog'-kon sohasi bo'yicha o'z faoliyatini yanada kuchaytirdi. Milliy sanoatni rivojlantirishga qaratilgan say-harakatlar, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulush taxminan 30% ni tashkil qiladi. Umumiy rivojlanish dinamikasi mamlakatning tog'-kon sanoati barqaror o'sishni ko'rsatmoqda. Mamlakatda mineral xom ashyoni qazib olish so'nggi 5 yil ichida 62% ga o'sdi. Shunday qilib, O'zbekiston 30 ta yetakchi davlatlar qatoriga kiradi. Fosfatlar, qo'ng'ir tosh, mis, qo'rg'oshin va sink, ishlab chiqarish bo'yicha 20 ta davlat kaliy, kaolin, selen, kadmiy,

volfram, molibden, oltin va kumush; va eng yaxshi 10 davlat uran, palladiy ishlab chiqarish bo'yicha tellur va reniy [14] avvalgi ko'rsatkichlardan ancha ilg'orlanib ketilmoqda.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha dunyoda 19-o'rin (NoNews 2018b) va ishlab chiqarish hajmi bo'yicha 16-o'rinni [14] egallamoqda. Shu bilan birga, mamlakat hukumati gaz qazib olish ulushini oshirishni maqsad qilgan va ichki iste'moldan ortgan gaz eksportga rejalashtirilgan. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan eng yirik korporatsiyalar O'zbekistonning energetika sektori CNPC (Xitoy Milliy neft korporatsiyasi), KNOC (Koreya), Gazprom (Rossiya), LUKOIL (Rossiya) va "O'zbekneftgaz" (O'zbekiston) kabilarni tashkil etadi. Ayni paytda mamlakatda topilgan 264 ta neft va gaz konlari mavjud bo'lib, uning zaxiralari turli ilmiy hisobotlar va ekspertlarga ko'ra baholash, 20 dan 30 yilgacha etarli hisoblanadi [4]. Eng yirik mis ishlab chiqaruvchilardan biri Markaziy Osiyo mintaqasi – "Almatoq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining ulushi 90% ga to'g'ri keladi. Toshkent va Jizzax viloyatlarida kumush, oltinning 20%, mis-molibden, qoo'rgg'oshin-rux, mis-porfir, barit rudalari mamlakatda ishlab chiqarilmoqda [10]. Ayni paytda 25 ta oltin konlari mavjud bo'lib, Respublikada o'zlashtirilgan (jami 81 ta kon mavjud davlat mulki), asosiy obyektlari bilan jamlangan ikkita korxonalar: Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlari ish faoliyatida hisoblanadi. Mamlakatning eng katta va mashhur oltin qazib oluvchi koni Muruntov konidir. Uran zahiralari bo'yicha O'zbekiston dunyoda 1-o'rin, ishlab chiqarish bo'yicha 5-o'rinda turadi. So'nggi 5 yil ichida ishlab chiqarish hajmi oshadi, 8,4% ni tashkil etdi.

O'zbekiston hukumati Rossiyaning Rosatom davlat atom energiyasi Korporatsiyasi bilan 2018 yilda birinchi qurilishi uchun 2028-yilda ishga tushirildigan umumiy quvvati 2400 GVt/soat energiya ishlab chiqaruvchi Markaziy Osiyodagi atom elektr stansiyasini qurish bo'yicha shartnoma imzolangan [9]. O'zbekistonning tog'-kon sanoatining jozibadorligi xorijiy investorlar uchun bir necha omillarga bog'liq [1] Birinchidan, mamlakatdagi tabiiy resurslarning katta miqdori mavjudligi, bu mavjud imkoniyatlarni oshirishga yordam beradi. Ikkinchidan, korxonalar yoki

qulay shart-sharoitlar yaratish yangi sanoat obyektlarini qurish ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilganligi, mamlakatning tog‘-kon sanoati vakillari ko‘p konchilik, qayta ishlash va metallurgiya korxonalar, ularning aksariyati saqlanib qolgan va ular davlat tomonidan ham qo‘llab quvvatlanib soni o‘rtib, yangi ixtisoslashgan zavod va korxonalarining qurilishining ko‘pligi bilan ham izohlanadi. Markaziy Osiyo davlatlari ichida taraqqiyot va siyosiy barqarorlik indekslarining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mintaqasi qulay geografik o‘rinda joylashgan bo‘lib, dunyo bozoriga ko‘plab yoqilg‘i mahsulotlarini yetkazib berish quvvatiga ega. Markaziy Osiyo dunyodagi eng qadimiy neft qazib oluvchi mintaqaga bo‘lib, taxminan dunyo zahiralarining 5% ga to‘g‘ri keladi. Kaspiy dengizi sohilidagi maydon shunga qulay hisoblanadi. Shuning uchun, mintaqada iqtisodiy o‘rinishning kuchayishi tendentsiyasini kuzatish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

- 1..O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 iyuldagi “Yer qa’rini geologik jihatdan o‘rganishni yanada takomillashtirish va 2020-2021 yillarda mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni // Xalq so‘zi. 2019yil 24 iyul.
2. Ahmed, M. 1994. Civil War in Tajikistan: Internal Strife and External Response. Pakistan Horizon 47(4):87-95.
3. <https://www.britannica.com/place/CentralAsia>
4. <https://www.cer.uz/en/>
5. Church, C. and Crawford, A. 2020. Minerals and the Metals for the Energy Transition: Exploring the Conflict Implications for Mineral-Rich, Fragile States. In The Geopolitics of the Global Energy Transition, edited by M. Hafner, and S. Tagliapietra. Lecture Notes in Energy, vol. 73. Cham: Springer, doi:10.1007/978-3-030-39066-2_12
6. Fedorov, Yu. E. 2012. Uzbekistan: nestabilnyi faktor stabilnosti. Security Index 18(3–4)(102–103):85–106.
7. Goncharenko, L., Ryzhakova, A., Sedova, N., Efimov, I. and F. Akulinin, F. 2019. Mining of Mineral Deposits. Developments in Heat Transfer 13(4):63-71, doi:10.33271/mining13.04.063.

8. Hamidov, A., Helming, K. and Balla, D. 2016. Impact of agricultural land use in Central Asia: a review. *Agronomy for Sustainable Development* 36:6, doi:10.1007/s13593-015-0337-7.
9. https://cabar.asia/en/does-the-construction-of-a-nuclearpower-plant-in-uzbekistan-meet-the-country-sinterests#_ftn2.
10. Kholikov, A. 2019. Assessment Report on Classification of Energy and Mineral Resources and its Management in the Republic of Uzbekistan. UNECE.
11. Kim, T.Y. 2016. A Comparative Study of the Conditions and Factors for the Appearance of the Islamic Movement of Uzbekistan (IMU) and the Islamic Renaissance Party of Tajikistan (IRPT).
12. Kirsanov, A.K., Vokhmin, S.A., Kurchin, G.S. and Zaitseva, E.V. 2019. Grain-size composition predicting models after explosion in open-pit. *Journal of Degraded and Mining Land Management* 7(1):1915–1919, doi:10.15243/jdmlm.2019.071.1915.
13. Morozov, Yu.V. 2020. Tsentralnaya Aziya kak oblast stolknoveniya strategicheskikh interesov SShA, Kitaya i Rossii. *Far Eastern Affairs* 5:6-19, doi:10.31857/S013128120012441-6.
14. Reichl, C. and Schatz, M. 2021. *World Mining Data 2021. Volume 36. Mineral Production*. Vienna: Federal Ministry of Agriculture, Regions and Tourism.
15. <https://www.intellinews.com/wave-of-attacks-onforeign-owned-gold-mines-amid-kyrgyzstan-s-politicalupheaval-193554/>.
16. <https://eurasianet.org/kyrgyzstan-anothergold-mine-attacked-as-kumtor-protests-continue>.
17. www.jstor.org/stable/27975533.
18. U.S. Geological Survey, and U.S. Department of the Interior. 2019a. *Minerals Yearbook – 2015. Kazakhstan (Advance Release)*. Washington, DC: USGS.
19. U.S. Geological Survey, and U.S. Department of the Interior. 2020. *Minerals Yearbook – 2017-2018. Tajikistan (Advance Release)*. Washington, DC: USGS.

20. U.S. Geological Survey, and U.S. Department of the Interior. 2019b. Minerals Yearbook – 2015. Turkmenistan (Advance Release). Washington, DC: USGS.

21. <https://www.worldbank.org/en/home>

MARKAZIY OSIYO YOSHLARI MADANIYATINING ETNOSOTSIOLOGIK TAHLILI

Xaknazarov X.D.,

tarix fanlari doktori, dotsent

(O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi univeriteti)

O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Yoshlar kundalik hayotida bo‘sh vaqtdan foydalanish, undan samarali mashg‘ulotlarga sarflash, ajratilgan ortiqcha vaqtdan o‘ziga xos natija chiqarish muhim hisoblanadi. Bu borada bo‘sh vaqtdan sifatli foydalanish borasida yaratilgan shart-sharoitlar, aniq rejalar va ularni samarali amalga oshirishga oid mexanizmning mavjudligi dolzarb ahamiyatga ega.

Odatda bo‘sh vaqt deganda ta‘til, dam olishni tushuniladi. Shu bilan birga turli munosabatlar bilan dam olish, bayram kunlari, doimiy kundalik bo‘sh vaqt ham shuning bir bo‘lagi hisoblanadi. Umuman olganda deyarli barcha xalqlar so‘z boyligida mazkur so‘z ko‘zga tashlanib, umumiy ma’noda erkin faoliyat, erkin vaqt, bekor vaqt va shunga sinonim bo‘lgan ma’nolarga ega bo‘lgan. Masalan, Oksford lug‘atida mazkur atamaga quyidagicha: 1) erkin tarzda qandaydir bir qiziqarli yoki tushunarli ish bajarish; 2) professional faoliyatdan tashqari yangi faoliyat turini ochish imkoniyati; 3) o‘z qarashlari asosida vaqtni taqsimlash; 4) munozara va muloqot vaqti, deb ta’rif berilgan [1, 288.]. Ruslarda deyarli shu ma’noda ishlatiladigan “dosug” atamasi XV asrda qadimgi slavyan tilidan kirib kelgan so‘z bo‘lib, nimanidir amalga oshirish vaqti sifatida tarjima

qilingan [2, 7-17.]. Hattoki qadimgi davrlarda ham bo'sh vaqtni faqat erkin vaqt deb hisoblamay, uni falsafiy faoliyat bilan shug'ullanish, turli amaliy o'yinlar, tomoshalar, mashqlar, san'at, musiqa, muloqot, munozara va shunga shunga o'xshagan aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatga sarflaganlar. Lekin eng asosiysi mavjud bo'sh vaqtni qachon, qayerda, kimlar bilan o'tkazish, nimalar bilan shug'ullanish kerak degan savollarga muqobil javob topish muhim ahamiyatga ega. Bekor vaqtdan foydalanib samaradorlikka erishish, undan kerakli natija chiqarish, bu vaqtni bevosita faoliyat turiga aylantira olish, kelgusi muvaffaqiyatlarga zamin yaratishiga ishonch hosil qilish aslida kishini avvalo o'ziga nisbatan ishonchi va talabchanligining nishonasidir. Bo'sh vaqtdan qay darajada samarali foydalanmoqdaman degan savolga faoliyatning qay turi bilan shug'ullanishdan qat'iy nazar, barcha-barcha atroflicha javob izlamog'i lozim.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, sotsiologlar tomonidan XX asr oxirlarida yoshlarning bo'sh vaqtdan samarali foydalanishning 500 dan ortiq turi hisoblab chiqilgan [3, 10.]. Bugungi globallashuv zamonida esa mazkur raqamning bir necha baravarga ortganini, ayrim turlari muomaladan chiqarilib o'rnini yangilari egallaganligini ham inkor etib bo'lmaydi. O'tgan asrda bo'sh vaqtda amalga oshiriladigan mashg'ulotlarning ayrimlari bugungi kunga kelib hatto mashg'ulot hisoblanmay ham qoldi. Chunki ularni bajarish uchun ma'lum bir daqiqa yoki soniyaning o'zi kifoy.

Bo'sh vaqt masalasiga yondashuv turli xususiyatlarga ega bo'lib kundalik hayotda o'ziga xos ahamiyatga ega. Bo'sh vaqtning o'zi turli darajalarga bo'lish maqsadga muvofiq:

birinchidan, oldindan rejalashtirilgan va amalga oshirmoqchi bo'lgan hatti-harakatning, vazifalarning maqsadli bajarish uchun ajratilgan kunning aniq vaqti;

ikkinchidan, haftaning yoki ma'lum ish vaqtining so'ngida beriladigan dam olish vaqti va unda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni bajarish uchun ajratilgan vaqt;

uchinchidan, ma'lum xizmat, uy ishlar va boshqalardan orttirilgan vaqt;

to'rtinchidan, rejalashtirilgandan farqli o'laroq favqulodda vujudga keladigan bo'sh vaqt va boshqalardan iborat.

Markaziy Osiyo Respublikalari yoshlarining kundalik hayotida bo'sh vaqtdan foydalanishimasalasi o'zaro mutanosiblikka ega deyish mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatayaptiki, masalan o'zbek yoshlari amalga oshirish mexanizmiga ko'ra yoshlar bo'sh vaqtning turli alohida yo'nalishlarida foydalansalar hamki, odatda ularga bo'sh vaqtning umumiy xususiyat va darajaga ega bo'lib qoladi. Yoshlarning ko'pchiligida har qanday vaziyatda ham bir kunda 1-2 soat bo'sh vaqti bo'ladi. Yoshlarning aksariyati bo'sh vaqtini uyda (79,4 %), faqat ma'lum bir qismi esa uydan tashqarida (20,6 %) o'tkazadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yoshlarning 74,4 %i bo'sh vaqtida bajaradigan ishlarni oldindan rejalashtiradi, 25,6 %i esa vaziyat va sharoitga qarab yo'l tutishar ekan [4.].

Yoshlar bo'sh vaqtlarini kitob o'qishga (25,5 %), yosh oilalarda esa farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishga (20,5 %), do'st va yaqinlar bilan o'tkazishga (18,6 %), shuningdek ko'pchilik yoshlar o'z bo'sh vaqtini internet qarshisida (18,2 %) o'tkazsa, ayrimlari televizor ko'rish yoki radio tinglash (17,7 %) uchun sarflaydi. Yoshlar orasida madaniy ko'ngilochar joylar – kinoteatr, teatr, muzey, konsertlar va boshqa shu kabi maskanlarga tashrif ko'rsatkichi (8,2 %) ancha past ko'rsatkichni tashkil etadi. Buning o'ziga xos obyektiv va subyektiv sabablari mavjud. Natijalarga qaraganda yoshlarning 22,9 %i madaniy ko'ngilochar maskanlarga oxirgi marta qachon borganini eslay olmaydi.

Yoshlar bo'sh vaqtini aksariyat hollarda oila a'zolari bilan o'tkazishadi (72,9 %), shuningdek do'stlari, yaqinlari va og'ayni-hamkorlari bilan (21,6 %) o'tkazishadi.

Yoshlarning 65,7 % i bo'sh vaqti qanday o'tayotganligidan qoniqish hosil qilsa, 34,3 %i esa undan qoniqmaydi. Bunda bo'sh vaqt uchun ajratilgan vaqtga alohida yondashuv uchun maxsus reja tuzilmaganligi, mavjud bo'lgan holatda ham unga rioya qilinmasligi, mazkur vaqtdan samarali foydalanish uchun shart-sharoit yoki harakatning sustligi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, bo'sh vaqtda bajariladigan mashg'ulot va qiziqishlar hududiy, unda yaratilgan shart-sharoit kabi taomillarga ham bog'liq bo'ladi. Bunda yashash joylarida yoshlarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni hamma joyda ham yetarli darajada deb bo'lmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki shaxsan yoshlarning o'zlarining fikricha ular bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishlari uchun ularda qator muammolar mavjud bo'lib ular qatorida birinchi navbatda sportzal va stadionlar (34,1 %), moddiy imkoniyatlar (31,4 %), kutubxona va yaxshi kitoblar (23,6 %) hamda aqlli do'stlar (23,2 %) yetishmaydi.

O'z o'rnida shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bo'sh vaqtdan foydalanish o'z xususiyatlariga ko'ra shahar va qishloq sharoitlarida bir-birlaridan ma'lum ma'noda farqlanadi. Chunonchi bu borada ularning mehnat va hayot jarayonlari nuqtai-nazaridan o'ziga xos xususiyatlari mavjud. O.V.Gorshunova an'anaviy o'zbeklarda bo'sh vaqt va undan foydalanishning an'anaviy va noan'anaviy shakllari mavjudligini e'tirof etgan holda, deyarli barcha xonadonlarda televizor va radio, magnitafon va shunga o'xshash texnika vositalar mavjudligini, qishloq yoshlarining, ayniqsa, qizlarning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri kinoteatrga tashrif buyurish ekanligi haqida yozgan [5, 221-222.].

Qozoq yoshlari orasida bo'sh vaqtdan foydalanish xususiyati individuallikka ega bo'lib, undan foydalanish mexanizmini mustaqil ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib turibdi. Etnosotsiologik tadqiqotlarga ko'ra mamlakat yoshlarining 41,7 % qismi bir kunda 1-2 soat, 34,3 % yoshlar esa kun davomida 3-4 soat vaqtini mustaqil ta'lim tayyorgarligiga bag'ishlaydi [6, 50.]. Yosh yigit-qizlar bo'sh vaqtini shuningdek, kitob va jurnallar o'qishga (21,2 %), musiqa tinglashga (69,8 %), uy ishlarini bajarishga (62,5 %), televizor ko'rish (58,4 %), vaqtini do'stlar bilan o'tkazish (55,2) ga sarflashadi [6, 50.]. Qozog'iston yoshlari odatda bo'sh vaqtini do'st va yaqinlari bilan o'tkazishadi: mazkur ko'rsatkich 14-18 yoshlilar orasida 67,9 % ni, 19-24 yoshlilarda 55,7 % ni, 25-29 yoshlilar orasida esa 41,8% ni tashkil etadi [6, 51.]. Qozoq yoshlari bo'sh vaqtini ko'proq televizor qarshisida o'tkazishga odatlanishgan. Yosh toifalari bo'yicha solishtirilganda 14-19 yoshlilarning

58,7 %i, 19-24 yoshlilarning 54,4 %i, 25-29 yoshlilarning esa 62 % qismi o'zining bo'sh vaqti televideniya ko'rsatuvlarini tomosha qiladi.

Agar yoshlarning bo'sh vaqtdan foydalanishi hududlar yuzasidan qiyosiy tahlil qilinadigan bo'lsa, unda shahar va qishloq yoshlarining mashg'ulotlari va kundalik hayotida tafovutlar ko'zga tashlanadi. Masalan, uy ishlari bilan mashg'ul bo'lish darajasi qishloq yoshlarida yuqoriroq bo'lsa, tez-tez ko'ngilochar maskanlarga borish ko'rsatkichi shahar yoshlari hayotida ko'proq uchraydi. Shuningdek qishloq yoshlari shahar yoshlariga nisbatan ko'proq bo'sh vaqtini televizor ko'rishga sarflaydi. Bu borada ham mintaqa mamlakatlarida o'xshashliklar ko'zga tashlanadi.

Qirg'iziston yoshlari ham bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga harakat qilgan ekan, mazkur vaqtni asosan uy ishlari bilan band bo'lishga (81,7 %), televizor ko'rish (73,6 %), musiqa tinglash (53,1 %) ga sarflaydi [7, 42.]. Tadqiqotlardan qirg'iz yoshlarining bo'sh vaqtda kinoteatlarga tashrif ko'rsatkichi unchalik yuqori emasligini bilish mumkin. Musiqa tinglash 14-18 yoshdagi qirg'iz yoshlari uchun boshqa yosh toifasidagilarga nisbatan qiziqarliroq mashg'ulot sanaladi (65,3 %), mazkur ko'rsatkich 19-24 yoshlilarda 57,7 % ga, 25-29 yoshlilarda esa 35,8 % ga teng [7, 42.].

Bo'sh vaqtdan foydalanishda keyingi mashg'ulot uy ishlari band bo'lish hisoblanib, yosh kategoriyalari bo'yicha mazkur ko'rsatkich 14-18 yoshlilarda 83,4 %, 19-24 yoshdagilarda 80,4 %, 25-29 yoshlilarda esa 81,5 %ni tashkil etadi. Bundan kelib chiqadiki mamlakatning aksariyat yoshlari bo'sh vaqtlarini uyda o'tkazadilar va mashg'ulotlar ham uy sharoitida tashkil etiladi. Qirg'iz yoshlari shuningdek bo'sh vaqtini sport bilan shug'ullanish (28,1 %), kitob va jurnallar o'qish (33,8 %), do'stlar bilan o'tkazish (41,1 %), oila a'zolari bilan o'tkazish (52,8 %) ga sarflashadi [7, 43.]. Yosh qirg'izlar kundalik turmush hayotida bo'sh vaqtdan foydalanishda shahar va qishloq yoshlari orasida tafovutlar ko'zga tashlanib, bu asosan uy ishlari bilan band bo'lishida ko'rinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq yoshlarining 87,7 % i, shahar yoshlarining esa 70,4 % qatlami bo'sh vaqtini uy ishlari bilan band bo'lish orqali o'tkazishadi. Mazkur ko'rsatkichlar avvalo ularning turmush sharoitlari, bandligi va mashg'ulotlari bilan belgilanadi. Qirg'iz yoshlari orasida ham ko'ngilochar joylar, xususan kinoteatlarga tashrif buyurish ko'rsatkichi u

darajada yuqori emas. Masalan, qishloq yoshlarining 55,4 %i, shaharda istiqomat qiladigan yigit va qizlarning esa 27,9 % qismi deyarli kinoteatrlarga tashrif buyurishmaydi [7, 43.]. Bo'sh vaqtdan foydalanishda gender xususiyatlari bo'yicha ham tafovutlar mavjud bo'lib, sport bilan muntazam shug'ullanish ko'rsatkichi yigitlarda 32,9 %ni, qizlarda esa, 9,8 %ni tashkil etadi, bo'sh vaqtni do'stlar davrasida o'tkazish erkaklarda 49,4 %ga teng bo'lsa ayollarda 26,2 % ga teng [7, 44.]. 2016 yilda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra qirg'iz yoshlarining 64,7 % qismi internetdan foydalanadi. Mazkur ko'rsatkich hozirgi vaqtga kelib ancha yuqoriga ko'tarilganini ta'kidlagan holda, unda yosh toifalari bo'yicha ham tafovutlar mavjudligini e'tirof etish maqsadga muvofiq.

Tojikiston yoshlarining katta qismi bo'sh vaqtini televizor ko'rishga sarflaydi (78,2 %). Mamlakat yoshlari kundalik hayotda o'rtacha 3,48 soat vaqtini televizor qarshisida o'tkazadi. Yoshlarning deyarli chorak qismi (24,6%) bir kunda 4 soat vaqtini televizor qarshisida o'tkazadi [8, 65.]. Mintaqaning boshqa davlatlaridan farqli o'laroq, televizor ko'rish ko'rsatkichi shahar yoshlari orasida qishloq yoshlariga nisbatan 9 % ko'proq. Boshqa mamlakat yoshlar qatori tojik yoshlari ham ko'proq vaqtini uy ishlariga sarflaydi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, 70,8 % yoshlar o'z vaqtini uy ishlari bilan band qilsa, faqatgina 2 % yoshlarga kundalik hayotida uy ishlari bilan shug'ullanmaydi xolos.

Tojik yoshlari orasida so'nggi yillarda til o'rganish, internetdan foydalanish, sport bilan shug'ullanish va turli kurslarga qatnashish kabi mashg'ulotlarning soni va sifati oshganligiga guvoh bo'lish mumkin. Mamlakat yoshlari orasida bo'sh vaqtini musiqa tinglash (57 %), yaqin qarindoshlar (47,8 %), do'stlar bilan o'tkazish (41,5 %), kitob va jurnallar o'qish (32,1 %) kabi mashg'ulotlarga sarflash hollari ham uchraydi. Sport bilan shug'ullanish 20,4 % yoshlar orasida muntazam ahamiyat kasb etsa, mazkur ko'rsatkich shahar yoshlari orasida 24,4 %, qishloq yoshlari orasida esa 18,9 %ni tashkil etadi [8, 65.].

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning bo'sh vaqtdan foydalanish madaniyati quyidagilar asosiga qurilishi maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, bo'sh vaqtdan samarali foydalanishga oid maqsad va vazifalarni oldindan belgilab olish va shunga monand harakat qilish;

ikkinchidan, bo'sh vaqtda amalga oshiradigan ishlarni asosiy faoliyatdan ajrata olishga alohida e'tibor berish;

uchinchidan, yoshlarda bo'sh vaqtdan foydalanish madaniyatining shakllanishida oila-mahalla-o'quv muassasasining o'zaro hamkorligini yanada kuchaytirish;

to'rtinchidan, yoshlarning bo'sh vaqtdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga erishishdan iborat.

Ma'lum bir amaliy maqsadga qaratilmagan bekor o'tadigan vaqtdan doimiy ravishda samarali foydalanishga urinish va maqsadga erishish yoshlardan avvalo hayotga bo'lgan professional qarashning shakllanishida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1..Кэндо. Т. Досуг и популярная культура в динамике и развитие // Личность. Культура. Общество. - 2000. - Т. - II. Вып. 1(2) – С. 288.

2. Дробинская Е.И., Соколов Э.В. Свободное время и развитие личности. - Л., 1983. - ст.7- 17.

3. Вишняк А.И, Тарасенко В.И. “Культура молодежного досуга” Киев. “Высшая школа” 1988, ст.10.

4. 2009-2018 yillarda Toshkent shahri va viloyati, Buxoro shahri va viloyatining 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlari ishtirokida o'tkazilgan etnosotsiologik tadqiqotlar materiallari.

5. Горшунова О.В. Узбекская женщина, социальный статус, семья, религия. М.2006.

6. Молодежь Центральной Азии. Казахстан. (На основе социологического опроса). Алматы 2016. Представительство Фонда им. Ф.Эберта в Казахстане, ТОО «DELUXE PRINTERY».

7. Молодежь Центральной Азии. Киргизистан. (На основе социологического опроса). Алматы 2016. Представительство Фонда им. Ф.Эберта в Казахстане, ТОО «DELUXE PRINTERY»

8. Молодежь Центральной Азии. Таджикистан. (На основе социологического опроса). Алматы. Представительство Фонда им. Ф.Эберта в Казахстане ТОО «Igraphic». 2017.

YANGI INTEGRATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HAMKORLIGI VA XAVFSIZLIGI

Xotamov Sh.N.,

dotsent

(O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti)

“Bizning mintaqamiz halqlarini ming yillik qardoshlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalari bog‘lab turadi. Bizni tarix, din, umumiy madaniyat va an‘analar birlashtiradi”¹.

SH.M.Mirziyoyev

Markaziy Osiyo davlatlarining har birida o‘ziga xos muammolar bo‘lsada, biroq ularda umumiy rivojlanish tamoyili mavjud. Bu davlatchilik asoslarini mustahkamlash, inson huquqlarning tenglik asosida ta‘minlash, islom dinining ridikalizatsiyalashuvi, ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishini oldini olish, ijtimoiy ta‘minlash bilan bog‘liq demografik muammolar, bozor iqtisodiga o‘tish jarayonidagi to‘siqlar, biznes investitsiya muhitining zaifligi, rivojlanib borayotgan nomutanosib ijtimoiy tabaqalanish va kam ta‘minlanganlik kabi muammolari shular jumlasidandir.

Shu bilan birga mintaqaviy xavfsizlik masalalari, jumladan, uyuushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, davlatlararo chegaralarda boshqaruvni yaxshilash, iqtisodiy yuksalishga erishishi mintaqalararo savdoni yo‘lga qo‘yish, jahon bozorlariga chiqish va tabiiy resurslardan yanada oqilona foydalanish Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkilotining mintaqa davlatlari bilan munosabatlarini shakllantiruvchi omillar sirasiga kiradi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida tuzilgan bitimlar, davlat rahbarlarining rasmiy o'zaro tashriflari chog'ida hamda Markaziy Osiyo hamkorligi doirasidagi uchrashuvlarda imzolangan siyosiy hujjatlar Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligini yo'lga qo'yish uchun meyoriy huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Markaziy Osiyodagi mintaqaviy iqtisodiy-siyosiy integratsiya jarayoni rasman 90 yillarning birinchi yarmidan boshlandi. 1994 yil O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Yagona iqtisodiy makon shartnomasi tuzishdi. 1998 yil Tojikiston ham bu shartnomaga qo'shildi. Yuzaga kelgan huquqiy asosni tashkiliy va moliyaviy jixatidan ta'minlash uchun Davlatlararo kengash va Markaziy Osiyo hamkorlik va rivojlanish banki barpo etildi. Ushbu shartnomaga muvofiq 1995-2000 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy integratsiya Dasturi qabul qilindi. Bu Dastur doirasida qo'shma korxonalar tuzulib, ishlab chiqarish kooperatsiyasi "Kurtak ota" boshladi. Suv-energetika, yonilg'i resurslaridan foydalanish sohasida hamkorlik yo'lga qo'yilib, davlatlararo gaz quvurlar yotqizildi. Natijada gaz-neft' zaxiralarini va suv resurslarini bir-biriga yetkazib berish infrastrukturasini yuzaga keldi. Bu esa o'z navbatida sobiq Ittifoq parchalangandan keyin buzilgan butun ittifoq iqtisodiy tizimdan ko'rilgan zararlarni oldini olishga olib keldi. 1999 yil Bishkek sammitida 25 ta katta xajmdagi loyiha ma'qullandi. Tomonlar mintaqa davlatlari energetika tizimlarini yonma-yon ishlashni ta'minlash va Sirdaryo havzasi suv-energetik resurslaridan tenglik prinsipi asosida foydalanishga kelishib olindi. Oqibatda mintaqadagi integratsion jarayon Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati degan nomni oldi .

XXI asr nafaqat o'zbek xalqi taqdirida, balki Yer yuzi aholisi hayotida tubdan burilishlar davri bo'lishini oldindan bashorat qilmoqda. Dunyoviy muammolar, urush va tinchlik masalalari va tazyiq o'tkazish siyosati davlatlararo xudbinlik singari illatlarni keskin fark qilish, ularni yuksak madaniy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan siyosatini qaror toptirish yo'li bilan bartaraf etish O'zbekiston xalqaro siyosatining bosh yo'lidir. U ijtimoiy tuzum g'oyasi va taraqqiyoti yo'lidan qat'i nazar tinch-totuv yashash, o'zaro manfaatli hamkorlik tarafdoridir. Shu yo'l bilan yer yuzi xavfsizligini ta'minlash, millati, irqi yashab turgan

mamlakati, fuqaroligi va boshqa jihatlaridan qat'i nazar inson hayotini himoya qilishga e'tibor bilan qaraydi. 1995 yil 5 mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi sessiyasida "Turkiston umumiy uyimiz" shiorini ilgari surilishi, uning mazmunidan ko'zlangan maqsad mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdir.

Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari jahonning boshqa ittifoqdosh va mintaqaviy hamkorlik mamlakatlaridan farqli o'laroq ma'naviy va madaniy hamkorlikka qo'proq asoslanadi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda hududiy joylashishi jihatidan ham yer osti va yer usti boyliklariga egaligi, xullas, iqtisodiy ko'lam va madaniy darajasi jihatidan ham alohida mavqega ega. Respublikamizning tashqi siyosiy yo'li aniq. Bu yo'l mintaqada yaxlit iqtisodiy hududini vujudga keltirish va rivojlantirishdan iborat: Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlik milliy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biridir. Xalqlarimiz tarixi, madaniyati, an'analari, diniy e'tiqodning mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtasidagi amaliy hamkorlik va hamjixatlikning muhim poydevori hisoblanadi. Bizning maqsadlarimiz bir, taqdirimiz bir. Bizda milliy munosabatlarda keskinliklar yo'q, hal qilib bo'lmaydigan voqealar ham yo'q. 2001 yilning 11 sentabr voqealaridan so'ng Markaziy Osiyo davlatlari darhol Yevro-Atlantika hamkorlik Kengashi a'zolari bilan birgalikda terrorizm balosini bartaraf etish bo'yicha barcha choralarni ishga solish masalasini muhokama qildi. Jumladan, O'zbekiston xalqaro terrorizmga qarshi kurash boshlangan birinchi kunlardanoq bu kurashning muhim hayotiy ahamiyatini anglagan holda xalqaro kaolsiyaga yordam ko'rsatishni ma'lum qildi. 2001 yilning 5 oktabrida O'zbekiston hukumati o'z havo xududini Amerika qo'shma Shtatlari samolyotlari uchun ochishni, mamlakat xududidan qutqaruv-qidiruv va gumanitar maqsadlarda foydalanishga ruxsat berishni bayon etdi. Ma'lumki, Markaziy Osiyo davlatlarida asosan islom diniga e'tiqod qiluvchi aholi yashaydi. Shu ma'noda olib qaraganda, ularning koalitsiya missiyalarini qo'llab-quvatlashi terrorizmga qarshi boshlangan xalqaro kurash islomga qarshi salib yurishi yoxud sivilizatsiyalar to'qnashuvi emas, balki terrorchilar va ularning rahnamosi Usama Bin Ladenga qarshi ekanligini

namoyish etdi. Qolaversa, terrorizm Shimoliy Amerika, Yevropa yoki Markaziy Osiyoda joylashuvidan qat'iy nazar, barcha davlatlarga bir xil tahdid solib turgani ma'lum bo'ldi. Va yana ayni hurujlar va terrorizmga qarshi umumharakat Yevro-Atlantika xavfsizligi uchun naqadar zarurligini va bunga NATOning Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqin hamkorlik qilishi nafaqat bugungi murakkab vaziyatda, balki undan keyin ham zarurligini ko'rsatdi. Darxaqiqat, tinchlikni saqlash, uni mustahkamlash kundalik ishimiz, muqaddas burchimiz ekan, har qaysi fuqaro avvalo o'z vazifasini vijdonan ado etishi, shu bilan birga g'arazli maqsadda qilinayotgan informatsion hurujlarga, uydirma va mish-mishlarga berilmasdan, sodir bo'layotgan voqealarga ochiq ko'z bilan qarashi, o'z uyi, mahallasi, shahar, qishlog'ida osoyishtalik barqaror bo'lishi uchun jon kuydirishi, mana shu haqiqatni chuqur anglab, ogohlik va hushyorlikni o'z hayotining mezoniga aylantirishi zarur.

Keyingi yillarda butun dunyo miqyosida va mintaqalarda vujudga kelgan keskin munosabatlarni, ziddiyatlarni juda ko'p sabablari borligini va bu sabablar tanqidiy tahlilga muxtoj ekanligini Birinchi Prezident Islom Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari," asarida ko'rsatib bergan edi. Bular: "Bir qancha mamlakatlarda keskin siyosiy kurash borayotgan bir vaqtda demokratiya asoslarining ba'zan qiyinchilik bilan qaror topish jarayonlarini tahlil qilish; milliy o'zlikni anglashning faol jonlanishi hamda millatlar va ayrimelatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishi; etnik va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganligi; qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadrsizlanishi hamda siyosiy va diniy eksteremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi; mamlakatlar, xalqlar o'rtasida, bir mamlakat ichida esa ayrim ijtimoiy guruxlar o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganligi bularning barchasi dunyo hali ham avvalgidek mo'rt bo'lib turganligi va avaylab munosabatda bo'lish talab qilayotganligidan dalolat beradi. Bizni qurshab turgan olam murakkab va muammoli bo'lib keldi, shunday bo'lib qolmoqda va yaqin istiqbolda ham shunday bo'lib qolajak." Shunday qilib, MO davlatlari nafaqat butun jaxonda barcha umumbashariy

muammolarni tinch yo‘l bilan hal etish, katta va kichik urushlarga barham berish, terrorchilik, qo‘poruvchilik giyohvandlikka qarshi faol kurashni maqsad qilib qo‘ymoqda. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun mustaqil Respublikalar o‘zining ichki va tashqi imkoniyatlaridan unumli foydalanishga harakat qilmoqda. Xalqaro xavfsizlik va barqarorlik muammosi yangi asr bo‘lag‘asida hamon jahon hamjamiyati oldida turgan eng asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Jumladan xalqaro xavfsizlikni bir qismi bo‘lgan mintaqaviy xavfsizlik muammosi ham. Mintaqaviy xavfsizlik bu mintaqani mavjud yaxlitligini ta‘minlash, uni iqtisodiy munosabatlarda, tabiatni muhofaza qilishda, dunyo hamjamiyati bilan shu mintaqaga uchun qulay sharoit yaratish va chegaralar daxlsizligini ta‘minlash hisoblanadi. Mintaqaviy xavfsizlikni makon nuqtai-nazaridan ikki guruhga ajratish mumkin. Tashqi mintaqaviy xavfsizlik va ichki mintaqaviy xavfsizlik.

Markaziy Osiyoda tashqi mintaqaviy xavfsizlikka taxdid soladigan omillarga: Afg‘onistondagi notinch vaziyat, mintaqaga atrofidagi davlatlarga qurollanish poygasini kuchayayotganligi va Pokiston va Hindistonda yadro sinovlari o‘tkazilishi, Markaziy Osiyoning geopolitik markazlaridan biri hisoblinishi, dunyoda energiyaga talabni oshib borayotganligi va boshqalarni kiritishi mumkin.

1. Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatmay turib, bu katta mintaqada xavfsizlikni ta‘minlab va uzoq muddatli barqarorlik o‘rnatib bo‘lmaydi. Afg‘onistonda 6 mln.ga yaqin tojiklar, 1mln.ga yaqin turkmanlar, 2 mln.dan ortiq o‘zbeklar yashaydi. Bu mamlakat xududi xalqaro terrorning tayanch markazi, o‘ta jangari va buzg‘unchi kuchlarning mashq maydoni, jahon bozoriga narkotik moddalarni yetkazib beradigan asosiy makon bo‘lib qoldi.

2. Ma‘lumki, Markaziy Osiyo yadro qurolidan xoli xudud hisoblanadi. Bu 1995 yilda yadro qurolini tarqatmaslik to‘g‘risidagi shartnomalarni uzaytirishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada rasmiy ravishda qayd etilgan. 1997 yilda Almata deklaratsiyasida Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar uni qo‘llab-quvatlaganlar. Lekin Markaziy Osiyoga qo‘shni davlatlar yadro quroliga ega bo‘lishga harakat qilishi

xudud xavfsizligiga taxdid solmoqda. 3. Markaziy Osiyo geosiyosiy markazlardan biri hisoblanadi.

Taniqli siyosatshunos va davlat arbobi Z.Bjezinskiy mintaqalarni, davlatlarni geosiyosiy nuqtai-nazaridan tahlil qilib ikki guruhga bo'ldi. Geosiyosiy markazlar; geostrategik xarakatlantiruvchi kuch Markaziy Osiyo geostrategik harakatlantiruvchi kuchlarga Rossiya, Xitoy, AQSH, Eron davlatlarini kirtish mumkin. Ichki mintaqaviy xavfsizlikka keladigan bo'lsak asosiy taxdid etuvchiomillar etnik munosabatlar, davlatlar o'rtasidagi chegara masalalarini hal qilinmaganligi suv resurslari bilan bog'liq muammolar terrorism, diniy eksteremizm va boshqalar. 1993 yilning yanvarida Birinchi Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvi tashkil etildi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. Besh davlat Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston rahbarlari do'stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Buni mintaqa xalqlari zo'r mamnuniyat bilan qarshi oldilar va qo'llab-quvvatladilar. Shu tariqa jahon siyosiy so'zligiga "Markaziy Osiyo" degan yangi atama paydo bo'ldi. Albatta, bu hodisaga turli toifa va qarashdagi siyosatchilar, huquqshunoslar, iqtisodchilar turlicha baho berdilar. "Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlik milliy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biridir. Xalqimiz tarixi, madaniyati an'analari, diniy e'tiqodning mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtasidagi amaliy hamkorlik va hamjihatlikning muhim poydevori hisoblanadi. Bizning maqsadlarimiz bir, taqdirimiz bir. Bizda milliy munosabatlarda keskinliklar yo'q, xal qilib bo'lmaydigan voqealar ham yo'q". 1994 yil 30 aprelida CHo'lponota shaxrida O'zbekiston, Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makon tuzish to'g'risida uch tomonlama shartnoma imzolandi. Uch qardosh mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik yangi pog'ona ko'tarildi. 1994 yil iyun' oyi boshida Almati shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi ham bu uch qardosh mamlakatlar xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda yana bir yangi qadam bo'ldi. Unda o'zaro integratsiyani kuchaytirish bo'yicha Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tuzish to'g'risida bitimlar

imzolangani. Tomonlar davlatlararo kengash hamda uning doimiy ijroiya organini, shuningdek Bosh Vazirlar Kengashi, tashqi ishlar vazirlari kengashi, Mudofaa vazirlari kengashini ta'sis etdilar, bunday yagona muvofiqlashtiruvchi boshqaruv organlarining paydo bo'lishi O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida integratsiya uchun huquqiy zaminni yanada mustaxkamladi. Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etildi. Shu tariqa Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati (MOIH) tashkil topdi. 1995 yil 3 martda Toshhovuzda, 1995 14 aprel kuni Chimkentda, 1997 yil 9-10 yanvar' kunlari Bishkekda, 1997 yil dekabrda Ostonada, 2000 yil, 20-21 aprel kunlari Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvlari bo'lib o'tdi. 2001 yil 28 dekabr' kuni Toshkentda Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorlik davlatlari boshliqlarining navbatdagi kengashi bo'lib o'tdi. Mazkur kengashda Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorlik tashkiloti faoliyatini to'xtatishga qaror qilindi. MOIH negizida Markaziy Osiyo Hamkorligi (MOH) tashkilotini tuzishga kelishib olindi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida tuzilgan bitimlar, davlat rahbarlarining rasmiy o'zaro tashriflari chog'ida hamda Markaziy Osiyo hamkorligi doirasidagi uchrashuvlarda imzolangan siyosiy hujjatlar Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligini yo'lga qo'yish uchun meyoriy huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik masalalari, jumladan, uyuushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, davlatlararo chegaralarda boshqaruvni yaxshilash, iqtisodiy yuksalishga erishishi mintaqalararo savdoni yo'lga qo'yish, jahon bozorlariga chiqish va tabiiy resurslardan yanada oqilona foydalanish Markaziy Osiyo davlatlarini yanada rivojlantiradi.

O'ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO: MINTAQAVIY HAMKORLIKNING STRATEGIK YO'NALISHLARI

Xudoyqulov Y.A.

falsafa fanlari nomzodi, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida xamkorlik aloqalari yaqin yillar oralig'ida yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa 2016 yillardan keyingi davrda O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari yangi bosqichga ko'tarilib, munosabatlardagi "masofa saqlash va turg'unlik" davridan "yahshi qo'shnichilik va pragmatik diplomatiya" siyosatiga asoslandi.

2019 yil 29 noyabrda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo rahbarlarining maslahat uchrashuvida Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev o'z nutqida quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tdi: "Bizning oldimizda murakkab savollar turibdi: Markaziy Osiyo qanchalik izchil va barqaror rivojlanadi? Bizning mamlakatlarimiz qanday yangi xavf-xatar va tahdidlarga duch kelishi mumkin? Biz, umumiy manfaatlardan kelib chiqqan holda, mintaqaviy hamkorligimizni bundan keyin qanday olib boramiz?"³⁶.

Ushbu uchrashuvda Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev o'z nutqida mintaqaviy sheriklikning ustuvor yo'nalishlari haqida fikr yuritib, quyidagilarga alohida to'htalib o'tdi:

Birinchi. savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya va energetika sohalarida vazifalarni amalga oshirishga bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etish.

Ikkinchi. Bosh vazir o'rinbosarlari va tashqi ishlar vazirlarining ko'p tomonlama uchrashuvlarini muntazam tashkil qilish bilan birga Markaziy Osiyo mamlakatlari Parlamentlararo do'stlik guruhini ta'sis etish.

Uchinchi. "Markaziy Osiyo – yagona o'tmish, umumiy kelajak" shiori ostida madaniy-gumanitar almashuv platformasining yaratilishi barcha xalqlarimiz manfaatlariga javob beradi, deb o'ylayman.

To'rtinchi. Mintaqaning murakkab suv va ekologik muammolarini hal qilish va yechish o'zaro muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni talab qiladi.

Beshinchi, Eng muhim ustuvor vazifa – mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashdan iboratdir³⁷.

³⁶ Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2020. – Б.270.

³⁷ Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2020. – Б.272-273.

2021 yil 6 avgustda Turkmanistonning “Avaza” milliy sayyohlik zonasida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchinchi Maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari dolzarb masalalar yuzasidan o‘z nuqtai nazarini bayon etib, qator takliflarni ilgari surdi.

Bugungi voqelik Markaziy Osiyoda iqtisodiy hamkorlikning yangi modelini shakllantirish bo‘yicha qat’iy qadamlarni taqozo etayotgani ta’kidlandi. Yangi o‘shish nuqtalarini, uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan yangi rivojlanish “drayver”larini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyoning transport-tranzit salohiyatini samarali ishga solish mintaqa mamlakatlarining umumiy strategik manfaatlariga mos keladi. Keng rivojlangan va integratsiyalashgan transport tizimi Yevroosiyo qit’asining muhim tranzit “xab”iga aylanishga qodir.

Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari mavjud transport yo‘laklari va infratuzilmasini, shu jumladan, Kaspiy dengizi portlari, yirik transchegaraviy logistika markazlarini imkon qadar to‘liq quvvat bilan ishlashini ta’minlashga chaqirdi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston kelajakda “Termiz – Mozori Sharif – Kobul - Peshovar” transafg‘on yo‘lagi, “Xitoy – Qirg‘iziston - O‘zbekiston” avtomobil va temir yo‘llari imkoniyatlaridan foydalanish niyatida.

Shuningdek, sanitariya talablariga rioya qilgan holda transport qatnovlarini to‘liq tiklash muhim ekani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari mintaqa mamlakatlari qishloq xo‘jaligi vazirlarining muntazam uchrashuvlarini o‘tkazish tashabbusini qo‘llab-quvvatlab, birinchi yig‘ilish kun tartibiga oziq-ovqat xavfsizligini monitoring qilish bo‘yicha mintaqaviy tizimni joriy qilish masalasini kiritish taklifini bildirdi.

Bu oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish hamda ularning sifatini nazorat qilish, shu jumladan, jahon bozoriga yetkazish bo‘yicha aniq yo‘nalishlar va qo‘shma dasturlarni belgilab olishga xizmat qiladi.

Pandemiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish va o‘zaro yordam ko‘rsatish masalalariga ham to‘xtalib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari mintaqaning ekologik muammolari hamisha diqqat markazida bo‘lishi kerakligini ta’kidladi. Bu boradagi hamkorlik ko‘lamini kengaytirish, Orol dengizi halokatining oqibatlarini yumshatish bo‘yicha barcha choralarni ko‘rish zarur.

Shu ma’noda O‘zbekiston Prezidenti mamlakatlarimizning iqlim o‘zgarishlariga moslashishiga, resurs tejovchi texnologiyalarning yana keng joriy etilishiga xizmat qiladigan “Markaziy Osiyo uchun “yashil” kun tartibi” mintaqaviy dasturini ishlab chiqishni taklif qildi.

- Mamlakatlarimiz taraqqiyotida mintaqqa aholisining aksariyat qismini tashkil etayotgan yoshlar muhim o‘rin tutishini barchamiz anglab turibmiz. Butun dunyoda yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurash davom etayotgan bugungi kunda Markaziy Osiyo kelajagining hal qiluvchi kuchi bo‘lgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashimiz kerak, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari kelgusi yilda O‘zbekistonda Markaziy Osiyo yoshlari forumini o‘tkazishni taklif etdi. Bu mamlakatlarimiz hukumatlari va yoshlari o‘rtasida ishonch va do‘stlikni mustahkamlash, interfaol muloqotni yo‘lga qo‘yish uchun platforma shakllantirishda muhim qadam bo‘ladi.

Umumiy madaniy makonimizni yanada rivojlantirish xalqlarimiz qardoshlik munosabatlarini mustahkamlashning muhim omilidir.

O‘zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyoning madaniy merosiga bag‘ishlangan festivallar, madaniyat va kino kunlarini o‘tkazish, birgalikda kitoblar nashr qilish muhim ekanini ta’kidladi.

Xalqlarimizni yaqinlashtirishga xizmat qiladigan yana bir omil bu – turizm sohasi. Mintaqa ichida sayyohlar almashinuvini ko‘paytirish uchun qo‘shimcha rag‘batlardan faol foydalanish muhimdir.

Davlatimiz rahbari turizm xizmatlarining butun doirasini qamrab oladigan “Bir sayohat – butun mintaqa” qo‘shma dasturini amaliy ro‘yobga chiqarish taklifini ilgari surdi.

- Bugungi sammit muhim voqea – davlatlarimiz mustaqilligining o‘ttiz yilligi arafasida o‘tayotgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yillar barchamiz uchun qiyin davr bo‘ldi. Asosiy xulosa shuki, birgalikda, jips bo‘lib, bir-birimizni qo‘llab-quvvatlab, oldimizda turgan muammolarning yechimiga erishamiz, mintaqaning barqaror taraqqiyoti va aholi farovonligini yuksaltiramiz. Boshqa muqobil yo‘l yo‘q! – dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga barqaror tus berish, shu maqsadda “xalq diplomatiyasi”, parlamentlar, fuqarolik jamiyati institutlari va media sohasi salohiyatidan yana keng foydalanish muhim ekani qayd etildi.

- Markaziy Osiyo ayollari muloqoti yanada rivojlanayotgani, gender tenglik sohasidagi global maqsadlarga erishishga qaratilgan aloqalar kengayib borayotganini olqishlaymiz, - deb ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Parlamentarizmning roli ortib borayotganini hisobga olib, Prezidentimiz Toshkent shahrida Mintaqaviy parlament forumini o‘tkazishni taklif etdi.

O‘z nutqini yakunlar ekan, davlatimiz rahbari Maslahat uchrashuvining natijalari Markaziy Osiyodagi birodar xalqlarning ko‘p qirrali sherikligini yanada mustahkamlashga munosib hissa qo‘shishiga ishonch bildirdi.

2022 yil 21 iyulda Qirg‘izistonning CHo‘lponota shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi To‘rtinchi Maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Ushbu uchrashuvda Prezidentimiz SH.M.Mirzayoyev nutq so‘zlab quyidagi masalalarga e’tiborni qaratdi:

Birinchisi – iqtisodiy yo‘nalish. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ijobiy do‘sh sur‘atlariga qaramasdan, mamlakatlarimizning savdo-iqtisodiy hamkorlik salohiyati to‘liq ishga solinmasdan qolmoqda.

Shu munosabat bilan o‘zaro savdoni rag‘batlantirishning yangi shakl va mexanizmlarini faol joriy qilishni taklif etamiz.

Ikkinchi yo‘nalish – ekologiya sohasida ko‘p tomonlama hamkorlik.

Bizning «Markaziy Osiyo uchun «Yashil» kun tartibi» dasturini qabul qilish to'g'risidagi tashabbusimizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

Xavfsizlik sohasi – mintaqaviy hamkorligimizning strategik yo'nalishidir.

Mintaqaviy xavfsizlik bo'linmas va eng avvalo, bizning sherikligimiz qanchalik samarali yo'lga qo'yilganiga bog'liq ekanini ta'kidlamoqchiman.

Shu ma'noda, ekstremizm va terrorizm, uyushgan jinoyatchilik va narkotrafik kabi an'anaviy tahdidlarga qarshi kurashda amaliy hamkorligimizni bundan buyon ham kuchaytirib borishimiz zarur.

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN HAMKORLIGINING YANGI BOSQICHI

Xursandov A.S.,

**siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD) , dotsent, mayor
(O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti)**

Markaziy Osiyo mamlakatlarini umumiy tarix va madaniyat birlashtirib turishi bilan birga, iqtisodiyot tuzilmalari ham deyarli bir-biriga o'xshash. Ularda tabiat resurslari asos bo'lgan qazib olish va xomashyoga ixtisoslashgan tarmoqlar ustunlik qiladi. Bundan tashqari, mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotlari ish kuchining arzonligi va agrosanoatlashgan salohiyat singari bir qancha umumiy afzalliklarga ham ega. Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari ham turli islohotlarni amalga oshirish orqali ko'proq investitsiya jalb qilishga intilmoqda. Biroq, ushbu islohotlarning ko'lami va darajasi mamlakatiga qarab farq qiladi.

Shavkat Mirziyoyevning Prezidentlik lavozimiga kelishini O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari munosabatlari tarixida yangi davrning boshlanishi sifatida baholash mumkin. Qisqa davrda davlatlararo aloqalarda muhim ijobiy natijalarga erishildi. Qo'shni mamlakatlar

chegaralar va bozorlarining ochilishi mintaqada sanoat kooperatsiyasi, o‘zaro investitsiyalarni jalb qilish va xavfsizlik sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkonini berdi [1.].

Juda qisqa vaqt ichida O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 70 foizga, Tojikiston bilan 85 foizga, Qozog‘iston bilan esa 30 foizga oshdi. Qo‘shnilar bilan muhim va o‘zaro manfaatli bitimlar imzolandi, yangi iqtisodiy va ijtimoiy loyihalar bo‘yicha amaliy ishlar boshlandi.

Markaziy Osiyo bo‘yicha tahlilchi Ketrin Pus, “The Diplomat” gazetasida yozilishicha, “ikki tomonlama aloqalarni tiklash jumboqning faqat bir qismidir, ikkinchisi - Toshkentning ko‘p tomonlama hamkorga aylana olishi. O‘zbekistonning mintaq bilan kirishishga qaratilmagan va tashqi kuchlarga nisbatan muvozanatli tashqi siyosati Markaziy Osiyoda geosiyosiy muvozanatni, geosiyosiy plyuralizmni saqlab qolishning hal qiluvchi omili hisoblanadi” [2.].

Shu bois, bugungi kunda Toshkent mintaqaviy rivojlanishning asosiy masalalari va dinamikasini shakllantirayotgan muhim ishtirokchilardan biriga aylanganini ham alohida qayd etish joiz. Jahon hamjamiyatiga yuzlangan holda O‘zbekiston boshqa davlatlarni Markaziy Osiyo mintaqasiga o‘zgacha nazar bilan qarashga va uning mintaqaviy hamkorlik imkoniyatlaridan eng yuqori darajada foydalanishga undamoqda. Buning tasdig‘i sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Markaziy Osiyo rahbarlarining Maslahat uchrashuvini tashkil etish borasidagi tashabbusidir. Oldinlari Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari faqat ikkitomonlama tashriflar yoki MDH va SHHT doirasidagi oliy darajadagi uchrashuvlarda, shuningdek, boshqa xalqaro doiralarda uchrashganda, mintaqaviy masalalar haqida fikr almashgan bo‘lsa, endilikda bevosita uchrashuvlar uchun imkoniyat mavjud. Maslahat uchrashuvlari – bu Markaziy Osiyo davlatlari mustaqil ravishda, boshqalarning aralashuvisiz va vositachilgisiz muhim mintaqaviy masalalarni muhokama qilishi va yechimlar ishlab chiqishi mumkin bo‘lgan platformadir.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari maslahat uchrashuvlari (2018 yil mart, Ostona; 2019 yil noyabr, Toshkent; 2021 yil avgust, Avaza; 2022 yil

iyul, Issiqko'1) ham o'zaro munosabatlarning yangi bosqichi boshlanganidan dalolat beradi.

Tadqiqotchi S.Valiyevning fikricha, maslahat uchrashuvlari - bu maslahatlashuv maydoni. Bu yerda hech qanday ittifoq yoki institusional integratsiya haqida gap yo'q. Bu yerda juda chuqur o'ylashni talab qiladigan masalalar bor. Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlar mintaqa rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'yganligidan, yaxlit xarakterga ega bo'lganligidan kelib chiqmoqda. Mamlakatlarimiz jahon miqyosida birgalikda e'tirof etilmoqda. Buni hamkorlik formatlari mavjudligi bilan ham baholash mumkin. Masalan, AQSH tashabbusi bilan tashkil etilgan C5 + 1. Shunga o'xshash format Yaponiya, Koreya, Rossiya, Hindiston bilan ham mavjud. Ko'plab hamkorlar mintaqa bilan xuddi yaxlit makon kabi hamkorlik qilishga qiziqmoqda. Ammo, bu bunday hamkorlik uchun biz qandaydir ittifoq yaratishimiz va shu asosda aloqalar o'rnatishimiz kerakligini anglatmaydi. Shuning uchun uchrashuvlarning maslahat mexanizmidan foydalanish g'oyasi nafaqat oqilona, balki hozirgi vaqt uchun eng muvaffaqiyatlisi bo'ladi. Ba'zi baholashlarga ko'ra, har kuni 100 mingdan ziyod kishi qo'shni davlatlardan O'zbekiston chegarasini kesib o'tadi.

Biz bir-birimizni to'liq takrorlaydigan o'xshash iqtisodni mintaqa manfaatlari doirasida muvofiqlashtirib, o'zaro savdo-sotiq bir-birini to'ldirish va o'zaro ehtiyojlarni qondirishga imkon berishi joiz.

O'rganib chiqilgan materiallar tahlili shuni ko'rsatadik, ichki mintaqaviy savdo darajasi rivojlangan integratsiyalashgan birlashmalar darajasiga yetib bormasdan, asosiy savdo sheriklarimiz hozircha mintaqa tashqarisida ekanligining guvohi bo'lamiz. Ayni paytda, boshqa mintaqalarda ichki mintaqaviy savdo ko'rsatkichlari Markaziy Osiyodagidagi nisbatan ancha yuqori. Yevropa Ittifoqida bu ko'rsatkich 60 foizdan oshadi. ASEANda bu ko'rsatkich umumiy savdo hajmining taxminan 50% ini tashkil etadi. Bizda esa turli baholarga ko'ra bu 10% dan kamroq [3.].

Umuman olganda, har qanday tajriba avvalo yaqin bozorlarga e'tibor qaratish, so'ngra yana davom etish kerakligini ko'rsatadi. O'zbekiston buni hozirda parallel ravishda qilmoqdamiz - uzoq va yaqin bozorlarga

qaramoqda. Mintaqa hozirda dunyodagi eng qudratli va tez rivojlanayotgan ikki bozor - Xitoy va Janubiy Osiyo yaqinida joylashgan. Shu bois, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik va davlat rahbarlarining maslahatlashuv formatida muvaffaqiyatli ko'rib chiqilayotgan muammoli masalalarni tezda hal qilish birgalikda rivojlanish uchun juda kuchli iqtisodiy turtki berishi mumkin. Davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlarining asosiy maqsadi mintaqaning ikki asosiy talabi - barqarorlik va barqaror rivojlanishga tayangan holda uzoq muddatli mintaqaviy hamkorlikka konseptual ravishda chiqishdir [3.].

O'zbekiston Markaziy Osiyoda muhim davlat hisoblanadi va alohida rol o'ynaydi. Mamlakatning regiondagi muhim ahamiyati xorijiy ekspert va siyosiy doiralar vakillari tomonidan ham e'tirof qilinadi. Toshkent mintaqadagi barcha qo'shni davlatlar bilan strategik hamkorlik to'g'risida shartnoma tuzgan bo'lib, bu yuqori darajada regional siyosat tuzish imkonini beradi. Ushbu maqsadlarda amalga oshirilayotgan ishlar mamlakatning xalqaro munosabatlar tizimidagi o'рни va rolini mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Toshkent hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha tashabbuslarni ilgari surgan holda, mintaqada biron-bir ustuvorlikni ko'zlamaydi. O'zbekiston tashabbuslari barcha mamlakatlar manfaatlarini hisobga oladi, konsensus tamoyiliga asoslanadi.

Toshkentning faol, tashabbuskor va konstruktiv diplomatiyasi tufayli shakllangan mintaqadagi yangi siyosiy reallik Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida keng doirali masalalar bo'yicha o'zaro harakatlarni kuchaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Toshkentda 2019 yil noyabrda o'tkazilgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining konsultativ uchrashuv yig'ilishi bunga yorqin misol bo'ldi. Uchrashuv davomida tomonlar Markaziy Osiyo kun tartibidagi bir tomonlama formatda ham, ikki tomonlama formatda ham hal qilishning imkoni bo'lmagan ko'plab muammoli masalalar yechimini muhokama qildilar. Bundan tashqari, bunday turdagi uchrashuvlarni muntazam asosda o'tkazish to'g'risida kelishuvga erishildi.

Bunda qayd etish kerakki, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining konsultativ uchrashuvlarini o'tkazish mintaqada yangi xalqaro tashkilot

yoki o‘z ustaviga ega va davlat organlaridan yuqori turuvchi biron-bir integratsion tuzilma tashkil etilishini nazarda tutmaydi. Ushbu faoliyat faqat regional rivojlanishning muhim masalalari bo‘yicha “soatlarni to‘g‘rilab olish”ga qaratiladi.

Mintaqa mamlakatlarning murakkab epidemiologik vaziyati sharoitida muntazam aloqalar orqali infeksiya tarqalishiga qarshi kurashish, shuningdek, savdo-iqtisodiy va transport-tranzit sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlar ishlab chiqildi. O‘zbekiston Qirg‘iziston va Tojikistonga insonparvarlik yordamini ko‘rsatdi. Tojikistonga yordam mamlakatga barcha donorlardan tushgan yordamning uchdan bir qismini tashkil etdi.

O‘zbekistonning mintaqada bo‘yicha yo‘nalishi faollashuvi regional yaqinlashish, ishonch va o‘zaro tushunishni tiklash, shuningdek, yig‘ilib qolgan masalalarni oqilona muhosilalarga kelish asosida operativ hal qilish yuzasidan allaqachon yetilgan talabga o‘z vaqtida va amaliy javob bo‘ldi. Oliy darajada o‘rnatilgan ochiq va ishonchli muloqot barcha hamkorlik yo‘nalishlarini kuchaytirish uchun mustahkam asos yaratdi.

Birinchiidan, oliy va yuqori darajalarda siyosiy muloqot sezilarli faollashdi, parlamentlararo, muassasalararo va hududlararo aloqalar kuchaytirildi. O‘z navbatida, qayd etilgan davrda regionning barcha davlat rahbarlari O‘zbekistonga tashrif buyurdilar. Tahlil ma‘lumotlariga ko‘ra, ushbu uchrashuvlar yakunlari o‘z samaradorligi bo‘yicha misli ko‘rilmagan natijalar bergan.

Ikkinchiidan, ekstremistik va terroristik tuzilmalar faoliyatiga qarshi birgalikda kurashish bo‘yicha o‘zaro kelishuvga erishildi. 2019-2020 yillar uchun O‘zbekistonning Qirg‘iziston va Tojikiston bilan tegishli kompleks chora-tadbirlar rejalari imzolandi. 2018 yil iyuldan sentabrgacha O‘zbekiston Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston bilan qo‘shma antiterroristik mashg‘ulotlarini o‘tkazdi.

Uchinchiidan, O‘zbekistonning Qirg‘iziston va Tojikiston bilan davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal qilish ancha ilgari surildi.

Bularning barchasi nafaqat ikki tomonlama da'voli masalalarni hal qilish, balki butun regionning kun tartibidan o'tkir nizoli potensialni olib tashlash va siyosiy ishonch darajasini oshirishdan ham iborat.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan siyosiy sohadagi o'zaro hamkorligi faollashuvi bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika va madaniy-insonparvarlik sohalarida yangi impuls olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.. <http://www.isrs.uz/uz/maqolalar/markazij-osieda-mustarak-ziatlar-tadidlar-va-angi-imkoniatlar> (Murojaat etilgan sana: 16.02.2019.).
2. <http://www.isrs.uz/uz/maqolalar/ozbekiston-2017-bir-yil-ichida-qanday-ozgarishlar-roy-berdi> (Murojaat etilgan sana: 07.09.2020.).
3. <http://www.isrs.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/otkrytost-k-vzaimodejstviu-k-cemu-privodit-novaa-energetika-vnesnej-politiki-uzbekistana> (Murojaat etilgan sana: 08.09.2020.).
4. <http://www.isrs.uz/uz/maqolalar/kluceve-prioritety-vnesnej-politiki-obnovlennogo-uzbekistana> (Murojaat etilgan sana: 07.09.2020.).
- 5.

MINTAQADA SIYOSIY VA IQTISODIY HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA SHHT ning O'RNI VA AHAMIYATI

Sherov M.B.,

*falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, mayor,
(Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti)*

Bugungi kunda dunyo va Markaziy Osiyo mintaqasida katta nufuzga va salohiyatga ega bo'lgan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti 1996 yil Shanxayda, 1997 yilda Moskvada bo'lib o'tgan Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlat rahbarlarining sammitlarida harbiy sohada hamda chegara hududlarida o'zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida shartnomalar

imzolangan edi. Shu tariqa “Shanxay forumi” yoki “Shanxay beshligi” tashkiloti tuzilgan edi.

Tashkilotning bosib o‘tgan yo‘li uning faoliyati nechog‘li samarali kechayotganligi haqida yaxshi tasavvur beradi. Yangi asr bo‘lag‘asida xalqaro maydonda ko‘p o‘zgarishlar ro‘y berdi. Yevroosiyoda, ayinqsa, Markaziy Osiyoda geosiyosiy vaziyat keskin o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston tomonidan chegaraviy masalalarni hal qilish uchun tuzilgan «Shanxay beshligi» nomli tuzilma faoliyat ko‘rsatar va o‘z mazmun-mohiyatidan kelib chiqib qaraganda, bu tashkilot asosiy vazifasini asosan bajarib bo‘lgan edi.

ShHTning 2004-yildagi Toshkent sammitida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor berilgan edi. Sammitda ShHTga a‘zo mamlakatlarni xavfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir, deb ta‘kidlangandi. Sammitda iqtisodiy hamkorlikning quyidagi yo‘nalishlari rag‘batlantirishga kelishib olingandi:

- transport infratuzilmasini rivojlantirish;
- tabiiy-mineral xom-ashyo zaxiralarini o‘zlashtirish;
- suv-energetika zaxiralaridan unumli foydalanish;
- ekologiyaga oid masalalar, xususan, ichimlik suvi muammolarini hal qilish, fan-texnika va yuqori texnologiya, energetika sohaslariga integratsiyalashish;
- investitsiyalar xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy poydevor yaratish, bu sohadagi to‘siq va muammolarni bartaraf etish [1].

ShHTning 2022-yilgi Samarqand sammitida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni ilgari surgan edi:

ShHTning mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash sohasidagi salohiyatini kuchaytirish;

ShHTning mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash, barqaror va inklyuziv rivojlanishga ko‘maklashish, shuningdek, xalqaro maydondagi nufuzini oshirish sohasida salohiyatini yanada mustahkamlash.

Do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik muhitini mustahkamlash;

Do'stlik va yaxshi qo'shniçilik, o'zaro ishonç va har tomonlama hamkorlik muhitini mustahkamlash ShHTning ichki birligini ta'minlashning muhim omili sifatida ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga doir dolzarb vazifalarni hal etishda a'zo davlatlarning sa'y-harakatlarini birlashtirish.

ShHTning jahon miqyosidagi nufuzini oshirish;

ShHTning jahon miqyosidagi nufuzini oshirish, xususan, ShHT kuzatuvchilari va muloqot bo'yicha hamkorlari bilan amaliy hamkorlikni kuchaytirish, muloqot bo'yicha sheriklar, kuzatuvchi davlatlar va a'zo davlatlar maqomini olish uchun alohida davlatlarning arizalarini ko'rib chiqishni yo'lga qo'yish.

Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlikni yanada mustahkamlash;

ShHT MATTni Tashkilot makonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha prinsipial jihatdan yangi vazifalarni hal qilishga bosqichma-bosqich moslashtirish, kibermakondagi jinoyatlarga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikni institutsionallashtirish, axborot -mafkuraviy sohadagi tahdidlarga, shu jumladan, siyosiy tadbirlar davri mobaynida hamkorlikni yanada mustahkamlash.

ShHTga a'zo davlatlarning parlamentlararo hamkorligini mustahkamlash;

ShHTga a'zo davlatlarning davlatlararo munosabatlarning dolzarb masalalari bo'yicha qarorlar ishlab chiqishda parlamentlararo hamkorligini mustahkamlash.

ShHT faoliyatida iqtisodiy jihatni mustahkamlash;

Savdo va investitsiyaviy hamkorlikning o'sishini rag'batlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni kengaytirish, qo'shma infratuzilma loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ShHT faoliyatining iqtisodiy jihatlarini mustahkamlash.

ShHT makonida transport bog'liqligini rivojlantirish;

Mintaqaning ulkan transport-tranzit salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida ShHT makonida transport bog'liqligini rivojlantirish.

ShHTning madaniy-gumanitar yo'nalishini mustahkamlash;

Turizm va yoshlar almashinuvi, xalq diplomatiyasi, fuqarolik jamiyati institutlari va gender kun tartibi sohasidagi aloqalarni faollashtirish orqali ShHTning madaniy-gumanitar yo‘nalishini mustahkamlash.

O'zaro ta'sir mexanizmlarining samaradorligini oshirish;

ShHT doirasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmlari samaradorligini izchil oshirish, shu jumladan ShHT doirasida hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini boshlash.

ShHT faoliyatini yanada takomillashtirish;

Xavfli yuqumli kasalliklar va epidemiyalarning oldini olish va ularga qarshi kurashish, innovatsiyalar, yuqori texnologiyalar, “yashil” va “raqamli” iqtisodiyotni rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarda hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish orqali ShHTni ko‘p tarmoqli tashkilot sifatida yanada takomillashtirish [2].

ShHTning xalqaro obro‘si va jozibadorligi ortib borayotganini belgilayotgan eng muhim jihatlar quyidagilar:

Birinchi, Yevroosiyo hududida ShHTning o‘z vaqtida tashkil etilishi va bunga ehtiyoj borligi, uning oldiga qo‘yilgan va hal etilayotgan vazifalarning dolzarbligi. Bunda xavfsizlikni ta‘minlash masalalari bilan bir qatorda tashkilotga a‘zo mamalakatlar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishi muammolarini hal qilishga muhim ahamiyat berilayotgani e‘tiborga molikdir.

Ikkinchi, ShHT umumiy chegaralari, yaqin tarixiy-madaniy, an‘anaviy siyosiy, iqtisodiy va gumanitar aloqalarga ega davlatlarning teng huquqli birlashmasi bo‘lib, uning faoliyati boshqa mamlakatlarning manfaatlariga qarshi qaratilmagan va qarama-qarshilik qiladigan blok xususiyatiga ega emas.

Nihoyat, uchinchi, hozirgi zamonda ShHT o‘zining asosiy tamoyillaridan kelib chiqib barqarorlikni saqlashning ishonchli kafili, radikal va ekstremistik kuchlar, turli qo‘poruvchi va buzg‘unchi markazlarning mintaqaviy vaziyatni izdan chiqarish, uni qarama-qarshilik va nizo maydoniga aylantirishga urinishlarga to‘siq qo‘yuvchi olim sifatida maydonga chiqayotgani alohida ahamiyatga ega[3].

Xulosa qilib aytganda, tarixan qisqa davrda ShHT nafaqat nufuzli xalqaro tuzilmaga aylandi, balki hozirgi zamon geosiyosatini belgilovchi omillaridan biri bo‘lib shakllandi [4].

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1.. Islom Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari., T, “O‘zbekiston”, 1997, - B.31.

2. Sh. M. Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar. 1-jild. T.: «O‘zbekiston», 2018. – B. 223.

3. Islom Karimov. Tinchlik va barqarorlikni saqlashning ishonchli kafolati.// Xalq so‘zi. – 2006. – 20 iyun. № 117.

4. Sherov M. B. Harbiy – siyosiy geografiya. Darslik. Chirchiq OTQMBYu. 2020. 340-b.

**MARKAZIY OSIYODA XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHDA
MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘RNI**

*Yuldashov I., PhD, dotsent,
Farg‘ona davlat universiteti,
Karimov O‘.O‘., talaba,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

Mustaqillikka erishganimizdan keyin bozor iqtisodiyotiga asoslangan mustaqil demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari, qonun ustivorligi hamda mamlakatimiz barcha fuqarolari uchun qonun oldida tenglik ta‘minlanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish strategik maqsad sifatida belgilangan.

Jahon tsivilizatsiyasidan ajralgan, o'zining alohida tarixiga ega millat bo'lgan emas. Millatlar boshqa xalqlarning yutuqlaridan foydalanmay turib rivojlana olmaydilar. Barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy rivojlanish tarixi bir-biri bilan chirmashib, taraqqiy etib kelgan. SHuning uchun ham har bir millat o'z doirasida cheklanib qolmay, boshqa millatlar va xalqlar bilan birgalikda taraqqiy etishi lozim.

Butun jahon iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyoti xalklar, millatlar, elatlar, urug'lar va qabilalar tarixiy, takdirlarining o'zaro bog'lanishi, chirmashuvi, bir-birini to'ldirishi asosida amalga oshadi. Agar biror millat boshqa millatlar bilan o'zaro o'xshash xususiyatlarga ega bo'lmaganda, iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lmaganda, u ulardan o'rganmagan va o'zidagi yutuqlarni boshqalar bilan baham ko'rmaganda edi, u tanazzulga uchragan millat bo'lgan bo'lur edi. Bunday millat jahon tsivilizatsiyasining samaralaridan foydalana olmagan bo'lardi.

Millatlararo totuvlik milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi va bog'liqligini chuqur anglash natijasi hamdir. Millatlarning manfaati, qadriyatlari asrlar mobaynida o'zaro bog'liqlik holda rivojlantirilib kelingan. Mintaqamizdagi bu boradagi yuksalish davrlari ushbu bog'liqlik asosida amalga oshirilgan. Turli millatlar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohadagi aloqalar hozir ham milliy uyg'onishga, millatlararo totuvlikni ta'minlab berish jarayoniga ijobiy ta'sir qilmoqda.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi bog'lanishlar bugungi kunda yangi mazmun kasb etmoqda, o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu borada kishalar o'rtasidagi birlik va birdamlik, tenglik va teng xuquqiylik, insonparvarlik, rahm-shavqat, mehr-muruvvat, adolatparvarlik, baynalminallik singari qadriyatlarnig o'rni ayniqsa kattadir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur va xolisona o'rganish millatlararo totuvlikni ta'minlab berish jarayonini tezlashtiradi.

Bir vaqtning o'zida faqat milliy qadriyatlar manfaatlari bilangina, bir tomonlama, ya'ni sinfiy xarakterda cheklanib qolsak, materialistik dialektika metodologiyasiga zid ravishda ish tutgai bo'lamiz. Ayni bir vaqtda dialektikani e'tibordan soqit qilish ba'zi tadqiqotchilarga pand berdi, yagonalik, alohidalik va umumiylik kategoriyalari asosida baxo berishda bir tomondan boshqa tomonga sapchishga, haddan oshishlarga imkon yaratib berdi.

Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqiyosda amal qilishi, dunyodagi ko'plab xalqlar, millatlar, elatlarning o'tmishidagi ,Xozirgi va kelajak taraqqiyoti bilan chambarchas aloqadorlikda ekanligi, o'zida jahon tsivilizatsiyasining yaxlit bir butunligini ifodalanganligi bilan milliy qadriyatlardan farq qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar xilma-xil bo'lib milliy nizolarni oldini olish, millatlararo totuvlikni ta'minlab berish xam uning asosiy qadriyatlaridan hisoblanadi. Umuminsoniylik alohida millat qadriyatlarini butun olamga targ'ib qilish yo'li bilan emas, balki barcha millat va elatlarning qadriyatlarining avaylab-asrash, uyg'unlashtirish, xurmat qilish va jahondagi milliy xilma-xillikning umumbashariy xilma-xillik bilan uzviyligini anglash orqali boyib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar, xalqlarning maqsad intilishlarining yaxlitligi va umumiyligini ifodalaydi.

Turli ijtimoiy-siyosiy tuzumni davlatlar o'z milliy qadriyatlarini, umuminsoniy qadriyatlar bilan umumlashtirgan gungi kunda ham mavjud bo'lgan millatchilik singari illatlardan xoli qilgan holda ustunlikka erishtirish kerak.

Hozirgi umumbashariy muammolar mana shu masalaning umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan turib xal qilinishiga xammadan ko'ra ko'proq majbur etmoqda.

Millatlararo totuvlikni ta'minlab berish, millatidan qa'tiy nazar barcha insonlarni omon qolishi ularning huquq va erkinliklari, umumjahon iqtisodiy mexanizmining yangi bosqichi, har tomonlama hamkorlik va

qo‘shnichilikning zaruriyatlari, ekologik, energetik muammolar va umuminsoniy boy tarixiy meros, insonlarga xos umuminsoniy fazilatlar, hozirgi dunyoning yaxlitligi va o‘zaro bog‘liqligi, uning ziddiyatlari mohiyatining o‘zgarishi ularning asosiy, tub mohiyatli xususiyatlaridir.

Umumjahon tsivilizatsiyasi jarayonida barcha millatlar va yangi milliy hosilalarning roli oshgan hozirgi kunda xalqaro munosabatlar o‘zining milliy xarakterini yo‘qotmagan holda o‘zini borgan sari ko‘proq darajada ayni xalqlar orasidagi munosabat sifatida ro‘yobga chiqarmokda.

Barcha jahon olimlari hozirgi umumbashariy muammolarni umuminsoniy maksadlardan kelib chiqib hal etmasdan turib, o‘z milliy kelajaklarini dunyo bo‘yicha mushtarak xavf-xatarlardan qurolli ixtilof, ekologik falokatlar, kashshoklik va ocharchilikdan, iqtisodiy, siyosiy va madaniy yagonalashuvdan, moddiy va ma‘naviy meroslar xalokatidan qutkarib kolishi mumkin emas-degan xulosaga keldilar.

Dunyo xalqlari umumiy insonparvarlik qadriyatlarini va hamma uchun yagona bo‘lgan shaxs hukuqlarini xurmat qilishni kabul kilmagunlariga kadar ular oldida na butun xamjamiyat oldida turgan muammolarning birortasi ham muvaffaqiyatli xal etilishi, xalqaro xavfsizlikning ham mustahkam himoya qilinishi mumkin emas.

Dunyoning barcha tinchliksevar davlatoari singari Mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan millatlararo totuvlikni ta‘minlab berishga qaratilgan siyosati xalqimizni o‘tmishdan shakllanib kelgan insonparvarlik qadriyatlariga suyanadi.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar-ning o‘zaro bog‘liqligi shu qadar qat‘iyki, ular bir-biri bilan shunchalik mustaxkam «chatishib» ketganki, ularning loaqal birortasini «tushib» qolishi butun zanjirning uzilishiga olib kelishi mumkin. Butun insoniyatga tuzatib bo‘lmaydigan zarar yetkazishga kodir, tor ma‘noda tushuniladigan milliy qadriyatlarining torozi pallasni bosib ketishi tufayli og‘ish sodir bo‘lmasligi uchun buni doim esda tutish lozim.

Hozir yagona jahon yaxlitligi doirasida mavjud bo'lgan mamlakatlar o'rtasida o'zaro ta'sir, birgalikda faoliyat ko'rsatish va yonma-yon suyanib rivojlanish qonunlarining ta'siri ko'zga tashlanmoqda. Bu esa kishilik jamiyatining tarixan belgilanib qolgan turmushini tubdan o'zgartirish konunlarini bir qadar tezlashtirib yubordi. Chunonchi, «uchinchn dunyo» davlatlari jahon xalklarining ijtimoiy tajribasi va texnikaviy vositalarini o'zlashtirib, rivojlanishning an'anaviy tiplaridan jiddin farq kiluzchi yangi tipini shakllantirmokda.

Har bir xalq o'z milliy manfaatlarini, milliy qadriyatlarini e'tiborga olish bilan bir qatorda boshqa davlatlarning manfaatlarini hurmat qilishi kerak. Zero xaqiqatdan tinchlik, yaxshi qo'shnichilik, har tomonlama hamkorlik, o'zaro ishonch nafaqat omon qolish, balki ko'pgina ijtimoiy vazifalarni hal etishga, insonlarning siyosiy huquqlarini, milliy va ma'naviy boyliklari va meroslarini saqlash orqali -umummilliy qadriyatlarni ta'minlash hamdir. Shu bilan birga dunyoda, ayrim mamlakatlardagi qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, partiyalar, davlatlar va ular tartibotlarning uziga xos vazifalari real muammolar bo'lib kolaveradi. Jahonshumul muammolarni xal qilishning shoshilinchligini inkor etish, ularning umuminsoniy manfaatlarini yanada ta'sirchan himoya qilishga intilishi bilan belgilanuvchi taraqqiyparvar harakatlarning obro'si, ta'sirini oshirish imkoniyatlariga e'tibor bermaslik mulohazasiz ish tutish bo'lur edi. Shu sababli bunda shoshilinch yangilash, hamma narsani o'ylamay-netmay qayta ko'rib chiqish ham, o'zlashtirilgan yerlardan yangi yerlarga o'tishdan hadiksirovchi ko'rkoklarcha aqidaparastlik ham samarasizdir.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o'zaro munosabatini dialektik tushunish mamlakat ichida ham, jahon maydonida ham samarali ta'sirchan siyosatni, iqtisodiyot va madaniyatni yaratish juda katta ahamiyatga ega. Darvoqe, faoliyatning istalgan soxasi uchun davlatlar hamjamiyatida yuz berayotgan o'zgarishlarni uz vaqtida payqash va hisobga olish muximdir.

Hozirgi davrdagi jarayonlarni tadqiq qilishga yangicha tafakkurni izchillik bilan qo'llash dunyoning chinakam ilmiy manzarasini yaratishga, uning davlatlar, siyosiy va jamoat tashkilotlarining uzaro ijobiy, bunyodkorona xamkorligini yulga kuyishga yordam beradi. Biz endilikda inson zotining mushtarakligini anglab eski andozalardan asta-sekin xalos bulayapmiz, yangicha tafakkurda nafakat tafovut, ixtiloflarni, balki yangicha haet uchun goyat zarur bo'lgan tajribaning juda boy manbaini ham topmoqdamiz. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlarga yunaltirish xukumatlar, siyosiy kuchlar, barcha ijtimoiy guruxlar va jamoalardan uz manfaatlari va faoliyatlarini xalqaro munosabatlarga insonparvarlik ruxini singdirish yo'li bilan karatishni takazo etadi. XX asrning ikkinchi yarmigacha tarixiy voqelik uzida yaxlit narsa sifatida tsivilizatsiyani, o'z-o'zini inkor etish imkoniyatiga ega emas edi, insoniyatga mangu mavjudot sifatida qaralar va uning o'zini saklash tug'risida g'amxo'rlik kilishga utkir extiyoj yuk edi. Endi umumiylikdan xususiylikka sari- aks ta'sir aloqa ham yuzaga keldi: individlar xayotini kullab-quvvatlash va takror xosil qilish butun kishilik zotini saqlab qolishga bevosita boglik bo'lib qoldi. SHu sababli uning omon qolishi to'g'risidagi gamxurlik ob'ektiv ravishda kishilik borligining uz jisman mavjudligini saklab qolish vositalariga bulgan azaliy ehtiyojlari singari ana shunday eng birinchi zaruriyatga aylanadi.

Umuminsoniy qadriyatlarning ustunligini anglash jahon hamjamiyati oldida ularning ruyobga chikarilishini kafolatlovchi mexanizmni ishlab chikish muammosini kuydi. Fikrimizcha milliy qadriyatlarni umumjahon qadriyatlari darajasiga chiqarishda xalqaro faoliyatning davlatlar o'zaro munosabatlari butun kompleksidan kelib chiqadigan eng muxim negizlariga tayanish kerak. Uz xavfsizligini boshqalar xavfsizligi hisobiga ta'minlashning, uz manfaatlarni boshqalar manfaatlariga ziyon etkazish hisobidan himoya qilishning mumkin emasligidan kelib chiqish kerak. Xar bir xalqning tiklanish erkinligini tan olish yangi jaxon tartibidagi asosiy jixatdir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganini jamiyat xayotining barcha soxalarida amalga

oshayotgan jarayonlarda yaqqol ko'rish mumkin. Ayni vaqda mamlakatimiz jaxon hamjamiyati bilan yaqin munosabatlarni kuchaytirishga, eng dolzarb muammolarni birgalikda hal etishga katta e'tibor qaratmoqda.

YOSH TADQIQOTCHILAR, KURSANTLAR VA TALABALAR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA ROSSIYA FEDERATSIYASI O‘RTASIDA DAVLATLARARO HARBIY TASHISHLARNI TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDAGI SHARTNOMA XUSUSIDA

Abdug‘aniyeva G.A.

(O‘zFA Tarix instituti tayanch doktoranti)

1995-yil 2-mart Toshkent shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo davlatlar Mudofaa Vazirlari Kengashining 1992-yil 4-noyabrdagi “Harbiy davlatlararo temir yo‘l tashish tartibi va tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida davlatlararo harbiy tashishlarni tashkil etish to‘g‘risida 15 moddadan iborat shartnoma imzolandi [1, 109-b]. Unda avvalo shartnoma maqsadlari uchun umumiy atamalar belgilab olindi.

Jumladan, harbiy tuzilmalar – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati qo‘shinlari, harbiy qismlari, muassasalari, korxonalari va tashkilotlari; Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi, Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi, Rossiya Federatsiyasi Federal razvedka xizmati, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi Federal hukumat aloqa va axborot agentliklari shu nom ostida birlashtirildi.

“Harbiy qismlar tarkibiga kiruvchi shaxslar” deb - harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlarining harbiy qismlarda xizmat qilayotgan xodimlari, harbiy qismlarda ishlayotgan fuqarolik xodimlari, harbiy qismlarga yuborilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va Rossiya Federatsiyasi fuqarolari nazarda tutilishi belgilab qo‘yildi.

“Harbiy qismlarga kiruvchi shaxslarning oila a‘zolari” qatoriga – harbiy qismlarga kiruvchi shaxslarning turmush o‘rtoqlari, farzandlari, otionalari, shuningdek, ular bilan birga yashovchi va ularga qaram bo‘lgan boshqa shaxslar kiritildi.

“Ko‘char mulk” tarkibi – harbiy qismlardan foydalanishda bo‘lgan barcha turdagi qurollar, o‘q-dorilar, harbiy texnika va boshqa moddiy-texnik vositalardan iborat.

“Harbiy jamoa” – xizmat ko‘rsatuvchi harbiy texnika (shu jumladan, qurol va o‘q-dorilar) bilan yoki ularsiz belgilangan manzilga kelayotgan ikki kishidan ortiq harbiy xizmatchilar guruhidan tashkil topgan.

“Harbiy esholon” – bitta poyezdda tashish uchun tashkil etilgan va kamida bitta vagonni egallagan harbiy qism yoki uning qismi (bo‘linmasi), harbiy jamoani tashkil etadi.

“Harbiy transport” esa, temir yo‘l tomonidan bitta jo‘natuvchidan bitta oluvchi manzilga tashish uchun qabul qilingan va kamida bitta vagonni egallagan ko‘char mulkdir.

“Harbiy transport eskort qo‘riqchisi” – harbiy transportni qo‘riqlash va himoya qilish bo‘yicha jangovar topshiriqni bajarish uchun tayinlangan qurolli bo‘linma.

“Harbiy davlatlararo tashish” — O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hududlari orqali harbiy qismlar, harbiy ko‘char mulk, harbiy qismlar tarkibiga kiruvchi shaxslar va ularning oila a‘zolarini tashishdan iborat ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Shartnomada shuningdek, O‘zbekiston Respublikasidan Rossiya Federatsiyasiga va Rossiya Federatsiyasi hududi orqali tranzitda, Rossiya Federatsiyasidan O‘zbekiston Respublikasiga va O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit yo‘lda harbiy davlatlararo yuk tashishlar temir yo‘l, havo va avtomobil transportida amalga oshirilishi belgilab olindi [1, 110-v.]. Tomonlar davlatlararo harbiy yuk tashishlarni amalga oshirishda o‘z davlatlarida amalda bo‘lgan harbiy tashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari va me‘yoriy hujjatlarga hamda ushbu hujjatga amal qilishi ko‘rsatib o‘tildi.

Harbiy qismlarga tegishli xavfli yuklarni tashish Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida tuzilgan 1993-yil 23-dekabrda “Xavfli va tushirilgan yuklarni davlatlararo tashish to‘g‘risida”gi shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

Harbiy qismlar tarkibiga kiruvchi shaxslar va ularning oila a‘zolari O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi va Rossiya Federatsiyasi davlat chegarasini shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni ko‘rsatgan holda

vizasiz, voyaga yetmagan bolalari esa – yozuvlarga ko‘ra kesib o‘tadilar. Agar harbiy qismlar tarkibiga kiruvchi shaxslar va ularning oila a‘zolari xizmat (yashash) joyiga jo‘nab ketganlarida o‘z mol-mulkini O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi va Rossiya Federatsiyasining davlat chegarasi orqali olib o‘tish huquqi berilishi, cheklovlar va bojxona to‘lovi, soliqlar va yig‘imlar undirilmaligi, ular yo‘lovchi poyezdlari va havo kemalari orqali qaytib kelayotgan harbiy transport vositalarini, shuningdek, harbiy qismlarga kiruvchi shaxslar va ularning oila a‘zolarini jo‘natishni ta‘minlanishi qayd etilgan [1, 111-v.].

Shartnoma shartlariga ko‘ra, Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligining Harbiy aloqalar markaziy boshqarmasi harbiy davlatlararo temir yo‘l tashishlarini tashkil etish uchun har yili harbiy poyezdlar va transport vositalarining raqamlanishini ishlab chiqqan va bu haqda Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligiga hisobot bergan [1. 112-v.].

Harbiy davlatlararo tashishni rejalashtirish uchun arizalar Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlari, qurolli kuchlar bo‘linmalarining turlari va shtab-kvartiralarining asosiy shtablari, Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligining kontent bo‘limlari tomonidan taqdim etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining boshqarmalari, vazirlik va idoralar Harbiy aloqalar markaziy boshqarmasiga, Transport departamentiga, Harbiy aloqa departamenti va Harbiy aloqa markaziy boshqarmasi yuk tashish rejalashtirilgan oydan oldingi oyning 20-kuniga qadar bir-birlariga, shuningdek Hamdo‘stlikka a‘zo davlatlarning harbiy transport boshqaruv organlariga temir yo‘llarida tashish amalga oshirilayotgan mustaqil davlatlar harbiy davlatlararo yuk tashish rejasidan bir nusxa ko‘chirma jo‘natgan.

Harbiy davlatlararo yuk tashishni boshqarish O‘zbekiston Respublikasi hududida – Harbiy aloqa boshqarmasi va Transport boshqarmasi tomonidan, Rossiya Federatsiyasi hududida – Harbiy aloqalar markaziy boshqarmasi va transport boshqarmasi tomonidan hamkorlikda amalga oshirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi temir yo‘l transporti organlari harbiy temir yo‘l transporti nizomiga muvofiq harbiy

davlatlararo temir yo‘l tashishlarini amalga oshirishni ta‘minlagan [1, 113-v.].

Shuningdek, hujjatda harbiy davlatlararo havo transportida tashishni tashkil etish tomonlar davlatlarining xalqaro havo tashishlarini tashkil etish bo‘yicha vakolatli tegishli davlat organlari bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi belgilangan. Xalqaro havo yo‘nalishlarida havo kemalarining parvozlari tomonlarning havo transporti organlari tomonidan nazorat qilingan.

Harbiy davlatlararo tashishlarni amalga oshiruvchi havo kemalarining parvoz xavfsizligi xalqaro huquq va havo hududida parvozlarni amalga oshirilayotgan davlat qonunchiligiga muvofiq ta‘minlanib, favqulodda vaziyatlarda (belgilangan joylarda tabiiy ofatlar, noqulay meteorologik parvoz sharoitlari, havo kemasi bortidagi nosozliklar) tomonlarning havo transporti organlari harbiy davlatlararo tashishlarni amalga oshiruvchi havo kemalariga, shu jumladan favqulodda qo‘nish uchun muqobil aerodromlar ajratishga yordam bergan [1, 114-v.].

Mustaqil davlatlarda havo kemalarining parvozlarni tashkil etish bilan bog‘liq masalalarni manfaatlarini ko‘zlab davlatlararo harbiy tashishlar amalga oshirayotgan tomon hal qilgan.

Harbiy davlatlararo avtomobil transportida tashish yo‘l kolonnalari yoki alohida transport vositalarida amalga oshiriladi. Ustun yigirma beshta transport vositasidan, shu jumladan qo‘llab-quvvatlash vositalaridan oshmasligi kerak bo‘lgan. Harakat O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasida amaldagi yo‘l harakati qoidalariga muvofiq kelishilgan yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilgan.

Vazirliklar va idoralar o‘z manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilgan harbiy davlatlararo tashishlar va transport tashkilotlariga tegishli xizmatlar uchun haq to‘lagan. Tashish uchun to‘lov jo‘natuvchilar (oluvchilar) tomonidan tegishli ravishda O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi transport turlari bo‘yicha amaldagi tariflar va qoidalarga muvofiq amalga oshirilgan.

Harbiy qismlar tarkibiga kiruvchi shaxslar va ularning oila a‘zolarini harbiy davlatlararo tashish uchun to‘lov to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘lovchilar tomonidan naqd pulda amalga oshirilishi belgilangan [1, 115-v.].

Shartnoma besh yil muddatga tuzilgan. Tomonlardan biri boshqa tomonni tegishli muddat tugashidan olti oy oldin uni bekor qilish niyati haqida yozma ravishda xabardor qilmasa, u avtomatik ravishda besh yil muddatga uzaytirilgan [1, 116-v.].

Shartnomaning mantiqiy davomi sifatida 1995-yil 27-iyulda Toshkent shahrida “O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida harbiy-texnikaviy hamkorlik to‘g‘risida”gi Bitimni keltirib o‘tish joiz. Bitim 7 ta moddadan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida 30-may 1992-yilda imzolangan “Davlatlararo munosabatlar asoslari, do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risida shartnoma”ga rioya qilgan holda [4], O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida harbiy-texnikavi hamkorlikning rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni ta’min etish maqsadida harbiy mahsulotlarni yaratish va ishlab chiqarish jarayonida shakllangan hamkorlik aloqalarini saqlab qolish va rivojlantirish;

harbiy mahsulotlarni bir-biriga o‘zaro yetkazib berish;

harbiy harakterga molik bo‘lgan o‘zaro xizmatlar ko‘rsatishdan foydalangan holda o‘zaro foydali ikki taraflama harbiy-texnikaviy hamkorlikni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rish belgilab qo‘yilgan.

Hujjatda qurol-aslaha, harbiy anjom va harbiy texnikani sheriklikda yaratish va ishlab chiqarish, ularni bir-biriga yetkazib berish, harbiy harakterga molik bo‘lgan xizmatlar ko‘rsatish hukumatlararo bitimlar asosida amalga oshirilishining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki hamkorlik bo‘yicha yetkazib beriladigan ehtiyot qismlar, komplektlash jihozlari hamda o‘quv va yordamchi harakterga molik bo‘lgan ashyolarni o‘zaro ayirboshlab turish ikki davlat xo‘jalik sub’ektlari o‘rtasida imzolanadigan kontraktlar asosida amalga oshiriladi [1, 201-b.].

Bundan tashqari, o‘zaro yetkazib beriladigan mahsulot va ko‘rsatiladigan xizmatlar nomenklaturasi va hajmi, ularga oid hisob-kitoblarning shartlari va shakllari har yili tuziladigan ikki taraflama hukumatlararo bitimlar hamda ushbu bitimlar asosida imzolanadigan hujjatlar orqali amalga oshirilishi belgilangan.

Ikki davlat harbiy mahsulotlarni yaratish va ishlab chiqarish bilan bogʻliq boʻlgan natijalar, bir tomon ikkinchi tomonga yetkazib bergan harbiy mahsulot va ularga tegishli maʼlumotni uchinchi tomonga, jumladan xorijiy jismoniy yoki yuridik shaxslar yoki xalqaro tashkilotlarga, ikkinchi tomonning yozma ruhsatisiz sotmasligi va berib yubormasligi alohida taʼkidlangan.

Tomonlar oʻzlarining vakolatli davlat boshqaruvi organlari orqali tomonlarning oʻzaro manfaatlarini taʼminlash va himoyalashda bir-birlariga qulaylik yaratish maqsadida uchinchi mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarga harbiy mahsulotlar yetkazib berish va harbiy harakterga molik boʻlgan xizmatlar koʻrsatish sohasida koordinatsiya va hamkorlikni taʼminlanishi kelishib olindi.

Shuningdek, harbiy mahsulotlarni reeksport maqsadlarida oʻzaro yetkazib berib turish ikki davlat oʻrtasida tuziladigan alohida bitimlar asosida amalga oshirilishi koʻzda tutilgan.

Ushbu bitim va harbiy-texnikaviy hamkorlik sohasidagi keyinchalik tuziladigan kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida alohida Oʻzbekiston-Rossiya hukumatlararo komissiyasini tuzish masalalarini kelishib olish rejalashtirilgan. Unga koʻra harbiy-texnikaviy hamkorlik sohasida keyinchalik tuziladigan kelishuvlarni bajarish jarayonida tomonlar oʻrtasida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan barcha nizoli masalalar oʻzaro muzokaralar yoʻli bilan hal etilishi belgilangan [1, 202-v.].

Bitim besh yil muddatga tuzilgan. Agar tomonlardan biri Bitimning amal qilish muddati tugashidan 6 oy ilgari uni bekor qilish toʻgʻrisida oʻzining yozma bayonotini eʼlon qilmasa, Bitim oʻz-oʻzidan bir yillik davrga uzaytirilgan [1, 203-v.].

Umuman olganda, 2016-yildan boshlab Oʻzbekiston-Rossiya oʻrtasidagi harbiy aloqalar yangi bosqichga koʻtarildi. Jumladan, 2017-yilning oktabr oyida Jizzax viloyatidagi Forish oʻquv maydonida oʻzbek-rus harbiy mashgʻulotlari boʻlib oʻtdi[2]. Oʻzbekistonda Rossiya va Oʻzbekiston oʻrtasidagi mudofaa aloqalari ikki mamlakatning 2021- 2025 yillarga moʻljallangan harbiy sohadagi strategik sheriklik dasturi asosida quriladi [3]. Ikki mamlakat oʻrtasidagi harbiy hamkorlikning ustuvor yoʻnalishlari – bu harbiy xavfsizlikni taʼminlash, Oʻzbekiston Qurolli

Kuchlarining jangovar salohiyatini mustahkamlash, shuningdek, harbiy kadrlarni tayyorlash bo'yicha ikki tomonlama tadbirlarni o'tkazish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.. O'zMA, M-37-jamg'arma, 2-ro'yxat, 17-yig'majild.
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2017/10/02/mil/>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/04/28/military-cooperation/>
4. O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida 1993-yil 19-martdagi "Davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risida"gi Shartnoma.

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN MADANIY HAMKORLIGI

Bozorov X.T.

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kursanti

Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bir-biri bilan moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan uzluksiz bog'langan. Bu hamkorlik qadimdan boshlanib hozirga qadar rivojlanib avlodlar o'rtasidagi aloqalarda o'zining o'chmas izini qoldirib, tarix kitoblarida zarhal so'zlar bilan yoritilmoqda. Bu rivojlanishga ularning o'rtasidagi madaniyat almashinuvi katta sababchi hisoblanadi. Madaniyatning qadimgi Xorazm, So'g'diyona, va Baqtriya davlatlari hududlaridagi topilmalar bir-biriga o'xshashligi xalqlarimizning qadimdan o'zaro hamkorligidan dalolat beradi.

Shu jumladan XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yuz bergan global jarayonlar Markaziy Osiyo mintaqasidagi suveren davlatlarning iqtisodiy va madaniy jihatdan integratsiyalashishi tezlashishini har tomonlama ta'minladi. Shu bilan birga, yuz berayotgan jarayonlar shu mintaqada yashovchi barcha tub millat vakillari orasida qo'shimcha ma'suliyat va majburiyatlarni yuklaydi va bu vazifalarni bajarish shu mintaqada yashovchi har bir qardoshning yelkasidan tushmaydigan yukdir. Bular,

albatta, mintaqadagi davlatlarning har tamonlama hamkorligi hamda millatlararo munosabatlarning ijobiy rivojiga asoslangan hamkorlikdir.

Shu o‘rinda har bir millatning etnoijtimoiy taraqqiyoti bevosita o‘z milliy davlatchiligi hududidan chetda yashovchi millatdoshlarining taqdiriga ma’sullik, bunday ma’sullik orqali mintaqada umumiy taraqqiyotiga xissa qo‘shish hamda qo‘shni millatlar bilan o‘zaro xamkorlikni ta’minlash – bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.³⁸

Markaziy Osiyodagi xalqlar ichida tinchlik va farovonlikni ta’minlash, ular o‘rtasidagi iliq munosabatlarni kundan-kunga yanada rivojlantirish, madaniy gumanitar sohalarda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bunga yaqqol misol qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida O‘zbekiston tashqi siyosatini rivojlantirish yuzasidan boshlagan keng ko‘lamli ishini tinchlik va farovonligi ta’minlash, Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida mustahkam munosabatni o‘rnatish va jamiyatning asosiy sohasi hisoblangan iqtisodiy tomonlarni ham zamonaviy hamkorlik maketi shaklida bitkazish yo‘lini anglagan holda milliy manfaatlarga javob beradigan, ochiq, shaffof va chuqur o‘ylangan tashqi siyosat yo‘lini davom ettiradi. O‘lis va yaqindagi barcha mamlakatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarni o‘rnatish va mavjud sherikchilik munosabatini yanada kuchaytirish lozimligi ta’kidlandi va bu boradagi ustuvor jihatlarining birinchisi sifatida “Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan barcha sohlarda o‘zaro do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sherikchilik ruhidagi munosabatlarni mazmun va sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishimiz zarur” ligi belgilab olindi ³⁹. Vaholanki, bunga mos ravishda xalqlar o‘rtasida ularni birlashtiradigan va madaniyat hamkorligini abadiylashtiradigan do‘stlik festivallari, yoshlar hamkorligidagi tanlovlar, madaniyatni yanada mustahkamlaydigan musiqiy tanlovlar tashkillashtirilmogda.

³⁸ Mirzaev G‘.R. O‘zbekiston Respubliasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi T . 2022 B 143 - bet

³⁹ Xalq so‘zi . 2020 25-yanvar

Bunga yaqqol misol tarzda , “Sharq taronalari” musiqiy festivali 1997 – yildan buyon ikki yilda bir marta turkiy qardoshlar yurti bo‘lmish Samarqand diyorida go‘zal, yoqimli taronalar bilan o‘tkazilib kelinmoqda. Har bir taronada turkiy xalqlar tarixi, ularning millat darajasiga erishishdagi qiyinchiliklar va ularni yengib o‘tish jarayoni yaqqol namoyon bo‘ladi. Binobarin, ushbu festival birinchi yilning o‘zidayoq 31 davlatni keyingi safardagi festivalda esa 50 dan ortiq davlatni birlashtirish uchun sababchi bo‘ldi. Chunki, o‘zbek, tojik, qirg‘iz, turkman, qozoq millatlari tarixiy jihatdan juda yaqin va qardosh millat hisoblanadi. Misol qilib aytganda, ushbu festivalga tashrif buyurgan barcha mehmonlar mehmon emas mezbbon sifatida Samarqand diyorida o‘z taronalari bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi madaniy hamkorlik cho‘glarini olovga aylantirishga xizmat qildilar va xizmat qilishda davom etmoqdalar.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy yo‘llarni bunyod etishda Buyuk Ipak yo‘lining o‘rni beqiyosdir. Bu yo‘l ularni yanada ularni birlashtirishga xizmat qilgan.

O‘zbek va qozoq xalqlari azaldan yonma yon yashagan, qavmu qarindosh bo‘lgan. O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan ikki mamlakat hududlari o‘rtasidagi aloqalarga keng yo‘l ochilgani hamkorligimizni yanada mustahkamlamoqda. O‘zbekistondan Qozog‘istonga, Qozog‘istondan O‘zbekistonga turli darajadagi delegatsiyalar tashrifi amalga oshirildi. 2017-yil Toshkent viloyati delegatsiyasi Qozog‘istonda, Qozog‘istonning Qizilo‘rda, sharqiy Qozog‘iston va janubiy Qozog‘iston viloyatlari delegatsiyalari O‘zbekistonda bo‘ldi. Bunday tashriflar nafaqat chegara hududlariga yashayotgan aholini, balki butun mintaqa vakillarini hayotida yangi bosqichni boshlab berdi⁴⁰. O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozg‘iston Respublikasi o‘rtasidagi strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va ahil qo‘shnichilikni mustahkamlash to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiyada belgilab qo‘yilganidek, tomonlar bundan buyon ham ikki davlat hududida istiqomat qilayotgan o‘zbek va qozoq etnik birliklar uchun ona tili, milliy madaniyati, anana va urf-odatlarini saqlash hamda rivojlantirish masalalarida qulay sharoitlar yaratib berishni o‘z zimmasiga oldilar.

⁴⁰ Mirzayev G‘. R O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan xamkorligi T .2022 145-bet

SHuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qirg‘iziston Respublikasi bilan har tamonlama konstruktiv a manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yib shu hamkorlik orqali ikki xalqni yanada yaqinlashtirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SHavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, O‘zbek va qirg‘iz xalqlarining tarixi, madaniyati va ma’naviyati, aytish mumkinki, taqdiri mushtarak ekanini ko‘p misollarda, xususan, rivojlanib borayotgan madaniy-gumanitar aloqalar misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

2016-yil 26-oktabr kuni O‘zbekiston-Qirg‘iziston “Do‘stlik” chegara-bojxona postida Namangan, Farg‘ona, Andijon viloyatlarning raxbarlari va ma’muriyat vakillaridan iborat 140 kishilik delegatsiya qirg‘iziston davlatida tantanali ravishda kutib olinib, ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlik munosabatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. O‘sh shahrida ajoyib tadbir o‘tkazildi unda Markaziy Osiyodagi mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar qanday rivojlanganligi, ular hozirda qanday ko‘rinishda ekanligi namoyon qilindi. O‘sh shahri markazida yurtta (chodir)lar tiklanib, qirg‘iziston xalqlar Assambleyasi vakillari – o‘zbek , rus, uyg‘ur, turk, nemis madaniy markazlari o‘z urf-odatlariga ko‘ra, dasturxon yozib mehmonlarni qarshi oldilar⁴¹. Uchrashuvning eng tasirchan qismi qirg‘iz baxshilari shuningdek bolalar tomonidan qirg‘iz xalqi eposi –“Manas” ning tinchlik , osoyishtalik, do‘stlikni madx etuvchi qo‘shiqni zavq bilan ijro etilishi mehmon va mezbonlar tomonidan qo‘llab quvvatlandi. Bu albatta O‘zbekisto Respublikasining tashqi siyosatini asosini belgilab beruvchi, tinchlik va osoyishtalikni tarannum etuvchi, ikki qardoshni yanada bog‘lovchi tashrif bo‘ldi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Qirg‘iz va o‘zbek mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlik, madaniy almashinuvlar tezda rivojanishi barcha dunyo mamlakatlarining qiziqishiga olib keladi. Bu taraqqiyot ostida, amalga oshirilayotgan islohotlar, o‘tkazilayotgan madaniy tadbirlar va tanlovlarning ahamiyati cheksiz. Misol qilib aytganda, Samarqandda 2017-yil avgustda bo‘lib o‘tgan “Sharq taronalari” XI xalqaro musiqa festivalida Qirg‘izistonning “Meros” guruhi faxrli ikkinchi o‘rinni egalladi. Madaniyat almashinuvi miqyosida ikki davlatda ham yuqori darajadagi tadbirlar o‘kazilib kelinmoqda va bu o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazib kelmoqda.

⁴¹ “O‘zbekiston Ovozi “ -2016 yil 29-oktabr

2017-yil 6-7-oktabr kunlari Bishkek va O'shda O'zbekistonning ijodiy jamoalari, san'at ustalari ishtirokida Qirg'izistonda O'zbekiston madaniyati kunlari bo'lib o'tdi.⁴² Aytish joizki bu tadbir qisqa ikki kun davomida o'tkazilgan bo'lsa ham yosh avlodga butun umrga esda qoladigan, ushbu madaniyatni saqlab qolish va asrashga, va ikki mamlakat o'rtasida mavjud hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun o'zida shijoat uyg'ottira oldi desak adashmagan bo'lamiz.

Bilamizki, qadimdan Tojik va o'zbek millatlari qadimdan qardosh xalqlar hisoblanadi. Bu ikki mamlakat o'rtasida uzoq yillar davomida rivojlanib kelayotgan aloqalar hozirgi paytga kelib o'zaro yaqinlik, qolaversa, qon qarindoshchilik, do'stlik va hamkorlik aloqalar nafaqat tarix sahifalarida, balki bugungi hayotda ham o'rin topisha sabab bo'layotganligi har ikki mamlakat vakillarining sai-sarahatlari bilan mustahkamlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "o'zbek va tojik xalqlarini ko'p asrlik umumiy tarix, madaniy-ma'naviy mushtaraklik birlashtirib turadi. Bizning urf-odatlarimiz an'analarimiz udumlarimiz Tojikiston mamlakati bilan deyarli bir xil deyishimiz mumkin hisoblanadi. Chunki qadimda ular o'rtasidagi aloqalar rivojlanib jamiyatdagi har bir sohasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ikki xalq ming yillar davomida birgalikda yonma-yon yashab kelganligi madaniy soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

1998-yilning 29-iyun- 5 iyul kunlari O'zbekistonda bolib o'tgan Tojikiston madaniyat kunlarida Tojikiston Respublikasidan olimlar, davlar rahbarlari, jamoatchilik vakillaridan ibor Tojikiston dellegatsiyasi 4 ta yo'nalish bo'yicha Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlarida bo'lishdi⁴³. Unda O'zbekiston badiiy akademiyasi zalida tojikiston rassomlarining rasmlari, kinochilar uyida Tojik filmlari namoyishi tomoshabinlarda katta taasurot qoldirdi⁴⁴.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MEHNAT MUHOJIRLIGINING ZAMONAVIY MASALALARI

⁴² "xalq so'zi" -2017 yil 5-sentabr

⁴³ O'ZR MDA M -7-fond, 1-ro'yxat, 724-ish, 90-bet

⁴⁴ OZR MDA M-7- fond, 1 ro'yxat , 724-ish, 90-varaq

Dusbekova X.
(“Alfraganus University” nodavlat ta’lim tashkiloti)

Tabiiyki, siyosiy mustaqillikka erishgan, lekin ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda o‘tmishdan qolgan merosning og‘ir muammolarini uzil-kesil hal etish zaruratiga duch kelgan Markaziy Osiyo davlatlari ham mehnat migratsiyasi jarayonlaridan chetda qolish imkonini topolmadi. Mehnat muhojirlari Markaziy Osiyoning xorijdagi aholisining salmoqli qismini tashkil qiladi. Ilgari muhojirlarning asosiy oqimi Rossiyada ishlagan bo‘lsa, so‘nggi besh yil ichida mehnat migratsiyasi geografiyasi tubdan o‘zgarib bormoqda.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq tub o‘zgarishlar birinchi navbatda mehnat munosabatlariga benihoya kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Natijada iqtisodiy islohotlar jarayonida bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizimga xos, uning ajralmas qismi va doimiy yo‘ldoshi bo‘lgan ishsizlik fenomeni yuzaga keldi. Iqtisodiyotda kechgan obektiv jarayonlar oqibatida minglab, millionlab kishilar ishsiz qoldi, o‘zlarining daromad manbaidan ajraldi [1]. Endigina mustaqillikka erishgan yosh Respublikada kasbiy ta’lim tizimi mamlakatda shiddat bilan shakllanib borayotgan bozorning real talablaridan kelib chiqqan holda malakali mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimiga hali moslashib ulgurmagan edi. Natijada mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi va unga talab o‘rtasida keskin tarkibiy disbalans yuzaga keldi va bozor munosabatlari o‘rnashib borgan sayin tobora chuqurlashib bordi. Bularning hammasi ish haqi oila daromadining yakkayu-yagona manbai bo‘lgan yollanma ishchilar uchun haqiqiy fojiaga aylandi, ularni yuzaga kelgan tang vaziyatdan chiqish, oilani ta’minlash choralari izlashga majbur qildi [2].

Bugungi kunda Markaziy Osiyodan Rossiyaga mehnat muhojirlarining asosiy donor davlatlari O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘izistondir. Agar 2017 yilda Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistondan 1 822 933 kishi mehnat muhojiri sifatida ro‘yhatdan o‘tgan bo‘lsa, 2018 yilga kelib ularning soni 2

007 407 kishiga yetdi [3]. Tojikistonda xuddi shu davrda 936 752 nafar muhojir bo'lgan bo'lsa, 2018 yilga kelib ularning soni 1 018 497 nafarga yetdi. 2017-yilda 376 863 nafar qirg'izistonlik Rossiyada ishlagan bo'lsa, bir yil o'tib ularning soni 351 959 nafarga ko'paydi. Hamma mehnat migratsiyasi qonuniy bo'lmagani uchun mehnat muhojirlarining aniq sonini aytish qiyin – aksariyat muhojirlar Rossiyada ro'yxatga olinmagan [4]. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yil 1 oktyabr holatida O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 35,8 million nafardan ortiq. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining ma'lumotiga ko'ra, 2021 yil yanvar oyi holatida 1,7 mln nafar yurtdoshlarimiz mehnat muhojiri sifatida chet yelda mehnat qilmoqda³. Demak, rasmiy ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistonning mehnatga layoqatli yoshdagi umumiy aholisining deyarli 8,5 foizi, doimiy o'rtacha aholining yesa deyarli 5,0 foizini ishlash maqsadida mamlakatni qonuniy tarzda tark etgan deb hisoblashimiz mumkin [5].

Umuman olganda, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi migratsiya jarayonlari SSSR parchalanganidan keyin dunyodagi eng barqaror yo'laklardan biriga aylandi. 1990 yildan 1992 yilgacha beqaror siyosiy va iqtisodiy vaziyat tufayli Rossiyaga majburiy migratsiyaning ko'p oqimi kuzatildi. Bu yesa 1992 yilda Rossiya Federal Migrasiya Xizmatining tuzilishiga olib keldi va migrantlarning maqomi va huquqlarini qandaydir tarzda belgilaydigan migratsiya qonunchiligining rivojlanishining boshlab berdi⁵. Shu bilan birga, 1990-yillarda Rossiyada aholi, jumladan, mehnatga layoqatli aholi sonining qisqarishi kuzatildi va bu o'z navbatida ishchi kuchi tanqisligini keltirib chiqardi. Markaziy Osiyoda ishsizlik ortib borayotgan bir paytda bu omillar mehnat migratsiyasining kuchayishiga olib keldi.

Rossiya an'anaviy ravishda Markaziy Osiyo davlatlaridan kelgan mehnat muhojirlari uchun asosiy davlat sifatida qaraladi. O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikistonlik ishsizlarning aksariyati Rossiya Federatsiyasiga borib mehnat muhojirlariga aylana boshlashdi. 2000-yillarning o'rtalaridan boshlab doimiy yashash uchun migrantlarning asosiy oqimi Rossiyaga yo'naltirildi, bu yesa 2006 yilda qabul qilingan chet yelda yashovchi vatandoshlarning Rossiya Federatsiyasiga ixtiyoriy ravishda

ko'chirilishiga yordam berish bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqilishiga olib keldi [6].

2000 yilda Qozog'iston Markaziy Osiyo mintaqasidan mehnat muhojirlari uchun jozibador bo'la boshlagan yedi. Iqtisodiy o'sish, yuqori turmush darajasi, vizasiz rejim va geografik yaqinlik ishchilarni qo'shni Qozog'istonga ishlash uchun borishga undar yedi. 2000-yillarning o'rtalaridan 2014-yilgacha mehnat migratsiyasi jo'natuvchi mamlakatlar uchun asosiy daromad manbai sifatida mustahkam o'rin egalladi. 2014-2016 yillarda iqtisodiy inqiroz fonida Rossiya asosiy mezbon davlat sifatida migrantlarni nazorat qilish choralarini kuchaytirdi, Markaziy Osiyo davlatlaridan kelgan noqonuniy mehnat migrantlarini haydab chiqara boshladi va ma'lum muddatga ularning mamlakatga kirishini taqiqladi. Bu yesa 2014-yildan keyin nazorat kuchaytirilgani sababli Rossiyadan kelgan muhojirlarning Qozog'istonga qaytib kelishi uchun uni tranzit davlatga aylantirdi [7].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, Qozog'istonda barcha toifadagi 3,5 mlndan ortiq muhojir istiqomat qiladi. Bu raqamlarga olinmaganlarning repatriasiyasi va shaxsiy sabablarga ko'ra yoki universitet almashinuvi doirasidagi migratsiya, shuningdek mehnat migratsiyasi oqimlari kiradi. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, 2015 yilda 17,5 millionlik Qozog'iston aholisining 20 foizini migrantlar tashkil qilgan yedi. O'tgan yillar davomida Qozog'iston sovet hududida qabul qilingan muhojirlar soni bo'yicha Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi o'rinda turadi [8].

Markaziy Osiyodan mehnat muhojirlari Qozog'istonga vizasiz rejim mavjudligi sababli qonuniy yo'l bilan kelishadi, biroq YeOII a'zosi bo'lgan Qirg'izistondan kelgan migrantlardan boshqa davlat fuqarolari noqonuniy – rasmiy ro'yxatdan o'tmasdan va ishlash uchun ruxsatnomasiz ishlaydilar. Demak, so'nggi 19 yil ichida Qozog'istonga eng ko'p migrantlar O'zbekistondan kelgan. Keyingi o'rinlarda Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston turadi.

Xalqaro migratsiya yeksperti Yelena Sadovskaya tomonidan 2000-yillarning o'rtalarida mehnat migratsiyasi avjiga chiqqan paytda o'tkazgan so'roviga ko'ra, Qozog'istondagi mehnat muhojirlarining 31 foizi do'stlari

va tanishlari orqali, 22 foizi qarindoshlari orqali, 20 foizi yesa o'zlari orqali ish topgan. Muhojirlarning atigi 5-7 foizi bandlik agentliklari orqali ish topdi. Bu ma'lumotlar Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga mos keladi. Bu o'z-o'zidan paydo bo'lgan qora mehnat bozorlarida faoliyat yurituvchi vositachilar orqali noqonuniy yollash tizimlari ustunlik qilayotganidan dalolat beradi. 2011 yilda Sadovskaya muhojirlarning mehnat va ijtimoiy huquqlarining ommaviy ravishda buzilishini aniqlagan sosiologik so'rov ham o'tkazdi. "Ularning 47,5 foizi ish beruvchilar bilan rasmiy huquqiy maqomga ega bo'lgan mehnat shartnomasini imzolashdan bosh tortgani, 53 foizi ish haqini kechiktirish bilan olgani, 17,8 foizi yesa umuman olmagan holatlariga duch kelgan. 12,5 foizi haq to'lanmaydigan ishlarga majburlangan, 30,7 foizi pasporti olib qo'yilgan, 41,6 foizi ish joyini tark yetmagan, 17,8 foizi yesa tibbiy xizmatdan mahrum yetilgan", - deydi Yelena Sadovskaya YeXHT jurnalidagi o'zining "Markaziy Osiyodagi mehnat migratsiyasi" maqolasida [9].

Qozog'istonda muhojirlarning mehnat va ijtimoiy huquqlarining ommaviy ravishda buzilishi hali ham boshqa tadqiqotchilar va xalqaro tashkilotlar tomonidan qayd yetib kelinmoqda. 2016-yildan boshlab Qozog'istondan mehnat yemigratsiyasi ortib bormoqda. Mamlakat aholisining aksariyati Rossiyaga chiqib ketmoqda. Biroq, yekspertlarning ta'kidlashicha, G'arb va Amerika mamlakatlariga sayohat qilayotganlar soni ham yildan-yilga ortib bormoqda.

Yelena Sadovskaya ta'kidlaganidek, Qozog'istondan mehnat yemigratsiyasining o'sishi migratsiya sabablari kelib chiqqan mamlakatdagi turtki beruvchi va boradigan mamlakatdagi tortuvchi omillarning murakkab kombinasiyasida ekanligining tasdig'idir. Qozog'istonda bular iqtisodiyotdagi inqirozli hodisalar, zavod va fabrikalarning yopilishi, turmush darajasining pasayishi, korrupsiya, qarindosh-urug'chilik, siyosiy turg'unlik, o'zini-o'zi band qilishning mumkin yemasligi. Aynan yangi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, kasbiy imkoniyatlar va istiqbollar G'arb mamlakatlaridagi fuqarolarimizni o'ziga tortadi.

Siyosatshunos Marat Shibutovga ko‘ra, Janubiy Koreyada 2016-yilda Qozog‘istondan 3238 nafar noqonuniy muhojir bo‘lgan bo‘lsa, 2018-yilda ularning soni 11561 nafarga etgan. Yil yakunlariga ko‘ra, bu raqam 120-130 ming kishiga chiqishi mumkin. U AQSh va Janubiy Koreyaga borayotgan mehnat migratsiyasi sonining oshishini viza olish tartibi yaxshilangani bilan izohlaydi. Masalan, AQSh ularga 10 yilga viza bera boshladilar, Janubiy Koreya yesa 30 kunga vizasiz qolish imkonini bera boshladi. Shuningdek, ekspertning fikricha, aholi real daromadlarining pasayishi, yirik va o‘rta korxonalarda bandlikning qisqarishi, ijtimoiy ko‘tarilishning zaifligi va ish o‘rinlarining mamlakat bo‘ylab notekis taqsimlanishi bunga qo‘shimcha omillar sifatida qaraladi. "Shuning uchun odamlar o‘z shahrida eng yaxshi holatda 200 dollar ishlab olishdan ko‘ra, noqonuniy muhojir sifatida sayohat qilishadi va qurilish maydonchalarida 1500-2000 dollar ishlab olishadi va hokazo", deydi Shibutov [10].

Mutaxassislarning fikricha, Qozog‘istonni yoshlar, o‘qimishli, chet tillarini biladigan o‘g‘il-qizlar tark yetmoqda. O‘rta yoshlilar yaxshi ish topishsa, oilasi bilan ketishadi. Immigratsiyaga kelganlarning aksariyati oliy ma‘lumotli va ish tajribasiga ega mutaxassislardir.

Mustaqillik davrida Qirg‘iziston uchun migratsiya eng xarakterli va muhim jarayonlardan biriga aylandi. Qirg‘iziston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan 2018 yilda o‘tkazilgan uy xo‘jaliklari byudjeti va mehnat resurslari bo‘yicha integrasiyalashgan tanlama tadqiqotiga ko‘ra, 15 yosh va undan katta yoshdagi mehnat muhojirlari soni 263 ming kishini, jumladan, erkaklar – 77 foiz va ayollar – 23 foizni tashkil etdi. Mehnat muhojirlarining asosiy qismi – ya‘ni 79 foizi respublikaning qishloq xo‘jaligida mehnat qilgan aholisidir.

Qirg‘izistonning Yevropa Ittifoqiga qo‘shilishi tufayli respublika fuqarolari Rossiya Federatsiyasi hududida erkin harakatlanish va ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar, shuning uchun mehnat muhojirlarining eng ko‘p qismi Rossiya va Qozog‘istonda ishlaydi. Qirg‘izistonlik mehnat muhojirlarining aksariyati past malakali bo‘lib, og‘ir ish joylarida ishlaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, qirg‘izlarning 96 foizi Rossiyada, 2 foizi Qozog‘istonda, 1 foizi Turkiyada mehnat qiladi va so‘nggi yillarda

qirg'izlar mehnat migratsiyasi uchun Janubiy Koreyaga ketishni boshlagan [11].

Ekspert Oygul Sadvoqasovaning aytishicha, Qirg'izistondan turli yosh va ta'limga ega bo'lgan ayollar va erkaklar migratsiyaga ketadi. Aytishim kerakki, qirg'izistonlik muhojirlar mezbon mamlakatlarda eng muvaffaqiyatli moslashadilar va etnik-madaniy birlashmalar oldida ijtimoiy aloqalarga ega bo'lishadi.

Tojikistonda mehnat migratsiyasi 1992 yildan boshlangan. O'sha paytda mamlakatda keskin siyosiy vaziyat hukm surdi - SSSR parchalanishi natijasida mamlakat mustaqilligi e'lon qilinganidan keyin fuqarolar urushi boshlandi. Shuningdek, SSSR parchalanishi bilan ko'plab yirik ishlab chiqarish korxonalarini ilgari Ittifoqning boshqa davlatlaridan kelgan xomashyo etishmasligi tufayli inqirozga uchradi. Bularning barchasi ishsizlikka olib keldi va aholining kayfiyatiga ta'sir qildi, bu esa mehnat migratsiyasining kuchayishiga yordam berdi. Tojikistonda mehnat migratsiyasining eng yuqori nuqtasi 2005-2013 yillarda kuzatilgan. Respublikadan tashqi mehnat migratsiyasining asosiy oqimi MDH davlatlariga kuzatildi.

Tojikiston mehnat, migratsiya va aholi bandligi vaziri o'rinbosari Emin Sanginzodaning so'zlariga ko'ra, bugungi kunga kelib, 2018 yilda Tojikistondan Rossiyaga mehnat muhojirlari oqimi o'tgan yilga nisbatan 1 foizga kamaygan. Oxirgi besh yil ichida Tojikistondan chet elga ishlash uchun ketayotgan muhojirlar oqimi 39,5 foizga kamaydi. "2018 yil davomida 484 176 nafar mehnat muhojiri migratsiya kartalari asosida respublikani tark etgan. Ularning 86,7 foizi erkaklar, 13,3 foizi ayollardir. Rossiya Federatsiyasiga 463 552 kishi, Qozog'istonga 13 586 kishi ishlash uchun ketgan", — dedi Mehnat vaziri o'rinbosari.

2019 yilga kelib Tojikistondan mehnat muhojirlari soni o'tgan yilga nisbatan 27 foizga oshgan. Shunday qilib, 2019-yilning dastlabki 7 oyida, Sputnik Tojikiston Mehnat vazirligining Migratsiya xizmati ma'lumotlariga tayanib, Tojikistondan 357 mingdan ortiq fuqaro mehnat migratsiyasiga ketgan. Birgina 2019 yilning iyul oyida mamlakatdan 57 mingga yaqin kishi ish izlab chiqib ketgan, bu 2018 yilning shu davriga nisbatan 26,7 ming kishiga ko'pdir [12].

2018-yilda Tojikistondan ikki mingdan ortiq mehnat muhojiri Xorijda bandlik agentligi orqali Turkiya va Polshaga jo‘nab ketgan. 2019-yil boshida 1000 dan ortiq fuqaro Polsha, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Belarus va Qozog‘istonga ishlash uchun yuborish uchun ariza topshirgan.

Tashqi mehnat migratsiyasida asosan 17-62 yoshdagi mehnatga layoqatli aholi - erkaklar va 17-57 yoshli ayollar ishtirok etadi. Yosh tarkibiga ko‘ra, bular asosan 17-29 yoshli yoshlar - 262,8 ming kishi yoki jami migrantlarning 39,2%ini tashkil etadi. Tashqi mehnat migratsiyasi ishsizlarning katta qismini qamrab oladi. Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, u aholining iqtisodiy faol qismining 30 dan 40 foizigacha etadi.

Ekspert Yelena Sadovskaya ta’kidlaganidek, Tojikiston mehnat migratsiyasining mamlakat va butun mintaqa hayotida tutgan o‘rni haqida yaqqol misoldir. Avvalo, bu migrantlarning pul o‘tkazmalarida ko‘rinadi. 10-15 yil oldin ularning hajmi mamlakat yalpi ichki mahsulotining yarmiga teng edi. Bugungi kunda birgina Rossiyadan migrantlar jo‘natgan pul o‘tkazmalarining ulushi Tojikiston yalpi ichki mahsulotining 30% dan ortig‘ini, mutlaq hisobda esa qariyb 2,5 mlrd dollarni tashkil etadi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda (2013-2018) mehnat muhojirlari faqat rasmiy shaxslar orqali 15 mlrdni tashkil etib ushbu vaqt ichida Tojikistonga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalar hajmidan bir necha baravar ko‘proqdir.

Pul o‘tkazmalari Tojikistondagi ko‘plab oilalarning yashashi uchun asosiy daromad manbayidir. Ko‘pincha, nafaqat oila, balki qarindoshlar va qo‘shnilar ham migrantlardan yordam oladi. Ayrim muhojirlar qaytgandan so‘ng o‘z bizneslarini boshlashlari mumkin, chunki ular mamlakatga yangi ko‘nikma va bilimlar bilan qaytishadi. Migrantlar yordamida milliy iqtisodiyot darajasida ham ijobiy holatlar kuzatiladi, xususan ichki iste’mol jonlanadi, mamlakatga kiruvchi valyuta tovarlar importini va boshqa moliyaviy operatsiyalarni ta’minlash uchun ishlatiladi.

O‘zbekiston ham mintaqadagi yirik mehnat muhojirlari donori bo‘lgan davlatdir. Aholining asosiy qismi Rossiya va Qozog‘istonda ishlaydi. Ammo so‘nggi 5 yil ichida mehnat migratsiyasi geografiyasi o‘zgara boshladi – AQSH, Turkiya, Qozog‘iston, Saudiya Arabistoni, Isroil,

Janubiy Koreya hamda Birlashgan Arab mamlakatlariga ishchi kuchi oqimining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, Qozog'istonga 5 yil ichida migrantlar soni 10 barobarga oshgan va 355 540 kishini tashkil qilgan. 2018 yilda Turkiyada 34 399 kishi, BAAda 4 578 kishi ishlagan bo'lsa, Rossiyaga mehnat migratsiyasi 2018 yil davomida 944 328 dan 852 008 ga kamaydi. Mutaxassislarning fikricha, bu 2014-yilda Rossiya rublining qadrsizlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, buning natijasida mehnat muhojirlarining dollar hisobidagi daromadlari ikki barobar qisqardi.

Shuningdek, mutaxassisning so'zlariga ko'ra, chegara hududlariga yosh va o'rta yoshli ayollar ham kundalik yumush bilan kelishadi. Ular uy-joy izlashlari shart yemas, uzoq vaqt qolishmaydi. Qozog'iston va O'zbekiston chegaralari ochilishi bilan bu, ayniqsa, yozda kundalik amaliyotga aylanib qoldi.

Mehnat migratsiyasi Markaziy Osiyoda, ayniqsa Rossiya va Qozog'istonda mehnat migratsiyasi siyosiy muammo sifatida qaralmoqda. Migrantlar ijtimoiy-iqtisodiy muhitga, keyin esa siyosiy muhitga bosim o'tkazishi mumkin, deb ishoniladi. Ammo shu bilan birga, iqtisodiy nochorlik tufayli davlat ko'tara olmagan yukni migrantlar o'z oilalari uchun o'zlari hal qiladilar. Pul o'tkazmalari aholi turmush darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi, ommaviy migratsiya esa milliy mehnat bozoridagi keskinlikni pasaytiradi va aholining muhim guruhlari farovonligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://parliament.gov.uz/uz/yevens/committeye/34644/>
2. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/123332>
3. <https://xnb1ayew.xnp1ai/Deljatelnost/statistics/migracionnaya/item/12162171/>
4. <http://fms-nso.ru/ufms/history/>
5. <https://www.un.org/development/desa/en/news/population/international-migrant-stock-2019.html>
6. Трудовая миграция в Центральной Азии. ОБСЕ. <https://www.osce.org/ru/magazine/250406>

7.

https://drive.google.com/file/d/15VGg_bkLWoZjpqdaiygbq2i_ItE6f-vB/viyew

8. За пят лет поток мигрантов из Таджикистана за рубеж снизился на 40%. Настоящее время. <https://www.currenttime.tv/a/tajikistan-migrants-workers-money/29756218.html>

9. <https://tj.sputniknews.ru/migration/20190910/1029833969/Tajikistan-trudovaya-migratsiya-vyroslo.html>

10. <https://rus.ozodi.org/a/29761680.html>

11. <http://avesta.tj/2019/12/27/>

12. <https://cyberleninka.ru/article/n/особенности-процессов-трудовой-миграции-в-центральной-азии-на-примере-республики-узбекистан-и-республики-казахстан>

Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligini ta'minlashda islom dinining ahamiyati

Karimova G.,

(Farg'ona davlat universiteti)

Milliy taraqqiyot hech bir zamonda silliq, to'siqlarsiz amalga oshmagan. Uning shakllanish jarayonidan boshlab to hozirgacha o'tgan davrida doimo qiyinchiliklar, muammolarga ro'baro' bo'lib kelgan. Bu jarayonning xarakterli tomoni shundan iboratki, uning rivojlanishi uchun imkoniyatlar kengayib borgan sari muammolar kamayish o'rniga, aksincha ularning ko'lami ham kengayib kelgan. Jumladan, agar XIX asrda dunyoda yashayotgan millatlarning aksariyati taraqqiy qilgan mamlakatlar tomonidan bosib olingan va ular mustamlaka holatida yashagan bo'lsalar, XX asrda undan batamom xalos bo'ldi. Ammo XXI asr boshiga kelib ular oldida bugun yangi muammolar paydo bo'ldi. U ham bo'lsa, jahonda avj olayotgan globallashuv bilan bog'liq muammolardir.

Globalashuv bugun rivojlanayotgan mamlakatlar bilan rivojlangan mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy tafovutlarni kuchaytirmoqda, ayniqsa taraqqiy qilgan mamlakatlarning o'zlarida mavjud vositalar orqali o'z

ma'naviy qadriyatlarini umumlashtirish, ommaviylashtirish o'zga xalqlarning ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylantirish va shu yo'l bilan jahonda nafaqat iqtisodiy hukmronlikni shuningdek o'z milliy-ma'naviy hukmronligini o'rnatishiga ham imkoniyat yaratmoqda. Bu jarayon XX asrda mavjud bo'lgan imkoniyatlarga qaraganda ham qamrovi kengaygan, ta'sir o'tkazish darajasi yuksalgan. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar jahonda iqtisodiy integratsiyani amalga oshirish, mamlakatlarga fan, texnika, texnologiya sohasida erishgan yutuqlari bilan rivojlanayotgan mamlakatlarga "yordam" berish bahonasida o'zlarining milliy-ma'naviy ta'sirlarini o'tkazish maqsadlarini ham amalga oshirmoqdalar. Albatta, agar dunyodagi xalqlar unga sergaklik va ogohlik bilan qaramas ekanlar, bu ularga bugun yuksak taraqqiy qilgan xalqlarga istiqbolda dunyoda o'zlarining ma'naviy hukmronligini to'la o'rnatish imkonini beradi.

Bugun uning oldini olishning bir qator imkoniyatlari va omillari mavjud. Ulardan milliy ma'naviy immunitetni mustahkamlash muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi paytda Markaziy Osiyo davlatlari aholisining aksariyat qismini musulmonlar tashkil etadi. Shu boisdan ham mintaqada xavfsizlikni ta'minlashda islom omilining tutgan o'rni va rolini, nima sabab islomni radikal kuchlarga bog'lash sabablarini, diniy ekstremistik tashkilotlarning shakllanishidan tarixidan istiqboldagi faoliyatiga qadar o'rganish hamda ularning faoliyatini bartaraf etish yoki ushlab turish yo'llarini topish bugungi kunning dolzarb masalalariga aylanib bormoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun islom ta'limotini chuqur o'rganishni bugungi kunning dolzarb vazifasi sifatida qo'yadi. Chunki, islom dinini to'g'ri tushunmaslik uni radikal oqimlar bilan bog'lanishlarini keltirib chiqarmoqda. Nima sababdan diniy ekstremistik harakterdagi hatti-harakatlar va guruhlarning o'z maqsadlariga erishish yo'lida asosiy vositasi bo'lib qolayotganini yoritib berish zamon talabidir.

Markaziy Osiyoda, islom omili masalasi borasidagi qarashlarda O'zbekiston Respublikasi o'z pozitsiyasini strategik rejalari asosida ya'ni, o'zining milliy hamda minaqaviy manfaatlaridan kelib chiqib namoyon etib kelmoqda.

Bizga ma'lumki, Markaziy Osiyo davlatlarining istiqlolni qo'lga kiritishlari, musulmon dunyosi bilan aloqalarini qayta rivojlantirishga yordam berdi. Bu esa o'z navbatida, sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi va Markaziy Osiyo hududida mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi hamda aholining ko'pchiligini tashkil etadigan musulmonlarning ijtimoiy hayotida islom omili masalasini yanada jonlantirdi va shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari ta'sirining kuchayishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, mazkur davlatlarning ko'pchili o'z suverenitetiga erishganidan so'ng aholining an'anaviy diniy ta'limga bo'lgan munosabatlari nafaqat ommaviy tus oldi, qolaversa, qo'shni davlatlarga nisbatan munosabatlarda integratsiya harekterining shakllanishiga ham zamin yaratdi.

Markaziy Osiyo davlatlarida muborak Haj safariga borishga imkoniyatlar berildi. Din sohasida olamshumul ahamiyat kasb etgan ulamolarning merosini o'rganish, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Jumladan, Imom al-Buxoriy, Bahovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Imom at-Termiziy, Imom Moturudiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Hoja Ahror Valiy kabi yurtimiz mutafakkirlarining yubileylari o'tkazildi. Ularning bebaho merosi ilmiy tadqiqotlarda markaziy o'rinni egallayotganligini alohida e'tirof etish mumkin. Shuningdek, ularning asarlari ilk bor o'zbek tilida nashr etila boshladi.

Lekin tez orada bu jarayonlar jiddiy muammolarga duch kelayotgani ayon bo'lib qoldi. **Birinchi**dan, islom tuzilmalari va institutlari yaxshi rivojlanmaganligi, yaxshi tayyorlangan, bilimli din peshvolarining yo'qligi sezila boshladi. Mustaqillikka erishilgandan keyin, o'tgan davr mobaynida dindorlar va aholining ayrim toifalarining huquqiy, siyosiy va madaniy saviyasi pastligi ayon bo'ldi. Ba'zilar e'tiqod erkinligini o'ta bir tamonlama – dindor bo'lish majburiyati deb tushunishdilar o'z diniy jamoalari safini kengaytirish uchun gohida qo'ni-qo'shnilariga, mahalla ahliga tazyiq o'tkaza boshladi.

Ikkinchidan, "islomiy lashuv" jarayonini tashqaridan va ichkaridan jadallashtirishga bo'lgan urinishlar Markaziy Osiyo davlatlarining

dunyoviy demokratiya va milliy davlat qurishga qattiq intilishi bilan to'qnash keldi. Bu holat tabiiy ravishda dunyoviy davlat qurish yo'lini tanlagan yangi mustaqil davlatlarning siyosatiga qarshi bo'lgan kuchlarning faoliyatini boshlab yubordi.

Bu kuchlar turli fundamentalistik, ekstremistik oqimlarga birlashib dunyoviy demokratik davlat qurish g'oyasiga qarshi chiqib, muqobil ravishda xalifalik tuzumiga qaytish, o'z safdoshlaridan birini halifa qilib saylash va shu bilan hokimiyatni o'z qo'llariga olishni maqsad qilib chiqdilar. Shu o'rinda, mutaxassislar dunyo bo'ylab sodir etilgan terrorchilik harakatlarining 80 % ini muqaddas islom dini nomidan harakat qiluvchi jangarilar amalga oshirilganligini ta'kidlashmoqda.

Markaziy Osiyoda diniy aqidaparastlikning xavfliligi shunda ko'rinadiki, uning tarqalishi mamlakatlarda aholining turli guruhlari o'rtasidagi o'zaro ishonchga putur etkazishi mumkin. Bu erda faqat millatlararo va dinlararo keskinlik to'g'risida so'z yuritilayotgani yo'q. Bundan ham kuchliroq xavf "sof musulmonlar" va "munofiqlar", ya'ni islomning ekstremal talqiniga qo'shilmaganlar o'rtasida yangi ixtilof yo'nalishini vujudga keltirishi mumkin.

Shuningdek, Markaziy Osiyoda islom aqidaparastlari mavqeining kuchayishi mintaqa mamlakatlarining halqaro aloqalariga putur yetkazishi mumkin.

Bu jahon iqtisodiy hamjamiyatining munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va chet el investitsiyalarini jalb etishning kamayib ketishiga olib keladi.

Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitida quyidagi uchta yo'nalish asosiy ahamiyat kasb etadi:

Birinchi yo'nalish - bu barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash. YA'ni har qanday fundamentalizm jamiyatdagi iqtisodiy barqarorlik, betartiblik natijasida vujudga keladi. Islomizm jamiyat boshiga tushayotgan barcha musibatlar ta'limot asoslaridan chekinish oqibatidir degan g'oyani ilgari suradi va muammoning echimini eski qadriyatlarni tiklashda ko'radi. Iqtisodiy omillar fundamentalizm faol foydalanuvchi birinchi manbadir.

Ikkinchi yo'nalish - jamiyat hayotini demokratlashtirish bo'lib, bunda, davlat hokimiyatidan norozi aholi qatlamlari har qanday jamiyatda

mavjud bo‘ladi. Demokratiya institutlari va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi norozilikni sublimatsiya qilish va uni oshkora ifodalashning qonuniy va jamiyat tomonidan nazorat qilinadigan kanallarini vujudga keltirish imkoniyatini beradi. Aks holda noroziliklar ixtiloflarga aylanishi mumkin.

Uchinchi yo‘nalish - ta’lim tizimini mukammallashtirish lozim.

XX asr mobaynida islom, Markaziy Osiyoda kommunistlar tomonidan bosimga uchragan bo‘lsa ham, aholining madaniy va diniy kundalik hayotida muhim o‘rin tutgan. Bugun ushbu musulmon mamlakatlari ochilganidan keyin ularga global o‘zgarishlar, turli bozor kuchlari, axborot va telekommunikatsiya sohasi yutuqlari hamda radikal islom kirib keldi. Mamlakat hukumatlari yangi sharoitga moslashish va ta’sirlarga bardosh berish uchun siyosiy va iqtisodiy institutlarni shakllantirishga urinmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Markaziy Osiyo davlatlari o‘zlarining ichki va tashqi siyosatidagi islohotlari qatorida dinni chetda qoldirmasligi, uni zamon talablariga moslashtirib, dinning umumiy holatini kompleks tizimlashtirish, qolaversa, dinning sifati va darajasini modernizatsiya qilishga eng muhim vazifalardan biri sifatida e’tibor berishlari kerak.

MASLAHAT UCHRASHUVI: BARQAROR VA BIRDAMLIK SARI

***Kurbanov E.E.,
Guliston davlat universiteti***

Mamlakatimizda 2017 yildan boshlangan yangilanishlar jarayoni Yangi O‘zbekiston g‘oyasi uchun muhim bo‘lgan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy zaminlar yuzaga kelishiga olib keldi. Albatta, yurtimizda taraqqiyotning yangi bosqichi jahonda kechayotgan nobarqaror va murakkab, inqirozli hodisalar hamda milliy taraqqiyot tajribasi va uning natijalarining tizimli tahlili asosida amalga oshirilmoqda.

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” birinchi navbatda, Taraqqiyot strategiyasi 2017-2021 yillar mobaynida izchil amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomidir. Boshqacha aytganda, Harakatlar strategiyasi turli sohalarda keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishdan boshlangan bo‘lsa, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” to‘plangan tajriba va imkoniyatlardan kelib chiqib, ularning uzviyligini ta‘minlagan holda davom ettirish hamda takomillashtirish demakdir.

Ta‘kidlash joizki, Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi amalga oshirilayotgan islohotlarni dialektika miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuniga [1] binoan, yangi sifat darajasiga ko‘tarmoqda va samaradorligini oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli farmoniga binoan tasdiqlangan, ettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, keyingi besh yilda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Farmonga binoan, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi quyidagi ettita ustuvor yo‘nalishi tasdiqlandi:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish [2].

Bugungi kunda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish maqsadida Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish

bo'yicha birgalikdagi ishlar doirasida axborot almashish va hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi xalqaro tashabbuslarni amalga oshirishda O'zbekistonning roli kengaytiriladi. Jahon hamjamiyati va mintaqaviy tashkilotlar e'tiborini Afg'onistonda tinchlik va totuvlikni ta'minlashga qaratish bo'yicha ham tashabbuslar jadallashtiriladi [3].

Yettinchi yo'nalish doirasida mamlakatimizdagi mudofaa va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha bir qator chora-tadbirlar, jumladan, qo'shinlarning jangovar tayyorgarligi va salohiyatini kuchaytirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini yaxshilash ko'zda tutilgani bu borada ham muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro hamkorligini rivojlantirish orqali jahon miqyosidagi rolini oshirish, ijobiy nufuzini shakllantirish, Markaziy Osiyoda yaqin hamkorlikni mustahkamlash, turli sohalarda an'anaviy hamkorlarimiz bilan hamkorlikni yanada kengaytirish ko'zda tutilmoqda.

Dastlab Harakatlar strategiyasida, endilikda Taraqqiyot strategiyasida [2] belgilangan ustuvor yo'nalishlar va muhim vazifalar milliy yoki mintaqaviy miqyosidagina emas, balki global darajada ulkan ahamiyatga molik xalqaro hujjatlar bilan uyg'un va hamohangdir. Shu nuqtai nazardan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi O'zbekiston bajarishni o'z zimmasiga olgan BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarini mamlakatimiz hayotiga tatbiq etishning aniq milliy dasturi belgilab berildi [4].

O'zbekiston taraqqiyoti yangi bosqichining muhim jihatlaridan biri ichki va tashqi siyosatning uyg'unligidir. Bugun hech bir davlat, hech bir xalq integratsiyasiz mustaqil rivojlana olmaydi. **Yangicha qarash va yondashuvlar asosida olib borilayotgan ichki siyosat uning mantiqiy davomi sifatida mamlakat tashqi siyosatida ham o'z ifodasini topmoqda.**

Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "mamlakatimizning tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari barqaror, adolatli va demokratik davlat qurishga, uning tashqi dunyoga ochiqligini ilgari surishga hamda mintaqaviy va ko'p tomonlama o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan" [5]. **Shu munosabat bilan ochiq, pragmatik va amaliy**

tashqi siyosat yuritish, dunyo davlatlari, ayniqsa, qo'shni davlatlar bilan yaqin do'stlik va hamkorlik aloqalarini mustahkamlash mamlakatimiz tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aylandi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ettinchi ustuvor yo'nalishi ham aynan shu maqsadlarni nazarda tutgan bo'lib, uning doirasida O'zbekistonning jahon miqyosidagi rolini oshirish, Markaziy Osiyoda turli sohalarda yaqin hamkorlikni yanada mustahkamlash, an'anaviy hamkor davlatlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va iqtisodiy diplomatiyani mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar o'rin olgan [2].

Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni yanada yaqinlashtirish maqsadida har yili Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini o'tkazishni ta'minlash, Mintaqaviy hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha ishlarni boshlash, O'zbekistondagi chegara punktlarining salohiyatini oshirish, ekologiya va atrof-muhit muhofaza qilish sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish va boshqa chora-tadbirlar shular jumlasidandir.

Shuni ta'kidlab o'tishki, Markaziy Osiyoda mintaqaning barcha davlatlari bilan umumiy chegaraga ega yagona davlat sifatida O'zbekiston o'zining zamonaviy rivojlanishida mintaqani barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik makoniga aylantirishdan bevosita manfaatdor.

Mutaxassis olimlarning fikricha, Markaziy Osiyo xalqlarining uzoq muddatli tarixiy qo'shnichiligi mevalaridan biri ular uchun birdek qadrlı bo'lgan mushtarak qadriyatlar tizimining shakllangani, deyish mumkin [6, 5-b].

Binobarin, mintaqaning madaniy-tarixiy merosini "bo'lishish" mumkin emas. Umumiy tarix va din, umumiy suv yo'llari va transport yo'laklari Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy merosidir.

Tabiiyki, izchillik bilan ilgari surilgan konstruktiv ruhdagi yangi siyosiy tashabbuslar dunyo hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari asosida BMT Bosh Assambleyasining 4 ta muhim rezolyutsiyalari qabul qilingani ham bu fikrni tasdiqlaydi [7, 11-b]. Ayniqsa, 2018 yil 22 iyun kuni O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasi qabul qilingani tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Rezolyutsiya mintaqada yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash uchun mustahkam poydevorni yaratdi. Mazkur xalqaro hujjatda Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqada tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlash, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdagi hal qiluvchi roli e’tirof etilgan.

Davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish borasida O‘zbekiston delegatsiyasi tomonidan qo‘shni mamlakatlar bilan jami 63 ta, jumladan, Qozog‘iston bilan 17 ta, Qirg‘iziston bilan 27 ta, Tojikiston va Turkmaniston bilan 9 martadan muzokaralar olib borildi. Natijada Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston bilan chegara masalasida ma’lum yutuqlarga erishildi [8, 10–11-b]. Mintaqa davlatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik dinamikasi ham yangi bosqichga ko‘tarildi.

“Mamlakatimizda kechayotgan tub yangilanishlar, izchil va faol tashqi siyosat, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasidagi yaqin qo‘shnichilik muhiti tobora mustahkamlanayotgani yurtimizning xalqaro nufuzini yanada oshirmoqda” [5, 330-b]. Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan o‘zaro yaqinlashish siyosati nafaqat Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik muhitini mustahkamlashga, balki mintaqada davlatlari tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlovga ham sazovor bo‘lmoqda.

Keyingi yillarda Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari ikkita kuchli impuls oldgan bo‘lsa, ularning bosh sababkori O‘zbekiston Respublikasi bo‘ldi. **Birinchi impuls** mamlakatimiz tashqi siyosatining Markaziy Osiyo vektori ustuvorligini rasman e’lon qilgani bilan bog‘liq kechdi. Qolaversa, yangi rahbariyat hokimiyatga kelganidan buyon o‘tgan davr mobaynida O‘zbekiston bu maqsadga erishish uchun izchil intilib kelmoqda. **Ikkinchi impuls** 2018 yil 15 mart kuni Qozog‘istonning Ostona shahrida o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi norasmiy uchrashuvi bo‘lib, u mintaqada davlatlari umumiy taraqqiyotining yangi mexanizmini shakllantirishga asos soldi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Qozog‘iston, O‘zbekiston,

Qirg'iziston, Tojikiston rahbarlari va Turkmaniston parlamenti spikeri uchinchi tomonlar ishtirokisiz ilk bor uchrashib, mintaqaviy hamkorlik va xavfsizlik masalalarini muhokama qildilar, shuningdek, Afg'onistondagi vaziyat bo'yicha yagona pozitsiyani e'lon qildilar. Markaziy Osiyo atrofidagi kuch markazlarida turli gumonlar yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'shanda mintaqa davlatlari maxsus tashkilot tuzishdan tiyilishgan edi. Bugungi kunda an'anaviy bo'lib qolgan bu uchrashuvlar "Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvi" sifatida xalqaro e'tirofqa erishdi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo davlatlarining norasmiy sammitini tashkil etish g'oyasini O'zbekistonning yangi rahbari ilk bor 2017 yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi, 2017 yil noyabr oyida Samarqand shahrida BMT shafeligida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferentsiyadagi nutqlarida ilgari surgan edi [9]. Prezident Sh.Mirziyoyev mintaqaning dolzarb muammolarini birgalikda hal etish borasidagi sa'y-harakatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining alohida kun tartibini nazarda tutmaydigan muntazam norasmiy maslahatlashuvlari formatini taklif qilgan edi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari o'tkazilishi, shubhasiz, O'zbekiston mintaqaviy tashqi siyosatidagi muhim voqeadir. **Birinchi** shunday uchrashuv 2018 yilning 15 mart kuni Ostona shahrida bo'lib o'tdi va mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi. 2019 yil 29 noyabr kuni Toshkentda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining **ikkinchi** uchrashuvi mintaqaviy diplomatiyadagi haqiqiy burilish nuqtasi bo'ldi. Sammit yakunlari va keyingi voqealar rivoji muloqot yangi formatga o'tganini ko'rsatdi. Tomonlar Maslahat uchrashuvlarini tayyorlash va o'tkazish bo'yicha Nizomni tasdiqladilar. Mazkur hujjat sammitlarga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rish, ularni tizimli asosda tashkil etish, kelishilgan va o'zaro manfaatli qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, sammit chog'ida tomonlar yangi xalqaro tashkilot tuzish g'oyasidan uzoq

ekanliklarini, shuningdek, o‘z harakatlarini boshqa davlatlar manfaatlariga qarshi yo‘naltirishni istamasliklarini ta’kidladilar [10].

2021 yil 6 avgust kuni Turkmanistonda Markaziy Osiyo davlatlari etakchilarining **uchinchi** sammiti bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Prezidenti navbatdagi maslahat uchrashuvida bir qancha muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Ular orasida:

- mintaqada zamonaviy iqtisodiy munosabatlar talablaridan kelib chiqqan holda “iqtisodiy hamkorlikning yangi modeli”ni shakllantirish;

- mintaqa transport tizimini Evroosiyo qit‘asining zamonaviy talablarga javob beradigan muhim tranzit markaziga aylantirish;

- yagona energiya makonini shakllantirish bo‘yicha sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishni ta’minlash;

- ekologiya masalalariga doimiy e’tibor berish, bu boradagi hamkorlikni kengaytirish;

- Markaziy Osiyoning dunyoning boshqa yirik mintaqalari bilan aloqalarini yangi bosqichga olib chiqish;

- yoshlarni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash bo‘yicha qator madaniy-gumanitar loyihalarni amalga oshirish;

- ichki sayyohlik almashinuvlarini kengaytirish, “Bitta sayohat – butun mintaqa” qo‘shma dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- “Xalq diplomatiyasi” imkoniyatlarini ko‘proq ishga solish, parlamentlar, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarini bu jarayonga keng jalb etish va h.k. [11]

Uchrashuvda tomonlar 2022-2024 yillarga mo‘ljallangan mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni tayyorlashga kelishib oldilar. Ushbu hujjat maslahat uchrashuvlarida ilgari surilgan barcha tashabbuslarni o‘z ichiga oladi hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari va muddatlarini belgilaydi.

Umuman olganda, har bir sammit yakunlari mintaqada yaxshi qo‘shnichilik va ishonch muhiti, ko‘plab qiyinchiliklarga qaramay, mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, mintaqada avvalgi “yetakchilik uchun raqobat” o‘rniga o‘zaro ishonch, birodarlik va do‘stlik ildizlari chuqurlashib bormoqda.

Anan'aga aylangan maslahat uchrashuvning **to'rtinchisi** Qirg'izistonning Cho'lponota shahrida Issiqko'l atrofida 2022 yil 21 iyul kuni bo'lib o'tdi. Cho'lponota shahridagi uchrashuv kun tartibidan bir qator muhim masalalarda, shu jumladan savdo, transport va logistika, sanoat kooperatsiyasi, innovatsiyalar, oziq-ovqat xavfsizligi, turizm, madaniy-gumanitar almashinuv sohalarida amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Alohida e'tibor Markaziy Osiyoning barqarorligi va izchil taraqqiyotiga zamonaviy tahdid va xatarlarga birgalikda qarshi turish borasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratiladi [8, 10–11-b].

Markaziy Osiyo davlatlarining barqarorligi va hamjihatligi, birinchidan, qardosh xalqlar farovonligiga xizmat qilsa, ikkinchidan, mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish, xorijiy sheriklar bilan hamkorlik qilish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Mazkur uchrashuvlar katta siyosiy tashkilotlar o'z faoliyatida hal eta olmaydigan masalalar hal bo'layapti. Uchrashuv formati siyosiy tashkilot sifatida emas, davlat rahbarlari xech qanday tashqi ta'sirlarsiz, ortiqcha rasmiyatchiliklarsiz, kerak bo'lsa protokol tadbirlarisiz dildan gaplashishmoqda [13].

Umumlashtiruvchi xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo mintaqasining yagona tuzilmaga integratsiyalashuv g'oyasi bugungi kunda global xarakterdagi yangi tahdidlar qarshisida xavfsiz va barqaror rivojlanishning imperativlaridan biriga aylanib bormoqda. Markaziy Osiyoni xalqaro tizimning yangi shakllanayotgan kichik mintaqasi sifatida ko'rib chiqish tendentsiyasi ortib borayotgani shundan dalolat bermoqda.

So'nggi paytlarda postsovet makonining ayrim qismlarida kuzatilgan ijtimoiy-gumanitar va harbiy-siyosiy xarakterdagi xavotirli tendentsiyalarni hisobga olganda, Markaziy Osiyo davlatlari bugungi kunda dolzarb bo'lib borayotgan mintaqaviy hamkorlik kontekstida o'z yo'l xaritalarini qayta ko'rib chiqish zaruriyati har qachongidan ham ortmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/miqdor-ozgarishlarining-sifat-ozgarishlariga-otishi-qonuni-uz/>
2. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. <https://cabar.asia/ru/strategiya-razvitiya-novogo-uzbekistana-na-period-2022-2026-gg-intervyu-s-eldorom-tulyakovym>
4. Saidov A. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi — inson qadrini ulug‘lagan xalqchil bosh dastur. 28.01.2022. <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-taraqqiyot-strategiyasi--inson-qadrini-uluglagan-xalqchil-bosh-dastur>
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
6. Komilov M.M. Kirish so‘zi // Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi va hamkorligini rivojlantirishning ijtimoiy va siyosiy jihatlari: respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to‘plami. – Toshkent: O‘zXIA, 2022.
7. Saidolimov S. O‘zbekiston tashqi siyosati: Milliy manfaatlarga asoslangan faol va pragmatik yo‘l // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. : 1.
8. <https://www.un.int/uzbekistan/fr/news/ukreplenie-regionalnogo-i-mejdunarodnogo-sotrudnichestva-v-tselyax-obespecheniya-mira-stabilnosti>
9. <https://president.uz/uz/lists/view/1227>
10. <https://president.uz/uz/lists/view/3111>
11. <https://president.uz/uz/lists/view/4534>
12. http://www.uzbekistan.org.ua/uz/107-yangiliklar_/5996
13. <https://zenodo.org/record/7312280#.ZFYO6XZBw2w>

AFG‘ONISTON – MARKAZIY OSIYO HAMKORLIGINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

*Meliyev N.I.,
(Toshkent kimyo texnologiyalar instituti)*

O‘zbekistonning “Qo‘shning tinch – sen tinch” tamoyili asosida olib borilayotgan tashqi siyosati Markaziy Osiyo mintaqasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va yaqin qo‘shnichilik tamoyillariga asoslangan strategik sheriklikni barqaror tendensiyaga aylantirmoqda. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish, Markaziy Osiyo mintaqasini barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylantirish kabi masalalar ustuvor yo‘nalishlar etib belgilandi [1.]”. Chunki Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni o‘rnatishdan birinchi navbatda mintaqa mamlakatlari manfaatdordir. O‘zbekiston Respublikasi juda ko‘p tarixiy an‘ana va qadriyatlarga tayanib butun jahonda ro‘y berayotgan keskin mojarolarni hal etishda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga rioya etilishini, xalqaro va mintaqaviy ko‘lamdagi mojarolarni faqatgina tinch, muzokaralar o‘tkazish yo‘li bilan bartaraf etilishini qo‘llab quvvatlaydi. O‘zbek-afg‘on tashqi siyosiy munosabatlari asosida imzolangan hujjatlarga ko‘ra, ikki davlat o‘rtasida siyosiy va iqtisodiy sohalar istiqbolli sanalib, quyidagi yo‘nalishlarda amaliy ishlar olib borilmoqda [2; 281.]:

- Afg‘onistonda barqarorlikni o‘rnatish, urushdan keyingi afg‘on zaminini qayta tiklash ishlariga ko‘maklashish;
- Insoniyatning yalpi xavfsizligiga rahna solayotgan terrorizmning har qanday ko‘rinishga qarshi dunyo hamjamiyati bilan birgalikda kurashish va bu illatga qarshi tura oladigan hamda amaliy ishlaydigan xalqaro institut va mexanizmlarni shakllantirish;
- BMT ning narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash dasturi asosida narkotik moddalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurash borasidagi o‘zaro hamkorlik;
- Ikki davlat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar hamda bu boradagi ishlarda axborot va tajriba almashish, marketing, milliy xizmatlar bozorini rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo, xususan, Afg‘onistonda “tinchlik, barqaror rivojlanish va yaxshi qo‘shnichilik hududi” ni tashkil etishni mamlakat tashqi

siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab berganligi ushbu muhitni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Markaziy Osiyoning bardavom rivojlanishi Afg‘onistondagi vaziyatning barqarorlashishi bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston Prezidenti bir necha bor ta’kidlanganidek, “Afg‘oniston muammosini hal etmasdan turib, tinch va gullab yashnayotgan Markaziy Osiyo haqida gapirish mumkin emas [3.]”.

Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari Afg‘oniston muammosini hal qilishda faol yordam ko‘rsatmoqda. Qozog‘istonning raisligi va tashabbusi bilan BMT Xavfsizlik Kengashida Afg‘oniston bo‘yicha vazirlararo munozara bo‘lib o‘tdi. Aynan shu tadbir doirasida Toshkent konferensiyasini o‘tkazish tashabbusi e‘lon qilindi va mintaqaning barcha mamlakatlari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. O‘z navbatida, Qirg‘iziston tomonidan mazkur mamlakatda yuz berayotgan jarayonlarni chuqur tahlil qilish maqsadida Bishkek shahrida Afg‘oniston bo‘yicha tadqiqot markazini tashkil etish taklifi ilgari surildi. “Biz hammamiz, Afg‘oniston mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga jalb qilinishi zarurligini tushunamiz”. Ushbu fikr Ashxobodda Afg‘oniston bo‘yicha yettinchi mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferensiyasi, Toshkent konferensiyasi va Dushanbe shahrida terrorizm muammosi va uni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha yuqori darajada o‘tkazilgan xalqaro konferensiya ishtirokchilari tomonidan keng qo‘llab-quvvatlandi [3.].

Markaziy Osiyoning xavfsizligi Afg‘onistondagi xavfsizlik bilan chambarchas bog‘liq ekanligini boshqa davlatlar ham ta’kidlab kelmoqda. AQSHning bosh generali AQSH harbiy havo kuchlari Markaziy qo‘mondonligi qo‘mondoni, general-mayor Jefri L.Xarijian Toshkent shahriga tashrif buyurgan edi. “Tashrif davomida AQSHning bosh generali so‘zlariga ko‘ra, AQSH va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlik Afg‘onistondagi tinchlik va mintaqaviy xavfsizlikning kalitidir [5.]” degan edi. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o‘zaro munosabatlarda tenglik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, o‘zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada va butun jahon miqyosida tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash maqsadida, Afg‘onistonda uzoq

yillardan buyon davom etib kelayotgan urushni tinch yo‘l bilan hal etish tarafdoridir.

Afg‘onistonda davom etayotgan ziddiyatli voqea-hodisalar dunyo ahli e‘tiborida bo‘lib Afg‘onistonda xalqaro terrorchi guruhlar sonining kengayishi, zo‘ravonlik va qon to‘kishlar, narkobiznesning barham topmayotgani – bularning barchasi mamlakatdagi vaziyatni jahon jamoatchiligi tomonidan inkor etilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini ko‘rsatmoqda [5; 360.].

Afg‘onistonni qayta tiklash ishlari davomida O‘zbekiston quyidagi masalalarga e‘tibor qaratmoqda:

- Afg‘onistonning mintaqadagi keng ko‘lamli hamkorlik tizimiga qo‘shilishiga ko‘maklashish (xavfsizlik masalalaridan turli iqtisodiy integratsiyalashuv tashabbuslarigacha bo‘lgan masalalar);

- O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan xo‘jalik sub‘yektlarining Afg‘onistondagi qayta tiklash jarayonidagi ishtirokini kengaytirish va uni qo‘llab-quvvatlash;

- Afg‘onistonning tranzit imkoniyatlaridan unumli foydalanish ishlarida yordam ko‘rsatish va boshqalar [2; 234-241.].

O‘zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlik va davlatlararo iqtisodiy munosabatlar omili quyidagilar:

Birinchi, Afg‘onistondagi notinch vaziyat va uning davomiyligi boshqa chegaradosh davlatlar qatori, O‘zbekiston tashqi siyosatidagi muhim masala hisoblanadi;

Ikkinchi, Afg‘onistonda yetishtirilayotgan narkotik moddalar tufayli Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekiston hududi tranzit davlat bo‘lishiga imkon tug‘dirmoqda. Bu jihatdan O‘zbekistonning mazkur muammo yechimi uchun tashqi siyosiy aloqalarni mustahkamlash muhimdir;

Uchinchi, Afg‘onistondagi ichki siyosiy vaziyatda dunyoning yetakchi davlatlari ishtiroki va uning oqibatida nafaqat Afg‘onistonda, balki Markaziy Osiyo mintaqasida ham kuchlar muvozanatining bugungi holatini nazorat qilish, zarur bo‘lsa muayyan chora-tadbirlar qo‘llash;

To'rtinchidan, Afg'onistondagi vaziyatning barqarorlashuvi bilan O'zbekistonning shu davlat orqali "ilk dengiz" portlari tomon transport kommunikatsiyasi uchun imkoniyatlar kengayishi mumkin [2; 234-241.].

O'zbekiston xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi muammolarni, ayniqsa afg'on muammosini siyosiy yo'llar bilan bartaraf etishga qaratilgan juda muhim amaliy ahamiyat kasb etuvchi xalqaro tashabbusni ilgari surib kelmoqda. Bu borada, ayniqsa 1999-yil 19-20 iyul kunlari "6+2" muloqot guruhi doirasida imzolangan "Afg'oniston mojarosini tinch yo'l bilan bartaraf etishning asosiy tamoyillari to'g'risida"gi Toshkent deklaratsiyasini O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida tarixiy ahamiyatga ega hujjat deb aytish mumkin. Toshkent uchrashuvida Markaziy Osiyodagi geosiyosiy vaziyatga dahldor BMT Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zolari hisoblangan AQSH, Rossiya va Xitoy singari yetakchi davlatlarning ishtirok etishi, Afg'onistonda o'zaro kurashayotgan tomonlarning dastlabki yuzma-yuz muloqoti hamda afg'on muammosini tez sur'atlarda hal etilishidan manfaatdor bo'lgan qo'shni davlatlarning ilk bor muzokaralar stoli atrofida to'planishi, shak-shubhasiz O'zbekiston Respublikasining tinchliksevar tashqi siyosati va diplomatiyasining amaliy yutug'i hisoblanadi [6; 300.].

NATO boshchiligidagi xalqaro kuchlarning Afg'oniston hududida bir qator operatsiyalarni amalga oshirganiga qaramay, mamlakatdagi vaziyat murakkabligicha saqlanib qolmoqda. Uni hal etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi tomonidan 2008-yilning 2-3 aprel kunlari NATO ning Buxarest sammitida "6+2" guruhini "6+3" muloqot guruhiga aylantirish, ya'ni uning tarkibida NATO vakolatxonasi ishtirokini ta'minlash tashabbusi o'rta tashlangan edi.

O'zbekiston xalqaro tinchlikparvar tashabbuslarida Afg'onistonni barqarorlashtirish va tiklanishidan manfaatdor bo'lgan barcha kuchlar harakatlarini BMT shafeligida muvofiqlashtirish, jahon hamjamiyati ko'magida eng o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish, keng miqyosli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan qisqa vaqt ichida ushbu yo'nalishlarda tarixiy qadamlar qo'yildi. Oxirgi yillarda Yaqin Sharq davlatlarida chuqurlashib borayotgan siyosiy inqiroz va qurolli nizolar fonida biroz yoddan

ko'tarilgan Afg'oniston masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning faol tashabbuslari va sa'y-harakatlari tufayli jahon hamjamiyatining kun tartibiga yana qaytmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida, 2017-yil 10-11 noyabrda Samarqand shahrida BMT shafeligida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi yirik xalqaro konferensiyada, 2018-yil 26-27 martda "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida o'tkazilgan Afg'oniston bo'yicha yuqori darajadagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqlarida Afg'onistonni tiklash bo'yicha xalqaro hamjamiyatning birgalikdagi harakatlarini gumanitar yordam mexanizmini faollashtirish orqali yangi sifat darajasiga ko'tarish masalasiga katta urug' berib o'tildi [7; 329.].

Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi qayd etildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda [8.]".

Bugungi kunda aholisining 71 % ni 30 yoshgacha bo'lgan kishilar tashkil etadigan Afg'onistonda qariyb 40 yildan buyon davom etayotgan jang-u jadallarni boshdan kechirgan bir avlod voyaga yetdi. Afg'on xalqining urushdan charchagan mana shu qismida tinchlik va ijtimoiy farovonlik uchun ruhiy jihatdan ichki rag'bat kuchlidir [10.].

Darhaqiqat, yoshlarning bunyodkorlik salohiyatini namoyon qilishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish, ular orasida zo'ravonlik g'oyasi keng tarqalishining oldini olish uchun ko'p tomonlama xalqaro hamkorlik mexanizmlarini yanada takomillashtirishni zamonamizning o'zi talab etmoqda [7; 329.].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Markaziy Osiyodagi tinchlik va barqarorlik Afg'onistondagi tinchlik va barqarorlik bilan chambarchas bog'liqdir. Umuman olganda, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik

o‘rnatishdan, avvalo, unga qo‘shni bo‘lgan davlatlar manfaatdordir. Shu o‘rinda, O‘zbekistonning “Qo‘shning tinch – sen tinch” tamoyili asosida, ikki tomonlama hamda xalqaro tashkilotlar doirasida olib borilayotgan, insonparvarlik mohiyatiga ega siyosati Markaziy Osiyo mintaqasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va yaqin qo‘shnichilik tamoyillariga asoslangan strategik sheriklikni barqaror tendensiyaga aylantirmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan afg‘on xalqiga gumanitar yordam ko‘rsatilishi, afg‘on yoshlariga zamonaviy ta‘lim imkoniyatlarini taqdim etilishi, ularda kasbiy ko‘nikmalar shakllanilishiga ko‘mak berilishi ushbu mamlakatda barqarorlik va taraqqiyot uchun kuchli ichki rag‘batni hosil qiladi. Bu esa istiqbolda Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Bir narsani unutmaslik kerakki afg‘on xalqi eng ko‘p jabr va zulm ko‘rgan xalqlardandir. Ular ham hayotda baxtli va tinch totuv yashashga xaqlidir. Biz ularning mana shunday azaliy orzulariga yetishishida yelkadosh va kamarbasta bo‘lishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги Фармони // “Халқ сўзи”, 2017 йил 20 сентябр. 189 (6883).

2. Исоқова З.Р, Тожибоева М.Т. Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсатида Афғонистон билан боғлиқ сиёсий жараёнлар.“Афғонистон XX ва ХХИ асрлар чорраҳасида: Тарихий, иқтисодий-ижтимоий, сиёсий жиҳатлари ва унинг Марказий Осиё мамлакатлари билан ўзаро муносабати масалалари” халқаро илмий конференция материаллари. ТДШИ 2019.

3. Ўзбекистон Республикасининг Австриядаги элчихонаси расмий сайти. “Президент Шавкат Мирзиёевнинг минтақавий хавфсизликни та‘минлаш ва афғон муаммосини ҳал этиш масалалари юзасидан стратегик қараши”. 8.02.2021. – В. 8.

4. Sentral.asia-news.com расмий сайти. “Марказий Осиё ва АҚШ ҳамкорлиги хавфсизлик ва барқарорлик учун “ечим””. – Р. 4.

5. Мирзиёев Ш. Тинчлик ва барқарорлик сари ташланган муҳим қадам. Афғонистон бўйича “Тинчлик жараёни, хавфсизлик соҳасида ҳамкорлик ва минтақавий шериклик” мавзусида ўтказилган халқаро конференцияда сўзланган нутқ. 2018 йил 27 март. / Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018 – Б. 360.

6. Мадаминова Д.И “Афғонистонда вазиятни барқарорлаштиришда Ўзбекистон ташаббуслари”, “Афғонистон XX ва XXI асрлар чорраҳасида: Тарихий, иқтисодий-ижтимоий, сиёсий жиҳатлари ва унинг Марказий Осиё мамлакатлари билан ўзаро муносабати масалалари” халқаро илмий конференция материаллари. ТДШИ 2019. – Б. 300.

7. Назиров М.М “Марказий Осиёнинг барқарор тараққиёт ҳудудига айланишида Афғонистон омили ҳусусида”, “Афғонистон XX ва XXI асрлар чорраҳасида: Тарихий, иқтисодий-ижтимоий, сиёсий жиҳатлари ва унинг Марказий Осиё мамлакатлари билан ўзаро муносабати масалалари” халқаро илмий конференция материаллари. ТДШИ 2019. – Б. 329.

8. “Афғонистон XX ва XXI асрлар чорраҳасида: Тарихий, иқтисодий-ижтимоий, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72 сессиясидаги нутқи. // “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 8 феврал. – С. 5.

9. Ашраф Ғани: Афғонистон “Марказий Осиёнинг бир қисмига айланди”. 27.03.2018 <http://kun.uz/news/2018/03/27/>

MARKAZIY OSIYODA HARBIIY VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA O'ZBEKISTONNING O'RNI

*Nurmetov Sh.M.,
(Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti)*

Markaziy Osiyo mintaqasi jahonning strategik ahamiyatga molik mintaqalaridan biri hisoblanadi. Mazkur mintaqada sodir bo'layotgan shiddatli o'zgarishlar jahon siyosiy hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bugungi kunda mazkur mintaqada yetakchi davlatlarning manfaatlari o'zaro kesishmoqda, turli xil noan'anaviy tahdidlar ham hamon saqlanib qolmoqda. Shunday sharoitda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida mintaqaviy diplomatiyani mustahkamlash va dolzarb muammolarni o'zaro birgalikda hal etish zarurati paydo bo'lmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi o'zining geosiyosiy jonbozligi va amaliy sa'y-harakatlari orqali mintaqada shunday diplomatik muhitni shakllantirishga muvaffaq bo'ldi.

Markaziy Osiyoning qoq yuragida O'zbekistonning joylashgani mintaqada uning geosiyosati ko'p jihatdan hal qiluvchi rol va ta'sirga egaligini ko'rsatib beradi. 2012-yil 12-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi to'g'risidagi" qonunda O'zbekistonning tashqi siyosiy faoliyati belgilab o'tilgan. Mazkur qonunda, O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi bo'lib, konsepsiyada O'zbekiston tashqi siyosatini amalga oshirishda siyosiy-diplomatik vositalar sifatida siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazish, dolzarb masalalarni muhokama qilish va hal etish yo'llarini birgalikda izlash, O'zbekiston milliy manfaatlarini, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tashqi siyosiy tashabbuslarni ishlab chiqish va boshqa vositalar sanab o'tiladi. Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan to'plangan muammolarni siyosiy maslahatlashuvlar orqali hal qilish hamda mintaqada davlatlarini faol muloqot va hamkorlikka chorlashda O'zbekistonning o'рни alohida e'tiborga molik. Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar jadal tarzda rivojlanib bormoqda. Markaziy Osiyoda yangi geosiyosiy ishonch muhiti vujudga kelmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mavjud bo'lgan bir qator muammolar borgan sari kamayayotgani aynan O'zbekistonning bu boradagi o'рни bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston geosiyosatining amaliy ifodasiga aylangan quyidagi mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi tadbirlarni misol sifatida keltirish mumkin:

- Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari
- “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusida Samarqand xalqaro konferensiyasi;

- “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida Afg‘oniston bo‘yicha Toshkent xalqaro konferensiyasi. Bu tashabbuslar albatta, O‘zbekiston tashqi siyosati tinchlikka asoslangani har qanday muammolarni birgalikda hal etish va qurolli nizolarni oldini olishda faol subyekt sifatida o‘z salohiyati va imkoniyatlarini muntazam safarbar etib kelayotganidan dalolatdir. O‘zbekistonning mintaqadagi ro‘li strategik xususiyatga ega bo‘lgan omillarga asoslanadi. Birinchidan, O‘zbekiston mintaqadagi eng ko‘p aholi yashaydigan davlat. Bugungi kunda O‘zbekiston aholisi 36 mlnga yetdi bu holat mintaqada O‘zbekistonning demografik ulushi katta ekanligini ko‘rsatadi. [1.b-29] Ikkinchidan, O‘zbekiston mintaqaning besh mamlakati bilan umumiy chegaraga ega bo‘lgan yagona davlat hisoblanadi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoning o‘rtasida, qoq markazida joylashgan. Uchinchidan, harbiy salohiyat bo‘yicha O‘zbekiston mintaqa davlatlari orasida birinchi o‘rinda turadi. O‘zbekiston o‘z o‘rni va mavqeiga ko‘ra Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlarida ko‘proq ta’sir ko‘rsatish salohiyatiga ega. 2017-yildan boshlab o‘zbek diplomatiyasida sifat jihatdan butunlay yangi sahifa ochilib, respublikamizning xalqaro maydonda olib borayotgan faoliyati yangi bosqichga chiqdi, deb aytish mumkin. Buning asosiy sababi – mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan dunyoga ochiqlik siyosati, birinchi navbatda yaqin qo‘shnilarimiz, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik yangi bosqichga olib chiqildi. Shu jihatdan olib qaraganda, O‘zbekiston rahbari o‘tgan yillar mobaynida barcha Markaziy Osiyo davlatlariga davlat tashrifi bilan tashrif buyurdi va mintaqada o‘ziga xos muhit yaralishiga sababchi bo‘ldi. Shu boisdan mamlakatimiz tashabbus bilan 2017-yil 11-avgust kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan "Markaziy Osiyo — O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi" mavzuidagi xalqaro konferensiyada mintaqaviy ahamiyatga molik eng muhim masalalar yuzasidan

O‘zbekiston va unga qo‘shni davlatlarning zamonaviy mintaqaviy siyosati, nuqtai nazar hamda yondashuvlarining turli qirralari batafsil muhokama etildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yilning 10-11-noyabr kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik" mavzuidagi xalqaro konferensiyada Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. 2018 yilning 15-martida Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi bo‘ldi, bu uchrashuv davomida O‘zbekiston ko‘plab manfaatli takliflarni ilgari surdi: Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash sohasida samarali mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish uchun yangi zaxira va amaliy mexanizmlarni izlash; savdo-iqtisodiy, innovatsiya, investitsiya, transport-kommunikatsiya, bank-moliya, suv-energetika va madaniy-gumanitar sohalardagi sheriklik bo‘yicha aniq dasturlar — "yo‘l xaritalari"ni ishlab chiqish; eng dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar bo‘yicha keng fikr almashish, ular bo‘yicha umumiy pozitsiyani kelishib olish hamda uni keyin BMT, MDH, SHHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ilgari surish. Bunday uchrashuvlarning har yili o‘tkazilib turilishi mintaqadagi muammolarni hal etish orqali ishonchli mintaqaviy hamkorlikning mustahkamlanib borishiga sabab bo‘lmoqda. Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi haqida so‘z yuritganda "Afg‘on" mavzusi doimo birinchi o‘rinda tilga olinadi. Afg‘oniston Markaziy Osiyoga qo‘shni davlat sifatida va turli omillarga ko‘ra Markaziy Osiyo uchun strategik darajada ahamiyatlidir. [2.b-251] Bugungi kunda Afg‘oniston turli mezonlarga ko‘ra Markaziy Osiyoning muhim bo‘lagidir. Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan to‘plangan muammolarni siyosiy maslahatlashuvlar orqali hal qilish hamda mintaqadavlatlarini faol muloqot va hamkorlikka chorlashda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘rni alohida e‘tiborga molik. Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashda "yaxlit xavfsizlik" tamoyiliga rioya qilish, jumladan, Afg‘onistonni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlariga qo‘shilishiga har tomonlama ko‘maklashish, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini tezda

yakunlash, mintaqa suv resurslaridan mintaqadagi barcha davlatlar manfaatlarini hisobga olgan holda samarali foydalanish hamda Markaziy Osiyoda madaniy-gumanitar aloqalar, ayniqsa, “xalq diplomatiyasi”ni eng muhim vosita sifatida rivojlantirish masalalariga alohida e’tiborini qaratdi. [3. b-100] 2018-yilning 22-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo’yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyusiyasi qabul qilindi. O‘zbekiston tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ushbu hujjat loyihasini BMTga a’zo barcha mamlakatlar bir ovozdan qo‘llab-quvvatladi. Afg‘on muammosi o‘z ta’sir doirasi va ko‘lami jihatidan jahonning eng dolzarb ahamiyat kasb etuvchi hamda yechimi murakkab muammolaridan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Shubhasiz, afg‘on muammosi unga qo‘shni bo‘lgan mintaqa mamlakatlari, xususan Markaziy Osiyoning muhim halqasi hisoblangan O‘zbekiston tashqi siyosatida markaziy o‘rinni egallaydi. Shu bois, O‘zbekiston afg‘on mojarosini faqat siyosiy yo‘l, ya’ni muzokaralar o‘tkazish yo‘li bilan hal etishga qaratilgan jarayonlarni to‘la qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Umuman, Afg‘oniston inqirozi o‘zida ichki, mintaqaviy va global darajadagi kuchlarni jalb etgan murakkab muammo ekanligini ko‘rish mumkin. Bu holat barcha tomonlarni geosiyosiy jihatdan murosaga kelishini, tinchlik o‘rnatish yuzasidan faol va muntazam muzokaralar amaliyotini safarbar etishni taqozo etadi. Tomonlarni ayni shunday murosaga va muzokaralarga jalb etish tajribasi O‘zbekiston geodiplomatik yondashuvlari va strategik qarashlari misolida o‘z aksini topadi. Ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekiston tashabbusi asosida qabul qilingan xalqaro hujjatlar umummintaqa barqarorligi va ravnaqining huquqiy bazasini mustahkamlashda katta ro‘l o‘ynaydi. Aynan afg‘on muammosiga bag‘ishlangan “6+2”, “6+3” muloqot guruhleri O‘zbekiston tashabbusi bilan amalga oshirilgan. [4. b-158] Umuman olganda, O‘zbekistonning mintaqa miqyosdagi roli, ta’siri, geosiyosiy salohiyati va nufuzi mintaqada o‘zaro hamkorlik xavfsizlik masalalarini birgalikda hal etishga qaratilgan. O‘zbekiston geosiyosati mintaqaviy geosiyosat xususiyatiga ega bo‘lib, mintaqaga harbiy-siyosiy bosim o‘tkazish mexanizmlarini tamomila rad etadi, mintaqada

barqarorlik, taraqqiyot va tashqi kuchlarning o‘zaro muvozanatini ta’minlashga asoslangan siyosatni ustuvor deb hisoblaydi. O‘zbekiston uzoq yillar davomida mintaqaviy xavfsizlikka tahdid tug‘diruvchi terrorizm, eksterimizm, narkotik moddalar savdosi singari omillarga qarshi munosib kurash olib bordi va mintaqaviy xavfsizlikning kafolati ekanligini amalda namoyon qildi. Umume’tirof etilgan geosiyosiy qarashlar O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy yadrosi ekanligidan dalolat beradi. O‘zbekiston geosiyosiy sa’y harakatlari tufayli Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan, Afg‘oniston ham jahon hamjamiyatining e’tibor obyektiga aylanib bormoqda. O‘zbekiston esa ushbu geosiyosiy jarayonlarning faol subyektiga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar;

- 1.. S.Safoyev. Markaziy Osiyodagi geosiyosat: Toshkent: 2005 b-29-32.
2. S.Bo‘ronov, H.Azimov; – Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolar: T.: “EFFECT-D”, 2023 b-250-255.
3. Bo‘ronov.S. O‘zbekiston geosiyosati: Toshkent: EFFECT-D 2021 b-94-102.
4. Bo‘ronov S.M. Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlik o‘rnatish jarayonlarida O‘zbekiston geosiyosati. – T.: EFFECT-D, 2021. b-150-165.

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDAGI DINIY SEKTALARNING BUZG‘UNCHI G‘OYALARIGA QARSHI KURASHDA MILLIY MA’NAVIY MEROSNING O‘RNI

*Sattorov A.A.,
(O‘zbekiston Milliy universiteti)*

Hozirgi globallashuv sharoitida diniy sektalarning buzg‘unchi g‘oyalari dunyo miqyosida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ham

yoyilishining oldini olish, tarqalishini to'xtatish, zararsizlantirish, diniy ilmlarni va sof diniy e'tiqod masalalarini tushuntirishda xolislikni ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi.

Dunyoda turli buzg'unchi g'oyalarni targ'ib qilishlarning oldini olish maqsadida Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni anglatishda ma'rifiy ishlar tizimi yaratilmoqda.

Zero, respublikamizda e'tiqod erkinligini ta'minlash masalasida barcha imkoniyatlar yaratib berilgan bir paytda, makkor va qo'poruvchi, nayrangboz kuchlar, diniy mutaassib sektalar o'z qabih rejalarini amalga oshirish davlatlarda beqrorlikni keltirib chiqarish, insonlar ongini zaharlab o'zlariga mute' qilish yo'lida xalq ichida, xususan, yoshlar orasida buzg'unchi g'oyalarni tarqatishga urinmoqda.

Shuningdek, siyosatshunos olim M.Musayev "O'zbekistonda, ma'naviy boshboshdoqlikni vujudga keltirishga intilayotgan kuchlar Jumladan, "Birlashish cherkovi", "Oq birodarlik", "Iyegova guvohlari", "Aum-Sinrikyo", "Seytnalogik cherkov", "Ad-ventes" kabi diniy sektalar harakatlari o'z o'choqlarini yaratishga intilishmoqda. Umuman bugungi kunda MDH hududida 45 dan ortiq ana shunday sektalar faoliyat ko'rsatayotganligi"[7.60] to'g'risida ta'kidlagan so'zlarida mamakatimiz barqarorligiga rahna solishga intilayotgan, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni yo'ldan chiqarib, aholi orasida buzg'unchilik g'oyalarini targ'ib qilishga yoshlar ongini zaharlash orqali salbiy holatlarni yaratayotgan diniy sektalar faoliyatini ko'rish mumkin.

Bu haqda so'z yuritganda M.Musayev o'zining "Sayentologiya - eng xavfli totalitar sekta" nomli maqolasida "diniy sektalar faoliyatiga baho berib ularning murakkab ko'p qirrali hodisa sifatida namoyon bo'layotganligini dunyo miqyosida globallashuv va axborot xurujlarining rivojlanishi oqibatida inson ongi va qalbini zabt etishga intilayotgan diniy mazmundagi axborot oqimlari tobora kuchaymoqda.

XXI asrda, turli ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko'ra, totalitar sektalar yanada faol harakat qilishga intilmoqda. Dunyo hamjamiyatini destruktiv (buzg'unchi) va totalitar diniy tashkilotlar faoliyati tashvishga solmoqda. Ayniqsa, dunyo miqyosida sektantlikning

ijtimoiy namoyon bo'lishi bir qator muammolarni keltirib chiqarishga zamin yaratmoqda.

O'z navbatida, totalitar sektalar faoliyatiga e'tibor qaratilsa, ular, avvalo, ijtimoiy, madaniy sohada ruhiy va huquqiy muammolarni keltirib chiqarayotganligi tashvishlidir. Dunyo miqyosida jamiyat xavfsizligi va mamlakat barqarorligiga xavf tug'dirayotgan destruktiv va totalitar diniy tashkilotlar haqida so'z borganda avvalo sayentologiya sektasi yodga keladi.

Mutaxassislar bugungi kunda sayentologiya sektasini dunyoda faol tarzda missionerlik va prozelitizm harakatlari bilan shug'ullanayotgan dunyodagi ijtimoiy xavfli sektalar qatoriga qushayotgani bejiz emas"[6.89] deb keltirgan ma'lumotlarida diniy sektalar nafaqat O'zbekiston uchun butun dunyo uchun ijtimoiy xavf to'g'dirayotganligini, davlatlarda beqarorlikni va yoshlar ongiga buzug'unchi g'oyalarni kiritishga o'rinayotganligini bilishimiz mumkin.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Butun dunyoda kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik kabi xatarlar, afsuski, bizni ham chetlab o'tmayapti. Lekin takror aytaman, musulmon ummatiga saboq bergan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi buyuk allamolar yetishib chiqqan bizning diyorimizda bu borada adashganlar, radikalizm va ekstremizm g'oyalariga berilganlar bo'lishi mumkinmi?"[1.5] deb ta'kidlagan fikrida bizning ajdodlarimizdan qolgan juda katta meros mavjudligi va yoshlarni ana shunday ma'naviy meros bilan tarbiyalansa hech qanday kuch adashtira olmasligini anglash mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekistonda diniy targ'ibotchilik, diniy sektalar faoliyatining salbiy oqibatlariga "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi" qonun bilan to'siq qo'yilgan bo'lsada, biroq bu oqimlarning mamlakatimiz hududiga qonunda qayt etilmagan turli yo'llar bilan kirib kelishi xavfi mavjudligini hech kim inkor qila olmaydi.

Bugungi kunda diniy sekta tarafdorlari aksariyat hollarda ta'sir etish vositasi sifatida inson ma'naviyatini nishonga olayotganligi tobora aniq

bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, ma’lum hududda xalqning azaldan shakllangan milliy qadriyatlari va ma’naviyatiga rahna solish orqali o‘sha hududga yot bo‘lgan ma’naviyatni targ‘ib etmoqda.

Mazkur harakatlar aksariyat holatlarda loqaydlik, xudbinlik, nodonlik, buzuqlik kabi holatlarni shakllantirish oqali har qanday xalq va millatni ma’naviy tubanlikka yetaklamoqda.

Natijada, har qanday xalq va millat ma’naviyatini zabt etish orqali mamlakatni o‘ziga tobe etish maqsadida namoyon bo‘lmoqda. Aynan, mazkur omillar jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda diniy sektalar jamiyatni ichidan yemiruvchi illat sifatida aksariyat insonlarni o‘z dinidan voz kechib, o‘zga dinni qabul qilishga majbur qilish holatlari tobora kuchaymoqda.

Natijada, diniy sektalar harakati oqibatida muayyan mintaqa va hududda din va diniy qarashlarga o‘z ta’sirini o‘tkazish orqali har qanday xalq va millatning ma’naviyatiga raxna solmoqda.

O‘zbekiston sharoitida diniy sektalar harakati xavfini bartaraf etish maqsadida milliy qadriyat va ma’naviy merosning o‘rni beqiyos hisoblandi.

Mamlakatimizda diniy sektalar faoliyatiga chek qo‘yish maqsadida va ularning buzg‘unchi g‘oyalaridan aholini ayniqsa yoshlarni asrashda ko‘pgini ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda vijdon erkinligini huquqini kafolatlash va hayotimizga tadbiq etish va ta’minlash uchun to‘laqonli tizim yaratilgan.

O‘zbekistonda 1998 yil 15 maydan e’tiboran kuchga kirgan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston qonunining yangi tahririga bevosita asoslangan. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston qonuniga ko‘ra, “Vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday e’tiqod qilmaslikdan iborat konstitusiyaviy huquqdir”[3.2],- degan norma bilan qonunda alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

Shu o‘rinda, ushbu qonunning zamiriga e’tibor qaratilsa, diniy tuyg‘ularni hurmat qilish, diniy qarashga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik, dinda buzg‘unchilik maqsadlarida foydalinshga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Yana bu qonunning 4-moddasiga asosan diniy sektalarning harakati oqibatida o'zga din vakillarini diniy tuyg'ularini kamsitish, haqoratlash, zo'ravonlik asosida o'z e'tiqodidan voz kechishga majburlash asosida o'z e'tiqodidan voz kechishga majburlash qonunan taqiqlanishi alohida ko'rsatib o'tilgan[3.2].

Mana shunday tahlikali zamonda va mafkuraviy xurujlar ta'siridan yosh avlodni asrash va ularni milliy qadriyatlar va ma'naviy merosimiz orqali tarbiyalash juda zurrur bo'lgan hodisa hisoblandi.

Yosh avlodni tarbiyalashda Imom Buxoriy va Imom Termiziyning diniy-ma'rifiy merosi, Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid yoki Mirzo Ulug'bekning astronomiyaga doir kashfiyotlari, nafaqat millatimiz va mintaqamizda istiqomat qilayotgan xalqlar, balki jahon sivilizatsiyasi, madaniyatidan o'rin olgan milliy merosimiz bebaho ne'mat hisoblandi. Ana shunday meros O'zbekiston xalqi uchun muqaddasdir.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ta'kidlanganidek, «Sharq olamida, jumladan, O'rta Osiyo sharoitida jamoa bo'lib yashash tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo'llab-quvvatlab hayot kechirishga zamin tug'diradi. Bu avvalo, insonning inson bilan, qo'shning qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning ma'naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi»[2.45] deb ta'kidlab o'tilgan fikrlarida bunday qadriyatlar asrlardan-aslarga milliy qadriyat va ma'naviy meros sifatida o'tib kelayotgani rad etib bo'lmas haqiqat ekanligini anglash mumkin.

Shu jihatdan olib qaraganda, jamiyat tafakkuridagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qadriyatlar, dunyoqarash, urf-odatlar, an'analar va munosabatlar kelajak avlodni tarbiyalashda va diniy sektalarning buzug'unchi g'oyalardan va boshqa tashqi kuchlar ta'sir etuvchi mafkuralaridan asrashga muhim omil sanaladi. O'zbekiston xalqi

avloddan avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an‘analarini saqlab qolgan yurt hisoblanadi.

Darhaqiqat hozirgi kunda diniy sektalarning buzg‘unchilik g‘oyalari ta‘siriga insonlarning ayniqsa yoshlarning tushib qolish holatlari uchrab turibdi. Shu buzg‘unchi g‘oyalar ta‘siriga tushib qolayotgan insonlar nima uchun tushib qolayotganligini o‘rganilganda jamiyatda o‘rni yo‘q ma‘naviy zaif, tarbiyasiga e‘tiborsiz bo‘lgan insonlarni ko‘rish mumkin.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta‘kidlaganidek, “Biz jamiyatimizda har qanday radikallashtirishga, yoshlarimiz ongini buzg‘unchi yot g‘oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma‘rifat o‘rnini jaholat egallashiga yo‘l qo‘ymaymiz. Buning uchun nafaqat mas‘ul tashkilotlar, balki barchamiz birgalikda muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, farzandlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha oila, mahalla va ta‘lim maskanlarida ish olib borishimiz zarur” [1.5] deb aytilgan fikrlar zahirida insonlar va yoshlarning ongiga yot g‘oyalarni ta‘sir qildirishga urinayotganlarga qarshi kurashishda milliy qadriyatlarimiz va ma‘naviy merosimiz muhim vosita ekanligini anglashimiz mumkin. Shu munosabat bilan hozirgi globallashtirish sharoitida yoshlarni tarbiyalash va ongiga ezgu g‘oyalarni singdirishda milliy merosimizni, ajdodlarning ilmiy meroslarini o‘rgatish orqali har xil buzg‘unchi g‘oyalardan arsab qolishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 sentabr “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4436-son qarorining 1 bandida “Aholining, ayniqsa yosh avlodning diniy va dunyoviy qarashlarini rivojlantirish; ommaviy axborot vositalari, Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan radikal g‘oyalarga qarshi milliy an‘ana va qadriyatlarimizning keng targ‘ib etilishini ta‘minlash”[4.3] bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarida mamlakatda insonlarni va yoshlarni dunyo qarashini shakllantirishda va yot g‘oyalardan asrashda milliy qadriyatlarni va ma‘naviy merosni o‘rganish orqali tarbiyalash aholi o‘rtasida keng

targ‘ibotini amalga oshirilishi bo‘yicha tizim yaratilishi belgilab berilgan. Mazkur qaror asosida milliy qadriyatlarni va ma‘naviy merosimizni tizimli targ‘ibotini amalga oshirish yo‘lga qo‘yilgan. Tegishli choralarni amalga oshirish maqsadida kadrlar tayyorlash bo‘yicha ta‘lim muassasalari tashkil etilgan.

Shuningdek yoshlarni o‘zbek xalqining azaliy milliy qadriyati bo‘lgan hunarmandchilik sohasini maktab ta‘limidan o‘rgatilishi ham har xil yot g‘oyalardan asrab qolishda ko‘p muhim samarali omil sanaladi.

Bu haqda M.Umarova o‘zining “Kelajak avlod tarbiyasini negizi hunarmandchilikda aks etadi” mavzusidagi maqolasida shunday ta‘kidlaydiki, “Axborot maydonida informatsion tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda xalqimizning asrlar sinovidan o‘tgan, jahon durdonalari qatoridan o‘rin olgan boy adabiy meroslari, hunarmandchilik sohasidagi bilimlar bilan yoshlarimizni yaqindan tanishtirish, uni egallash bunda axborot-kommunikatsiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanishimiz zarur. Milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan avlod mafkuraviy tahdidlar ta‘siriga berilmaydi, har jabhada o‘z fikriga ega bo‘lib, ommaviy madaniyatning turmushimizga yot hurujlarga o‘z munosabatini dadil bildira oladi va milliylik barq urib turuvchi duradgorlik, kulolchilik, misgarlik, kashtachilik, gilamdo‘zlik, to‘quvchilik, yigiruvchilik kabi bebaho hunarmandchilik namunalarini “O‘zbekiston” brendi ostida jahonga taqdim qila oladilar”[5.12] deb keltirilgan fikrlarida O‘zbek xalqining turmush tarziga aylangan va hunar orqali asrlar davomida otadan bolaga meros bo‘lib kelayotgan milliy qadriyatimiz yoshlarni tarbiyalashda, yoshlarni bu hunarlarni mukammal egalagan holda nafaqat O‘zbekiston balki butun dunyoga namoyon etish bilan faxrlansa arzigulik hodisa ekanligini aytib o‘tish o‘rinlidir.

Xulosa shundan iboratki, dunyo miqyosida tinchlik va barqarorlikka rahna solishga intilayotgan, o‘zida yovuz va buzg‘unchi g‘oyalarni namoyon etuvchi diniy sektalar faoliyatini anglash, undan doimo ogoh bo‘lish mazkur harakatlarni o‘z vaqtida bartaraf etish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanini har bir ongli inson tushunib yetishi lozim. Shuningdek hozirgi globallashuv sharoitida har qanday buzg‘unchi

g'oyalar ta'siriga tushib qolishdan avval bilim ko'nikmalarni shakllantirib borish dolzarb masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1..O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi, 2022 yil 21 dekabr, № 272 (8334).

2. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.; Ma'naviyat, 2008.

3. O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi” qonuni, 4-modda.- Toshkent: Adolat, 1998. 1 may.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 sentabr kuni “Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4436-son qarori.

5. Umarova M. Kelajak avlod tarbiyasini negizi hunarmandchilikda aks etadi. // International Scientific Conference "Innovative Trends In Science, Practice And Education" 2022 Munchen, (Germany).

6. Musayev M. Sayentologiya - eng xavfli totalitar sekta // Ijtimoiy fikr 2020 yil 4 son. B-89.

7. Musayev M. “Missionerlik va prozelitizmning jamiyat barqarorligiga tahdidi” T: “Mumtoz so'z”-2021 yil. B-60.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING MIGRATSION JARAYONLARDA ISHTIROKI

*Shavkatov Sh.Sh.,
(Alfraganus Universiteti)*

XIX asr oxiri va XX asr boshida olimlar tilida globallashuv degan jumla paydo bo'ldi. Globallashuv insoniyat aql-zakovati, iqtidori va

tinmay amalga oshirilgan mehnati evaziga fan, texnika, texnologiya, zamonaviy kommunikatsiyalar tizimida harakatga kelayotgan jarayon bo‘lishi bilan bir vaqtda, ana shu omillarning ne‘mati hamdir. Chunki insoniyat ham o‘z taraqqiyoti tarixida erisha olmagan yutuqlarni bugun uning imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda qo‘lga kiritmoqda. Lekin shunisi aniqki, yuqorida qayd etilgan yutuqlar bugungi taraqqiyotga qanchalik ijobiy ta‘sir o‘tkazayotgan bo‘lmasin, uning “ommaviy ma‘naviyat”ni shakllantirishi va uni taraqqiyot yo‘liga kirib borayotgan millatlar milliy ma‘naviyatiga singdirishga o‘tkazayotgan ta‘siri bilan solishtirsa, inqirozning toshi og‘irlashib borayotganligi kuzatiladi. Albatta, bir tomondan qaraganda, bu jarayonning ijobiy jihatlari ham yo‘q emas.

Chunonchi, ko‘pgina mamlakatlarga fan-texnika, texnologiya yutuqlarining jadal kirib kelishi globallashuv tufayli. Bu esa ularning iqtisodiy hayoti rivojiga, xalqlar turmush darajasining ortishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu tariqa bashariyatning umumiy intellektual salohiyati yuksalishiga yordam bermoqda. Shuningdek, bugungi kunda xalqaro migratsiya ichki migratsiyaga nisbatan kuchli oqimlarni hosil qilib, bir tomondan norasmiy mehnat migratsiyasi ulushi oshib borsa, ikkinchi tomondan, majburiy tashqi migratsiya saldosi o‘smoqda. Natijada, qabul qiluvchi mamlakatlar, migrantlarning nisbatan ojiz qatlamlari sanalgan ayollar va bolalarni joylashtirish va ular uchun zaruriy ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratib berishda moliyaviy muammolarga duch kelmoqda.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyoning turli mamlakatlarida o‘rtacha 232 million nafar migrant yashaydi. Ularning aksariyati sayyoramizning shimoliy mamlakatlari

hissasiga to‘g‘ri keladi. Yevropa mehnat muhojirlari orasida eng jozibador manzil hisoblanadi. 2019 yil holatida mintaqada 82 million muhojirni qabul qilgan bo‘lib, undan keyingi o‘rinlarni Shimoliy Amerika (59 million), Shimoliy Afrika va G‘arbiy Osiyo mamlakatlari (49 million) egallagan [1, 18-b]. Oxirgi o‘n yilliklarda globalizatsiya va integrasion jarayonlarining jadal rivojlanishi xalqaro mehnat almashinuvida ham o‘z aksini topdi. Birlashgan millatlar tashkiloti va Jahon iqtisodiy forumi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2015-2019 yillar oralig‘ida xalqaro mehnat

muhojirlari soni 11,4%ga ko'paygan. 2019 yilda muhojirlar soni jahon aholisining 3,5 foizini tashkil qilgan va ushbu ko'rsatkich 2000 yilga nisbatan 25%ga oshgan[2, 104-b].

Muhojirlarning aksariyati (60%) o'z mintaqasidagi qo'shni mamlakatlarga ko'chib o'tgan. Xususan, 2015 yilda 59 millionga yaqin osiyolik o'z yurtidan mintaqadagi boshqa mamlakatga ko'chib o'tgan bo'lsa, 40 million yevropalik Yevropaning boshqa davlatlarida qo'nim topgan[3, 43-b].

Umuman olganda, Yevropa mehnat muhojirlari orasida eng jozibador manzil hisoblanadi. 2019 yil holatida mintaqa 82 million muhojirni qabul qilgan bo'lib, undan keyingi o'rinlarni Shimoliy Amerika (59 million), Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyo mamlakatlari (49 million) egallagan [4, 106-b]. Pandemiyaning xalqaro mehnat migratsiyasiga ta'siri aksariyat mehnat muhojirlari iqtisodiyotning norasmiy sektorida vaqtincha va huquqlari himoyalangan ishlarda faoliyat yuritishadi. Ko'pgina mamlakatlarda ushbu toifadagi insonlar o'sha davlatdagi milliy mehnat qonunchiligiga amal qilmaganligi sababli, pandemiya kabi favqulodda vaziyatlarda ularning ijtimoiy va iqtisodiy himoya choralaridan foydalana olmaslik xavfi yuqori. Xususan, COVID-19 bilan bog'liq inqiroz sharoitida ba'zi mamlakatlarda mehnat muhojirlariga nisbatan diskriminatsiya, ishdan bo'shatish, mehnat sharoitining yomonlashishi va boshqa shu kabi salbiy holatlarning oshishi kuzatilmoqda.

Aksariyat muhojirlarning turli sabablarga ko'ra sog'liqni saqlash tizimidan foydalana olmasligi, virusning yanada keng va jadal sur'atlarda tarqalishiga olib kelmoqda. Aksincha, tibbiy xizmatlardan foydalangan taqdirda, bu ularning moliyaviy ahvolini yanada yomonlashtirib, kambag'allik qopqoniga tushish ehtimolini ko'paytiradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, iqtisodiy inqirozdan oldingi davrda dunyo bo'ylab yiliga 100 million nafar aholi sog'liqni saqlash uchun sarflangan xarajatlar tufayli kambag'allik darajasiga tushib qolar edi.

Shuningdek, qattiq karantin choralarining joriy qilinganligi va davlatlararo transport qatnovlarining cheklanganligi tufayli muhojirlar mehnat bozoridagi ish o'rinlarning keskin kamayishi va ish xaqi miqdorining tushishi kabi qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2020 yilning ikkinchi choragida ish o'rinlarining qisqarishi dunyo bo'ylab 10,5 %ga teng bo'ldi. Boshqacha aytganda, joriy yilning 2-choragida dunyo bo'ylab ishsizlar soni 195 million nafarga ko'paydi. Mintaqalar kesimida, Amerika (-12,4%), Yevropa va Markaziy Osiyo (-11,8%) hududlarida raqamlar o'rtacha ko'rsatkichlardan ham salbiyroq tus oldi. Undan tashqari muhojirlarning aksariyati faoliyat olib boradigan iqtisodiyotning norasmiy tarmoqlaridagi o'rtacha ish haqi -60%ga qisqargan bo'lib, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida mazkur qisqarish -70%ga teng [5, 204-b].

Ma'lumki, bugungi kunda tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish, uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish har bir mamlakat oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Migratsiya masalalari, ayniqsa, oxirgi o'n yillikda jahon hamjamiyatini jiddiy tashvishga solayotgan mintaqaviy va mahalliy nizolar, ishsizlik, qashshoqlik kabi muammolar zamirida yanada ahamiyatli bo'lib bormoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda dunyoda 250 milliondan ortiq shaxs migrasion jarayonlarning ishtirokchisi hisoblanadi [6].

Mamlakatimizda migrantlar huquqlarini kafolatlash yuzasidan qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish maqsadida 10 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Xususan, 2020 yil sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi vakolatli organlar faoliyatini takomillashtirish, chet elda ishlashni istagan shaxslarni o'qitish, chet elda bo'lish paytida fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, ish bilan ta'minlash, shuningdek qaytib kelgan mehnat muhojirlari, ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qarori qabul qilindi[7].

Shuningdek, inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi doirasida jamiyat, davlat va inson manfaatlariga daxldor migratsiya masalalarini hal etish, sohadagi munosabatlarning barqarorligini ta'minlash, migrantlar huquqlariga oid xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish nazarda tutuvchi "Mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonun

loyihasi ishlab chiqildi[8].

Demak, migratsiyaga nafaqat tashkiliy, balki qonuniy nuqtai nazardan ham uning strategiyasini inobatga olgan holda choralar ko‘rilmogda. Aytish joizki, migratsiya masalalari o‘z ichiga faol, o‘rta yosh va yosh aholini qamrab oladi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan tashqi migratsiyaga moyil bo‘lgan aholining rasmiy statistikasi yuritiladi va xorijiy davlatlarda mehnat faoliyatini yuritayotgan aholining monitoringi olib boriladi, chunki bu birinchi galda mamlakatning imidjini belgilab beradi. Norasmiy migratsiya bilan qamrab olingan aholining monitoringini olib borish qiyin. Chunki bu yo‘nalishda Ichki ishlar vazirligi, mahallalarga ham topshiriqlar berilgan bo‘lsada, bunday statistikasi yuritish qiyin. Chunki viloyatdan poytaxtga mehnat qilish uchun ketayapman deb, boshqa viloyatlar yoki qo‘shni respublikalarga chiqib ketayotgan yurtdoshlarimiz ham yo‘q emas. Albatta muhojirlarning ma‘lumotlar bazasini shakllantirish va davlatlararo ma‘lumot almashinish masalasi muhim[9].

Xulosa qilib aytganda, globallashuvni to‘siq qo‘yib, chegara tortib ushlab bo‘lmaydi. Hindistonlik mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so‘zlarida: “Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar-to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman”. Shuning uchun ham, milliy istiqlol g‘oyasi bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta‘minlab, ayni paytda “dovullar”dan saqlash omili ekanligini anglashimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inqiroz ichidagi inqiroz: COVID-19 va xalqaro migratsiya.
2. <https://review.uz/oz/post/inqiroz-ichidagi-inqiroz-covid-19-va-xalqaro-migratsiya>
3. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Rossiya Federatsiyasidagi huquqlari:

mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari" mavzusidagi O'zbekiston - Rossiya

forumi tafsilotlari

4. Allanazarov, M. K., & Mamasaliev, M. M. (2020). Analysis of comprehension methods in the gnoseology of allame tabatabai. in инновационное развитие: потенциал науки и современного образования (pp. 106-109).

5. Mamasaliev, M. M. (2020). increasing the educational opportunities of social institutions in the process of innovative development. in инновационное развитие:

потенциал науки и современного образования (pp. 204-206).

6. Nargis Qosimova. "O'zligimdan voz kechdim" yoki mehnat muhojirining armoni.

7. <https://nargis.uz>

8. <https://meningfikrim.uz/uz/news/view/253>

9. http://www.ecoross.ru/files/books2019/Katalog_UzGO_2019.pdf

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СВЯЗЕЙ И СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ЦЕНТРАЛЬНО-АЗИАТСКОМ РЕГИОНЕ

Уткиров А.Ф.

(Ташкентский государственный педагогический университет)

Наша Родина - единственная страна в Центрально-Азиатском регионе, расположенная в самом сердце пяти государств. Граничит с Казахстаном на севере, северо-востоке и северо-западе, Кыргызстаном на востоке, Туркменистаном на юго-западе и юге, Афганистаном на юге и Таджикистаном на юго-востоке. В вышеупомянутых странах этнические узбеки являются второй или третьей по величине этнической группой. Узбекистан исторически и географически тесно связан с соседними государствами. После

распада Советского Союза в Центральной Азии были созданы различные организации, у которых не было ярких перспектив на будущее [1]. Следовательно, всем нам из истории известно, что узбеки, казахи, киргизы, туркмены и таджики близки между собой культурно, религиозно и духовно.

Не ошибемся, если скажем, что расширение интеграции Узбекистана в мировую экономическую систему является важным элементом продолжающихся структурных изменений в экономике и служит важной основой для устойчивого экономического развития. В стратегии дальнейшего развития Республики Узбекистан было изложена необходимость реализации мер по переходу страны и ее регионов на экспортно-ориентированную модель развития, в том числе по повышению и поддержке экспортного потенциала регионов, продвижению товаров и услуг на мировые рынки [2]. Не случайно на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций глава нашего государства, подчеркнув важность укрепления межрегионального сотрудничества между государствами Центральной Азии, выдвинул ряд конструктивных идей и инициатив по укреплению мира и безопасности в Центрально-Азиатском регионе, устойчивому социально-экономическому развитию. Все это способствовало укреплению доверия между народами Центральной Азии друг к другу. На протяжении последних семи лет по инициативе Президента Узбекистана осуществляются визиты на высшем уровне со всеми государствами региона. В ходе этих визитов было принято решение по глобальным вопросам, представляющим взаимный интерес для стран Центральной Азии: в области безопасности, экономики, инвестиций, культуры и экологии. Доказательством этого является то, что Узбекистан исторически в течение короткого времени принял поворот в лучшую сторону в отношениях между странами региона.

Сегодня проведение Узбекистаном активной внешней политики, основанной на принципах и нормах международного права, установленных Конституцией в новой редакции, направленной на мирное, дружественное и взаимовыгодное сотрудничество, является

логическим продолжением нашей внутренней политики. Он закладывает основу для дальнейшего укрепления нашей независимости, обеспечения гражданского мира и национального согласия, устойчивого экономического развития нашей страны и полного раскрытия ее потенциала на международной арене. Действительно, благодаря активной политике нашего президента Шавката Мирзиёева мы наблюдаем масштабные сдвиги в регионе. За очень короткий период отношения между странами улучшились, и удалось создать совершенно новую среду. Еще несколько лет назад эксперты не верили, что это возможно. Серьезных разочарований в границах государств региона не было, ряд ранее существовавших ограничений отменяется, создаются все более благоприятные условия для посещения родных и близких. В средствах массовой информации все чаще появляются сообщения о том, что между Узбекистаном, Кыргызстаном и Таджикистаном налаживаются регулярные авиасообщения, проводятся бизнес-форумы, очередные совместные выставки, акции, дни культуры [3]. Благодаря этому за короткое время, благодаря совместным усилиям народов Центральной Азии, удастся создать атмосферу дружбы, добрососедства и сотрудничества в регионе. В то же время следует отметить, что позитивные изменения в Центральной Азии служат повышению роли и престижа региона в мировом сообществе. Прежде всего, примером этого является тот факт, что ООН впервые приняла резолюцию "Укрепление регионального и международного сотрудничества в обеспечении мира, стабильности и последовательного развития в Центрально-Азиатском регионе".

Одним из важных аспектов этой резолюции, принятой по инициативе Узбекистана, является то, что благодаря этому документу было продемонстрировано стремление и твердая политическая воля всех глав государств Центральной Азии к дальнейшему укреплению доверия и добрососедства в регионе. Во-вторых, впервые страны Центральной Азии определили приоритеты сотрудничества в регионе в международном документе, объединив их в единый и целостный консенсус. В качестве альтернативы принятие резолюции

подтвердило готовность стран Центральной Азии полностью взять на себя ответственность за судьбу региона. Впервые цели и интересы государств Центральной Азии проявились как единый регион [4].

Среди эффективных и многосторонних механизмов обеспечения региональной безопасности важное значение приобретают международные и региональные организации. Среди организаций, осуществляющих деятельность по поддержанию мира и стабильности, обеспечению социально-экономического развития в Центрально-Азиатском регионе, Шанхайская организация сотрудничества занимает особое место.

Устранение проблем обеспечения региональной безопасности и стабильности в деятельности Шанхайской Организации Сотрудничества (ШОС) входит в число актуальных задач организации. В соответствии с документами ШОС приоритетными направлениями деятельности организации являются предотвращение на территории государств-членов таких негативных тенденций, как международный терроризм, религиозный экстремизм, организованная преступность, незаконный оборот наркотических средств и оружия, неформальная миграция, обеспечение международной и региональной безопасности и стабильности приобретает особое значение при разработке эффективных механизмов решения проблем [5, 44]. Опрошлый опыт показывает, что безопасность и стабильность не могут быть обеспечены только с помощью силы. Или угрозы, направленные против него, не могут быть устранены на основе силы. Возможно, становится все более и более очевидным, что также эффективно бороться с угрозами просвещенными способами.

В рамках двусторонних и многосторонних отношений государств Центральной Азии, в частности Республики Узбекистан с развитыми странами, расширение участия иностранных инвестиций в современных технологиях и их развитии должно быть среди приоритетных задач. Нарращивание научно-технического потенциала региона создает большую основу не только для решения социальных

и экономических проблем, но и для обеспечения безопасности и стабильности.

Усилия руководства Узбекистана по обеспечению региональной безопасности отражены и в принятой в первые годы независимости “Военной доктрине”, в которой отмечается, что на территории Центральной Азии накопилось большое количество ядерного и обычного оружия, что является одной из важных причин, определяющих необходимость создания на этой территории Зоны, свободной от ядерного оружия [5, 62].

В рамках территории Центральной Азии угрозы и призывы экологического характера, масштабы их числа, высокий уровень сложности и их связь с другими факторами делают необходимым проведение мероприятий по преодолению проблем в этой области, максимально используя современные достижения науки и техники. Одной из экологических проблем является пересыхание Аральского моря. В Узбекистане в последние годы уделяется особое внимание улучшению экологического положения, защите окружающей среды, расширению зеленых территорий.

В частности, в Каракалпакстане придается большое значение расширению находящихся под защитой природных территорий. С этой целью в Кунградском районе на 280 тысячах гектаров образован государственный заказник-заповедник "Барсакельмес", на территории Муйнакского района – национальный природный парк "Аралкум", занимающий один миллион гектаров. В результате общая площадь взятых под защиту природных территорий составила 3,5 миллиона гектаров[6].

На заседании Генеральной Ассамблеи ООН, состоявшемся в Нью-Йорке в 2017 году, глава государства в своей речи обратил внимание мирового сообщества на трагедию Арала. Выдвинул ряд инициатив. Добрые намерения были поддержаны на международном уровне. Через год был основан Много партнёрский трастовый фонд ООН по человеческой безопасности для региона Приаралья. Во время поездки в Муйнак в 2018 году Шавкат Мирзиёев поставил задачу по посадке на дне устойчивых к засоленности растений с тем, чтобы

предотвратить разнос с высохшего дна Аральского моря миллионов тонн пыли и ядовитых солей. С 2018 года на высохшем дне Аральского моря высажены пустынные растения на 1,5 миллиона га [7]. Президент Шавкат Мирзиёев затронул экологическую проблему в регионе Приаралья и в своей речи на 75-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН, которая проводилась в формате видеоконференции в 2020 году. Тогда глава нашего государства предложил принять специальную резолюцию Генеральной Ассамблеи ООН по объявлению региона Приаралья территорией экологических инноваций и технологий. Эта резолюция была принята в 2021 году единогласно 60 государствами [6].

Постановление Президента «О мерах по комплексному социально-экономическому развитию Республики Каракалпакстан в 2020—2023 годах» от 11 ноября 2020 года придало новый импульс проводимой в этом направлении работе. Большое значение имеет инициатива, согласно которой в целях создания благоприятных условий для реализации намеченных проектов данным постановлением субъекты предпринимательства были освобождены от уплаты земельного налога и налога на имущество, а также им предоставлен ряд других льгот и преференций. В соответствии с этим документом предусмотрена реализация 2 788 проектов на 21 триллион 209 миллиардов суммов. Работа в этом направлении ведется ускоренными темпами. Кроме того, в 2020—2023 годах намечено за счет реализации 1 359 инвестиционных проектов на 12 триллионов 320 миллиардов суммов создать более 17 630 новых рабочих мест, что, несомненно, имеет несравнимое значение в решении социально-экономических проблем региона [8]. Кризис Аральского моря — страшное напоминание о последствиях пренебрежительного отношения человека к окружающей среде. Однако благодаря усилиям неравнодушных людей море вновь становится символом надежды и обновления [9]. Как всем нам известно, уже полвека как прошло, воздействие Аральской проблемы на биосферу, уровень жизни населения и генофонд вышло за рамки данной территории и приняло глобальный характер. Благодаря

политической воле Президента Шавката Мирзиёева к насущной проблеме привлечено внимание всего мира и принята резолюция. Свершилось событие, о котором мы говорим с чувством глубокого удовлетворения. Как отмечалось выше, под руководством нашего Президента, министерств, и ведомств и, конечно же, весь наш народ работают над возвращением Аральского моря.

Подводя итог, можно отметить, что внешняя политика Узбекистана в последние годы, в частности, политика добрососедства и практичности в регионе, не только повышает международный авторитет нашей страны, но и показывает, что Центральная Азия обладает огромным потенциалом и готова к сотрудничеству.

Список использованной литературы:

1..Интервью с послом Азербайджанав Узбекистане Гусейном Гулиевым. <https://isrs.uz/ru/page/pdf/intervu-s-poslom-azerbajdzana-v-uzbekistane-gusejnom-gulievym>.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017y., 6-son, 70-modda.

3. Aitov M. Markaziy Osiyoda hamkorlikni kuchaytirishning muhim mezoni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti bosh ilmiy xodimi.

4. Yangi O‘zbekiston. O‘zbekistonning mintaqadagi yangi tashqi siyosati. 9 dekabr 2020 <https://yuz.uz/>

5. Tursunmuratov T., Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligini ta‘minlashda ilmiy-texnologik salohiyat omili. Tafakkur qanoti, Toshkent. 2016.

6. Аральское море отступило, но мы не избрали путь равнодушия. <https://pm.gov.uz/ru/lists/view/1825>

7. Шавкат Мирзиёев побывал на высохшем дне Аральского моря. <https://www.gazeta.uz/ru/2022/02/24/arial-/>

8. Назарбаева Т. Проблема Арала - проблема всего мира, и мы ее решим совместными усилиями с международным сообществом. Народное слово. 25.05.2023. <https://xs.uz/ru/post/problema-arala->

problema-vsego-mira-i-my-ee-reshim-sovmestnymi-usiliyami-s-mezhdunarodnym-soobschestvom

9. Мирзиёева. С. Саммит культуры Арала.
<https://www.gazeta.uz/ru/2023/03/24/arak-culture-summit/>

O‘ZBEKISTON – QIRG‘IZISTON DAVLATLARARO HAMKORLIK ALOQALARINING ISTIQBOLLARI

*Xolmatov B.X.,
(Toshkent kimyo-texnologiya instituti)*

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasidagi xalqlarning do‘stlik, hamjihatlik, hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlash davlatlar oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib, xalqlar o‘rtasidagi milliy-madaniy aloqalarni rivojlantirish hamda uni yangi bosqichga olib chiqish muhim sanaladi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev o‘zining «Yangi O‘zbekiston strategiyasi» nomli kitobida: «... Mintaqamiz davlatlari bilan ochiq, o‘zaro manfaatli va yaqin hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash – tashqi siyosatimizning eng asosiy ustuvor yo‘nalishidir» [1, 362-b.], - deb ta’kidlaydi.

Dastlab, 1993-yil 16-fevralda O‘zbekiston va Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan bo‘lsa, keyinchalik 1997-yil 10-yanvarda «Abadiy do‘stlik to‘g‘risida»gi shartnoma imzolangan. Shu bilan birga 2017-yil 5-oktyabrdagi «Strategik sheriklik, do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va ishonchni mustahkamlash to‘g‘risida»gi deklaratsiyani alohida ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin. Shuningdek, O‘zbekiston va Qirg‘iziston Respublikalari o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik aloqalari turli davrlarda turlicha bo‘lishiga qaramay, ikki davlat rahbarlari tomonidan ko‘p asrlik qardoshlik rishtalariga tayangan holda, o‘zaro hurmat muhiti saqlab qolinib, hozirgi kunda o‘zaro hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan olib borayotgan ochiq va konstruktiv siyosati naqadar to‘g‘ri ekanligini global pandemiya davrida mintaqa rahbarlarining o‘zaro yordam va koronavirus tarqalishi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha amalga oshirgan qo‘shma chora-tadbirlari ham ko‘rsatdi. Global pandemiya xavfiga qaramasdan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining doimiy muloqoti ta‘minlandi va mamlakatlar o‘rtasida faol hamkorlik aloqalari davom ettirildi. Mintaqa davlatlari koronavirus infeksiyasi tarqalishining dastlabki kunlaridanoq bir-birlariga ijtimoiy yordam ko‘rsatishni boshladi.

Bunga misol keltirsak, «... 2020-yilning dekabr oyida O‘zbekiston ko‘magi bilan Qirg‘izistonda zarur tibbiy jihozlar va mebellar bilan to‘liq jihozlangan 200 o‘rinli yuqumli kasalliklar shifoxonasi foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari, pandemiya davrida koronavirusga qarshi kurashda tibbiyot sohasida axborot va tajriba almashinuvi, o‘zaro gumanitar yordam ko‘rsatish, chegaralarda yuklarning uzluksiz harakatlanishini yo‘lga qo‘yishga erishildi» [2, 10.08.2021].

Shu o‘rinda 2022-yilning 21-iyul kuni Cho‘lponota shahri (Qirg‘iziston Respublikasi)da Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining to‘rtinchi maslahat uchrashuviga e‘tibor qaratsak. Mazkur maslahat uchrashuvida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari o‘z nutqlarida bunday oliy darajadagi uchrashuvlarning ahamiyatini alohida qayd etib, mintaqada do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surgan.

«Ushbu formatda olib borilayotgan muloqot tufayli do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlashga, mintaqamizda mutlaqo yangi konstruktiv hamkorlik muhitini yaratishga muvaffaq bo‘ldik. Markaziy Osiyoning xavfsizligi va barqarorligini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlash bo‘yicha murakkab vazifalarni izchil hal etib kelmoqdamiz. Bu borada ko‘plab to‘siqlar bartaraf etildi, fuqarolarimizning erkin harakatlanishi, faol madaniy va sayyohlik almashuvlari amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratildi. O‘zaro savdo va investitsiyalarning o‘shishiga xizmat qilayotgan qulay muhit shakllantirildi» [3, 21.07.2022], – deydi, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev.

Sammit yakunida XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish yo‘lidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzolangan bo‘lib, unda davlat rahbarlari Cho‘lponota maslahat uchrashuvining qo‘shma bayonoti, 2022-2024-yillarda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasi, «Markaziy Osiyo uchun «Yashil kun tartibi» mintaqaviy dasturi» hamda Markaziy Osiyo davlatlarining ko‘p tomonlama formatlar doirasidagi hamkorligi konsepsiyasi qabul qilingan.

Yuqorida keltirilgan tashabbus va takliflardan tashqari, Markaziy Osiyo madaniyat, san‘at va milliy taomlar festivalini navbatma-navbat o‘tkazib borish, maxsus turizm marshrutlari va mahsulotlarini ishlab chiqish, yagona piar-kampaniyalarni o‘tkazish orqali mintaqa ichidagi turizmni faol rag‘batlantirish hamda yoshlarga doir siyosatning umumiy yo‘nalishlari to‘g‘risida ko‘p tomonlama bitim tayyorlash kabi tashabbuslarning ilgari surilgani davlatlar o‘rtasidagi madaniy hamkorlik aloqalarining kengayishiga va mintaqadagi xalqlarning yanada yaqin bo‘lishiga xizmat qiladi.

Bu kabi Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarida ko‘tarilgan mintaqa davlatlari uchun dolzarb bo‘lgan masalalar rasmiy sammitlardan tashqari davlat rahbarlarining davlat va ishchi tashriflari doirasida ham muntazam ravishda muhokama qilinib kelinmoqda. Bu ham bo‘lsa davlatlarning o‘zaro yaqin qo‘shnichilik aloqalarini yanada mustahkamlanishiga hamda o‘zaro ishonchning ortishiga hissa qo‘shadi.

Ikki davlatning madaniy-gumanitar sohadagi aloqalariga kelsak, O‘zbekiston va Qirg‘iziston xalqlari o‘rtasidagi yaxshi qo‘shnichilik aloqalarini rivojlantirishda o‘zaro hamohanglik kasb etuvchi madaniy-ma’naviy qadriyatlar va an’analar mavjud. Shu boisdan, davlatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda madaniy-gumanitar sohadagi aloqalar alohida o‘ringa ega.

Davlatlar o‘rtasida «1994-yil 16-yanvarda imzolangan «Madaniyat, sog‘liqni saqlash, fan, ta’lim, turizm va sport bo‘yicha hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi hukumatlararo bitim», 1996-yil 24-dekabrla

imzolangan «Madaniy hamkorlik to'g'risidagi muassasalararo bitim»ga muvofiq davlatlararo hamkorlik amalga oshirilmoqda» [4, 56-b.].

E'tiborli jihati shundaki, «Bugun yurtimizda 300 mingdan ziyod qirg'iz millati vakillari istiqomat qilmoqda. Mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari orasida bag'rikenglik, hamjihatlik va totuvlik rishtalarini rivojlantirish, qirg'iz xalqining noyob ma'naviy merosi, madaniyati, urf-odatlarini, an'analarini, tili, tarixi hamda o'zligini saqlash va yosh avlodga yetkazish maqsadida 1992-yildan O'zbekiston qirg'iz milliy madaniy markazi faoliyat yuritayapti. Markaz Andijon, Farg'ona, Namangan, Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridagi hududiy bo'linmalarni faoliyatini muvofiqlashtirib kelmoqda» [5, 23.10.2022].

Bugungi kunda davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, u keyingi bir necha yillar ichida o'zaro ishonchga asosan jadal rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Ayniqsa, 2017-yildan buyon muntazam ravishda o'zaro ikki tomonlama tashriflar va davlat rahbarlarining turli doiradagi uchrashuvlari o'tkazilib kelinmoqda. Bu o'z navbatida qardosh davlatlarga ikki tomonlama hamkorlikning rivojida ko'plab yechimini kutib turgan dolzarb masalalarni hal etish imkonini beradi. Bu jihatlar madaniy-gumanitar aloqalarning rivojlanishida muhim omil bo'lib, O'zbekistonda qirg'iz tili va madaniyati, Qirg'izistonda o'zbek tili va madaniyatini o'rganishga alohida e'tiborni qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi «Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent viloyatining Parkent tumanida adibning xotirasiga bag'ishlab ijodiy kecha o'tkazilgan. Poytaxt markazida Chingiz Aytmatovga memorial yodgorlik o'rnatilgan. «Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim yetti til, ya'ni o'zbek, qirg'iz, rus, qozoq, qoraqalpoq, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda. Qirg'iz tilida 56 ta maktab faoliyat yuritmoqda. Maktab o'quvchilari uchun darsliklar «O'zbekiston» nashriyotida chop etilib, ta'minlanib kelinmoqda. Mamlakat oliy bilim yurtlarida ham qirg'iz tili va adabiyoti yo'nalishi kafedralari mavjud. Andijon davlat pedagogika universitetida ko'p yillardan buyon qirg'iz tili filologiyasi bo'limi ishlab turibdi» [6, 10.03.2021].

Bundan tashqari o‘zbek teatrlarida adib ijodiga bag‘ishlangan spektakllar namoyish etilgan, o‘zbek-qirg‘iz kinoijodkorlari tomonidan Ch. Aytmatovning «Sarvi qomat dilbarim» asari asosida qo‘shma film suratga olingan. Bularning barchasi qardosh xalq vakiliga ko‘rsatilgan ehtirom bo‘lib, mamlakatda millatlararo munosabatlar sohasida olib borilayotgan siyosatning natijasidir.

Mazkur do‘stlik aloqasiga javoban, 2018-yilning dekabr oyida Qirg‘iziston milliy universitetida O‘zbekiston qahramoni va xalq yozuvchisi Erkin Vohidov tavalludiga bag‘ishlangan adabiy kecha tashkil etilgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, davlat rahbarlari o‘rtasidagi muzokaralar davomida tomonlar 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan «Madaniyat va san’at sohasida hamkorlik to‘g‘risida»gi shartnomani amalga oshirish doirasida qo‘shma tadbirlar rejasi tasdiqlangan.

Unga ko‘ra, asosiysi, O‘zbekiston va Qirg‘iziston hukumati o‘rtasida ikki tomonlama madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash bo‘yicha erishilgan kelishuvlarga muvofiq Z.M. Bobur nomli O‘sh davlat akademik o‘zbek musiqali drama teatri binosini to‘liq rekonstruktsiya qilish belgilangan. Rekonstruktsiya ishlari 2021-yilning 13-sentyabrda boshlangan bo‘lsa, 2023-yilning 24-aprel kuni yakunlanib, foydalanishga topshirilgan. O‘zbekiston ko‘magidagi Z.M. Bobur nomli O‘sh davlat akademik o‘zbek musiqali drama teatri binosini to‘liq rekonstruktsiya qilish va jihozlash uchun qiymati 5 mln. dollarlik loyiha amalga oshirilgan. Teatr 500 o‘ringa mo‘ljallangan.

Mazkur teatr jamoasi Qirg‘izistonda o‘zbek san’atini targ‘ib qilib, ikki qo‘shni xalq o‘rtasidagi do‘stlik va madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.

Shu o‘rinda, ikki davlat o‘rtasidagi ta’lim sohasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalariga to‘xtalsak, sohada izchil rivojlanish kuzatilmoqda. «2017-2020-yillarda O‘zbekiston oliygohlarida tahsil olayotgan qirg‘iz yoshlari safi 14 baravar oshgan bo‘lsa, Qirg‘iziston universitetlaridagi o‘zbek talaba yoshlari soni 7 baravarga ko‘paygan. Ayni paytda ushbu sohada hamkorlikni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga egamiz. Chunonchi, kelgusida universitetlararo aloqalarni mustahkamlash, ikki mamlakat

ta'lim muassasalari o'rtasida shartnomalar va memorandumlar imzolanishiga ko'maklashish zarur» [7, 12.05.2021].

Ma'lumotlarga qaraganda, 2022-yilda Qirg'iziston oliy o'quv yurtlarida 52 300 ga yaqin o'zbekistonlik talabalar tahsil olmoqda [8, 08.01.2023].

Shu nuqtai nazardan aytganda, davlatlar o'rtasidagi madaniy-gumanitar sohasidagi hamkorlik aloqalarining turli shaklda kengayib borishi davlatlararo aloqalarda o'zaro ishonchni oshirib, xalqlarning tinchligi va farovonligiga xizmat qiladi.

Misol tariqasida, O'zbekiston Respublikasining Qirg'iziston Respublikasi bilan ta'lim sohasidagi gumanitar yordami haqida aytadigan bo'lsak, 2018-yilda O'sh shahrida O'zbekiston tomonidan o'rta ta'lim maktabi qurib foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, 2022-yilning 1-aprel kuni Qirg'izistonning Botken viloyati Leylek tumani «Marg'un» qishlog'ida O'zbekiston tomonidan qurib bitkazilgan yana bir qiymati 3,5 mln dollarlik 330 o'rinli maktab foydalanishga topshirildi. Qolaversa, O'zbekiston ko'magida shu tumanning «Samarqandek» qishlog'ida ham yana bir maktab qurilmoqda.

O'zbekiston va Qirg'iziston xalqlari o'rtasidagi yaxshi qo'shniçilik aloqalarini rivojlantirishda o'zaro hamohanglik kasb etuvchi madaniy-ma'naviy qadriyatlar va an'analar mavjud. Shu boisdan, davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda madaniy-gumanitar sohadagi aloqalar alohida o'rin tutadi. Bu jihatlar madaniy-gumanitar aloqalarning rivojlanishida muhim omil bo'lib, O'zbekistonda qirg'iz tili va madaniyati, Qirg'izistonda o'zbek tili va madaniyatini o'rganishga alohida e'tiborni qaratish kerak.

O'zbekiston va Qirg'iziston Respublikasi o'rtasidagi chegaralarda o'tkazish punktlari faoliyati qayta tashkil etilib, ularning o'tkazuvchanlik imkoniyati kengaytirildi. Natijada, ikki davlat bojxona organlarining samarali hamkorligi yo'lga qo'yildi. Faoliyatini qayta tiklagan o'tkazish punktlari orqali ishbilarmonlik va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarni faollashtirish doirasida o'z qarindoshlari bilan uchrashish va sayyohlik ob'ektlarini ko'rish maqsadida davlatlar chegaralaridan har kuni o'n minglab fuqarolar erkin o'tib qaytmoqda. Natijada, zamonaviy

iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, chegaraoldi hududida savdo, tovar aylanishi hajmini oshirish yo'lida keng imkoniyatlarni ochib berdi, eng asosiysi, tarixiy ildizi tutash, qon-qarindosh bo'lib yashagan xalqlar bordi-keldisi uchun qulay sharoitlarni yaratdi.

Eng asosiysi, joriy yilning 27-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Qirg'iziston Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashrifi vaqtida imzolangan kelishuvdir. Unga ko'ra, 2023-yilning 26-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida»gi qarori imzolandi. Qaror bilan, 2023-yil 27-apreldan boshlab O'zbekistonning barcha fuqarolari Qirg'izistonga, xuddi shunday Qirg'iziston fuqarolari O'zbekistonga ID-karta orqali kirishlariga ruxsat berildi.

Avvalgi tartibda faqat xorijga chiqish pasporti bilan ruxsat etilgan edi. Qirg'iziston parlamenti ham O'zbekistonga ID-karta bilan o'tishga ruxsat beruvchi qonunni imzolagan. Yangi tartib ayniqsa, O'zbekistonning eksklav hududlari bo'lgan So'x, Shohimardon, Cho'ng'ara kabi hududlardagi yurtdoshlarimiz uchun katta yengillik bo'lib, ularning chegaradan o'tishlaridagi ortiqcha byurokratiyaga chek qo'yadi. Shu tariqa, O'zbekiston-Qirg'iziston fuqarolari xorijga chiqish pasportisiz chiqishi mumkin bo'lgan birinchi davlatga aylandi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, eng avvalo, O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qat'iy belgilab olingan prinsipga ko'ra, Markaziy Osiyodagi yaqin qo'shnilar bilan hamkorlikni rivojlantirish uchun davlatlar chegarasini huquqiy jihatdan rasmiylashtirish bo'yicha muzokaralar jarayonini faollashtirish hamda tomonlar o'rtasida oqilona yechim topish orqali xalqlarning bir-biriga bo'lgan o'zaro ishonchini qozonish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021, - 362 б.

2. Туляков Э., Ҳакимов Ф. Марказий Осиё давлатлари билан дўстона ҳамкорлик – Ўзбекистон ташқи сиёсий фаолиятининг

устувор йўналиши. https://uza.uz/uz/posts/markaziy-osiyo-davlatlari-bilan-dostona-hamkorlik-ozbekiston-tashqi-siyosiy-faoliyatining-ustuvor-yonalishi_291570 10.08.2021

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг тўртинчи маслаҳат учрашувидаги нутқи. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-markaziy-osiyo-davlatlari-rahbarlarining-tortinchi-maslahat-uchrashuvidagi-nutqi_391884
21.07.2022

4. Мирзаев Ғ.Р. Ўзбекистон ва Марказий Осиё: муштарак тарих ва яқиш қўшничилиги. // Мерос ва ҳозирги замон. – Тошкент, 2022, - № 1-2, - Б.56.

5. Ўзбекистон қирғиз миллий маданий маркази ташкил этилганига 30 йил тўлди. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-qirgiz-milliy-madaniy-markazi-tashkil-etilganiga-30-yil-toldi_418472
23.10.2022

6. Ўзбекистон қирғиз миллий маданий маркази раиси Раҳматулла Жабборов: Ўзбек ва қирғиз бир дарёдан сув ичган. https://dunyo.info/cyrl/site/inner/ozbekiston_qirgiz_milliy_madaniy_markazi_raisi_ra%D2%B3matulla_zhabborov_ozbek_va_qirgiz_bir_dariodan_suv_ichgan-ICK 10.03.2021

7. Гуломов Р. Ўзбекистон-Қирғизистон муносабатлари: стратегик ҳамкорликнинг янги босқичи. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-qirgiziston-munosabatlari-strategik-hamkorlikning-yangi-bosqichi_266408
12.05.2021

8. <https://uz.sputniknews.ru/20230108/kakie-strany-vybirayut-uzbekistantsy-dlya-ucheby-v-kolledjax-i-vuzax--infografika-31326481.html> 08.01.2023

O‘ZBEKISTON – QOZOG‘ISTON: O‘ZARO DO‘STLIK, YAXSHI QO‘SHNICHILIK VA KENG KO‘LAMLI HAMKORLIK MASALALARI.

G‘aniyev A.S.,

(Toshkent “Temurbeklar maktabi”)

Biz O‘zbekiston va Qozog‘istonning xalqaro siyosatning muhim masalalari bo‘yicha pozitsiyalarining yaqinligini, mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashga o‘zaro intilishlarini hamda xalqaro maydonda, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi va boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida o‘zaro manfaatli aloqalarni jadallashtirishda maqsadlar mushtarakdir.

Shu bois, O‘zbekiston va Qozog‘iston ishtirokchilar hisoblangan xalqaro shartnomalar asosida xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, narkotik va qurollarning noqonuniy muomalada bo‘lishi, transmilliy uyushgan jinoyatchilik hamda boshqa xavfsizlikka tahdidlar bilan kurashishda maslahatlashuvlar o‘tkazish orqali ikki tomonlama hamkorlikni izchil kengaytirmoqda.

Gumanitar sohadagi o‘zaro hamkorlik ham rivojlanmoqda. O‘zbekiston va Qozog‘iston hududlarida istiqomat qilayotgan o‘zbek va qozoq diasporalari uchun ona tili, milliy madaniyati, an‘ana va urf-odatlarini saqlash hamda rivojlantirish masalalarida qulay sharoitlar yaratilgan.

[O‘zbekiston](#) – [Qozog‘iston](#) munosabatlari – izchil rivojlanmoqda. Qozog‘iston O‘zbekistonning muhim savdo sheriklaridan biri bo‘lib, [O‘zbekiston Respublikasi](#) bilan [Markaziy Osiyo](#) davlatlari o‘rtasida ayirbosh qilinadigan mahsulotlarning yarmi uning hissasiga to‘g‘ri keladi. Shunga qaramasdan, ikki davlat o‘rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun ishga solinmagan imkoniyatlar ko‘pdir.

Qozog‘iston bilan ikki tomonlama hamkorlik, shubhasiz, mintaqada barqarorlikni ta‘minlash va dolzarb masalalarni birgalikda va samarali hal etishga xizmat qiladi. [2005-yilgacha](#) ikki davlat o‘rtasida ikki tomon uchun ahamiyatli bo‘lgan 166 hujjat imzolangan. [2004-yil O‘zbekiston Respublikasi](#) bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi tovar aylanmasi 425,9 mln. [AQSh dollarini](#), jumladan, eksport 184,7 mln. AQSh dollarini, import 241,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 2007-2016 yillarga mo‘ljallangan

iqtisodiy hamkorlik strategiyasiga muvofiq savdo, sarmoya, transport, kommunikatsiyalar, bojxona, suv-energetika va innovatsiya yo'nalishlarida amalga oshirildi. Savdo munosabatlari Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning muhim yo'nalishi hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik jadal sur'atda rivojlandi. Tashqi savdo, o'zaro investitsiyalar va kooperatsiya aloqalarini kengaytirish sohasidagi hamkorlikning hali foydalanilmagan salohiyati faol amalga oshirilmoqda. Masalan, 2021 yilning 10 oyi yakunlariga ko'ra, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi tashqi savdo ko'rsatgichlari sezilarli darajada – tovar aylanmasi 36,5 foizga, eksport 30,5 foizga, import 39,3 foizga o'sgan. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi o'zaro savdo oziq-ovqat mahsulotlari, mashina va uskunalari, kimyoviy mahsulotlar, energiya manbalari va neft mahsulotlari, metallar va metall buyumlari kabi kengaytirilgan tovar guruhlari bilan ifodalanadi.

Bugungi kunda ushbu Hududlararo hamkorlik forumi O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi o'zaro manfaatli ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlashda siyosiy-iqtisodiy hamkorlikning muhim instituti bo'lib, o'zini samarali davlatlararo maydoncha sifatida namoyon qildi. Masalan, Markaziy Osiyodagi mintaqaviy savdoning 70 foizi O'zbekiston va Qozog'iston hissasiga to'g'ri keladi.

Davlat rahbari Qozog'iston O'zbekistonning eng yaqin va ishonchli hamkori ekanini ta'kidladi. “ O'zbek va qozoq xalqlari – nafaqat yaqin qo'shni, balki mushtarak tarixiy meros, madaniy va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'langan qardoshlardir. Bu bizning bebaho boyligimiz, biz uni qadrlaymiz va qadrlashda davom etamiz. Bizning taqdirimiz bir, kelajagimiz ham umumiy, men bunga ishonaman”, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Loyihalar orasida Navoiy viloyatida kompleks va fosforli mineral o'g'itlarini ishlab chiqarishni tashkil etish, Toshkent viloyatida logistika markazini barpo etish, Toshkent shahrida uy-joy va tijorat infratuzilmasini qurish, Qozog'istonning Qo'stanoy shahrida avtomobillar va Qarag'andi viloyatida maishiy texnika ishlab chiqarishni alohida qayd etish mumkin.

O'zbekiston Qozog'istonga meva-sabzavotlar, transport vositalari, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari va boshqa mahsulotlar, turli

xizmatlar eksport qiladi. Qozog'istondan O'zbekistonga qora va rangli metallar, yog'-moy mahsulotlari keltiriladi.

Mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi izchil o'sib bormoqda. 2015 yil yakunlariga ko'ra, bu ko'rsatkich 3 milliard dollardan ziyodni tashkil qilgan. Qozog'istonda o'zbekistonlik ishbilarmonlar ishtirokida tashkil etilgan 151 korxonada faoliyat yuritmoqda. O'zbekistonda Qozog'iston kapitali ishtirokida 206 korxonada, sh jumladan, 171 qo'shma korxonada ochilgan.

Ikki mamlakat bojxona organlarining "Soddalashtirilgan bojxona yo'lagi" mexanizmini ishga tushirish bo'yicha qo'shma faoliyatining alohida dolzarbligi qayd etildi. Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada avtomobilsozlik, yengil sanoat, mashinasozlik, qurilish materiallarini ishlab chiqarish va farmatsevtika istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan "Uchquduq-Qizilo'rda" avtomobil va temir yo'llari, "Turkiston-Chimkent-Toshkent" yuqori tezlikda harakatlanishga mo'ljallangan temir yo'lini barpo etish loyihalarini amalga oshirish shubhasiz katta qiziqish uyg'otadi. 2021 yil hamkorlar yakunida qiymati 6 milliard dollarga yaqin bo'lgan yangi investitsiya va savdo kelishuvlari imzolangani O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalar samaradorligining darajasini yaqqol ko'rsatadi.

Oxirgi 5 yilda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi tovar ayirboshlashni 10 milliardga yetkazish bo'yicha Amaliy harakatlar rejasidir. Davlat rahbarlari huzurida hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolandi. Bojxona, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish, fazoviy makonni tadqiq etish va undan tinch maqsadlarda foydalanish sohasiga doir hamda "Markaziy Osiyo" sanoat kooperatsiyasi xalqaro markazini tashkil etish to'g'risidagi bitimlar shular jumlasidan. Shuningdek, savdo, investitsiyalar, energetika, transport kommunikatsiyalari, sud-ekspertlik faoliyati, mudofaa, bandlik va fan sohalarida hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha tegishli hujjatlarga imzo chekildi. Toshkent va Turkiston viloyatlari, Toshkent va Nur-Sulton shaharlari, Navoiy va Qizilo'rda viloyatlari hokimliklari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish bo'yicha 2022-2023 yillarga mo'ljallangan "yo'l

xarita”lari qabul qilindi. Umuman, ko‘p qirrali O‘zbekiston – Qozog‘iston hamkorligining deyarli barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan 22 ta hujjat imzolandi.

Ikki davlat o‘rtasida chegaralarni demarkatsiya qilish bo‘yicha muzokaralar 2003-yilda boshlangan. Chegara belgilarini o‘rnatish bo‘yicha ishlar 2004-yildan 2021-yilgacha davom etgan. O‘tgan 19 yil davomida Qozog‘iston-O‘zbekiston qo‘shma demarkatsiya komissiyasining 100 ta yig‘ilishi va demarkatsiya bo‘yicha qo‘shma ishchi guruhining 34 ta yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan.

“2022-yil 22-dekabr kuni ikki davlat prezidentlari tomonidan Qozog‘iston-O‘zbekiston davlat chegarasini demarkatsiya qilish to‘g‘risidagi bitim imzolanishi bilan O‘zbekiston bilan chegarani qonuniy rasmiylashtirish jarayoni yakunlandi. Chegarani demarkatsiya qilish 2001 va 2022-yillardagi Qozog‘iston-O‘zbekiston davlat chegarasi to‘g‘risidagi kelishuvlar asosida amalga oshirildi”, — deb tushuntirdi Qozog‘iston tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari Roman Vasilenko.

Keyingi 19 yil ichida demarkatsiya bilan bog‘liq jarayonlar davomida chegara chizig‘i o‘tadigan nuqtalarga aniqlik kiritildi. Bunda har ikki tomonning mahalliy aholisi manfaatlari va chegarani qo‘riqlashning qulayligi inobatga olindi. Shu tariqa chegara chizig‘i 5 kilometrga uzaytirildi. Aniqroq aytganda, butun chegara uzunligi 2 356 kilometr 666 metrni tashkil etdi. Chegara chizig‘iga 1301 ta chegara belgilarini o‘rnatilgan. Tomonlar tomonidan jami 1672 ta chegara postlari o‘rnatildi, jumladan, asosiylari – 868 ta, shundan Qozog‘iston tomoni – 437 ta, O‘zbekiston tomoni – 431 ta; oraliq chegara ustunlari – 804 ta, shundan Qozog‘iston tomoni – 428 ta, O‘zbekiston tomoni – 376 ta.

Qozog‘istonning Qizilo‘rda va O‘zbekistonning Uchquduq shaharlari o‘rtasida 280 kilometrlik yangi magistral yo‘l qurilishi rejalashtirilmoqda - deya xabar berdi LS nashri. 2022-yil dekabr oyida ikki davlat vakillari Qizilo‘rda-Uchquduq avtomobil va temir yo‘l qurilishi rejasini imzolagan. Magistral yo‘lning umumiy uzunligi 280 km ni tashkil etib, uning 140 kilometri Qozog‘iston hududidan o‘tishi kutilmoqda.

2024 – 2025 yillarda yo‘lning texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish, 2025 yildan esa ikki-uch yil ichida yo‘l qurilishini boshlash

rejalashtirilgan. Avtomobil yo‘li qurilishining smeta qiymati 75 mlrd tengge (173 mlr dollar), jumladan, nazorat-o‘tkazish punkti qurilishi uchun 5 mlrd tengeni tashkil etadi. Mazkur yo‘lning Markaziy Osiyo davlatlarini Qozog‘istonning janubiy, markaziy va shimoliy hududlari orqali Rossiya bilan birlashtirishi kutilmoqda. Yo‘l Qizilo‘rda — Jezqazg‘on — Pavlodar — Rossiya chegarasi xalqaro koridorining bir qismi bo‘ladi. Shuningdek, 115 km uzunlikdagi O‘zbekiston temir yo‘l liniyalariga chiqadigan Darbaza — Maqtaral temir yo‘l liniyas qurilishi ham ishlab chiqilmoqda. Davlat rejasida mazkur loyihaga 161,8 mlrd tengge mablag‘ ajratish ko‘zda tutilgan.

1991-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning Qozog‘istonga 25 ta tashrifi amalga oshirilgan va Qozog‘iston Prezidenti O‘zbekistonga 7 marotaba tashrif buyurgan. Ikki mamlakat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarlik davrida yangi bosqichga ko‘tarildi. Keyingi olti yilda hamkorlikning barcha yo‘nalishlarida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilgani ta’kidlandi. Ikki mamlakat hukumatlari, vazirlik va idoralari, hududlari o‘rtasidagi muloqotlar muntazamlik kasb etgan. Mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan yuzasidan, Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyotini ta’minlash masalalarida yakdil hamkorlik mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inatov M.N., Xolnazarova L.S., Maxammadiyeva S.I. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanidan o‘quv - uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, ToshDTU, 2021.
2. Yusupova E.F. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” elektron darslik, Toshkent, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” markazi, 2021.
3. president.uz
4. gov.uz

O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN TASHQI SIYOSATDAGI MINTAQAVIY HAMKORLIGI AHAMIYATI

G'ofurov H.X.,
(Toshkent amaliy fanlar unversiteti)

Bugungi kunda xalqaro maydonda globallashuv bilan bir qatorda mintaqaviylashuv jarayoni ro'y bermoqda. Ma'lumki, mintaqaviylashuv muayyan mintaqaning koordinatsiya (mintaqaviy hamkorlik) va subordinatsiya (integratsiya) asosida yaqinlashuvini nazarda tutadi. Koordinatsiya o'zaro mintaqaviy hamkorlik asosida davlatlarning bir birlari bilan aloqalarni amalga oshirilishini nazarda tutsa, subordinatsiya muayyan organning integratsiyaga a'zo bo'lgan davlatlardan yuqorida turishini anglatadi.

Ta'kidlash joizki, xalqaro tajribada davlatlar mintaqaviy integratsiyaga kirishishdan oldin mintaqaviy hamkorlik asosida o'zaro munosabatlarini mustahkamlaganini kuzatish mumkin. Bu borada Yevropa Ittifoqi, ASEAN (Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi), Arab Davlatlari Ligasi, Afrika Ittifoqi kabi integratsion birlashmalarni misol qilib keltirish mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlari ham mustaqillikdan keyin o'zlarining integratsion tuzilmalarini tuzishga uringanliklari, bunday tashkilotlarni o'zaro ishonch va bag'rikenglik tamoyillariga asoslanganini ko'rish mumkin. Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi haqida so'z borar ekan, bu borada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlari katta amaliy ahamiyatga ega: "Mintaqada tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi va ichki xatarlarning yoyilishiga yo'l qo'ymaslik, ularning oldini olish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlarining sa'y-harakatlari, salohiyat va imkoniyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish, o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi" [1, 89-bet.].

Bu borada Markaziy Osiyo davlatlari quyidagicha integratsiya dinamikasini o'z boshidan kechirganini kuzatish ahamiyatlidir.

O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalari o'rtasida 1994-yil aprel oyida yagona iqtisodiy hududni barpo etish to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi mintaqada o'zaro hamkorlik va integratsion jarayonlarni rivojlantirish borasida qo'yilgan dastlabki jiddiy qadamlar edi.

Bu shartnomani imzolashdan asosiy maqsad tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining mintaqa bo‘ylab erkin harakatini ta’minlash, kelishilgan soliq, budjet, narx, bojxona va valyuta siyosatini yuritishdan iborat edi [2, 276-b].

Shu yilning o‘zida ushbu “uchlik” davlatlari Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo‘stligi tashkilotiga asos soldilar. Bu tashkilot doirasidagi masalalarni hal etish uchun Davlatlararo Kengash, Bosh vazirlar, tashqi ishlar vazirlari, mudofaa vazirlari kengashi, tashkilotning ishchi organi – Ijroiya qo‘mita kabi institutsional tuzilmalar tashkil etildi. Bundan tashqari a‘zo davlatlarning ulushlari hisobiga Markaziy Osiyo banki tashkil etildi [3, 87-b].

Qozog‘iston, O‘zbekiston va Qirg‘iziston Respublikalari 1998-yil 17-martda Sirdaryo havzasining suv-energetika resurslaridan foydalanish to‘g‘risidagi uzoq muddatli shartnomani imzoladilar. Bir yildan so‘ng bu shartnomaga Tojikiston ham qo‘shildi va 1998-yil 26-martda mazkur respublika ham yagona iqtisodiy hudud to‘g‘risidagi shartnomaning to‘laqonli a‘zosiga aylandi.

Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo‘stligi tashkilotiga a‘zo davlatlar boshliqlari 1999-yilning iyun oyida Bishkekda bojxona ittifoqini tuzish to‘g‘risidagi fikrlarni ilgari surdilar. Bir yildan so‘ng esa Dushanbe shahrida “Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo‘stligining 2005-yilgacha mo‘ljallangan integratsion rivojlanish strategiyasi”ni tasdiqladilar. Ushbu hujjatda iqtisodiy hamkorlikka a‘zo davlatlar integratsiyalashuvi jarayoni har bir davlatning hayotiy muhim manfaatlaridan kelib chiqadiga obyektiv jarayon ekanligi alohida ta’kidlandi.

Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlarning 2001-yil 28-dekabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan uchrashuvi chog‘ida mintaqaviy integratsiya shakllari va mexanizmlarini takomillashtirish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha birgalikdagi harakatlarini muvofiqlashtirish maqsadida Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo‘stligini “Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti”ga aylantirish to‘g‘risida qaror qabul qildilar. Almati shahrida 2002-yil 28-fevralda bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston rahbarlari “Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti”ni tashkil

qilish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Bu uchrashuv chog'ida tashkilot faoliyatini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan bu tashkilot doirasida qabul qilingan hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va ayni paytda harakatda bo'lmagan hujjatlarni bekor qilish taklifi ilgari surildi. Bu davrga kelib tashkilot doirasida 243 ta hujjat imzolangan edi.

Shunday qilib MOHT keng ko'lamdagi masalalarni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'lgan mintaqaviy integratsion tashkilotga aylandi. Buning isboti sifatida 2002-yilning 5-6-oktabr kunlarida Dushanbeda bo'lib o'tgan MOHTga a'zo mamlakatlar rahbarlarining uchrashuvini keltirishimiz mumkin. Uchrashuv chog'ida mintaqaviy integratsiya masalalaridan tashqari, Afg'oniston bilan bog'liq muammolar ham ko'rib chiqildi. Bu uchrashuv davomida Orol bo'yidagi ekologik holat chuqur o'rganib chiqildi hamda "Orolni qutqarish xalqaro fondi" faoliyati tahlil qilindi.

2005-yil 6-7-oktabr kunlari Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo tashkiloti Davlat Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati rahbarlarining kengashida o'tgan davrda qilingan ishlar sarhisob qilindi. Kengashda Markaziy Osiyo umumiy bozorini barpo etish konsepsiyasi tasdiqlandi. MOHning bu galgi sammiti Yevroosiyoda integratsiyalashuv jarayonidagi burilish nuqtasi bo'ldi. O'zbekiston rahbarining tashabbusi bilan MOH va Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati negizida yangi YOIHni shakllantirishga qaror qilindi. Negaki, bu ikki tashkilotning maqsad va vazifalari deyarli farq qilmas edi. Ikki tashkilotning qo'shilishi natijasida yirik jo'g'rofiy makonda yanada faol yangi integratsiya uchun keng yo'l ochildi. YOIH Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida 1995-yilda tuzilgan Bojxona ittifoqi negizida tashkil topgan edi. YOIHning 2006-yil 24-25-yanvar kunlari Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan sammitida O'zbekiston unga a'zo bo'lib kirdi. Mazkur sammitda O'zbekistonning YOIHni ta'sis etish to'g'risidagi shartnomaga qo'shilishi to'g'risidagi protokol, "YOIHni ta'sis etish to'g'risidagi shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarorlar imzolandi. YOIH tashkiloti unga a'zo mamlakatlar o'rtasida integratsiyani rivojlantirishga, yagona umumiy bozorning shakllanishiga, Bojxona

ittifoqiga, erkin savdo zonasining tashkil topishiga ko‘maklashadi. Lekin O‘zbekiston iqtisodiy manfaatlariga zid bo‘lganligi uchun Respublikamiz 2008-yilda bu tashkilotdan chiqqan edi. Hozirda bu tashkilot Markaziy Osiyodan faqatgina ikki davlat (Qozog‘iston va Qirg‘iziston) va Rossiya, Belarus, Armaniston davlatlaridan iborat.

Muxtasar qilib aytganda, Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgandan keyin o‘zaro integratsion birlashma tuzishga urinib ko‘rdilar. Bunday integratsion birlashmalarning o‘zaro tenglik va tolerantlik tamoyillarga asoslangan bo‘lishiga qaramasdan kutilganidek samara bermadi. Bu bir necha sabablar oqibatida tadrijiy o‘shishga erisha olmasdan qoldi:

Birinchidan, mintaqa davlatlari integratsion birlashma tuzishni dinamikasini juda ham tezlashtirib yubordilar. Ular jahon tajribasida sinalgan avval koordinatsiya, keyin esa subordinatsiya usulidan foydalanmadilar. Masalan, Yevropa Ittifoqi yarim asr davomida erishgan yutuqlarga Markaziy Osiyo davlatlari 10-15 yilda erishishga urindilar.

Ikkinchidan, mustaqillikdan keyin deyarli bir xil salohiyatga, bir xil imkoniyatga ega bo‘lgan mintaqa davlatlari keyingi davr mobaynida turli xil rivojlanish yo‘llarini boshlaridan kechirdilar. Masalan, Qozog‘iston xalqaro yordamlar va kreditlar evaziga juda tez rivojlanish yo‘lini tanlab, mintaqada iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha boshqa davlatlardan ancha ilgari ketdi. O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishning tadrijiy yo‘lini tanladi va bosqichma bosqich rivojlanib bordi. Tojikistondagi barqarorlikka esa fuqarolar urushi to‘g‘anoq bo‘lgan bo‘lsa, Qirg‘iziston “demokratik o‘zgarishlar” ta’siriga tushib qoldi. Turkmaniston esa integratsion jarayonlarga umuman qo‘shilmadi va neytrallik yo‘lini tanladi. Shu jihatdan bu davlatlar manfaatlarini mutanosiblik xarakteriga ega bo‘lmadi va oqibatda integratsiya jarayoni to‘xtab qoldi.

Oxirgi bir necha yillar mobaynida mintaqa davlatlari yana qaytadan o‘zaro hamkorlikka kirishishni boshlab yubordilar. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuskor bo‘lmoqda. Sh.Mirziyoyev hali Prezident etib saylanmasdan oldin, ya’ni 2016-yil 8-sentabrda Oliy Majlis palatalarini qo‘shma yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini vaqtincha bajaruvchi lavozimga kirishar ekan,

Markaziy Osiyo haqida quyidagicha fikr bildirgan edi: “Mamlakatimizning milliy manfaatlarni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo mintaqasi O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Biz o‘zimizning yaqin qo‘shnilarmiz Turkmaniston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston bilan ochiq, do‘stona va pragmatik siyosat olib borishga sodiq qolamiz”[4, 17-b].

Shu jihatdan olib qaraganda, O‘zbekiston rahbari o‘tgan yillar mobaynida barcha Markaziy Osiyo davlatlariga davlat tashrifi bilan tashrif buyurdi va mintaqada o‘ziga xos muhit yaralishiga sababchi bo‘ldi. Shu boisdan mamlakatimiz tashabbus bilan 2017-yil 11-avgust kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo — O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi” mavzuidagi xalqaro konferensiyada mintaqaviy ahamiyatga molik eng muhim masalalar yuzasidan O‘zbekiston va unga qo‘shni davlatlarning zamonaviy mintaqaviy siyosati, nuqtai nazar hamda yondashuvlarining turli qirralari batafsil muhokama etildi. Xalqaro miqyosda o‘tkazilgan bu yirik anjuman O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan Xalqaro munosabatlar axborot-tahlil markazi, BMT Taraqqiyot dasturining mamlakatimizdagi vakolatxonasi hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) loyihalari koordinatori ofisi bilan hamkorlikda tashkil etildi. Qayd etish lozimki, aynan shu anjuman keyinroq Samarqandda yirik xalqaro konferensiya o‘tkazilishiga sabab bo‘ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yilning 10-11-noyabr kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzuidagi xalqaro konferensiya hamda 2018-yilning 15-mart kuni Ostona Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Aynan shu uchrashuvlarning keyingi yillarda ham davom etdi va davlatlarining mintaqaviy hamkorligining rivojlanib borishiga asos bo‘ldi, deyish mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligidagi keyingi muhim qadam 2018 yilning 15-martida Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat

uchrashuvi bo‘ldi, deyish mumkin. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Samarqanddagi tashabbusiga ko‘ra joriy etilgan bunday uchrashuv N.Nazarboyevning taklifiga ko‘ra Qozog‘istonda bo‘lib o‘tdi [5, 18-b].

Ta’kidlash joizki, bu uchrashuvda quyidagi asosiy vazifalarni hal etish Markaziy Osiyo hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari sifatida mamlakatimiz tomonidan taklif etildi:

Birinchiidan, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash sohasida samarali mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish uchun yangi zaxira va amaliy mexanizmlarni izlash;

Ikkinchiidan, savdo-iqtisodiy, innovatsiya, investitsiya, transport-kommunikatsiya, bankmoliya, suv-energetika va madaniy-gumanitar sohalardagi sheriklik bo‘yicha aniq dasturlar — “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish;

Uchinchiidan, eng dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar bo‘yicha keng fikr almashish, ular bo‘yicha umumiy pozitsiyani kelishib olish hamda uni keyin BMT, MDH, SHHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ilgari surish.

Prezidentining «Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni loyihasida Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish vazifalari belgilanmoqda.

Davlatimiz rahbari farmoni loyihasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan oliy darajadagi muloqot va ikki tomonlama hamkorlikning barcha formatdagi mexanizmlari asosida (hukumatlararo komissiyalar, siyosiy maslahatlashuvlar, hokimlar uchrashuvlari, parlamentlararo hamkorlik komissiyasi va boshqalar) yig‘ilishlarni tashkil etish vazifalari nazarda tutilmoqda.

Hujjatda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari har yili muntazam ravishda tashkil qilinishini ta’minlash va ularda faol ishtirok etish, Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish ishlarini boshlash qayd etilgan.

Loyihaga ko‘ra, mintaqaviy tashkilotlar doirasida O‘zbekistonning milliy manfaatlari faol ilgari suriladi.

O‘zbekiston Respublikasining chegaraoldi nazorat-o‘tkazish punktlarini rekonstruksiya qilish va kengaytirish orqali ularning o‘tkazuvchanligini oshiriladi.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyoda ekologiya, atrof-muhitning ifloslanishi va tabiatni muhofaza qilish borasida o‘zaro hamkorlik yangi bosqichga olib chiqiladi.

Farmon loyihasiga ko‘ra, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari muzeylari hamda arxivlari o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, ikki mamlakat tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi kataloglarni birgalikda nashr etish rejalashtirilmoqda.

Turizm sohasida yangi voqelik va epidemiologik talablarni hisobga olgan holda muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar qabul qilinadi.

Loyihada ilgari surilayotgan vazifalar ichida Markaziy Osiyo davlatlarida O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi muxbirlik punktlarini ochish masalalari ham o‘rin olgan[6, 8-b].

Ushbu bandda, shuningdek, O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi (YEI) institutlari bilan savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik shakllarini qo‘llab-quvvatlash maqsadlari ilgari surilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro mintaqaviy hamkorlik va integratsiyani amalga oshirishning o‘ziga xos yo‘lidan bordilar. Bu o‘ziga xoslik mustaqillikdan keyinoq Markaziy Osiyo davlatlari koordinatsiya yo‘lini to‘liq bosib o‘tmasdan subordinatsiya holatiga o‘tib ketishida namoyon bo‘ldi. Oqibatda yana bir necha omillar bilan bog‘liq holda o‘zaro integratsiya jarayonlari to‘xtab qoldi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashqi siyosatdagi tashabbuslari, ayniqsa, O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qayd etishi natijasida Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligida yangi bosqich boshlandi. Bu bosqich har qanday subordinatsiyadan holi bo‘lgan, faqatgina o‘zaro hamkorlik va koordinatsiyaga asoslanuvchi jarayonlarni qamrab olmoqda. Shu o‘rinda bir biriga turtki bo‘lgan yirik anjumanlarning o‘tkazilganligi yanada dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. J. 9. –T.: O‘zbekiston, 2001. – B. 89.
2. Qamariddin Usmonov. O‘zbekiston tarixi: milliy istiqloq davri. –T.: O‘qituvchi, 2007. – B. 276.
3. To‘xliyev N., Haqberdiyev Q. “O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari”. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi asoslari” nashriyoti, 2006. – B. 87.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.1 –T.: O‘zbekiston, 2018 – B. 17.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni, 8-bet.

MUNDARIJA

3

Kirish soʻzi

YALPI MAJLIS MAʼRUZALARI

1. *Joʻrayev S.A.* Mintaqaviy xavfsizlikni taʼminlashda SHHT roli
2. *Абдуллаев P.M.* Историческая наука в странах Центральной Азии и проблемы национальной безопасности
3. *Sirojov O.O.* Global tartibotlar transformatsiyasi sharoitida Turkiy davlatlar tashkilotining Markaziy Osiyoga taʼsiri: mavhimlik va istiqbol
4. *Mirzayev Gʻ. R.* Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorligining bugungi holatiga doir
5. *Nigmanov E.A.,
Shavkatova D.* Oʻzbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasida bojxona sohasida oldindan axborot almashinuvidagi ayrim masalalar
6. *Sattorov A.A.* Markaziy Osiyo mintaqaviy energetika manbalarining muhim tarmoqlari va unimli foydalanish samaralari

KONFERENSIYA MATERIALLARI

7. *Abdullayev D.N.* Oʻzbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligining muhim omil xususida
8. *Адыгезалов A.H.* Шавкат Мирзиёев инициатор стабильности и безопасности в Центральной Азии
9. *Haydarov A.U.* Markaziy Osiyo va jahondagi harbiy-siyosiy masalalar tahlili
10. *Mansurov M.M.* Markaziy Osiyo mintaqasida “Boshqariladigan Хаос” konsepsiyasi asosida “Rangli inqiloblar”ni keltirib chiqaruvchi omillar
11. *Назирова M.M.* Геоэкономические интересы КНР в Центральной Азии
12. *Rashidov R.R.* Afgʻonistonda Jamoat xavfsizligini taʼminlashga masʼul davlat tuzilmalari faoliyatiga nazar
13. *Rasulova N.S.* Markaziy Osiyo mamlakatlari siyosiy partiyalari mafkurasida sotsial-demokratiya gʻoyalarining oʻrni
14. *Sattorov A.A.,
Karimov R.* Markaziy Osiyo davlatlarida geosiyosiy jarayonlarning harbiy xavfsizlikni taʼminlashga taʼsiri
15. *Tolipov A.A.* Yangi Oʻzbekiston tashqi siyosatining xalqaro hamjamiyat tomonidan eʼtirof etilishi
16. *Turayeva S. R.* Markaziy Osiyo davlatlarining jahon togʻ-kon sanoatidagi oʻrni
17. *Xaknazarov X.D.* Markaziy Osiyo yoshlari madaniyatining etnosotsiologik tahlili

18. *Xotamov Sh.N.* Yangi integratsiya sharoitida O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligi va xavfsizligi
19. *Xudoyqulov Y.A.* O‘zbekiston va Markaziy Osiyo: mintaqaviy hamkorlikning strategik yo‘nalishlari
20. *Xursandov A.S.* O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligining yangi bosqichi
21. *Sherov M.B.* Mintaqada siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda SHHT ning o‘rni va ahamiyati
22. *Yuldashov I., Karimov O‘.O‘.* Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta‘minlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni

TADQIQOTCHILAR, KURSANTLAR VA TALABALAR

23. *Abdug‘aniyeva G.A.* O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida davlatlararo harbiy tashishlarni tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma xususida
24. *Bozorov X.T.* O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan madaniy hamkorligi
25. *Dusbekova X.* Markaziy Osiyo davlatlarida mehnat muhojirligining zamonaviy masalalari
26. *Karimova G.* Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligini ta‘minlashda islom dinining ahamiyati
27. *Kurbanov E.E.* Maslahat uchrashuvi: barqaror va birdamlik sari
28. *Meliyev N.I.* Afg‘oniston – Markaziy Osiyo hamkorligining o‘ziga xos jihatlari
29. *Nurmetov Sh.M.* Markaziy Osiyoda harbiy va jamoat xavfsizligini ta‘minlashda O‘zbekistonning o‘rni
30. *Sattorov A.A.* Markaziy Osiyo mintaqasidagi diniy sektalarning buzg‘unchi g‘oyalariga qarshi kurashda milliy ma‘naviy merosning o‘rni
31. *Shavkatov Sh.Sh.* Markaziy Osiyo davlatlarining migratsion jarayonlarda ishtiroki
32. *Уткиров А.Ф.* Вопросы развития связей и сотрудничества Республики Узбекистан в Центрально-Азиатском регионе
33. *Xolmatov B.X.* O‘zbekiston – Qirg‘iziston davlatlararo hamkorlik aloqalarining istiqbollari
34. *G‘aniyev A.S.* O‘zbekiston – Qozog‘iston: o‘zaro do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va keng ko‘lamli hamkorlik masalalari
35. *G‘ofurov H.X.* O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi siyosatdagi mintaqaviy hamkorligi ahamiyati

**O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI
BILAN HAMKORLIGIDA XAVFSIZLIK VA BARQARORLIKNI
TA’MINLASHNING DOLZARB MASALALARI**

respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI

2023-yil 26-may, Toshkent

Texnik muharrir: Murakayeva Z.I.

Bosishga ruxsat etildi: 23.05.2023. Buyurtma: № 24. Format 60x90/16.

Times New Roman garniturasida bilan raqamli bosma usulida bosildi.

Hajmi 30,25 b.t. Adadi: 5 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi